TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ZAMONIDAN O‘ZGANLAR

57

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ZAMONIDAN O‘ZGANLAR

57

1619320
TDIU
ARM

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)
Z 30

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Tohir QAHHOR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.


Mazkur keng ko'lamli, salvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-4-7

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

MAHSATIY GANJAVIY



MAHSATIY GANJAVIY

(1098–1188)

Asli ismi Manisa xotin, taxallusi Mahsatiy bo'lgan shoira Ganja adabiy maktabiga mansub. U bir muddat (20 yilga yaqin) Xuroson va Movarounnahrda yashagan va Ganjaga qaytib shu yerda vafot etgan. Shoira hayoti haqida ma'lumot bergan Hamdulloh Qazviniy, Amir Ahmad Roziy, Davlatshoh Saṃarqandiy, Lutfalibek Ozarning tazkira va tarixlarida munozarali ma'lumotlar uchraydi. Shoiraning bolalik chog'laridan ud, chang, qaval (kamonga o'xshash cholg'u asbobi) kabi sozlar chalgani va raqsga tushib, axiylarning adabiy majlislarini bezagani tazkiralarda aytiladi. Chunki axiylik tariqatida musiqa alohida o'ringa ega edi. Ruboiylarida xarobot so'zi ko'p qo'llanilganidan, shoiraning yoshlikda xarobot oshig'i bo'lgani haqida mutaxassislarning kuzatishlari ma'lum. Mahsatiy Ganja hukmdori Mahmud ibn Muhammad ibn Malikshoh saroyiga taklif etilgan.

1126-yili shoir Tojiddin Amir Ahmad ibn Xatib Ganjaviyga turmushga chiqqan. "Mahsatiy va Amir Ahmad" dostonida yozilishicha, har ikki shoirning xalq orasida chiqishlaridan norozi bo'lganlar, ularni Ganjadan chiqib ketishini talab etadilar va Movarounnahrga kelgan shoira Adib Sobir Termiziy bilan yaqin aloqada bo'lgan, saljuqli sultonlari davrasida e'tibor topgan. Xuroson hukmdori Sulton Sanjar uni o'z saroyiga taklif etgan. Sulton vafotidan so'ng (1155-yilda) Ganjaga qaytgan. Otabek hukmdorlaridan Muhammad Jahon Pahlavon Mahsatiyni (ayrim tarixchilarning fikriga ko'ra, Mahsatiy shaxmatni juda yaxshi o'ynagani uchun) saroyga taklif etadi va 1176-yildan u yana saroyda yashay boshlaydi (Nizomiy Ganjaviy shoiraning mana shu davrini qalamga olgan).

Mahsatiy "Devon" ini nashrga tayyorlagan, eronlik olim Shahob Tohiriy uning dastlabki nashriga 125, ikkinchi nashriga esa 199 asarini kiritgan. Shoira ijodida g'azal va qit'alar ham uchrab tursa-da, asosan, ruboiynavis sifatida shuhrat qozongan. Uning ayrim falsafiy to'rtliklari Umar Xayyom ruboiylari bilan qiyoslanadi. Adib Sobir Termiziyning shogirdi Muhammad Javhariy "Mahsatiy va Amir Ahmad" dostonini (XIII), olmon olimi Frits Mayer "Go'zal Mahsatiy" (Die shone Mahsati, 1967) asarini yozgan.

Jannat Nag'iyeva,
filologiya fanlari doktori

RUBOIYLAR

Mard o‘l, gar jo‘mardlik sen uchun shior,
Boshim silamoqlik nahot senga or?
Zar berar bo‘samga dunyo shohlari,
Zorsiz sen bir o‘pich olmassan, ey yor!

* * *

Nomurod ayladi meni bu zamon,
Qo‘lidan kelgani — zahmat-u ziyon,
Tilaging shu ersa chirpirat meni,
Toshingday aylantir ey, charxi davron!

* * *

Yurak yaratilgan qayg‘u va darddan,
O‘z o‘rning bo‘lmasa qo‘l yuv hayotdan.
Bu dunyo haylovot karvonsaroydir
Ki, qora pulga ham arzimas, zotan!

* * *

Qalbiga ishq so‘zin yozdi qay odam,
Puch bilmas umrida biror lahza ham.
Hamdam izladik biz umrimiz bo‘yi,
Yoniq nafasimiz bizlarga hamdam.

* * *

Sevgi minbariga chiqdik qachon biz,
Ishqdan o‘zga kalom demadik hargiz.
Bizning bu manzilga qadam bosmasin
Ishq ichra yonmagan, muz kabi hissiz.

* * *

Oshiqlar uyining darvozasi, bil
Ko‘pdan beri bo‘lmish bizim bu manzil.
Mevamiz qayg‘udir, behushlik mudom,
Shodlik bu xonaning mehmoni degil.

* * *

Birovlarga kuning qolsa bu — yomon,
Qurigan shox soya solibdi qachon?
Sabr — aziz aylar, tama’ etar xor,
Tansiq narsalarga qanoat darkor!

* * *

Ishq gavhari — la’li a’lodan boshqa,
Oshiqlar yurti — bu ma’vodan boshqa.
Sevgi donin tergan qushning uyasi
Bir yerdir bu ikki dunyodan boshqa.

* * *

Jonga oro kirmas bu pul — bevafo,
Barchani supurgay ajal berizo.
Xarobatdan chiqib bir pir so‘yladi:
“Shod yasha, tuproqda yotgung benavo!”

* * *

Dod yurak dastidan, ishq dastidan dod,
Bir savdoga tushdim men ham umrbod.
Bu oh-u zorimning sababkori — qalb,
O‘lguncha qilarman ishq dastidan dod.

* * *

G‘amingdan ko‘ngulda darmon qolmadi,
Bu yoshlik shavqiga poyon qolmadi.
Ishqing bir o‘limdir, bu xira nafas —
Tiriklik nomidan nishon qolmadi.

* * *

Gar haqning boshida bo‘lsang hamki toj,
Seni-da yig‘latar bir kun ehtiyoj.
Bil eling dardini, unga yaqin bo‘l,
Bir kuni o‘zing ham bo‘larsan muhtoj!

* * *

Bu havo, sahroni tut tutgan zarralar
Kayqubod, Faridun xoki muqarrar.
Dunyo ham falakning qo‘lidagi jom,
Qon to‘la piyola, desam, rost bo‘lar.

* * *

Oltin dedi: “Men ham kuningda kerak,
Tuz kabi muhtojdir menga har xo‘rak.
Meni o‘lik kabi tuproqqa ko‘mma,
Hayot uchun men ham eng yaqin ko‘mak”.

* * *

Xilvat bir go‘shada, qo‘lida boda
Sarxush chol yig‘laydi, keladi doda:
Tavbadan tondi kim, yo rab, men kabi,
Shafqating sen darig‘ tutma dunyoda!

* * *

Purxun ko‘zlarimdan oqqan jolalar
Xanjardan silqigan qizil qon qadar
Bag‘rim kabob bo‘ldi — xundur selobi,
Kabobdan qon seli tommasmi magar?

* * *

Hunarning safosi achchiqdir mudom,
Hunar suvin ichmas har qanday odam.
Tuban kimsalarning jaholat fe’li
Hunarni shamolga sovurgay tamom.

* * *

Besh kunlik bu hayot — tansiq bir qismat,
O‘z qalbing sozi-la ayla xush suhbat.
Hamnafas izlama, uzlatga chekil,
Hamnafas oynani zanglatar faqat!

* * *

Men sahro ko‘ksida ko‘kargan giyoh,
Na qatra suv-u, na toleyim panoh!
Ming karra yaxshidir oltin jom aro
Kesilgan bir boshim bu kundan, ey voh!

* * *

Ko‘ngli egrilardan, bukrilardan dod,
Nomard erkaklardan yaxshiroq arvod[1].
Bevafo do‘stlardan dushman a’lodir,
Beburd do‘st uyidan oyog‘ingni tort!

* * *

Sham yonar boshidan, ko‘z yoshi to‘kar,
So‘xtasin darchadan birov irg‘itar
Boshing-la maqtanma, shamdan saboq ol:
Mahv o‘lar boshidan oyoqqa qadar.

* * *

Ne bois jismingni yondirdilar, sham,
Yo‘ldan ozdirdilar bunda bir oqshom?
Sen o‘zing so‘ylagil, naylasin agar
Kuyib kul bo‘lmoq-chun yaralsa odam?

* * *

Seniki bo‘lsa Chin, Misr-u Rumo ham,
Bilki, sening bo‘lur butun dunyo ham.
Imoning pok saqla, o‘n arshin kafan,
Uch arshin yer oxir qismating, odam!

[1] **Arvod** — xotin.

* * *

Bulut chaqmog‘ida ko‘rurman seni,
Quyosh quchog‘ida ko‘rurman seni,
Suvga g‘arq bo‘lmassan yashab, ajabo
Ko‘zim qarog‘ida ko‘rurman seni!

* * *

G‘am-u ishqing bila jahona keldim,
Jonimi ishqingga qurbona keldim.
Bu ko‘nglum ishq-u g‘am makonidir, yor,
Darding cheka-cheka men jona keldim!

* * *

Ey do‘st, muhabbating — jonima tuzoq.
Sening bir visoling — ming bir ishtiyoq.
Aql-u qarorimni olmish nozlaring,
Sabr deganlari ko‘ngildan uzoq.

* * *

Xarobatdan chiqib bir oy yuksaldi,
Falak peshtoqida bir o‘tov soldi.
Banogoh Hatifdan taraldi sado:
“Somon poyasicha emas bu dunyo!”

* * *

Xarobatga ko‘ngling bo‘lmasa, kirma,
Darveshlik tariqin bilmasang, kirma.
Boshidan o‘tganning yo‘lidir bu ko‘y,
Bu yo‘lda jon qurbon qilmasang, kirma!

* * *

Xarobat — manzili jo‘mard erlarning,
Bunda o‘rni yo‘qdir badkirdorlarning!
Ixlos-la qadam qo‘y bu joyga, bilki
Haddi yo‘qdir bunda hiylakorlarning!

* * *

Ey, sen ishvalari go‘zaldan go‘zal,
Noz etma, injima, rahm et loaqal!
Ey, sen qoshlariday va’dasi egri,
Ehson de bu jomni to‘kmagil bir gal!

* * *

Ko‘zimdan sochildi qatra-qatra qon,
Ko‘klarga sovurdim tuproqni, inon.
Kimning duosi bu, bilmasman, ey do‘st,
Ki, daryo g‘amingdan tirik qoldi jon.

* * *

Iqbol kelib bu kun koshonamizga,
Dunyo, qulingman, deb kiradi so‘zga.
Davlatki, dononi izlab kelibdi,
Kulib boqar endi tole ham bizga!

* * *

Aqd-u band etilsa er bilan xotin,
Shariat ishi der, yo‘l beradi din.
Nikoh etilganman ruboiyga men,
Bormi bu nikohni qo‘llovchi oyin?

* * *

Yonar tosh bo‘lsang-da, ey soqiy magar,
Ajal yomg‘irlari bir kun so‘ndirar.
Bu dunyo — bir kaft xok, mutrib, g‘azal ayt,
Soqiy, davra aylan, boda sun, yetar!

* * *

Sen but esang — menga butparastlik xush,
Jomingdan may tutsang — menga mastlik xush,
El ichra yo‘q bo‘ldum ishqingda sening,
Bu yo‘qliq borliqdan erur asli xush!

* * *

G‘amga do‘st ayladi jamoling meni,
Oltinday sarg‘aytdi xayoling meni.
Sen birla men sharob icharman, toki
Abadiy mast etar visoling meni.

* * *

Har kecha sevgilim, qo‘limda qadah
Ko‘changda kezarman toki sahargoh.
Ko‘zim yoshi bila to‘ldi-da qadah,
Xushdan ketdim, chil-chil sindi banogoh!

* * *

Derdimki, maslahat ber bizga yurak.
Shirin maydan ichsak, achchiqdan ichsak?
Dedi: talxidan ich, yo‘qsa Shiringa
Oshiq bo‘lolmassan hargiz Farhoddak!

* * *

Otingni sotmoq-chun tablaga kirding,
Oltin havosida uni yitirding,
Sot, puling sarf ayla majlisga yana,
Afsus chekma, deya zarar keltirdim!

* * *

Qo‘limda tilla-yu oltinday yuzim,
Xarobatga kirdim dovlanib o‘zim.
Ostonada quvdi meni mug‘bacha,
Bu xo‘rlikka qanday topayin to‘zim?

* * *

Senga jon bag‘ishlay gul dudog‘imdan,
Qora zulflarimdan, ol yonog‘imdan.
Shod-xandon, mastona raqsga tushay
Chang chalib shod etay visol bog‘ida.

* * *

Men g‘uncha tariqli muattar gulman,
G‘amlaringni chekkan shaydo bulbulman.
Shohlarning qo‘liga qo‘ngan qarchig‘ay
To‘ringga tushibdur, sitam qilma san!

* * *

Oy-u Zuhromudir yuzing va ko‘zing,
Yusuf chohi erur xol birla yuzing.
Sen bug‘doy, men somonpoyadek sariq,
Somonsiz bug‘doy hech ko‘rdingmi o‘zing!

* * *

Dudog‘ing-la meni asir qil, jonon,
Makka toshiga elt, aylagil qurbon.
Gunohim bor esa, qo‘y, zindon o‘lsun —
Mendek gunohkorga chohi zanahdon.

* * *

Menga oshiqliging haqiqat, ey yor,
Ko‘zlaring so‘zlaydi muhabbat, ey yor!
Bir yolg‘on gapirdim sho‘xlikka olib,
Na xushki, kechirding, bohimmat, ey yor!

* * *

Chohi zanahdoning zindonim mening,
Jamoling ka’badek makonim mening.
U kofar zulflaring gajimlari, yor,
Ko‘pdandir moyai imonim mening.

* * *

Zulflaring yuzingga qo‘ngan humodir,
Xarobat ahliga nur-u ziyodir.
Sharq quyoshin nuri, qopqalar ochiq,
Go‘zallar shohiga “Xush, marhabo” der.

* * *

Umring bu dunyoda abadiy bo‘lsin:
Umring saodatga, shodlikka to‘lsin.
So‘zlaringni yerda qoldirgan boshlar
Surohiy boshidek badansiz qolsin.

* * *

Yorning tomiriga shox qo‘ygan zamon
Hazir bo‘l, injitma, tabib, nogahon,
Axir yor qo‘liga urgan nishtaring
Bir uchi qalbimga sanchilar, ishon!

* * *

Sen ariq bo‘yida sarxush sahar payt,
Oy yuzli jononim, ey sarvi qomat!
Men ko‘za ko‘tarib kelurman bu yon,
Suv — asli bahona, diydor — g‘animat!

* * *

Bul kecha dilbarim mehmon nihoyat,
Yolg‘iz tushlaridan aylar shikoyat.
Ey, kecha, dard-qayg‘u bo‘lsang-da ketma,
Otma, tong, bo‘lsang-da baxt-u saodat!

* * *

Yorim barmog‘ida uzuk bo‘lsaydim,
Uning qo‘llarida koshki, yonsaydim.
Har gal yor kamondan o‘q otgan chog‘i
Gulday dudog‘idan o‘pich olsaydim...

* * *

Qumursqa bosadi sochilsa shakar,
Lolaga binafsha hamsoya o‘sar,
Kumush yuzlaringdan chiqib bir xanjar
Bu dunyo ahlining tinchini buzar.

* * *

Gul dedi: "Ochmadim qiyg'os g'unchalar,
Termadim saodat bog'idan samar.
Gulob qilmoq uchun meni uzgan qo'l
Bandimday kesilgay bir kun muqarrar!"

* * *

Yam-yashil chamanda tovlanadi gul,
Bulbul zavqi jo'shib aylar arzi dil.
Ajab, har ikkisi maftun, mahliyo:
Gul — qisqa umriga, toqlikka — bulbul!

* * *

Bir anor gulidek yonarsan, jonon,
Kuyarsan xaloyiq ko'zidan nihon.
Yaprog'u butog'ing yonar lovullab,
Bo'lmoqchisan kimning vasliga qurbon?

* * *

Yosuman havasing aylamish, go'zal,
Nozlaring ming fitna so'ylamish, go'zal.
Bir chashma ko'rdim men yo'ling ustida
Ko'zlarim yoshiday qaynamish go'zal.

* * *

Majlisning ko'rkidir gul bila chechak,
Gul — go'yo ko'ylagi to'zg'igan go'dak.
Ko'rdim: qizarmishdir hayoli g'uncha,
Lablarida dur-u gavhar tutgandak.

* * *

Shabnam sevinchiga xabarsan, ey, gul!
Bulbulga ilhomsan, hunarsan, ey gul!
Bu latif husning-la qo'rqaman, bir kun
Oyoqlarga sarxush tusharsan, ey, gul.

* * *

Gul yuzdan niqobing ol gul ayyomi,
To‘ldir gul faslida may bilan jomni.
Seningdek yor ila sabuhiy ichgan
Oshiqning gul chog‘i jo‘shar ilhomi.

* * *

Ko‘ngliga tegmagil bechora gulning,
Injitma dilini ovora gulning.
Saboning ishqida alvon ko‘ylagi
Bo‘lubdur, nachora, sadpora gulning!

* * *

Gulning rangi so‘lib, yo‘lga boqar zor,
Bulbul firog‘ida yoshi shashqator.
Ajab, ko‘rkin ochgan alvon libosi
Parcha-parcha to‘zib yerda yotar xor.

* * *

Lovullab yondi bog‘ tong kezi guldan,
Umrimiz bir ko‘ylak — qirmizi guldan.
To ajal shamoli yirtguncha uni
Gul ila bodani qo‘ymagil qo‘ldan.

* * *

Gul dedi: “Bo‘lsa gar bir sarviqomat,
Gulshanni jamoli qilgusi jannat”.
Nasim dashnom berdi: “Hamsoyang — tikan!
Go‘zallikka qo‘shni yashar qabohat”.

* * *

Yuzlaring sifati gulgun uzori,
Gulga bezak bo‘lsin sochlaring tori,
Bog‘ aylan, seningsiz gulda safo yo‘q,
Sarvning soyasida atir soch borib!

* * *

Gulning vatanidir chaman mudomo,
Ko‘ylagi yirtilmish etakkacha to.
Dedim: kim to‘zitdi sabr pardasin?
“Men” dedi shivirlab sahargi sabo.

* * *

Men ey, Xatib o‘g‘li, senga jononman,
Jonim bor ekan to sodiq insonman.
Yo‘lingda jonidan kechdi nechalar,
Ishqingda o‘lguncha yonaman, inon.

* * *

Ey, go‘zal, qo‘llaring tutganim zamon
Saodat mulkidir go‘yo bu jahon.
Kelgil, Xatib o‘g‘li, bu anjumanga,
Bir g‘azal so‘ylaki, orom olsin jon.

* * *

Senga yarashiqdir bu xush iltifot,
Yonimda o‘tirgil, ey, lutfi hurzot.
Ganja Xatibining xudpisand o‘g‘li
Tavba qil, zohidlik tariqini ot!

* * *

Uyg‘on, ikki yuzli ishvakor o‘g‘lon,
Lutf-u qiliqlari fitnakor o‘g‘lon.
Bergan va’dalaring uzum suvidek
Qadahdan to‘kmagil, ayla or, o‘g‘lon.

* * *

Tashnalab o‘ldim men, qaqradi ko‘zim,
Zolim o‘qlariga yo‘q tob-u to‘zim.
Ishqi olovinda suvday eridim,
G‘arq-u g‘arqob bo‘ldim selida o‘zim.

* * *

Visoling-la to‘lin kechalar ketdi,
Kiprikdan uzilib injular ketdi.
Dilimning rohati, munisam, har ne
Sen ketding, sening-la barobar ketdi!

* * *

Uyqu yo‘q seningsiz g‘arib kechalar,
Uyqusiz ko‘zimdan otash sochilar.
Zulfingdek to‘zg‘igay tushlarim mening
Banogoh ko‘zlarim ilinsa sahar.

* * *

May berki, bu falak g‘amlarga makon,
Ey yorim, jonimdan to‘ydirdi hijron.
Men kabi shodlikni sevganni nechun
Bodasiz, jononsiz xo‘rlaydi davron?

* * *

Ey, sabo, sasingga bo‘layin qurbon,
Malak avlodiga etsang-chi ayon:
Ko‘rdim, intizoring bo‘lib bechora
Mahsatiy yo‘l uzra bermoqdadir jon!

* * *

Yuragim yonadi tunlar beomon,
Oh-u fig‘onimdan yong‘inda jahon.
Ko‘nglimdan xabaring yo‘qdir, o‘ylasang
Qo‘rqasan, dilingga o‘t ketar, jonon!

* * *

Bir zahri botindir, kakradur firoq,
U jonni yoqquvchi shavq-u ishtiyoq.
O‘lim — jon xalosi, o‘limdan yomon —
Bu yorug‘ dunyoda yordan ayrilmoq.

* * *

Yorimdan ayirdi bu makkor falak,
Ko‘zim jolasiga do‘st qildi yurak.
Vasliga muyassar bo‘lmadim bir bor,
Ayriliq jafosi ayladi halak!

* * *

Ont ichayki, oftob jamoling haqi,
Anbar sochlaringning shamoli haqi,
Parishon ko‘nglimning chamanzorini
Har kecha sug‘orgay ko‘z yoshim oqib.

* * *

Qalbim oshiqlarning sardaftaridir,
Ishqing azobiga bir mushtariydir.
Toshdan ham qattiqsan bag‘ri toshlikda,
Jabringga dosh bermoq dil hunaridir.

* * *

Istadim: Ajamdan bir noma bitsam,
Qalbim qon bo‘ldi-yu bo‘g‘di meni g‘am.
Yuragim xuni-la bitdim xatimni,
Yig‘ladik ham maktub, ham men, ham qalam.

* * *

Dardnoq maktubimni olganingda, yor.
Bir kunda o‘qigil yuz bora takror.
O‘zing o‘g‘irlagan majruh yurakni
Joyiga qaytargil, lutf ayla, nigor!

* * *

Maktubim ivitdi ko‘zlarim nami,
Yonar qon rangida har bir raqami.
Qalam ham men kabi g‘amboda erdi,
Boshi-la yig‘lardi yozguncha g‘amni.

* * *

Sevgimni yozsam gar, ming yil yetmagay,
Ishqing hikoyati hargiz bitmagay!
Sig‘mas bu hikoyat qog‘oz-qalamga,
Ming noma bir suhbat o‘rnin tugmagay!

* * *

Ko‘rdim: Juma bozor yo‘lning roshida
Kaklik sayrar edi, burgut boshida.
Kakarlab derdiki: “Jafokor bir kun
Shunday o‘lim topar falak toshidan!”

* * *

Qassob sen, qurboning bo‘ldim-ku bu choq,
Dosh bergum suyakka yetsa-da pichoq.
Qassobning ishidir kesganni sotmoq,
Sen meni o‘ldirgil, sotmagil biroq!

* * *

Qachonki, novvoyga shogird o‘lmisham,
Har tong muazzindan avval yoqib sham,
O‘tdan, undan, suvdan oltin undirib,
Oqshom xarobotda tillo socharam!

* * *

Menga ataganin u novvoy dilbar
Qosh-u qovoq qilmas, noz ila tutar.
Xamirday iyladi ishqida meni,
Qo‘rqaman, non kabi kuymasam sahar...

* * *

Oy yuzlisan, ajab tikuvchi o‘g‘lon,
Senga yuz Mahsatiy chokardir, inon.
Har qatim tortganda shakkar labingga
Ipakday teginsam yo‘q edi armon.

* * *

Men qum elovchiga bo‘laman hayron,
Tilim lol, sirimni etgali bayon.
U-ku tuproq elab axtarar oltin,
Kaftimda tillo-yu uni izlayman.

* * *

Ey, shohi dilorom, yasha ming yillar,
Soyangda baxtiyor kun ko‘rsin ellar.
Har yil ming oy bo‘lsin, har oyda ming kun,
Har soat ming kunga bo‘lsin barobar.

* * *

Tulporing falakka urardi tuyoq,
Sendan judo qildi uni ham firoq.
Boshini kesdilar arg‘umog‘ingni,
Quyrig‘iga hech kim tegmadi biroq.

* * *

Ey, shohim, shohlardan a’lo-yu mumtoz,
Senga baxt dulduli — toledan niyoz.
Oltin tuyoqlari botmasin deya,
Tuproqqa kumushdan soldi poyondoz!

* * *

Shohning lashkariga filingdan qiron.
Vaziringga asir ming qaysar, hoqon.
Ruhingga sadag‘a bo‘lsin bu jonim,
Shohlarni taxtidan tushirdi, jonon!

* * *

Zulm-u riyo bo‘ldi ishing har qachon,
Javr-u jafolaring — oshiqqa ehson.
Ishqing garov tikib o‘ynasam agar,
Mot qilsam men seni injima, o‘g‘lon!

* * *

Rahm-u shafqatini ko‘p ko‘rdi qismat,
Qalbimga tig‘ urdi ishq-u muhabbat.
Ishqing bodasini ichdim, jon berdim,
Topmay ketdim sevgi gavharin faqat!

* * *

Emishki: pistaning og‘zi bo‘lar tor;
Sening qatoringda tursa — pista xor.
Pista dahoningga o‘xshayman desa,
Demak, adabsizdir, chaqib qo‘ygil, yor!

* * *

Miyonada bir kech tunab qoldik biz,
Pashshaga yem bo‘ldik, yumdirmadi ko‘z.
Dedik: kim qutqarar bizni bu darddan?
Tong yeli uyg‘onib: “Men” — dedi shu kez!

* * *

Ne-ne gunohlardan o‘tding, lutfkor,
Shundan qulliq sirg‘ang quloqlarda bor.
Karam qil, kechirgil xatosin, yo rab,
Qora kunda etma hech kimsani xor!

* * *

Oy yuzingga chimmat tutdi kim, go‘zal,
Lolaga yo qarg‘a soldimi changal?
Gulning tegrasini o‘radi tikan,
Qirmiz dudoqlaring so‘ldi bemahal!

* * *

Garchi xalq boshida bo‘lsang ham bir toj,
Kun kelib yig‘latar seni ehtiyoj.
Xalq dardi-la yasha, unga malham bo‘l,
Qo‘rqki, sen ham bir kun bo‘larsan muhtoj.

* * *

Mendan darig‘ tutdi huzurni zamon,
Azoblar komida saqlab beomon.
Ahdi shu ekan-da falak gardishin,
Meni charx urdirdi o‘zi-la chunon.

* * *

G‘urbatda o‘tsa-da hayotim g‘amgin,
Dushman joni halak holim bilmayin.
“Tulkilar ko‘rmasin arslon o‘limin” —
Deya o‘z-o‘zimga berurman taskin.

* * *

Shodlik otin sursang, ocharsan maydon,
Ta’bing sehri aylar odamni hayron.
Piyoda, ot, fil, rux, farzin surganda,
Usta, topqir bo‘lsang, yutarsan oson.

* * *

Sevgi yo‘lida jon qurbon etsang yaxshi!
Sevinmasa ko‘ngil, vayron etsang yaxshi!
Vasliga zarradek umid bo‘lmasa gar,
Jar solib olamga, afg‘on etsang yaxshi!

* * *

Sensiz nafasim ko‘ksima paykon bo‘lsin,
Sensiz yashasa qalb uyim, vayron bo‘lsin.
Dardingdan o‘zga bir his bo‘lsa ko‘nglimda,
Unga butun bu vujudim zindon bo‘lsin!

* * *

Fikri noqislar ham, bilki, bir saboq,
Nomard erkaklardan ayol yaxshiroq.
Bevafo do‘stlardan dushman afzaldir,
Beburd oshnolardan o‘zni tut yiroq.

* * *

Xizmatdan quvilmish bir kasdir yurak,
Pok noming bo‘lmasa, hayot ne kerak?
Bu dunyo baayni karvonsaroydir,
Ki, sariq chaqa ham turmasmish, beshak.

* * *

O‘zgadan hech zamon kutmagil ko‘mak,
Quruq butoq soya bermas, ey yurak.
Qanoat e’zozdir, g‘araz xor etar,
Taxchillik bor yerda qanoat kerak.

* * *

Bir sariq chaqa ham tilamay, inon,
Supurgay hammani ajal begumon!
Xarobotdan chiqib bir qariya der:
“Shod yasha, yotarsan yerda bearmon”.

* * *

Namli ko‘zlarimdan oqqan tomchilar,
Tig‘dan chak-chak tomgan ol qonga o‘xshar.
Qalbim kabob bo‘lib, tomar qonli suv,
Kabobdan qonli suv tommasmu magar?!

* * *

Biyobonda bitgan giyohman, ey moh,
Na tomchi suvim bor, na toleyim, oh!..
Nasihat besamar; oltin jom ichra,
Kesilgan bir boshning ne xayri, evoh!

* * *

Ko‘zlarimda bulut-la jang qilursan,
Ko‘zlarimda quyoshga intilursan.
Ko‘zim qarog‘ida bo‘lsang-da, nechun,
Ko‘zlarimda daryoga g‘arq bo‘lursan?

* * *

Kiprikda ol qonli yoshlardan marjon,
Ko‘klarga sovurdim tuproqni, inon.
Kimning duosidir, bilolmam, ey do‘st,
Ki, daryo g‘amingdan omon qoldi jon.

* * *

Shohlar sevinchidan xabarsan, ey gul!
Bulbulga ilhomsan, hunarsan, ey gul!
Chunon qo‘rqamanki, latif husning-la,
Mast-alast poyiga tusharsan, ey gul!

* * *

Og‘ritma ko‘nglini bechora gulning,
Ranjitma qalbini ovvora gulning.
Sabo ishqi ila bo‘lmishdir, ey do‘st,
Ul qonli ko‘ylagi sadpora gulning.

* * *

Gul yo‘lga tikilib, rangi so‘lmishdi,
Bulbul ishqi ila ko‘zi to‘lmishdi.
Boya suyib kiygan yashil libosin,
Pora-pora qilib, dalli bo‘lmishdi.

* * *

Qalbing to‘la kufr, yo‘q namoz, imon,
Zahar singsa jonga, bo‘larmi darmon?
Har yerda tanitding o‘zni zohiddek,
Nafsing chirkin bo‘lsa, xayri yo‘q, inon!

* * *

Bizni o‘q kuchi-la qo‘rqitmoq dushvor,
Na saqlar kadarli quruq to‘rt devor.
Zulflaring bo‘ynida zanjir kimsani,
Zanjirband aylamoq nechun, na darkor?

* * *

Senga ko‘ngil bog‘lab xo‘p xato etdim,
Mehr yo‘q ekan-ku, qalbim ranjitdim.
Ezildim, sen esa behad shod eding,
Alloh senga sendek yor bersin, ketdim!

* * *

Ey sarbon, safarga beribsan qaror,
Meni tashlab ketma, qolmadi mador.
Karvon tuyalarin yuki odatiy,
Olib ket, g‘am yukim og‘irdir bisyor.

* * *

Yo‘llarda tuproqday xor aylansang-da,
Yeldayin uchmoqqa goh shaylansang-da,
Obihayot tutsa senga olchoqlar —
Olma hech, chanqoqdan o‘lib-yonsang-da!

XOQONIY



SAN'ATDA BENAZIR, HIKMATDA BEQIYOS[1]

I

Ijodi Sharq mumtoz so'z san'atida alohida davrni tashkil etgan va asrlar davomida o'zidan keyingi qalam ahliga kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan san'atkor va mutafakkir shoir Afzaliddin Badil ibni Ali ibni Usmon Xoqoniy Haqoyiqiy 1126-yilda Shirvoniy Ozarbayjonning Shirvon shahrida tug'ilgan. "Otashkada", "Riyoz ul-orifin", "Majma' ul-fusaho", "Majolis ul-mo'minin", "Taroyiq ul-haqoyiq" kabi tazkiralarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uning ismi Ibrohim bo'lgan, lekin Afzaliddin laqabi bilan mashhur bo'lgan. Bu nom uning she'rlarida ham keladi.

Otasi Ali ibn Usmon duradgor bo'lgan. Onasi salib yurishlari davrida Rumdan Shirvonga kelib qolgan nasroniy kanizak ekanligi naql qilinadi. "Tuhfat ul-Iroqayn" qasidasida keltirilishicha, u

---

[1] Maqola quyidagi manbalar asosida yozildi: *Alisher Navoiy.* Muhokamat ul-lug'atayn \\ To'la asarlar to'plami, X jildlik. 10-jild. — Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2011, 529-bet; *Alisher Navoiy.* Nasoyim ul-muhabbat \\ To'la asarlar to'plami. 10-jild. 481–483-betlar; *Alisher Navoiy.* Mahbub ul-qulub \\ To'la asarlar to'plami, 9-jild, 464-bet; *Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy.* Nafahot ul-uns min hazarot-il-quds. — Dushanbe, 2013. Sah. 745–746; *Abdurahmon Jomiy.* Bahoriston. — Dushanbe: "Adib", 2014. Sah. 147–149; *Davlatshohi Samarqandiy.* Tazkiratu-sh-ushuaro Xujand: "Noshir", 2015. Sah. 91–95; Araslû N. Xakaniveya radûchûlûgû // *Xagani Shirvani.* Sechilmish eserleri. — Bakû, 1956, 5–11-betlar; Erkinov S. Alisher Navoiyning fors tilidagi qasidalari poetikasi (1-maqola) \\ "Adabiyot ko'zgusi" (Ilmiy to'plam). № 7. — Toshkent: "Xalq merosi", 2002, 8–16-betlar; *Erkinov S.* Alisher Navoiyning fors tilidagi qasidalari poetikasi (2-maqola)\\ "Adabiyot ko'zgusi" (Ilmiy to'plam). № 8. — Toshkent: Adabiyot muzeyi, 2002, 3–13-betlar; Komilov N. Xizr chashmasi. — Toshkent: "Ma'naviyat", 2005, 245–251-betlar; Abdullayev A. Navoiy haqida yigirma ikki maqola. — Toshkent: "Yangi asr avlodi, 2011, 106–124-betlar; Axtaroni adab. Jildi 18. Xoni ma'ni (Munxabi ash'ori Anvari Abevardiy, Adib Sobiri Tirmiziy va Xoqoni Sharvoniy). — Dushanbe: "Adib", 2011. Sah. 300–464.

ip yigirish bilan shug'ullangan. Otadan yosh ajralgan Ibrohim o'z davrining donishmandlaridan bo'lgan amakisi Umar ibn Kofi-yuddin qo'lida tarbiyalanib, sarf-u nahv, falsafa, riyoziyot, nujum ilmlarini o'rganadi. Amakisidan keyin Abul'alo Ganjaviydan she'ru shoirlik bo'yicha ta'lim oladi. Abul'alo Shirvonshohlar saroyi shoirlarining peshvosi edi. U Xoqoniy va uning do'sti Falakiyni saroyga jalb etadi (Ba'zilar Xoqoniyni Falakiyning shogirdi, ba'zilar esa do'sti va zamondoshi deydilar). Voqean, porlab chiqayotgan iste'dod quyoshiga Xoqoniy taxallusini ham u beradi, o'ziga kuyov ham qiladi. Bu davrda Sanoiyning "Hadiqat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar bog'i") dostoni nihoyatda mashhur bo'lib, uning ta'sirida Ibrohim bungacha Haqoyiqiy taxallusi bilan she'rlar yozgan.

Xoqoni akbar — buyuk xoqon nomi bilan mashhur bo'lgan Faridun Shirvonshohning o'g'li Manuchehr (1120–1150) saroyida xizmat qilgani uchun unga taassub qilib Xoqoniy taxallusini olgan degan qarashlar ham mavjud. Jumladan, "Xulosai Banokatiy" muallifining yozishicha, Xoqoniy shoh nazdida aziz va mukarram edi. Dastlab Haqoyiqiy taxallusi bilan ijod qilgan bo'lsa, keyin hukmdor unga Xoqoniy taxallusini taklif qiladi.

Xoqoniyning o'zi katta nufuzga ega bo'lgan va shuhratini ta'minlagan Shirvonshohlar saroyini tark etishi masalasida ham tazkiranavislar turli qarashlarni ilgari suradilar. Birinchi qarashga ko'ra, saroyda beqiyos hurmat va obro'ga ega bo'lgan Xoqoniy g'arazgo'ylarning tuhmat va g'iybat toshlari ostida qoladi. Natijada haj ziyorati bahonasida Shirvonshoh Axsiton (1151–1186) davrida saroyni tark etadi. 1158-yili Ka'bani ziyorat qiladi. Ko'plab Sharq mamlakatlariga safar qilib, umrining oxirida go'shanishinlik ixtiyor etgan. Lekin she'rlarida shoh-u amaldorlar va din namoyandalariga nisbatan tanqid ruhi kuchayganidan uni zindonga tashlaydilar. Shoirning tutqunlikda yozgan she'rlari "Hibsiya" nomi bilan mashhur.

Ikkinchi qarashga ko'ra, dilkash suhbatlari bilan ko'nglini olgan Xoqoniyning oshuftasi bo'lgan Manuchehrning uni qo'yib yuborgisi kelmaydi. Natijada u hukmdorining ruxsatisiz Shirvondan qochib, Baylaqonga keladi. Shohning gumashtalari uni tutib

Shirvonga yuboradilar va shoh uni Shoburon qal'asida yetti oy hibsda saqlaydi. Bu yerda shoir "Hibsiya" qasidasini yaratadi. Murakkab timsol-u tashbehlar asosiga qurilgan bu qasida sharhida Shayx Ozariy "Javohir ul-asror" risolasini yozadi.

Ba'zilar saroyga qaytishni istamagani uchun Shirvonshohlar sarkish shoirni zindonga tashlagani va nasroniylar naslidan bo'lgan onasining iltimosiga ko'ra Vizantiya imperatori Andronik Komnenning aralashuvi bilan u tutqunlikdan ozod qilingani haqida ma'lumot beradilar.

Keyingi yillarda tasavvufga moyilligi ortgan Xoqoniy tariqatga kirib, faqr yo'lini tutishni istab qolgan edi. Qator manbalarda umrining oxirida ma'rifatga mayl ko'rgizib, saroy xizmatidan iste'fo bergani aytiladi. Shuning uchun ham tutqunlikdan qutulgach, so'fiyona hayot boshlash maqsadida saroyga qaytmaydi. O'z davrining donishmandi Jamoliddin Mavsiliy hamrohligida haj ziyoratini ado etadi.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Haqqa nisbatan butun koinot oyina maqomida. "Jahonni boshdan oyoq bir oyina deb bil", — deydi bu haqda Mahmud Shabustariy. Bu oyinaning jilvasi esa insondir. Mavjud olam inson jilvasi bilan jilolanmaganda, Haq unda bu qadar mukammal tajalliy etmasdi. Alloh darajasiga ko'ra nabiylar, rasullar, valiylarda mukammal tajalliy etadi.

Oyina (ko'zgu) — ilohiy mazhar bo'lgan komil inson qalbi. Chunki oyina deganda, Allohning zoti, sifatlari, ismlariga ishora qilinadiki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi. Tasavvuf ahli nazdida, dunyo va nafs g'uborlaridan poklangan ko'ngil oyinaday musaffo bo'lib, unda yor — Haq jamoli jilvalanadi.

Shuning uchun ham Xoqoniy ruboiylaridan birida "Diling oyina kabi musaffo bo'lishini tilasang, uni hirs, makr, baxillik, harom, g'iybat, adovat, hasad, kibr, riyo, kina kabi o'n narsadan pokla", — deb ta'lim beradi:

Xohi, ki shavad dili tu chun oina,
Dah chiz burun kun az daruni sina:
Hirsu dag'alu buxlu haromu g'aybat,
Bug'zu hasadu kibru riyovu kina.

II

Xoqoniy Shirvoniyni Hasson ul-Ajam — Ajam Hassoni nomi bilan ulug'laganlar. Hasson ibn Sobit — Muhammad alayhissalom davrida yashagan mashhur arab shoiri (563–674). U ilk bor islomni ulug'lab she'rlar yozgani uchun Muhammad payg'ambarning shoiri sifatida shuhrat tutgan. Bu haqda uning o'zi shunday lutf etadi:

Dodi suxan diham, ki zamona ba ramz guft:
On yoftam zi tu, ki zi Hasson nayoftam.

"So'zning dodini berganimni ko'rib zamona: "Hassondan topmagan san'atkorlikni sendan topdim!" — dedi qoyil qolib.

Shoir she'rlarida ko'p uchraydigan Ajam Hassoni laqabi unga go'yo amakisi va homiysi Kofiyuddin Umar ibni Usmon tomonidan marhamat qilingan emish.

Abdurahmon Jomiy she'r san'atida kamolotga yetgani uchun ham Xoqoniy Ajam Hassoni nomi bilan shuhrat tutganini aytadi. So'z uslubida u barcha shoirlardan mumtoz va bu borada tengsiz edi. Mav'iza she'rlar yozish va hikmat aytishda Sanoiyga izdoshlik qilgan (U Sanoiyning "Roiya" qasidasiga javob ham aytgan). O'zining o'zigacha o'tgan va zamondosh shoirlardan o'zib ketgani haqida bir qit'asida shunday yozadi:

Shoiri mubde' mnam, xoni maoniy marost,
Rezaxo'ri xoni man Unsuriyu Rudakiy.

"Men badiiyat kashshofiman — ma'nolar sufrasi menga muyassar bo'ldi, hatto kimsan Rudakiy va Unsuriylar ham mening dasturxonimdan ushoq teradilar".

Darhaqiqat, mazmun teranligi va ma'no serqirraligida ham, tasvir mahorati va badiiyat yuksakligida ham, shakl go'zalligi va ifoda ta'sirchanligida ham biror shoir uning oldiga tusholmagan.

"Men boshqalardan uzoqni ko'ra olgan ekanman, buning sababi men buyuklarning yelkasida turgan edim", — degan ekan o'tmish

donishmandlaridan biri. Shunga o'xshab, u, shubhasiz, Rudakiy, Unsuriy, Adib Sobir kabi buyuk so'z san'atkorlari ijod maktabida saboq olgan, lekin o'zining salaflaridan o'zib ketgan. O'zini ustozlari va zamondoshlaridan ustun qo'yishi sababi shunda.

Rashididdin Vatvot uni "Shon-u sharaf osmonining oy-u quyoshi, fazilat taxtining vazir-u shohi, fazl dengizi-yu fazilatlar otasi, dinni kuchaytiruvchi va kufrni mahv etuvchi faylasuf", — deb ulug'laydi:

Ay sipehri qadrro xurshedu moh,
V-ay sariri fazlro dasturu shoh,
Afzaluddin, bulfazoil, bahri fazl,
Faylasufi dinfizoi kufrkoh.

Unsuriyga bag'ishlangan qasidasida Xoqoniy ikkalasini qiyoslab, o'zini undan ustun qo'yadi. Jumladan, "Fazl ahli qasida-yu g'azalda Unsuriy menchalik emasligini juda yaxshi biladi. Unsuriy so'zda men kabi sehr-u mo'jiza ko'rsata olgan emas. Shoirlikning o'n uslubidan Unsuriy faqat birida mahorat ko'rsatdi. U an'ana doirasida ijod qildi. Men esa she'riyatda yangilik qilib, o'ziga xoslikka erishdim. U tariqat va ma'rifatning nimaligini ham bilgan emas, — deb yozadi:

Shinosand afozil, ki chun man nabud
Ba madhu g'azal durfishon Unsuriy.
Ki in sehrkori, ki man mekunam,
Nakardi ba sehri bayon Unsuriy.
Zi dah sheva, k-on hilati shoirist,
Ba yak sheva shud doston Unsuriy.
Maro shevai xosu tozastu dosht
Hamon shevai boston Unsuri.
Na tahqiq guftu na va'zu na zo'hd,
Ki harfe nadonist az on Unsuriy.

Voqean, Xoqoniy ijodining tadqiqotchilari yakdillik bilan uni yangi uslub asoschisi va so'z san'atini takomilga yetkazgan

san'atkor shoir sifatida e'tirof etadilar. Bu haqda shoirning o'zi shunday yozadi:

Suxandoni ba ki xatm ast, medoniyu mepursi,
Falakro bin, ki mego'yad, ba Xoqoni, ba Xoqoni.

"So'z san'atini kim takomilga yetkazganini bila turib, yana "Bu kim?" — deb so'raysan. Agar bilmasang, quloq sol: falakdan "Bu — Xoqoniy!", "Bu — Xoqoniy!" — degan sado keladi".

She'riyatda muayyan maqomga erishgan shoir o'zining so'z san'atidagi mavqe-martabasi, erishgan muvaffaqiyatlari, malaka va mahorati, qalamining qudrati-yu asarlarining shuhratidan so'z ochishi tabiiy. U yoki bu muallifning ana shunday o'zining ijodiy salohiyati, manzumalarining badiiy yuksakligi hamda qo'lga kiritgan yutuqlarlari va qozongan dovrug'idan faxrlanib bitgan she'ru baytlari ilmi bade'da faxriya san'ati deb yuritiladi. Faxriya deyarli barcha Sharq shoirlari ijodida uchraydi.

Xoqoniy o'zining so'z san'atidagi maqomini yaxshi bilgan, faxr-u iftixor bilan qator faxriya baytlar bitgan. Chunonchi:

Nest iqlimi suxanro behtar az man podsho,
Dar jahon mulki suxan rondan musallam shud maro.

"So'z mulkida mendan afzalroq podsho yo'q — bu jahonda so'z mulkida hukmronlik qilish menga muyassar bo'ldi".

Sharqning ko'plab olim-u adiblari uni ta'rif-tavsif etganlar. Jumladan, Davlatshoh Samarqandiy fazilat va martabaga erishgan, shohlar va hakimlar e'tirofiga yetishgan, ilmda benazir, she'rda esa ustod edi deb ta'rif etadi.

Asiriddin Axsikatiy uning zamondoshi bo'lib, u bilan bellashish uchun Farg'onadan Shirvon sari yo'lga chiqadi. Yo'lda Arslon ibn To'g'rul xizmatiga kiradi. Sulton unga homiylik qiladi.

Xoqoniyning Axsikatiyga yo'llagan she'rida jumladan shunday misralar bor:

Manam ba vahyi maoniy payg'ambari shuaro,
Ki mo'jizi suxan imro'z dar bayoni man ast.

16+9 3,2 0

"Ma'no olamidan kelgan vahiyga ko'ra men shoirlar payg'ambariman, chunki so'z san'atida mo'jiza ko'rsatishga bugun faqat men qodirman!"

Bu ikki zabardast shoir o'zaro bahs-u munozara qilib turganlar.

III

Xoqoniy devoni 17 ming baytdan iborat bo'lib, 212 qasida, 330 g'azal, 300 ruboiy, 290 forsiy qit'a va 450 arabcha baytni o'z ichiga oladi. U, xususan, qasidanavislikda benazir bo'lgan. Uning "Madoyin ayvoni", "Piri ta'lim" ("Qasidai shiniya"), "Misri mamlakat" kabi ijtimoiy-siyosiy, irfoniy-ta'limiy mazmundagi qasidalari nihoyatda shuhrat tutib. ularga ko'plab tatabbular qilingan. Chunonchi, "Piri ta'lim" qasidasiga Amir Xusrav Dehlaviy, Sayfi Isfarangiy, Xoju Kirmoniy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Urfiy Sheroziy, Qooniy Sheroziy kabi 50 dan ziyod zabardast so'z san'atkorlari tatabbu qilganlar.

Ma'lumki, Sharq mumtoz she'riyatida qasidaning maqomi yuksak bo'lib, u shoir salohiyatini ko'rsatuvchi muhim mezon bo'lgan. Xususan, XI–XII asrlarda qasidada tub o'zgarishlar vujudga kelib, maddohlik, tabiat tasviri o'rnini ijtimoiy-falsafiy, diniy-tasavvufiy, ma'naviy-axloqiy mavzular talqini egallay boshladi. Mazmunan teran, ramzlarga boy, ohorli timsol-u tashbehlar bilan to'yintirilgan qasidalar yaratildi. Va endi qasida maddohlik vositasi emas, balki mahorat namoyishiga aylandi. Shoir mahorati qasidani qanchalik san'atkorlik bilan aytishiga ko'ra belgilanadigan bo'ldi. Bu davrda Sharqda she'riyatning yetakchi janri qasida bo'lgani bejiz emas. Shoirlar o'z salohiyat va mahoratlarini asosan qasidada namoyon etganlar. Shuning uchun ham serqirra va sermahsul shoir Amir Xusrav Dehlaviy mening barcha asarlarim zamon sahifasidan yo'qolib ketsa-yu, birgina "Daryoi abror" ("Yaxshilar daryosi") nomli qasidam saqlanib qolsa, shuning o'ziyoq mening she'riyatdagi salohiyatim nechog'liq baland ekanini namoyon etishga kifoya qiladi deb lutf etgan. Ma'lum bo'ladiki, biz qasidaga bo'lgan munosabatimizni tubdan o'zgartirishimiz va bu janr namunalarini shoir iste'dodi va mahoratining ko'zgusi va yuksak badiiyat namunasi sifatida o'rganishga kirishimiz kerak.

Xoqoniy qasidalari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilinib, ko'plab tadqiqotlarga mavzu bo'lgan.

Shoirning nazmiy merosi Tehronda taniqli eron adabiyotshunosi Bade'uzzamon Furo'zonfar so'zboshisi bilan nashr etilgan.

Yirik asarlaridan "Tuhfat ul-Iroqayn" ("Iroq tuhfalari") nomli masnaviysi 1157-yili Jamoliddin Abuja'far Muhammad ibn Ali Isfahoniyga bag'ishlab yozilgan. Ushbu qasida shoirning Makka, Madina, Iroq, Mosul, Bag'dodga qilgan safarlari taassurotlarining nazmiy talqini bo'lib, 3200 bayt hajmida. Olti maqola (har maqola yana fasllarga bo'linadi) va xotimadan tashkil topgan. "Xatm ul-g'aroyib" ("Ajoyib xotima") — Xoqoniyning yana bir yirik asari bo'lib. masnaviy usulida yozilgan. U Isfahon shahri tasviri va ta'rifi hamda Sadriddin Xo'jandiy va Jamoliddin Mavsiliy kabi zamon donishmandlari madhiga bag'ishlangan. "Munshaot" ("Maktublar") to'plami esa uning do'stlari, o'z davri donishmandlari va shohlariga bitilgan maktublarini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, XII asr she'riyatida Xuroson va Iroq uslubi yetakchilik qilgan. To'g'rirog'i. Xuroson uslubidan Iroq uslubiga o'tish boshlangan edi. Iroq uslubi ifoda tarzining murakkabligi va timsollar tizimining serqirraligi bilan ajralib turardi. Ilmiy-falsafiy istiloh tushunchalarning keng qo'llanishi o'quvchi uchun bu uslubdagi she'rlarni tushunishni yanada qiyinlashtirardi.

Xoqoniy ham Iroq uslubiga mansubligiga qaramay, tabiatan Xuroson uslubiga yaqin edi. Shuning uchun ham atoqli sharqshunos Y.E. Bertels shoir ijodining Xuroson uslubi bilan genetik jihatdan aloqadorligini qayd etgan edi. Navoiyning Nizomiy va Xoqoniy ijodiga muhabbati va ularga izdoshlik qilishining sabablaridan biri ham shunda.

"Mahbub ul qulub"da ijodida majoziy muhabbat tarannumi ustuvor shoirlar guruhiga kiritgani, "Xamsa"ning nihoyasida Sharqning zabardast so'z san'atkorlari davrasida tasvirlagani Alisher Navoiy Xoqoniy asarlari bilan yaxshi tanish bo'lganligini ko'rsatadi. "Muhokamat ul-lug'atayn"da uni qasida ustodlaridan biri sifatida zikr etadi, "xalloqi maoniy" – "ma'nolar ijodkori" deb ulug'laydi. "Sittai zaruriya tarkibiga kirgan 129 baytdan iborat "Nasim ul-

xuld" ("Jannat nasimi") qasidasi Xoqoniy Shirvoniyning mashhur "Piri ta'lim" ("Qasidai shiniya") qasidasiga tatabbudir.

Bu mavzudagi qasidani aslida Muxtor G'aznaviy (1085–1149) boshlab bergan. G'azna hokimi Sulton Ibrohimga bag'ishlangan ayni qasida nazm ahli e'tiborini o'ziga tortib, Said Hasan G'aznaviy, Adib Sobir Termiziy, Sayfi Isfarangiylar unga tatabbu qiladilar va shu tariqa tatabbunavislik an'anasiga asos solinadi. Xoqoniy bu qasidaga faqat shaklan ergashib, mazmunan unga irfoniy ma'no baxsh etdi va o'ziga xos irfoniy-falsafiy qasida yaratdi.

Xoqoniy qasidasiga Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Urfiy Sheroziy, Fuzuliy kabi ko'plab buyuk so'z san'atkorlari tatabbu yozganlar. Navoiy o'z qasidasida ularni birma-bir eslab o'tadi. "Minhoj un-najot" ham Anvariy bilan birga Xoqoniyga tatabbu ekanligi ma'lum. "Nasoyim ul-muhabbat"da uni oriflar qatorida zikr etadi. Unda "anga she'r tavridin boshqa tavre bor emishki, she'r aning janbida gum ermish" deydi va uning so'fiyona bir she'ridan ikki bayt keltirib, uning bunday so'zlari ko'pdir deb yozadi.

Alisher Navoiyning Xoqoniy Shirvoniyning "Qasidai shiniya" ("Piri ta'lim"), Amir Xusrav Dehlaviyning "Mir'ot us-safo" ("Poklik ko'zgusi"), Abdurahmon Jomiyning "Jilo ur-ruh" ("Ruh jilosi") qasidalariga tatabbu sifatida yozilgan va Husayn Boyqaroga bag'ishlangan "Nasim ul-xuld" ("Jannat nasimi") fors-tojik tilidagi "Sittai zaruriya" qasidalar turkumining oxirgi 6-qasidasi (132 bayt) ni naqshbandiya tariqatining she'riy bayonnomasi, o'ziga xos dasturi desa bo'ladi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida shoirning o'zi "Bu qasidag'a dog'i ko'p maoniy gavhari darj va umr naqdi xarj bo'lubdur", — deb yozadi.

Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf falsafasining bilimdoni Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda, "Nasim ul-xuld"da "so'fiyona odob-axloq, tartib-nizom, shayx-u solik tizimi, orifona yuksalish, komillik martabasi, fano va baqo hay'ati ta'sirchan bir usulda ifodalangan va u olam va inson uchun xos va mos quvva, joziba, harakat va taqdir bilan payvand bo'lgan. "Nasim ul-xuld" qasidasining mohiyati shunda va uni shunday tushunish kerak. Qasida haqparastlik yo'lidagi buyuk, tengsiz va muhtasham bir

bino bo'lib, uning sohibi haqqa erishgan alloma zot va avliyolik maqomini egallagan hazrati Mir Alisher Navoiy hisoblanadi".

Xoqoniy teran ilmiy, quyuq falsafiy, o'tkir ijtimoiy, qat'iy diniy, serqirra irfoni, o'lmas ma'naviy g'oya va fikrlarni she'rlariga mahorat bilan olib kirib, badiiy yuksak tarzda ifodaladi. Shuning uchun ham unng asarlariga ko'plab sharh-u izohlar yozilgan. Jumladan, Shayx Ozriy uning she'rlari sharhiga bag'ishlab "Javohir ul-asror" risolasini yaratgan. XVI asrda Urfiy Sheroziy va Abdulvahhob Ma'muriy G'inoiy shoir she'rlari ustida bahs-u munozara yuritganlar va buning natijasida G'inoiyning shoir qasidalari sharhiga bag'ishlangan kitobi dunyoga kelgan. Keyinchalik Alaviy Shodiobodiy, Rizoqulixon Hidoyat, Alaviy Lohijiy kabi she'rshunoslar Xoqoniy she'rlarini sharhlaganlar.

Xoqoniy 1198-yili Tabrizda vafot etgan va qabri shahardagi mashhur shoirlar mozorida.

Taniqli olim va tarjimon Shoislom Shomuhamedov Xoqoniyning g'azal va ruboiylaridan namunalar "Madoyin saroyi" qasidasi va "Tuhfat ul-Iroqayn" masnaviysidan parcha tarjima qilgan[1].

Asarlari mutolaasi bizning shunday zabardast so'z san'atkori ijodidan bexabar va bebahraligimizni ko'rsatadi. Xoqoniy asarlarini tarjima qilib xalqimizga yetkazish mutafakkir va san'atkor shoir ijodi bilan shunchaki tanishishgina emas, ayni paytda mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy oziqlangan chashmalarni bilish hamdir.

Ergash Ochilov,
filologiya fanlari nomzodi

[1] *Qarang*: Injular ummoni (To'plam). — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 159–182-betlar.

G‘AZALLAR

Ey g‘ussang olovida bo‘lib qon bu jigarlar,
Sovrulgay u boshlarki, bu savdoga tikarlar.

Ey oshiq elin boshida g‘avg‘o g‘alayoning,
V-ey zuhd eli ko‘nglida to‘lug‘ andin asarlar.

Xunobai hajringga botib jonlar aqiqi,
Vaslingni xayol aylab ado bo‘ldi jigarlar.

V-ey, donayi ummidim uza davr balosi
Ishqing yo‘lini to‘sgali saf dona chekarlar.

Qildim xatar-u ko‘ying aro kirdim ataylab,
Kam aylamagay oshiq azal bo‘yla xatarlar.

Xoqoniy eshitgan damidan husning, ochilmish
Bu bexabar ahvolidan olamga xabarlar.

* * *

Bulturgi ey rafiqim-u, bu yilgi oshno!
V-ey ayrilib sazodan-u, alhol nosazo!

Ey sifla toshidan ushalib vasl gavharing,
Tokay somonni tortadi jisming chu kahrabo?

Ko‘k shamsi yanglig‘ aylagasen necha tunlari
Boshingni xam, buyutgali birqancha bevafo!

Ulkim, raqibdir manga, bo‘lding anis-u yor,
Ulkim, yetishmagay manga, bo‘lding sen oshno!

Haqqo, munosib o'lgay ulashmoq o'ziga xos,
Isoga noz-ne'mat-u, eshakka xas — giyo!

Erdim tekinga senga nasib aylagan guhar,
Sen qiymatimni bilmading, erdi bu cho'ng jafo!

Ko'r oftob qudratini anglasin nechuk
Yoxud kulol durni netib aylasin baho?

Zolim qazo solibdur ayog'ingga band etib
Bizni, tamom zulmga yetsin qaro qazo!

Tushsa, qaniydi, otash ichimga va o'rtasa,
Na qolsa husning anda-yu, na bizdagi havo!

Haq hukmi erdi, yo'qsa, qayoqdan bu jur'atim,
Xoqoniy asli qayda, qayoqda bu muddao?!

* * *

Xush-xush borursan sollanib, jondan xush ey jon, qaygacha?
Parvona izlar sham o'zing, bu yo'lda pinhon qaygacha?

Insofdan ayro qolib, zulm aylabon, g'avg'o solib,
Pinhon tutarsan qay yo'sin dildan to'kib qon, qaygacha?

Tashlab zaqan zanjirday, farmon bitib mushkin atay,
Yuzlab to'kar hukm ahlin ul zanjir-u farmon qaygacha?

Ko'ngilga otashday kelib, bir dam kelib, ildam ketib,
Jon nahrida borgung oqib, ey obi hayvon, qaygacha?

Egri qo'yib boshingga bo'rk, yoqang yo'qolmish yoki yo'q?
Ey ko'ylagin bandi ochiq, soching parishon qaygacha?

Chun o'g'rilar zulmattalab, qo'rqar chiroqdan, hay, ajab —
Partav socharsan tunda zabt, ey dil o'marg'on, qaygacha?

Ochsam yo‘lin faryodning, bag‘ri kuyar har bodning,
Haddi bo‘lar bedodning, behad bu hijron qaygacha?

Xoqoniy — ul sodiq kishing, dard-u balo ko‘rgan qushing,
Mehmon demasdan o‘rtashing dilni farovon qaygacha?

* * *

Qilibon karashma dildan manga bir xabar yuborgil,
So‘ra jonni, ul dudoqdan manga bir shakar yuborgil.

Xabari yoyildi olamga quling ekanligimning,
Tugunin yechib, sochingdan manga bir kamar yuborgil.

Bir og‘iz kalom uchun ham ochaqol shakar labingni,
Iki olamim xiroji — manga bir guhar yuborgil.

Sug‘uribdir ikki diydang, bir asar yo‘q endi jondan,
Taqi tirguzur damingdan manga bir asar yuborgil.

Turib ayriliq aroda, yana o‘q uzarsan, e-voh,
Tugadim, visoldan bir manga firqalar yuborgil.

Sitamingda kuymasin to bu kuyuk yurak-bag‘irlar,
Uzatib farah, vafodan manga bir qadar yuborgil.

Yugurib o‘zingga Xoqoniy yurakni sochdi guldek,
Ani gar qabul qilsang, manga bir xabar yuborgil.

* * *

Ista adam mulkini, jonon tila —
Sidq iforini farovon tila.

Chiq bu jahon boshiga, axtar rafiq,
Cho‘k-da dengiz tubiga, marjon tila.

Bilma turob o‘rtasida o‘z yering,
Aylana gumbazday ulug‘ shon tila.

Yoysang agar o‘rtaga jon sufrasin,
Vosita qo‘y dilni-yu mehmon tila.

Yer yuzini ketdi bosib shaytanat,
Sham yoqib endi Sulaymon tila.

Boq manga, Xoqoniy o‘sal ko‘ngli, qo‘p,
Do‘st topib, dardimga darmon tila.

Xizrday avval safar og‘usin ich,
So‘ngra borib chashmayi hayvon tila.

Bo‘lmadi Shirvon ichi xayr ul-makon,
O‘zga makon xayriga imkon tila.

Jumla qarindosh idishin toshga ur,
Xeshga san o‘zgacha mezon tila.

Qilmadi Yusufga ne o‘z qonlari,
Yuzni o‘gir qondan-u sen jon tila.

To‘ldi nahanglarga bu Shirvon suvi,
Sahl suv ichmakka Xuroson tila.

Yuzlan-u daryoga, o‘tolsang u yon,
Bor Tabariston, tarabiston tila.

Har ne amal boisin omil bilar,
Bo‘rini tut, Yusufi Kan’on tila.

* * *

Mast kelibdur tugal bizni yarim tun tilab,
Ul quyoshoraz sanam, ul mahi yoqutlab.

Keldi mayin sas eshik tirqishidan: “Hey qulim!”
Dedim: “U kim, bu zamon keldi so‘rab, ey ajab?!”

Dediki: “Do‘sting o‘zim, garchi boshog‘riq sanga”,
Dediki: “Mehmon, vale keldi sanga betalab”.

Kirgani on ichkari chiqdi unim ko‘k sari:
Bul na go‘zal ov erur! Bul tun erur bul’ajab!

Jonga raqam ayladim tunga sano, mayga madh,
Do‘st kelurig‘a bul ikki edi chun sabab.

Bo‘lmasa tun, chehrasin qilmas edi beniqob,
Bo‘lmasa may, boshi ham do‘nmas edi telbarab.

Dedim: “Agarchi manga tavba rasodir, valek
Tinchini tunning buźib, shukr ila qilgum tarab”.

Dedim: “Olur ko‘rmana haqqini mandan kumush —
Yuzlaring oltinqabo bo‘yla yuzimdan sanab”.

Dediki: “Xoqoniyo, zarrin emas yuzlaring”,
“Tunda ko‘rinmaydi zar, uzr!” — dedim so‘ng qarab.

* * *

Ma’yuslarga holating aytib xabar yubor,
Kuygan bag‘ir halovatiga bir nazar yubor.

Jon o‘rtanar, labing shakaristonidan manga,
To qolmasin isitmada jon, nayshakar yubor.

Dedimki dilga, do‘st saroyiga tortig‘ing
Gar chiqmas oltin, o‘yla so‘lim satrlar yubor.

Bu o‘yda erkanimda xayolan kelib deding:
“Ey xoja, so‘zga aql qani, bizga zar yubor!”

Olmos-u og‘-u kirpiging uchinda saqlading,
Bul yonga oni yollagil, ul yon jigar yubor.

Mendan bosh istading-u oyog‘imdan ijtinob,
Boshimga tiyg‘u zirh ko‘tar — neshtar yubor.

Xoqoniy, ikki manzil alam xayli keldi, qo‘p,
Xizmatga jonni shayla, taningdan badar yubor.

MASNAVIY

Kirmasimdan yigirmaga, so‘zim o‘q,
To‘qqiz aflok bizni ko‘rgani yo‘q.

Fazl gar bor, lek davlat yo‘q,
Bo‘yla fozilda nom-u savlat yo‘q.

Pastkashlar malomat etsa bu kun,
Na qilardim man? “Al-junun funun”.

Saqlamasmiz adovat, aylasa kin,
Ochgay ul o‘z-o‘ziga kin eshigin.

Bu sifat asli toqqa xos ermish,
Ne eshitsa, biaynih ul dermish.

Bu sadodan kelur na o‘y boshga,
Xulqsizlik va jahldan boshqa?

Mard shunday hunarga bo‘lsin yor,
Arzisin imtihonga ul zinhor!

QIT'ALAR

* * *

Haram kabutari keldi sayid Ka'basidan,
Bashorat etdi Sabo yurti hiylagar qizidek.

Sahar damida Sulaymonga borgan ul hudhud
Misoli yetdi sabo payki subhning isidek.

* * *

Biz birovning g'amin magar yemadik
Ki, birov ham yemaydi bir g'amimiz?

O'zgalarning g'amin kuzatdik ko'p,
O'zgaga ham tomoshadir g'amimiz!

* * *

Ko'z solguchilar go'zal yuzingga
Bir yondan agar boqarlar, ey but,

Chehrangda ko'rarlar o'z jamolin,
Budir sanga o'zgadan tafovut.

* * *

Ey nob gavhar! Aylagasen iztirob aro
Yuz yo'lni bir uyot ila, e-voh, suvga g'arq.

Sen bir mayin somonsan-u men bir mayin somon,
Dil goh otash ichra-yu, tan goh suvga g'arq.

Bizdan bu holimiz emas asli yiroq, qara
Sen xas tubida suvsan-u, men koh — suvga g'arq.

* * *

Tingla, ey chol, deydi Xoqoniy:
Tuprog‘ingdir navqiron — ilmtalab.

Ilm tandir va faqr joni aning,
Izla jon ilmi-yu jon — ilmtalab.

* * *

Xush suvoriy bu umr, Xoqoniy,
Ov joyi jahon-u vaqt anga ot.

Olg‘a bos, ul hayot mingan ulov
Taqasi mo‘rt, ovlagil hasanot.

Bizga meros ganjdek bu yasham
Ki, baqosida bo‘lmagay barakot.

Shul sabab ber zakot toat ila,
Sarvatingga barakot asli zakot.

* * *

Sendadir turfa bilim, Xoqoniy,
Pastlar hiylaga yo‘ldosh, ne sabab?

Shohlik rutbasida sher qolib,
Arslonda bu kiyim-bosh, ne sabab?

Yetti andomi baliqning kumush-u,
Bosh-adoq bo‘ldi sadaf tosh, ne sabab?

* * *

Garchi Xoqoniy o‘tirdi kishilardan quyida,
Demak o‘lmaski, janobingda u beqadrdurur.

To abad sadring erur joh-u jalol aylanasi,
To‘garak ichra qayon bo‘lsa yering, sadrdurur.

* * *

Bo‘lma din faylasufi, Xoqoniy,
Undan afzal majusiy a’moli.

Bulhavasdir bu to‘tidek, ul esa
Himmat aylar xo‘rozday oliy.

* * *

Bilim naf’i asli ziyoning erur,
Sening ajzing kuch-u tavoning erur.

“Na bilgum!”ni, Xoqoniy, etgil sovut,
Ki, bilmaslik ilming nishonin berur.

* * *

Bir tovuqni so‘ymoq o‘ylab quvlar erdi bir tuban,
Dedi: “Qasdim bu yugurtirmoqdan oson o‘ldirish”.

Biz o‘shal parranda, Xoqoniyki, davron bizni ham
Zir yugurtirgay, murodi — zor-u sarson o‘ldirish.

* * *

Ul Yaratgangakim, adolatida
Bandalarga hazor ofat bor,

Jon-u dil birla xizmatinda o‘zim,
O‘rtada garchi ko‘p masofat bor.

* * *

Kimki aybim ko‘rmadi, komil edi,
Johil ul, axtargani botil edi.

* * *

Gunohing na sirring ochardan erur,
Ishon, roz ganjin sochardan erur.

Dema chin, og‘iz ochma, Xoqoniyo,
Balolar nuqul rostlardan erur.

* * *

Xoqoniyo, qabulu rad Allohdan erur,
Vahm ayla, qo‘rquving sara taryok zahriga.

Qay yerda lutfi bor — bari devlar farishtadir,
Erlar muxannas — uchrasa qay joy qahriga.

Gar Do‘st hukm qilsa, quvongil tamomidan,
Zinhor qochma shahridan... albatta, shahriga!

* * *

Men qalamkashman, u chalar na-yu soz,
Boq kulohigakim, guharga vatan.

Poyidan o‘ksik ilkim, etmam rad,
Qolishar kilkim ul masih nayidan.

* * *

Navoda Mushtariydek mir Gushtosb,
Magar mizrobidir Nohid ko‘yida.

Ajab yo‘q, Borbad gar desam oni
Ki, bordir Borbad sehri kuyida.

* * *

Madina ichra ko‘rdim noayon xat,
Tushundimki, emasdir oshnodan.

Bitilmish ilk satri xatning andoq
Ki: “Javzo ko‘p yiroq shamsi samodan.

Qasamlar podsho haqqiga ichdim:
Tanosub podshoga podshodan”.

Chu Xoqoniy bu sirdan bexabardir,
Tiyilsin sharh-u har ne noravodan.

* * *

Ey sabohingda barcha yo‘qlar bor,
Yo‘q etar borni komil ul zoting.

Lahza yo‘qdirki, banda Xoqoniy
Cho‘kmasa, chun to‘lug‘ karomoting.

* * *

To‘rt narsa yuragin xushladi Xoqoniyning,
Qo‘ymagil to‘rt bu ne’matni, esang mard, o‘rtoq.

Mol sepmog‘u birov sirrini yopmoq eldan,
Boda ichmog‘-u dag‘i mast nigoring o‘pmoq.

* * *

Men xizmatingni qildim-u sen bilguchi emas,
Ammo xayoling anglagay, albatta, zahmatim.

O‘n tunda bir xayoling agar bo‘lsa hosilim,
Ko‘nglimda shukru qulf uradi, ko‘zda rahmatim.

* * *

Xoja As’ad may ichsa gar takror,
Kasb etar turfa shakl, mast-u xumor.

Bor zamon porsosi, lekin yo‘q,
Yo‘q makon nobakori, lekin bor!

* * *

Rayda do‘stim bor erdi, husn ichra
Yuzida xatti dilbar ushmundoq.

Dahr aro xat chekib xirad uzra,
Xavf xolin rijodan etmish toq.

* * *

Xoqoniy o'tdi Dargazin oxir Iroqdan,
Harchand dilda Dargazin ermas edi havas.

Shohona yuz tuman dur ila yetdi shahrga,
Afsus, Dargazinda birov durni anglamas.

* * *

Istading amn, to'xta, Xoqoniy
Ki, murodingga ters dunyosi.

Olam iflosxonasi ichra
Yo'q omonlikning asl kimyosi.

* * *

Qaro tuproqqa quysang gar tiniq suv,
Gulistoningda butgay yilda bir gul.

Manam xoking, agar lutfing quyilsa,
O'shal dam yuz gul ochgum — shukr butkul.

* * *

Shahvat izminda ranj chekding, umr,
Umr qasdida beomonsan, charx.

Ikki yov qilsa qasd bir jonga,
Jon zavoli, zavoli jonsan, charx.

* * *

Onam o'lmak damida qildi duo:
"Shuhrating ko'kka o'rlasin haddan.

Nuh umricha bo‘lsin umring! Lek
Davlating qolmasin Muhammaddan!”

* * *

Bu hayot uxlamoqda, Xoqoniy,
Uxlagan bir nafasda uyg‘ongay.

Jumla keng-u uzun bu savdolar
Torayar, qisqarar nafas o‘tmay.

* * *

Xoqoniy, agarchi to‘g‘rilik roying,
Royingga bu egri xayl chog‘lanmas.

Kim to‘g‘ri, qocharlar egrilar ondin,
Boqqilki, “alif”ga “dol” bog‘lanmas.

* * *

Xoqoniy agar latifdir, vajhin
So‘r xojadan, u hadisini olgan.

Suv haqda so‘roqla tashna odamdan,
Zero, u bilarki, suvsizin qolgan.

* * *

Jafo qilarsan atay, mehr so‘rsa Xoqoniy,
Kelar qachongacha sendan javoblar muzday?

Sovuq javob yurakka davo bo‘lolmaydi,
Shifo berolmagay oxir, julob[1] gar muzday.

* * *

Xoqoniy, istadingmu Bag‘dod xaylidan sidq,
Qalloblardan aslo bu durni kimsa topmas.

[1] **Julob** — dorilik xususiyatiga ega gulob qo‘shilgan qand sharbati.

Ham, oqsa olam ahlin gar qoni Dajla-Dajla,
Rahm aylabon birovning bir qatra yoshi tommas.

* * *

Fitna gar andak ersa, og'irdir,
Ancha yengil, ajabki, ko'pi aning.

Qavariq bitta bo'lsa, og'riydi,
Og'rimas, gar qavarsa bori taning.

* * *

Vafo kutma, Xoqoniy, eldan, mabodo
Tilarsan sadoqat, topolmassan, esiz.

Dema, ko'rdim oxir sadoqat jahondan,
G'alat ko'rding o'lg'ay, bu olam vafosiz!

* * *

Kimki qul qavmidadir, el atadi oni imom,
Kimki dil ovladi, xalq oni dedi sohibi dom.

Demak, o'lmas bu asil misradan o'tguvchi kalom:
Kim qilich sermasa, nomiga bo'lur xutba, tamom!

* * *

Menki, Xoqoniy, iki olamning
Yo'qdurur yaxshi-yomoniga havas.

Oqibat bunda tilarman, na amal,
Mag'firat anda kerak, jannat emas.

* * *

Dili qaro, ishi oq ushbu ko'k siyoqli falak,
Ko'kishyurak, qizil ashk-u sariq yuz etdi meni.

Bo'yoqchining manga kelganda qolmadi rangi,
Va yo bo'yoq xumidan chekkaroq uzatdi meni.

* * *

Boshda sochim ko‘rindi oq menga,
To‘ldi g‘amlar, ko‘ringach ul ravshan.

Ulkim, eng yaxshi do‘st songay edim,
Eng qabih yov tuyuldi — eng dushman.

* * *

Ay shoh, iki holatdan Xoqoniy erur hayron,
Bu ikki jihat dilni qo‘rqitgay etib muztar.

Yo sen tilagandek u madhingni bajo etmas,
Yo himmating eksikdir bermakka, nekim istar.

RUBOIYLAR

1

Sen istasang, oson manga sen birla visol,
Sensiz va sening birla huvaydo manga hol.
Jismim o‘ying oldida kelar o‘y chog‘liq,
Payvasta xayol uzra kelar manga xayol.

2

Dil senda-yu tan qolibdi tanho bunda,
Kaftingda qolib durlar-u, daryo bunda.
Hukmingda o‘zim, tashlama sabr ichra ishim,
Sabr oyinida belim bukik to bunda.

3

Shod aylamak istab labi shirin bizni,
Uch bo‘sa beray deb, kecha g‘amgin bizni —
Qoldirdi. Dedim: “Va’da qilinganni uzat!”
Quvdi qoshidan, qilmadi tamkin bizni.

4

Tosh quchgancha raso yugurdik suvdek,
Har xor-u xashak jismini surdik suvdek.
Bas, yuzni safar soriga burdik suvdek,
Qaytolmadik orqaga, chu yurdik suvdek.

5

So‘z qotdi hubob manga hijron tunida,
G‘am dengiziman — tahlika har tun-kunida.

Suv sathidagi chizgi xayolan uyqum,
Ko‘ngildagi orom o‘yi to‘lqinida.

6

Ko‘nglimga vafo ekibdur ul hurnasab,
Gar o‘zga tuzoq tutolmasa, bormu ajab?
Chumchuq kabi man umr bo‘yi donatalab,
Shundanmi ul oy Humoy deb qo‘ydi laqab.

7

Otashda qizardi guli anbarboring,
Terlabdi isitma ichra bu gulzoring.
Bemordurur chu nargisi xummoring,
Tutgay ne aloqa dard ila gulnoring?

8

Ko‘nglim, netay, eski darddan emin emas,
Ko‘rding-ku, dilim dardi sira sokin emas.
May axtaraman sihat bilan, lekin yo‘q,
Rohat manga orzu, vale mumkin emas.

9

Xoqoniy, agar rohating arqog‘i abas,
Til chekma, falak birla sitez aylama, bas!
Jamshid-u Faridunga nasib etmagan ul
Davlat bu gadoga yetmasa, nomus emas!

10

Ey sayd qilib dil qushini ul doming,
Oshiq qilib ikki la’li shirin joming.
Bir yo‘lga berilmaydi muborak noming,
Jonimni beray, buzilmasin oroming!

11

Ey do‘st, meni kuydirdi g‘aming boshdan oyoq,
Dard bazmida yoqdi meni shamdek u uzoq.
Men bilmas edim dil o‘ti, ko‘z yoshinima,
Ustod kabi beparvoliging berdi saboq.

12

G‘am o‘ti yoqib jigarni, qoldirmadi nam,
Dil dardi kuchaydi sabr bo‘lgan sari kam,
Har qancha dilim aylamasin sabrin ijam,
Kuygan dil sabri bo‘lar edi nima ham?

13

G‘am-g‘ussai chida navqironlik o‘tdi,
Yoshlik shu zayl ko‘rmay omonlik o‘tdi,
Mendan nima taqdirga yomonlik o‘tdi,
Umrim qilibon marsiya xonlik o‘tdi.

14

Ketding-u, dilimning g‘ami bo‘ldi toza,
Ko‘rib buni chekdi ko‘zing ham yoza.
May[1] man’ini qilmayman, ichgil, ammo,
Soqiy[2] qo‘lidanki, u bilar andoza.

---

[1] **May** — tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalli timsoli, ishq va irfon (ma’rifat) ramzi bo‘lib keladi. Shunga muvofiq, mastlik ilohiy ma’rifatdan huzurlanishni, ma’naviy zavq daryosiga ғarq bo‘lishni bildiradi.

[2] **Soqiy** — soqiy deganda so‘fiylar Allohni, Muhammad alayhissalomni, ma’shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgani kabi ular ham odamlar qalbiga ilohiy fayz bag‘ishlaydilar, haqiqiy ishq o‘tini soladilar, g‘ayb marhamatidan bahramand etadilar.

15

Charx makridan past etsam alomat og‘ir,
Har ikki firoqdan etsa kulfa tog‘ir.
Yor hajri-ku og‘irjuda, undanammo
Nokas kishiga tushgani hojat og‘ir.

16

Maqsad hosil bo‘lmadi bekorlikdan,
Umrim kuyib o‘tdi-ku beyorlikdan.
Ey yor, xalos qilarmisan zorlikdan?
Ey charx, chiqargaysanmi xorlikdan?

17

Ey sohibi fikri komil-u baxti baland,
Mol-dunyo xayoli muncha etgay seni band?
Molingni yeb erta dushmaning aysh etadi
Joningga ajal elchisi solganda kamand[1].

18

Ko‘rdingmi, bahor nasimi qo‘zg‘oldi yana,
Bizning dilimizga ayriliq soldi yana.
Gul pardasidan chiqdi-yu, gul yuzli sanam,
Oh, men ne qilay, parda aroq oldi yana.

19

Qismat xonumonimni[2] tamom ayladi kul,
Umrim chamanida na giyoh qoldi, na gul.

---

[1] **Kamand** — halqa, sirtmoq, zanjir, band.

[2] **Xonumon** — uy-joy, oila; uy-joy jihozlari va maishat asboblari.

Ko‘z tashlab-u xirmonga: g‘amu qayg‘u nuqul,
Yo‘q gard-u somonda, hosil-u dona tugul.

20

Kimning bu jahonda burda nonibordir,
Osuda yashash uchun makoni bordir,
U banda emas birovga, sohib-da emas,
Xurram yashasin u xush jahoni bordir[1].

21

Gul oshig‘i bulbuldan o‘zing sozroqsan,
Qirg‘ovul-u kaklikdan xushovozroqsan,
Husn ichra tovusdan mumtozroqsan,
Go‘zal qumridan-da tannozroqsan.

22

Har kuni bo‘lar sening xayoling pok-pok,
Sabrim to‘ni bundan bora-bora chok-chok.
Ahdingga vafo qilgan emassan butun umr,
Zolim kishisan, iloyo, bo‘lgin xok-xok.

23

Xoqoniy, agar bo‘lsang pokizanafas,
Sendan kishiga ranj yetishi yaxshi emas.
Afzaldir mard bo‘ynini tig‘ chopgani, bas,
Tekkizganidan ko‘ra qo‘lini xor-u xas.

[1] Bu ruboiy Umar Xayyom va Bobo Afzallarga ham nisbat beriladi.

24

Bu yo‘lda falakning eshagi lang bo‘lgay,
Cho‘ng[1] qudratidan jahon dili tang bo‘lgay.
Tortmas manoyoq sira visoling ko‘yidan,
Har bir qadamim gar ming farsang[2] bo‘lgay.

25

Kunduzlari zulfingni chavgon[3] qilasan,
Bechora dilimni to‘pi maydon qilasan.
Tunlarda esa asiri hijron qilasan,
Ko‘zimga bu dunyoni zindon qilasan.

26

O‘zingga emas,
o‘zgaga yoq — senga shu pand,
Aybing tuzat — etsin seni to barcha pisand.
Tinmay sira keltirelgan af misli daraxt,
Yerga qadab oyog‘ingni, tut boshni baland.

27

Xoqoni yedi sohibi fazli hunar[4],
Zar kursida shamdek ko‘p o‘tirdi shu qadar.
U endi chiroqdir o‘chirishga loyiq,
Ko‘z yoshi to‘kib, bir po‘stakda o‘tirar.

---

[1] **Cho‘ng** — ko‘p, katta, ulkan.

[2] **Farsang** — taxminan 6 km ga teng bo‘lgan uzunlik o‘lchovi.

[3] **Chavgon** — 1) “ot to‘pi” o‘yinida to‘p uradigan uchi egri tayoq; 2) “ot to‘pi” o‘yini, chavgon o‘yini.

[4] **Hunar** — bu yerda: fazilat, iste’dod, mahorat.

28

Mayda kishilarga, Xoqoniy, qilma nazar,
Intilsang ulug‘lar sari, ammo, yarashar.
Topshirma chiroqqa jonni parvona[1] bo‘lib,
Oftob parast bo‘l misoli nilufar.

29

Tutun chiqadi mag‘zi badandan bir kun,
Jon qushi chiqar ushbu chamandan bir kun.
Do‘st amriga loyiq yashasang-da yuz yil,
Dushman mahrum etar daf’atandan bir kun.

30

Bir-ikki og‘iz senga bu davroni xilof —
Odamlaridan naql etayin — o‘ylama lof.
Bir-biriga soat shishasidek bog‘liq,
Ko‘ngillari to‘la gardu eshiklari sof.

31

Xoqoniy, falak jafosi ostida bu kun
Kul bosgan gulxan ichra holing ne ekin?
Hammom qozoni kabi ko‘zu ko‘nglingdan
Ichingda suv-u, tashqarida suv tun-u kun.

32

Baxtim shoh ko‘zidek mudom uyqudadir,
Ko‘zim yorning labidek to‘la suvdadir.
Jismim esa Majnun jonidek to‘la dard,
Jonim Layli sochidek tob[2] ichidadir.

---

[1] **Parvona** — kechasi sham yoki chiroq atrofida aylanib, o‘zini unga uradigan hasharot. Sham va parvona — tasavvuf she’riyatidagi mashhur timsollardan.

[2] **Tob** — bu yerda: 1) isitma, harorat; 2) iztirob, alam, g‘am.

33

Ko‘nglingga yaqinlatma kibrdan havas-ey,
Bir yerga kishi kibr ila yetgan emas-ey.
Yoz zulfi kabi shikastalikka[1] o‘rgan,
Ming dilni asir aylarsan har nafas-ey[2].

34

Boshlar bari sarmastu[3] xumori g‘amining,
Qudratli ko‘ngillar-da shikori[4] g‘amining.
Har ikki ko‘zim yoshi azizdir menga,
Har ikkisi chunki yodgori g‘amining.

35

Aql ahli beribdil mol olishga, qarang,
To‘ldi yuragi hasrat-u nolishga, qarang.
Har fazl-u hunarga o‘giruvdi orqa,
Tegdi endi orqasi bolishga, qarang.

36

Bo‘ldi yuragimg‘a ming bilan yuz pora,
Shodlig-u quvonch ketdi bo‘lib ovora.
Men nolimasam ham bo‘ladi—dastingdan
Tulki kabi dunyo sherlari bechora.

37

Uyqumda sening yuzingni tasvir etaman,
Uyg‘onsam agar vasling ta’bir etaman.

---

[1] **Shikastalik**— bu yerda: xoksorlik ma’nosida.

[2] Bu ruboiy Umar Xayyom, Avhadiddin Kirmoniy va Bobo Afzallarga ham nisbat beriladi.

[3] **Sarmast** —mast, sarxush.

[4] **Shikor** — ov; o‘lja.

Har ikki jahon desang-u, jon-u dil-u tan,
Senga beribon barini takbir[1] etaman.

38

Tun kirdi, ey oy, vasl yuzidan pardani ol,
Ey Xoqoniy, sen bo'lsa pardada qol,
Ey tun, sen kechroq tongning zangini chol,
Ey tong, kunduz kalitini chohga sol.

39

Xoqoniyga charx ishidan dod bo'lgay,
Ko'ngil qushi gar bandidan ozod bo'lgay,
Raqsaylar agar ko'nglida faryod bo'lgay,
Faryodi aro ahdi azal yod bo'lgay.

40

Yaxshimi qilar yoki yomon — U bilgay,
Ayb etgusimi, avf — har on U bilgay.
Jon tanda ekan, vafodan o'girmam yuz,
Ish ajrini esa harqachon U bilgay.

41

Xoqoniy, umring oz qoldi — faryod qil.
G'amxona dilingni bir nafas sen shod qil.
Bu jonni falak senga omonat bergan,
O'zingni bu minnat yukidan ozod qil.

[1] **Takbir** — islom an'anasida Allohni ulug'lash bilan bog'liq bo'lgan Allohu akbar — Alloh buюkdir iborasini talaffuz etish.

42

La'ling gulida shodai Parvin[1] bordir,
Lola kabi yuzda xoli mushkin[2] bordir.
G'uncha kabi bog'layin g'amingda zunnor[3],
Boshoq kabi nargisingda[4] o'q chin bordir.

43

Xoqoniy, agar ko'rsatsa yor ruxsor,
Tirnoq ila zar yuzingni qilma abgor[5],
Tirnoq ila zar yuz o'nglamas ish zinhor,
Sendan haqiqiy zarni istar yor.

44

Sensiz-da sening bilan visol qilgayman,
Dardimni to'kib, hasbi hol qilgayman.
Qoshida xayolingni(ng) xayolim bordir,
Payvand xayolingga xayol qilgayman.

45

Dil sen bilan-u, men esa tanho bunda,
Gavhar qo'lda qoldi-yu, daryo bunda.
Ko'p imtihon etma oshig'ing sabrini sen,
Sabrim tugadi kelguncha to bunda.

---

[1] **Parvin** — surayyo, hulkar: olti kichik yulduzning bir yerda jam bo'lishidan iborat yulduzlar turkumi.

[2] **Xoli mushkin** — qora xol.

[3] **Zunnor** — nasroniy dinidagilar beliga bog'laydigan chilvir. Islom mamlakatlarida g'ayri musulmonlar ham zunnor bog'lab yurishgan. Tasavvufda zunnor — haqiqiy mahbuba xizmati va toatiga bel bog'lash.

[4] **Hargis** — bo'tako'z; majozan: ma'shuqaning ko'zi. Tasavvufda amal orqali qo'lga kiritiladigan ilmning natijasidan shod-u xurramlik sifatida tushuniladi.

[5] **Abgor** — ahvoli xarob, nochor.

46

O‘ldirdi ishqing olim-u omiyni,
Zulf oshig‘i unutdi ezgu nomini.
Qop-qora xumor ko‘zing chiqarmish, ko‘rgil,
Butxonadan[1] Boyazidi Bistomiyni[2].

47

Toshdan toshga qancha yugurdik suvdek,
Har xor-u xas ozorini ko‘rdik suvdek,
Ketdig-u vatandan judo yurdik suvdek,
Har yerda shu xil ovora erdik suvdek.

48

Ishqini dilimga solgach ul hur nasab,
Men tushmasam o‘zga domiga yo‘qdir ajab.
Chumchuqday edim, Xudo haqi, donatalab,
Ul oy menga Humoy[3] deb qo‘ydi laqab.

49

Xoqoniy, agar rohatdan bo‘lmasa rang,
Ta’na qilma — falak bilan behuda jang.
Jamshid-u[4] Faridun[5] benasib qolgan mulk,
Bechoraga bo‘lmasa nasib gar nima nang?[6]

---

[1] **Butxona** — butparastlar ibodatxonasi. Tasavvufda lohut olami, ya’ni vahdati kull ko‘zda tutilib, ahadiyat zotining mazhariyati ma’nosida ham keladi.

[2] Bu ruboiy Boyazid Bistomiyga ham nisbat beriladi. Boyazid Bistomiy — Sulton ul-orifin — oriflar sultoni unvoni bilan mashhur tasavvuf shayxi, tayfuriya tariqatining asoschisi, olim, shoir (vafoti — 961).

[3] **Humoy** — kimning boshiga soyasi tushsa, o‘sha kishi baxtli bo‘ladi, deb e’tiqod qilinadigan afsonaviy davlat qushi.

[4] **Jamshid** — qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub buyuk podshoh.

[5] **Faridun** (*Afridun*) — qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdori.

[6] **Hang** — or, nomus, uyat.

50

Gul chehrasidan birov samar olgan emas,
Toki yuz etak dur u magar olgan emas.
Kuymay kishi yor vasligaetmas — hech kim
Bu rutbani[1] kuymayin jigar olgan emas.

51

Yoshlik agar falak kabi sarkash[2] emas,
Bas, misli tutundir o'sha — hech otash emas.
Noxushliklar xush edi u ayyomda,
Endi esa-chi, xushliklar ham xush emas.

52

Tuproq yuzingdan oladi nur goh-goh,
Manzil tutadi falakda go'yoki moh[3].
Bir marta yetishsa sarv[4] qaddingga, oh,
Yerga bosh urib yotar edi misli choh.

53

Miskin dil xalqdan vafo izlar edi,
Yo'ldan ozib, bir rahnamo izlar edi.
O'xshab mardi Xatoyiga Balx ichra,
Yoqib u chiroq do'st-oshno izlar edi.

54

Yoqqan meni ikki gavhari noyobdir,
Undan jigarim kabob, dilimda tobdir.

---

[1] **Rutba** — maqom, martaba, daraja.

[2] **Sarkash** — o'jar, qaysar.

[3] **Moh** — oy.

[4] **Sarv** — qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan ignabargli go'zal va xushqomat daraxt. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning kelishgan zebo qaddi-qomatini sarvga nisbat beradilar.

Bo‘lsa eshitishga sabring aytarman bu:
Yoshlik armoni, furqati ahbobdir[1].

55

Jonimda mening balo yukidan nima yo‘q?
Ko‘ksimda mening qazo[2] o‘qidan nima yo‘q?
Derlar: “Tun-u kun nola chekarsan nega?” — deb,
Menga tun-u kun ranj-u yig‘idan nima yo‘q?

56

Bir dam dilim eski g‘amdan emin[3] emas,
Dil dardi sabab jonim hech sokin emas.
Xotirjamlik menga sira uyg‘un emas,
Xotirjamlik bu dunyoda mumkin emas.

57

Qush dil o‘rtar navo qilsa, ishqdir,
Elchi g‘oyib tilini bilsa, ishqdir,
Borliq yo‘qlikka evrilsa, ishqdir,
O‘zingdan o‘zingni nima olsa, ishqdir.

58

Masih[4] kabidir sendagi jonbaxsh dam-ey,
Qanday sanayin ruhul-qudsni[5] sanam-ey,
Bir qil kabi bo‘ldim chekib g‘am-sitam-ey,
Qildan-da zaif ayladi meni bu g‘am-ey.

---

[1] **Ahbob** — do‘stlar, qadrdonlar.

[2] **Qazo** — taqdir, qismat. Alloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qanday bo‘lishini azaldan bilishi.

[3] **Emin** — tinch, osuda, xotirjam.

[4] **Masih** — Iso payg‘ambar. Uning qo‘li tekkan — silagan o‘likka jon kirar ekan. Shuning uchun ham ul zot al-Masih — silovchi deb ulug‘langan. Hafasi oshiqqa jon bag‘ishlaydigan ma’shuqaga ham Masih sifatini berishadi.

[5] **Ruh ul-quds** —pok, muqaddas ruh.

59

Xoqoniy, umra sosi g‘am bo‘lgaydir,
Mehr-u sitami falak baham[1] bo‘lgaydir.
Jonham tanga sitam bilan kirgan edi,
Chiqmog‘i uning yana sitam bo‘lgaydir.

60

Charx har kuni kin ustiga kin etgaydir,
Pastlar qo‘lida meni zabun[2] etgaydir.
Past bo‘ldim qo‘llar deb pastlarni bu charx,
Zora o‘ziga endi yaqin yaqin etgaydir.

61

Xoqoniy aylar falak jabrin yod,
Gar dil qushi bo‘lsa qafasidan ozod,
Raqs etgusi dil aylaganidek faryod,
Faryodda azal[3] va’dasini qilgay yod.

62

Darvesh[4] kishida xulqi ilohiy bo‘lgay,
Shundan u vujud mulkini(ng) shohi bo‘lgay.
Yer qa’ridan toki falak toqigacha,
Har bir xilqatning[5] ogohi bo‘lgay.

---

[1] **Baham** — birga.

[2] **Zabun** — bechora, ojiz, notavon; mag‘lub.

[3] **Azal** — yaratilish kuni. Alloh taolo olamni yaratishdan burun insonlarning ruhidan va’da olgan, Xudo odamlarning taqdirini belgilagan kun.

[4] **Darvesh** — tasavvuf istilohotida izlovchi, istovchi ma’nosini ifodalab, so‘fiy, faqir, oshiq, orif, sohibdil, sohibasror, sohibnazar kabi o‘zini Haqqa bag‘ishlagan kishilarning timsoli bo‘lib keladi.

[5] **Xilqat** — yaratilish, paydo bo‘lish.

63

Bir kuni falak baxt agar keltirgay,
Unut dildan yor-da xabar keltirgay.
Dil otashini firoq olib ketsa agar,
Visol yana jonimga asar keltirgay.

64

Bir toifa istaydiki, tazvir[1] qilsa,
Hattoki shariatni-da tag‘yir[2] qilsa.
Tag‘yir etib bo‘lmaydi qazo hukmini hech,
Har qanchaki bu guruh tadbir qilsa.

65

Ishq ko‘yida yomonni mudom so‘ymaslar,
Orig‘-u xunuklarni tamom so‘ymaslar.
Sodiq oshiq bo‘lsang, o‘limdan qochma,
Har narsa agar bo‘lsa harom so‘ymaslar[3].

66

Til zikringdan bir dam xomush bo‘lmas,
Yoding xayolimdan faromush[4] bo‘lmas.
Nomingni zikr etolmagay hech bir til,
Har uzvi vujudning
to quloq — go‘sh[5] bo‘lmas.

---

[1] **Tazvir** — makr, hiyla, firib.

[2] **Tag‘yir** — o‘zgarish, o‘zgartirish.

[3] Bu ruboiy Shayx Imodiddinga ham nisbat beriladi.

[4] **Faromush** — yoddan chiqqan, unutilgan.

[5] **Go‘sh** — quloq.

67

Dil dardiga tadbiru davo aylanglar,
Yor oyog‘i ostiga fido aylanglar.
Devonamanu[1] dasht uloqib ketgim bor,
Majnun kabi zanjirni ravo aylanglar.

68

Mendek kishi yolg‘iz, beyor bo‘lmasin-ey,
Bechora, giriftor, nochor bo‘lmasin-ey.
Keltirdi meni jonga bu hijron dardi,
Yo‘q joyda tabib.hech bemor bo‘lmasin-ey.

69

Har bir kishikim, ahli ibodat bo‘lgay,
Ruxsorida shu’lai saodat bo‘lgay.
Bunday kishilardan barcha faxr etadi,
Xizmatlarida baxti irodat[2] bo‘lgay.

70

Umrim bog‘ida o‘sar mening dard-u fig‘on,
Sarvu gul-u lolani olib ketdi xazon.
G‘am dastidan umrim xirmonida, ishon,
Yo‘q don-u boshoq, qolgani xashak-u somon.

71

Ey Xoqoniyning g‘amidan bo‘lgan shod,
Xoqoniy xokini g‘aming qildi bod[3].

---

[1] **Devona** — ishqqa oshig‘u hayron-u sargashta bo‘lgan va sulukka mansub kishi. Oshiqning mag‘lubiyati ham devonalik deyiladi.

[2] **Irodat** — 1) istak, xohish; 2) ixlos, e’tiqod.

[3] **Bod** — el, shamol.

Yo‘lingga Xoqoniy joni bo‘lsin qurbon,
Bir kun Xoqoniyni agar etsang yod.

72

Ul tunki, dilim senga mehmon bo‘lgay,
Jon manzili naq ravzai rizvon[1] bo‘lgay,
Jonim senda, agarda farmon bo‘lgay,
Bu kecha tanim ham hatto jon bo‘lgay.

73

Bildingmi, nega bir ismi Haqning G‘affor?[2]
Osiy[3] kishilarni afv etish ham darkor.
Gunoh agar etmasang jaholat birlan,
Afv aylashini, demak, kutarsan bekor.

74

Qoshingda xijil, ey yuzi alvon, gul-u sham,
Rashkingda to‘kar ko‘z yoshi-yu qon gul-u sham.
Orzu qilaman men gul-u shamdek yuzni,
Chunki gohi alvon, gahi xandon gul-u sham.

75

Ziqna kishining va’dasi doim yolg‘on,
Tarketuni — ayronida suv ko‘p har on.
Bu toifa yolg‘onchi tongdek bo‘ladi,
Undan sira ham yorishmagaydir iymon.

---

[1] **Ravzai rizvon** — jannat bog‘lari.

[2] **G‘affor** – Allohning go‘zal ismlaridan biri: bandalarning ayb-u gunohlarini yopuvchi, kechiruvchi.

[3] **Osiy** — gunohkor, itoatsiz, isyon qiluvchi. U kufr yoki shirkka ketmagan bo‘lsa, har qancha katta-kichik gunohlariga qaramay, mo‘min-musulmon sanaladi va chin dildan tavba qilib, ularni qayta takrorlamasa, gunohlari kechiriladi.

76

Ko‘rsatdi yana bahor ruxsor, ey dil,
Bas, uzma qadah[1] ketini zinhor, ey dil,
Endi gina ochdi yuz gulzor, ey dil,
Bizmizu qizil may-u labi yor, ey dil.

77

Ko‘ksimdagi otash osmonga sig‘mas,
Bu oh-u fig‘onim hech yonga sig‘mas.
Dedingki: “Jahondan nima darding bordir?”
Bir dardim bor, hatto jahonga sig‘mas!

78

Fe’lini bilib, hamisha bergayman yon,
Qo‘zg‘algusi tushdi deb qorong‘i jonon.
Norozi bo‘lib, yoqamdan olgaydir dil:
“Qol ushlab uni — bo‘lmasa bergayman jon!”

79

Jabr aylasang-u, xafa qilib ketsang ham,
Dodimga mening etmasang-u, yetsang ham,
Men bo‘sa talab qilsam-u sen aytsang uzr,
O‘zingda erk baxsh etmasang-u, etsang-u ham.

80

Bugun quruq jonga mehmonim o‘zing,
Jonimga qilay tuhfaki, jononim o‘zing.
Shu lahza g‘amingdan o‘laman koshingda,
Dardingni olay, kelki, darmonim o‘zing.

[1] **Qadah** — tasavvufda pirning ilohiy ma’rifat mayiga limmo-lim qalbi.

81

Ey jon-u tanimni qilgan maskani g‘am,
Ochildi dilim gulshanida savsani[1] g‘am,
To chulg‘adi jismimni butun gulxani g‘am,
G‘am dushman-u menga, men esa dushmani g‘am.

82

Xoqoniy kim, bo‘ldi sultoni so‘z,
To‘ldi uning gavharidan koni so‘z,
Qoldirdi o‘zidan cho‘ng xirmoni so‘z,
Bo‘ldi uniki yolg‘iz maydoni so‘z.

83

Ey dil, so‘naverma, dardu g‘am paydo qil,
Ey g‘uncha, dog‘i shabnam paydoqil.
Dil mulki Sulaymoni[2] bo‘lishni tilasang,
Poklik uzugini ham paydo qil.

84

Mug‘lar[3] ko‘yi bo‘ldi mudom manzilim-ey,
Hal bo‘ldi Yamani[4] ishq aro mushkulim-ey.
G‘amga nega tuhmat qilayin — yo‘q nafi hech,
Hasrat mayiga to‘la qadahdir dilim-ey.

---

[1] **Savsan** — gulsapsar.

[2] **Sulaymon** — shon-shavkatli podshoh va payg‘ambar. Uning mol-mulki had-hisobsiz bo‘lgan. Unga Xudoning sirli va muqaddas ismi — Ismi A’zam ma’lum bo‘lgan va bu ism uning sehrli uzugiga naqsh qilingan. Bu uzuk vositasida u nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-u jinslarga, tabiat hodisalariga ham hukmini o‘tkaza olgan.

[3] **Mug‘** — otashparast; ba’zan otashparastlar ruhoniysi ma’nosida ham keladi; majozan: piri komil.

[4] **Yaman** — a’lo sifatli la’llari bilan mashhur bo‘lgan Arabiston yarim orolining janubiy qismidagi mamlakat.

85

Bog‘ gul shamidan bo‘ldi bu asno ravshan,
Lola cho‘g‘idan bo‘ldi-ku sahro ravshan.
Otash kabi qizil yuzining shu’lasidan
Bo‘ldi ko‘zimiz chirog‘i hatto ravshan.

86

To ayladi manzilini sahroda dilim,
Sarmoyani boy berdi bu savdoda dilim.
O‘ziga qilib ajalni paydo-da dilim,
Umrini xazon ayladi đunyoda dilim.

87

Xoqoniyda agarchi bordir pinhon,
Yoshli ko‘z-u kuygan dil u bir xastajon.
Vaslingni tilab yo‘lladi u, ey jonon,
Jon tuhfa-yu, ko‘z mujda-yu, ko‘ngil qurbon.

88

Ofat bu hayot, bechora jonim yo‘q et,
Soya menga parda — nishonim yo‘q et.
Sensiz bujahon bosh-u oyog‘i yo‘qdir,
Bir noz-u karashmada jahonim yo‘q et.

89

Sendan tig‘ urush, mendan esa asrash jon,
Sendan yaralash, mendan esa sabr har on.
Dil olsang agar, jonni-da aylay qurbon,
Senga jon olish, menga berish jon oson.

90

Xoqoniy, etar jafoni gar el odat,
Sen qaytar-u, yaxshilik, qilma minnat.
Qil doimo yaxshilik jahon ahliga-yu,
Ko‘rsang-da yomonlik, chekma hasrat.

91

Xoqoniy, kechdi umring — ovoz ayla,
Bo‘lmoqda ado dil-da, uni soz ayla.
Bu jonni falakdan omonat olgansan,
Qaytar o‘ziga — minnatini oz ayla.

92

Ko‘nglim bo‘lsin, desang, misoli ko‘zgu,
O‘n aybu qusurni tark ayla mangu:
Hirsu hasadu haromu keku gina,
Kibru riyo, makru g‘iybat, mumsiklik bu.

93

Yuzingni qilay deb zulfing himoya,
Soldi yuzing uzra u mushkin soya.
Ey jannat huri, menga rostini ayt:
Kim berdi senga sut, kim bo‘ldi doya?

94

May majlisida meni agar yod etsang,
Yoding bilan ozurda dilim shod etsang.
Bedodni qo‘yib, yetsang agar dodingga,
Bu ranj-u azoblardan ozod etsang.

PAROKANDA SHE'RLARDAN

Molning ozi rohat, ko'pi mashaqqat,
Shundan xohlamaydi aql mol-dunyo.
Xuddi mayning ozi ko'tarib ruhni,
Ko'pi aylaganday aqldan judo.

* * *

Xoqoniy agarchi fazl ichra tanho,
Davlat sira unga bo'lmadi hamdam.
Dunyo mushuk-sichqon o'yini go'yo:
Fazli ko'p kishining mol-dunyosi kam.

* * *

Farovon yashashni istadim, ammo,
Nokaslardan qabul qilmadim ehson.
Ko'p narsa istadim — bermadi dunyo,
Ozini qilmadim qabul hech qachon.


* * *

Oq tola ko'rindi sochim ichida,
Uni ko'rib dilni qopladi alam:
Nazarimda, mening eng ahil do'stim
Eng yomon dushmanga aylandi bu dam.

* * *

Quyosh tufayli ko'z ko'rar osmonni,
Quyoshsiz hech ko'rib bo'larmi uni?

IMODIDDIN NASIMIY



NASIMIYNING HAYOTI VA IJODI

I

Sayid Ali Imodiddin Nasimiy 1369–1417-yillarda bugungi Eron, Turkiya, Ozarbayjon, Iroq, Suriya o'lkalarida yashab o'tgan mashhur mutasavvuf shoirdir. Ahmad Yassaviy Turkiston turkchasida ilk bor "Devoni hikmat"ni yaratib, xalq orasida islomiy tushunchalarning tarqalishiga va ona tilimizning adabiy til o'laroq jonlanishiga qanchalar buyuk hissa qo'shgan bo'lsa, bizningcha, Nasimiy ham turkiy devoni bilan ozarbayjon adabiyoti va tilining ravnaqiga o'shanday ulug' xizmat qilgan.

Ozarbayjon olimlarining ta'kidlashicha, u Shirvonning she'r va san'at beshigi Shamaxi shahrida tug'ilgan. Nasimiy taxallusi xususida o'zi shunday deydi: "Adimi haqdan Nasimi yozaram. Bil, bu ma'nidanki, siymam yo zaram". O'rta asrdagi ayrim manbalarda uning Bag'dodning Nasim qishlog'ida; shuningdek, Bursada, Tabrizda tug'ilganligi haqida ham fikrlar uchraydi (Imadədin Nəsimi. Sechilmish əsərləri. Bakы -1987, 3 b.).

Shamsiddin Somiyning mashhur "Qomus-ul a'lom"iga qaralsa, shularni o'qiysiz: "Nasimiy (Imodiddin) mashohiri shuaro va ahli tasavvufdin o'lub, Bag'dodning Nasim nohiyasindin edi. Sulton Murodxoni avval zamoninda diyori Ruma daxi kelmishdi... (6-jild, 4576-bet. Istanbul-1312 xijriy, mil.1898).

Demak, shoirning Nasimda tug'ildi deganlar bu kitobga suyangan bo'lishi mumkin; shoir birinchi sulton Murod zamonida Turkiya shaharlarida yashagani ham yuqorida ta'kidlanmoqda.

Shoirning akasi Shamaxidagi Shoxandan qabristoni ko'milganiga suyanib, Solmon Mumtoz uning shu shaharda tug'ilgan, deydi.

Ba'zi tadqiqotchilar uning kelib chiqishini turkmanlarga bog'laydi. Menimcha, buning ababi, Nasimiyning "Iroq" devonida Iroqqa urg'u berilishi, asarlarining tili Iroqdagi turkmanlar tilini es-

latishi bo'lsa kerak. Bugunda ham Iroqda bir necha turkman shahar va qishloqlari mavjud bo'lib, u yerda turkman tilida ijod qiladigan olimlar, shoirlar, san'atkorlar bor.

Nasimiy bolaligida arabcha, forschani yaxshi o'rgangan. Turkiyda ijod qilishi bilan birga , bu ikki tilda ham asarlar bitgan.

Shoir ozarbayjon tilidagi "Devon"i (taxminan o'n besh ming satr) bilan Ozarbayjon tilidagi mumtoz she'riyatning boshlang'ichi, otasi sanaladi.

Nasimiyning ijodkor sifatida shakllanishida Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Nizomiy, Attor, Sa'diy kabi ulug' shiorlarning ta'siri katta.

Shamaxida yasharkan, Nasimiy majlisul ulamoni tashkil etadi, unda shoirlar, cholg'uchilar, qo'shiqchilar, olimlar qatnashgan.

Ustozi Fazlullohning qatlidan so'ngra u Shamaxini tark etib, Bag'dodga yo'naladi, Iroq, Shom, Rumning turli shaharlarida yashaydi. Bu uning g'azallarida ham alohida eslanadi.

Nasimiyshunos olim Elyor Safarlining yozishicha, o'limga hukm qilingan Nasimiy Xalab zindonida yotarkan, "Hibsiya" bitgan. (*Imadədin Nəsimi. Sechilmish əsərləri. Bakы -1987, 6–7 b.)

(Tarixdagi takroriylikka qarang: Xoqoniy ham "Hibsiya" bitgan; XX asrning qahramon shoiri Xilil Rizoda ham "Tutqun" kitobi bor.)

Turkiyalik olim A. Azmi Bilgin "Islom ensiklopediyasi"dagi "Nasimiy" nomli maqolasida ta'kidlaganidek, shoirning tug'ilgan yeri haqida aniq fikr yo'q; turli, ziddiy ma'lumotlar bor xolos. Forsiy manbalarda uning tug'ilgan yeri Sheroz yoki Shirvon; 16-asr usmonli tazkiralarida, jumladan Oshiq Chalabiyda Diyorbakr, Latifiyda Bag'dod deyilgan. Asqaloniyda Tabriz deya ta'kidlangan. Uni turkman aslli, arablashgan turk va hokazo deyilsa ham, ona tili turkcha bo'lgani shubhasizdir.

U yoshlik davridayoq tasavvufga berilib, o'sha zamonda hurufiylik qarashlari va "Jovidonnoma" asari bilan tanilgan Fazlulloh Naimiy (1339–1401)ga shogird tushadi. Keyinchalik uning qiziga uylanadi. U bilan Shirvonda, Shamaxida, Bokuda hurufiylik fikrlarini tarqata boshlaydi.

Naimiy fikr-u qarashlari bilan islomiy muhitni buzayotgan osiy sifatida ayblanib, qatl etilgach, Nasimiy Shamaxini tark etib, Rum diyoriga yo'naladi. Bu yillarda uning turkcha asarlari bu mintaqada ham biroz tanilib qolgandi. Somiy aytganidek, u Murodi avval hukmronligi davrida (Birinchi Murod 1389-yilda Ovrupoda jang maydonida o'ldirilgan; u to'qson ming kmli o'lkani 500 ming kmli saltanatga aylantirgan) Bursaga borgan. Biroq hurufiy qarashlari bois u yerda e'tibor topmaydi. Anqaraga Xoji Bayram valiy huzuriga boradi. Ammo hurufiyligi ma'lum shaxs o'laroq huzurga qabul etilmaydi. Azmi Bilginning ta'kidlashicha, "Faqat Alisher Navoiyning Nasimiy to'g'risida maqtov to'la so'zlar so'ylashi bois uning O'rtaosiyo turk dunyosida muhim shaxs sifatida e'tibor topgan".

Shundan keyin Nasimiy o'sha paytda hurufiylar panohiga aylangan Shomning Xalab shahriga jo'naydi. Ibn Xojar Asqaloniy "Inbo ul qumr"da yozganidek, Xalabda Nasimiy shayx o'laroq taniladi, muridlari ko'payadi. U shoirlik iqtidorini hurufiy qarashlarini tarqatish yo'lida sarflaydi. Ya'ni, "Allohning inson yuzida tajalliy etishi", "inson vujudidagi barcha a'zolarni harflardagi izohi" kabi tushunchalarni ommaga singdirishga urindi. Bu fikrlar sunniy doiralarni g'alayonga soldi. Shoir va shayxning fikrlaridan nafaqat omma, balki Tulqodir o'g'illari sulolasidan Alibek va qardoshi Nosiriddin, Qorayuluq Usmon, Qoraqo'ylilardan Jahonshoh kabi hukmdorlar ham ta'sirlangani atrof o'lkalarga yoyilgandi. Nihoyat, Xalab ulamosi Nasimiyning uluhiyat iddao etgani, qarashlari islomga zid ekani sababli uning o'limiga fatvo chiqardi. Fatvo Mamluklar sultoni Muayyad va shayh Mahmudiy tomonidan ma'qullandi. Hukm saltanat noibi amir Yoshbek tarafidan amalga oshirildi: shoirning bo'yni sindirilib, terisi shilib olindi. Qabri Xalabda, Nasimiy takyasidadir.

Nasimiy she'rlarida ozariy turkchasi, Iroq turkmanchasi, o'g'uz shevasining boyligi mujassamlashgan. Shoir asarlari tilining xalq tiliga yaqinligi uning ommaga keng tarqalishiga, sevib o'qilishiga yo'l ochgan. Uning adabiy merosi asosan quyidagilardir:

1. Turkcha "Devon". Devonning eng qadimgi ikki nusxasidan biri Ozarbayjonda, biri Istanbulda saqlanmoqda. Bokuda 1926, 1970 -yilda bosilgan. Shoirning uch jildlik "Asarlar"iga (1973)

ham kiritilgan. Anqarada ham 1990, 2002-yillarda nashr qilingan. "Devon"da uch masnaviy, 457 g'azal, 4 mustahzod, bir murabbaa, uch tarjiband, 315 tuyuq, 4 bayt mavjud.

2. Forscha "Devon". Xijriy 1260-y. Istanbulda, 1371, 1382-y. Tehronda, 1972-y. Bokuda, 2005-y. Arzirumda bosilgan. Unda 290 g'azal, 7 qasida, 5 masnaviy, bittadan tarjiband, muxammas, tarkibband, musammat, 85 ruboiy, 20 qit'a, 3 arabcha va arabcha-forscha mulammo, g'azal mavjud.

3. "Muqaddimatul haqoyiq" nomli nasriy asar. Fazlulloh Naimiyning "Jovidonnoma"si asosida bitilgan bu asar diniy masalalarga bag'ishlangan; xususan e'tiqodga oid mavzular harflarga bog'liq holda bayon etilgan.

Nasimiy nomi va asarlari, yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy davridayoq Turkistonda mashhur edi. O'zbekistonda uning asarlari bir necha bor nashr etildi. Shoirning Xolid Rasul nashrga tayyorlagan "Asarlar"i 1977-yilda Mirtemir, Xolid Rasul, Asqar Qosimov tarjimasida bosildi. "Men bu jahonga sig'masman" nomli g'azallar va to'rtliklar kitobi Usmon Qo'chqor va Ergash Ochilov tarjimasida 2012-yilda chop etildi. Shoir tug'ilganining 650 yilligi munosabati bilan 2019-yil Ozarbayjonda Nasimiy yili deb e'lon qilindi. Toshkentdagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi tashabbusi bilan Nasimiyning "Jononni sevarman" nomli g'azallar kitobi tarjimamizda nashr qilindi. Bu tarjimalarning barchasi o'zbek kitobxonini shoir ijodi bilan tanishtirishda o'z xizmatini o'tamoqda, albatta.

II

Shu o'rinda Nasimiy va o'zbek adabiyoti mavzusidagi fikrlar bilan o'rtoqlashmoq foydali deb o'ylaymiz.

Imodiddin Nasimiy ozarbayjon adabiyotidagi ona tilida yozgan ilk so'fiy, faylasuf shoirlardandir. Turkiston mumtoz adabiyotida, ya'ni qadimgi o'zbek adabiyotida ham mashhur so'fiy shoirlar bor, biz bu yerda Nasimiy bilan ular ijodidagi o'xshash yo'nalishlarni tilga olmoqchimiz.

Nasimiy Haqqa oshiqligi bois, asarlarida Allohni vasf etib, uni insonlarga tushuntirishni o'z ijodining bosh yo'nalishi deb bilgan. Shoir she'rlari undan oldin va keyin yashab o'tgan bir qator o'zbek klassik shoirlari asarlari bilan qiyoslanganda, ko'plab o'xshash va yondosh yo'nalishlar mavjudligi ayon bo'ladi.

Ma'lumki, Nasimiy ham o'zidan avval yashab o'tgan Mansuri Xalloj kabi, mashhur o'zbek shoiri Mashrab misoli dorga osib o'ldirilgan. Nasimiy insondagi ilohiy ishqni, oshiqlikni bayon etarkan, bir necha g'azalida "analhaq" degan Mansur timsolidan foydalanadi.

Quyidagi baytida mansur so'zini bir necha anglamda qo'llab, shoirlik san'atini ko'rsatgan:

Kel, osil dorga o'zing Mansur bilan Mansurvor,
Oqibat mansurini Mansur osar o'z doriga.
Boshqa bir g'azalida esa shunday deydi:

Ey "analhaq"ni degan Mansur,
shu on sen dorga chiq,
Oxirat dorin unutmay, tanla bu kun dorini!

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish lozim: o'zbek mumtoz adabiyotida Mansur mavzusi o'n birinchi asrda yashagan Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat"ida keng batafsil tasvirlangan, undagi ikkita hikmat Mansurga bag'ishlangan. 9-hikmatda shunday deyiladi:

Oshiq Mansur "analhaq"ni tilga oldi,
Jibril kelib, "analhaq"ni birga aydi,
Jibril kelib, boshing ber,
deb yo'lg'a soldi,
Dorga osilib, diydorini ko'rdim mano.
Mansur kelgach, dor egilib, o'zi oldi,
Botin ko'zi ochiqlari hayron qoldi...

22-hikmatda esa, Mansurni johil mullalar ko'plashib, nohaqdan o'ldirgani ta'kidlanadi:

Aytmagil "analhaq" deb, kofir bo'lding Mansur deb,
Qur'on ichra buldir deb, o'ldirdilar ko'plashib,
Bilmadilar mullolar "analhaq"ning ma'nosin,
Qol ahliga hol ilmin Haq ko'rmadi munosib.
Rivoyatlar bitildi, holin ani bilmadi,
Mansurdek avliyoni qo'ydilar dorga osib...

Yassaviyga zamondosh so'fiy shoir Sulaymon Boqirg'oniy ham Mansurga munosabatini bunday ifodalagan:

Qachon bo'lg'ay visoling, jamolingni ko'rsam man,
Mansur yanglig' bo'lubon, dorda majlis qursam man,
Nazar teksa ul zamon, ochilur chechak ming alvon,
Farah qilur bunda jon jondin kechib o'lsam man.

Demak, Turkistonda o'n birinchi asrdayoq Mansurni Haq oshig'i, avliyo deb bilingan. Shu bois ham Nasimiy ijodi umuman to'g'ri tushunilgan deyish mumkin. Faqat hukmron doiralar hurufiylik kabi farqli tushunchadagi insonlarga, jumladan, Nasimiyga ham jazo berishgan. O'n oltinchi asrda yashagan atoqli o'zbek shoiri Boborahim Mashrab ham she'rlari to'g'ri baholanmagani uchun xuddi Nasimiy kabi Balxda osib o'ldirilgan.

Yassaviydek Turkiston piri Mansurga ijobiy munosabat bildirgani uchun, bizningcha, Nasimiydan keyin, o'n beshinchi asrda yashagan buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy "Nasoimul-muhabbat" asarida shoirni ulug'lab, o'z davrida unga teng keladigan shoir bo'lmaganini ta'kidlaydi: "Sayid Nasimiy — Iroq va Rum tarafidag'i mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'on mulk ahlig'a aning she'ri muqobalasida hamonoki she'r yo'qtur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig'a muttaham qilib, shahid qildilar. Mashhuri mundoqdurki, terisin so'yar hukm bo'libdur. Ul holatda bu she'rni debdurki, nazm:

Qibladur yuzing, nigoro, qoshlaring mehroblar,
Surating mus'haf vale xol-u xating e'roblar.

Va bu she'rning taxallusi ushbu muddaog'a doldurkim, nazm:

Ey Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,
Qo'y, teringni so'ysa, so'ysun bu palid qassoblar".

Nasimiy insonni ulug'lashni eng yuksak cho'qqiga olib chiqqan. "Ey bashar suvratli rahmon, hey malaksiymo habib!" deya odamzotni inson suvratidagi iloh, farishta deya ulug'laydi. Yana shunday tavsiflaydi:

Yo rab, ul pokiza javharkim, bashardir surati,
Qaysi olamdan kelur, qaydan oti inson bo'lur?

Va "miskinlikdan", ya'ni oddiy muhitdan xalqning boshliqlari yetishib chiqishini ham ta'kidlaydi:

Nafsini bilgan odamzod o'z-o'zin anglar, tanir,
Kim tanir Allohni, ul bir qul ekan, sulton bo'lur.

Ya'ni ommani boshqarayotgan insonlar avvalo o'z nafsini boshqara olish qobiliyatini egallashi, o'rganishi, imonli bo'lishi, shundan keyingina xalqni — Allohning rahbarlarga omonat tarzida berayotgan boyiligini (inson eng sharafli, eng qadrli boydikdir) ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Surati Rahmonni inkor etmish ul devi rajim,
Ul go'zal Odamni inkor aylagan shayton bo'lur,

derkan, Nasimiy xalqni ardoqlashga, Alloh yaratgan ilk Odamning, ilk payg'ambarning nasllarini ezmaslikka, ayashga, unga xizmat qilishga chorlaydi. Buning imondan ekanligini, agarda buning teskarisini qilsa, u inson shayton qavmiga kirib qolishini uqtiradi.

Nasimiyga ko'ra, insondagi jon jonon bilan muqimdir; agar jonda imon bo'lmasa, jonon ham yo'q, jononga bo'lgan ishq ham yo'q, hayot qorong'ulikka aylanadi.

Kimgaki gar ta'sir etmas suvrat-u ishqing sening,
Kezgan ul jismindagi ma'nida jindir, jon emas.

Yana bir g'azalida Nasimiy Allohning uyi ko'ngil ekanligini takror esalatadi:

Eng go'zal bir kundir u, nevchun "analhaq" demasin,
Bas, nedan dorga osilmish Mansuri farzonasi?
Kofirin butxonasi, mo'minda bor baytul-haram,
Men uchun yor eshikidir Ka'ba-yu butxonasi.

O'zbek klassik adabiyotida Nasimiyga ruhdosh, o'limi, fojiasi ham o'xshash shoir Boborahim Mashrabdir. U ham bir necha g'azalida Mansurga murojaat qiladi:

Vahdat mayini piri mug'on ilgidin ichtim,
Mansur kabi boshimi dorga tuta qoldim.
Mashrabning boshqa bir g'azalida shunday:
Mansuri Xallojdek ichib sharobi antahur,
Sudratib dor ostig'a olib boroyin dermusan?

Nasimiy jon va badan insonga omonat ekanligi, unga zulm o'tkazmaslik kerakligi haqidagi fikrni quyidagi baytda sodda va mohirona ifodalagan:

Tanda jon, bilkim, qo'noqdir, ranjitib qo'ysang — gunoh,
Ikrom aylang, der rasul ham, ehsonli bo'l mehmona san.

Insonning bu o'tkinchi dunyoda mehmonligi haqidagi tushuncha o'n yettinchi asrda yashagan o'zbek shoiri So'fi Olloyorda shunday ifodalangan:

Qo'noqmiz bir kecha dunyoyi hecha,
Na ishlar kechadir bizdin bu kecha.
Bu tunda tut butun iymonimizni,
Saboh qutqor bu tundan jonimizni.

Nasimiy jonon yuzini Mus'haf deydi:

Jamoling sirri "Qur'on" manzilidir,
Dudog'ing obi hayvon manzilidir.

Boshqa bir g'azalida ham shu fikrlarini takrorlaydi:

Nasimiy bizga "Furqon" der qoshing-u kipriging, zulfing,
Jamoling Mus'hafin har dam o'qir, irfon etilgandir.

O'zbek shoiri So'fi Olloyorning qarashi ham shunga o'xshash: uning aytishicha, odam Qur'onning yuziga boqarkan, uni o'qirkan, imon bilan o'qishi kerak:

O'qur bo'lsang, o'q ur nafsing ko'zina,
Qara chin ko'z bilan Mus'haf yuzina".
Nasimiy ko'ngilni Allohning uyi deydi.
Turar joying shu ko'nglimdir, nigoro,
Qo'noq bo'l, kel, u mehmon manzilidir.

O'zbek shoiri Huvaydo (vaf. 1781) ham shu fikrda:

Bir buzuq vayronadir ul uydakim yor o'lmasa,
Yor ila obod erur ul uyda ag'yor o'lmasa.

Nasimiy insonning murabbiysi iymon, irfon, bilim ekanligini shunday bayon qiladi:

Bildim, tanidim olam-u ma'budni bilim-la,
Shunday bilamankim, buni "Qur'on"gina bilgay.

Mashrab esa, ishqi shiddatining yuksakligidan, Mansuri Xallojdek, Nasimiydek jo'shib shunday deydi:

Ishq surasidin gar o'qusam sura bayakbor,
Beshubha biling, oyati "Qur'on" chidayolmas!

Nasimiy g'azallarida insonning ibodat yeri uning ko'nglida ekanligini, har iymonli inson ko'ngli bir Ka'ba ekanligini ta'kidlaydi:

Firoq-u mehnat-u hajring yiqibdir bu ko'ngil shahrin,
Visolingsiz hamon vayron, ko'rinmas bayti ma'muri.

Mashrab ham "Bo'lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na qilay!" deya bir g'azalida faryod urarkan, shunday deydi:

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?
Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni ne qilay?

Nasimiyning "Naylayin" radifli g'azalidagi baytlar ham yuqoridagi mazmundadir:

Ey musulmonlar, bilingkim, yor ila xushdir jahon,
Menki yordan ayru tushdim, bu jahonni naylayin?

Nasimiy inson hayotidagi eng muhim tamal imon ekanligini, imonsiz inson inson emasligini, imonchsizlik va jaholatda o'sgan nodonni tarbiyalab bo'lmasligini ham ta'kidlaydi:

Suhbat etma, suhbat etma hech qachon nodon bilan,
Tarbiya nodonga bersang, bil, tag'in nodon bitar.

Alisher Navoiyda ham shunga o'xshash quyidagicha ifodalangan:

Kim kuchuk birla xo'tukni qancha qilma tarbiyat,
It bo'lur, eshshak bo'lur, bo'lmaslar aslo odami.

Nasimiydagi ba'zi bayt-u ifodalarni eslatadigan misralar o'zbek mumtoz shoirlarida ham uchratish mumkin. Nasimiy insonda ilohiy suvratni, farishta va hur-u g'ilmonlarga xos xislatlarni ko'radi:

Toalalloh, na dilbarsan bu husning-la, bu lutfing-la,
Qachon ko'rsam, ko'zim to'ymas bu dunyo mahliqosindan.

O'zbek shoiri Mashrab ham shu fikrda:

Malaksan yo bashar, yo hur-u g'ilmonsan, bilib bo'lmas,
Bu lutf-u bu nazokat birla sandan ayrilib bo'lmas".

So‘zimiz oxirida Nasimiy va o‘zbek adabiyoti mavzusi juda katta mavzu, bu yo‘nalishda ko‘plab qiziqarli tadqiqotlar yaratish mumkinligini ta’kidlashni istardik.

Haq va haqiqat oshig‘i Nasimiy “Fors devoni”dagi bir g‘azalida shunday deydi:

Haqiqat bir qilichdirki, butun olam unga qindir,
Agar olam buzilsa, men bo‘lurman xanjari burro.

Nasimiy bu fikrlari, bu shiddati, bundayin insonparvarligi, olamparvarligi bilan o‘z zamonasining qahramonidir. Bizningcha, bu g‘oyasi bilan butun zamonlarning qahramonidir. Madaniy hayotda arab, fors, turk tili baravar qo‘llanilgan bir davronda yetishgan ma’naviyat botiri Imodidddin Nasimiy o‘z qarashlari va she’rlari bilan barcha asrlarga xizmat qilib kelgani kabi, bizning davrga ham yuksak ma’naviy xizmat qila oladigan ulug‘ shoirdir.

Tohir Qahhor,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi

Foydalanilgan ayrim manbalar

1. *Imadəddin Nəsimi.* Sechilmish əsərləri. Tertib yedəni Əljar Səfərli. "Maarif" nəshrijjati Bakı 1985.

2. *Imadəddin Nəsimi.* "Irak Divanı". Tertib yedəni Gəzənfər Pashajev. "Jazıchı" nəshrijjati Bakı 1987.

3.*İmadəddin Nəsimi* Seçilmiş əsərləri. Tərtib edəni Həmid Araslı. "Lider neşriyyat', Bakı 2004.

2. *Ahmad Yassaviy.* "Devoni hikmat". Nashrga tay. Rasulmuhammad Ashurboy o'g'li Abdushukurov. — Toshkent, G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.

4. *Sulaymon Boqirg'oniy.* "Boqirg'on kitobi". She'rlar va doston. Nashrga tay. Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Raf'iddin. Toshkent, "Yozuvchi" nashriyoti 1991,

5. *Alisher Navoiy.* Asarlar. O'n besh tomlik. G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, — Toshkent 1965, 15 t. 182–183-b.

6. *Mashrab.* "Tanlangan asarlar". Nashrga tay. Abdurashid Abdug'afurov. — Toshkent 1971, G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 56-b., 85-b.

7. *So'fi Olloyor.* "Sabotul ojizin", nashrga tay. Rashid Zohid. — Toshkent, "Cho'lpon", 1991, 14-b.

8. "Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. C.15. Özbek Edebiytı, c.II. haz. Tahir Kahhar, Ankara 2000, s.106.

9. *A. Azmi Bilgin.* "Nesimi" — İslam Ansiklopedisi, 33 cild, Türkiye Diyanet Vakfı yay. 2007: s.3-5.

10. *Sh. Somiy.* Qomus ul-a'lom. Istanbul-1312 xijriy, mil.1898 Cilt 6, 4576 b. *Şamsettin samî.* Kamusu"l A"lam. — Tıpkıbasım (faksimil nashr, Ankara 1996.)

G‘AZALLAR

Jononni sevarman, buni bir jongina bilgay,
Ko‘nglim tilagin dunyoda jonongina bilgay.

Bildim, tanidim olam-u ma’budni bilim-la,
Shunday bilamankim, buni “Qur’on”gina bilgay.

Darvish bo‘libon ish yuritar hokimi orif,
Bunday hukumat qadrini sultongina bilgay.

So‘fiymidir ul jomi musaffosi-la mashg‘ul,
Pinhona icharkim, uni shaytongina bilgay.

Davron qadahin davrada sun soqiyi davron,
Davringni, qadah davrini davrongina bilgay.

Ishq dengizi ko‘msin bu ko‘ngil kemasini, qo‘y,
Dengiz va uning foydasini ummongina bilgay.

Hech kimsa Nasimiy so‘zini kashf eta olmas,
Bir qush tilikim, oni Sulaymongina bilgay.

* * *

Yiqdi ko‘nglim shahrini, zabt ayladi yag‘moyi ishq,
Soldi olam mulkiga ofat, fasod, g‘avg‘oyi ishq.

Ochdi sirrim boshqalarga el aro rasvo etib,
Boshima dard bo‘ldi hamdam, soldi ko‘p savdoyi ishq.

Nutq emish olamda mavjud, ishq emish qoyimmaqom —
Bizga bildirdi azaldan rahbari mavloyi ishq.

Sen humoyi bemakonsan, o‘z-o‘zindan bexabar
Kelsang erding, ko‘rgay erding manzili a’loyi ishq.

Chiq qafasdan, kelgil, ey bulbul, guliston sayrin et,
Qo‘y qadam maydoni ishqqa, ko‘r, nadir ma’voyi ishq.

Ishq ila har dam, Nasimiy, sayr etarsan ko‘hi Qof,
Sensan ul oliy maqomda shahpari anqoyi ishq.

* * *

To‘p qilib boshingni kir vahdat, iloh maydoniga,
Ey ko‘ngil, mushtoq esang gar zulfining chavgoniga.

Oshig‘in qoni-la o‘ynar dilbarin siymin qo‘li,
Ey tuban, yolg‘onchi oshiq, kirma jonning qoniga!

Ko‘rmasa kim ishq balosin, chekmasa hijron g‘amin,
Dardi darmonsizdir oning, yetmagay darmoniga.

Jonini qurbon etar kim yor uchun, u chin shahid,
Mingda-ming rahmat yog‘ilsin u shahidning joniga!

Zulfi sirrin anglamas zohid, uni mendan so‘ra,
Gar asir bo‘lmoq tilarsan zulfi jonafshoniga.

Kel, niqobing sal ko‘tar gulgun yanog‘ingdan bugun,
To guliston kulmasin ayruq guli xandoniga.

Yaxshilar bog‘ida ko‘pdir fitnali nargis va lek,
Fitnalik xatm o‘ldi oning nargisi fattoniga.

La’l-u marjondir dudog‘ing, gavhar-u durdir tishing,
Ofarin shul bahri konning la’li-yu marjoniga!

Kipriging yoy o‘qlaridir, qoshlaring Chochiy kamon,
Uchramas oshiqdan o‘zga shul kamon paykoniga.

Ey Nasimiy, garchi she’ring ma’nisi cheksiz emas,
Nega yetmas kimsaning aqli uning poyoniga?!.

* * *

Tut safo jomini bizga, soqiyo,
Tashnadir u mayga bu ahli safo.

U quyoshdir bir qadah bu may uchun,
Quy, kelibdir "Va sakoxum" deb nido.

Bo'yla oning sha'niga bo'lmish nuzul
"Arsh — qadah, tenglik mayi bersin sado!"

Kimki bu mayxonaga bossa qadam,
Bosh-oyoqsiz qoldi — u besarupo.

Shohidi g'aybiy bilan do'stlashgach u,
Ikkilikdan to abad bo'ldi judo.

Hur bilan jannatda maskan ayladi,
Yetdi mangulikka ko'rsatgach liqo.

Ul Xizrdan ichdi-yu obihayot,
Jon-tani, bor borlig'i bo'ldi baqo.

Qomating jannatda o'sgan sidradir,
Husni ruxingda ayon sirri daho.

Sochlaringkim maskani arvoh erur,
La'l dudog'ing jon uchun dorushshifo.

Zulfini "val-layl" o'qurman har kecha,
Yuzlarin har ertalab "shamsuz-zuho".

Xushnafas eggan nasim — epkinga boq,
Ul Masiho atriday xush, jonfizo.

Bil, Nasimiy nazmi dur, inju erur,
Xalqqa sotgay, gar topilsa bir baho.

* * *

Ayladim jonim fido shul dilbarim diydoriga,
Oshiq uldir, jonini qilgay fido dildoriga.

Ko‘rdi Majnun yor yuzunda suvrati haqni mudom,
Bo‘ldi zor Laylining ul diydoriga, ozoriga.

Kel, osil dorga o‘zing Mansur bilan Mansurvor,
Oqibat mansurini Mansur osar o‘z doriga.

Bu jahon noz-ne’mati nopok emish, murdor emish,
Foydasi yo‘qmish uning, sen kirmagin bozoriga.

Shamsi anvori tajallidir jamoli yorning,
Ey ko‘ngil, parvonadek kel, yon bu shamning noriga.

Ey Nasimiy, xush kechir umring jahonda yor bilan,
Oqil ersang, hech sig‘inma bu jahon diynoriga.

* * *

Yo‘qdir vafosi dunyaning, aldanma, borma olliga,
Rangu ro‘yi rasvo bo‘lib, har kim bo‘yandi oliga.

Naqdi jahonning hiyladir, u birla savdo aylama,
Har qalbaki chiqqay ega ushbu bozor ot, moliga.

Bu bir g‘urur dunyosikim, hosil — quruq gap, qiylu qol,
Shu besabotning tushmagil behuda qiylu qoliga.

Yolg‘on, chuchuk so‘z bunda ko‘p, har totliga aldanmakim,
Achchiq uning qand-shakkari, og‘u qotilmish boliga.

Dunyo demak aslan palid, zotinda yo‘qdir bir alif,
Tarkibiga, kel, boq uning, shul “yoy”u “nun”u “dol”iga.

Foniy jahonning sevgisi tomug‘ o‘tidir, yondirar,
Qoch bu xotindan, ey ko‘ngil, aldanma zulfu xoliga.

Mehnat uning har davlati, zahmat uning har hashmati,
Bilgach odam, hech bog‘lamas umrin uning iqboliga.

Aldoqchilik, bo‘hton ishi ham bir emas so‘z va ishi,
Holin sanga sharh ayladim, fikr et boqarkan holiga.

Olchoq, tuban nafsi uning, minmish razil dev otini,
Tark et sen u jin otini, hech tegma manfur yoliga.

Qattiq o‘yinchidir falak, har nęsidan bo‘l ehtiyot,
Ey bebasirat, boq uning shul suvrati ahvoliga!

Shul bemisolning ishqiga bermish Nasimiy ko‘nglini,
Bilmas bu dunyo ne bo‘lar, ne bo‘lgay ul mulk-moliga.

* * *

Ey yuzing “nasrun minallah”,
hey soching “fathun g‘arib”,[1]
Ey bashar suvratli rahmon, hey malaksiymo habib!

Volaman husningga, mushkin sochlaringdan ko‘p xijil,
Jannatiy bog‘larda rayhon, sunbul o‘sgay o‘rtanib.

Zulf-u ruxsoringdir “ar-rahmon alal arsh istivo”[2]
Ka’baning mehrobi qoshing, fitnakor ko‘zing xatib.

Anbarafshon sunbuling asrori bo‘ldi oshkor,
Keldi Ruhullohu bekor bo‘ldi zunnor-u salib.

---

[1] **“Nasrun minallah”** — yordam Allohdandir; “fathun g‘arib” — fath ko‘p yaxshidir.

[2] “Rahmati hadsiz bo‘lgan, yuksakligi va ulug‘ligi bilan ko‘kni tutgan” (“Qur’on”dan).

Suvrating lavhinda indirdi kalomni Jabroil,
Ey jamoling haq kitobi, "innahu shay'un ajib".[1]

Oshiq asrorini haqni anglagan orif bilur,
Oshino holin na bilsin o'z-o'zin bilmas g'arib.

Kim ko'rib shahlo ko'zingni xastalangan bo'lsa gar,
Unga darmondir labing ham Isaviy nutqing tabib.

Menga hech ma'n etma, zohid, dilrabolar ishqini,
Chunki bo'ldi menga ishq qismat kuni haqdan nasib.

Ey adib, o'rgatma odobingni vahdat ahliga,
Jim o'tir sen, chunki ishq odobini bilmas adib.

Jannatiy bog'lar gulistoni ruxingdir, shubhasiz,
Ey, gulistoninda Ruhillohu rizvon andalib!

Ey Nasimiy, senga do'st fazli ilohkim, shul sabab
Lutf ila bir bo'ldi qahr-u ham habib bo'ldi raqib.

* * *

Bu ne holatdir, ey turki parizod,
G'amingdan bo'lmadim bir lahza ozod?!.

Qaroqchi ko'zlaring qon to'kmoq istar,
Chekibdir tiyg'ini monandi po'lod.

Ko'ngil shahrin seningsiz bosdi zulmat,
Falokat o'sdi-yu g'am bo'ldi bunyod.

Firoqing shunchalar zulm etdi, uni
Jahonda qilmagan Namrud-u Shaddod.

[1] "Haqiqatdan ham u ajoyib narsadir".

Kel, ey shirin dahan, ishqing yo‘linda
Menam bir tog‘yorar, bechora Farhod.

Nazar sol bu vayron ko‘nglimga, shoho,
Qilur sulton axir vayronni obod.

Nasimiyning so‘ziga sen quloq sol:
Vafosizdir jahon, unda hama yot.

* * *

Nogahon ko‘nglimga tushdi fitna-yu g‘avg‘oyi ishq,
Qilgay oqilni dali-devona bu savdoyi ishq.

Bilgay ishq qadrin faqat kim bo‘lsa ishqqa mubtalo,
Oshiq ul oshiqmidirki, bo‘lmasa rasvoyi ishq.

Ishq ichinda din-u dildan, kel, kech endi, ey rafiq,
Shayxi San’on misli sen ham bo‘l tag‘in tarsoyi ishq.

Kimki jonon xilvatiga yo‘l ochishni istasa,
Jon fido qilmoq kerakdir ming daf’a darpoyi ishq.

Sevgilimning sevgisindan o‘zga sig‘mas ko‘nglima,
Sevgilimdan o‘zgaga qilmas bu kun parvoyi ishq.

Bu ko‘ngil vayronasin yor ishqi obod ayladi,
Men-da jonim xilvatini ayladim ma’voyi ishq.

Ul go‘zalning oshig‘i bo‘lding, Nasimiy, sen bugun,
Oldi ko‘nglimni, nihoyat ayladi yag‘moyi ishq.

* * *

Keldi navro‘z, yangi ko‘klam oshkor bo‘ldi yana,
Shahrimiz shayxi bu kun xush kayfivor bo‘ldi yana.

G‘unchadan gul bosh chiqardi, oldi yuzundan niqob,
Bulbuli shaydo xatibi lolazor bo‘ldi yana.

Eski dunyo yangi ko‘ylak kiydi bu mavsumda, boq,
Chehramiz gulgun bugun, naqshi nigor bo‘ldi yana.

Orifi bilgichga nargis may sunar, qo‘llarda jom,
Barchani mast aylab, o‘zi ham xumor bo‘ldi yana.

Soqiyo, keltir qadahni, men ushatdim tavbani,
Eski taqvimim mening be’etibor bo‘ldi yana.

Sen Nasimiy rozini, ey tong yeli, yorimga elt,
Yorsiz ahvoli parishon, beqaror bo‘ldi yana.

* * *

Dardga duchor bo‘lmaganlar nega darmon istasin?
Ul o‘limni bilmaganlar nega ham jon istasin?

Sirri borliq javharin topgay faqat javharshunos,
Qay ko‘ngilda bo‘lsa kon, nechun tag‘in kon istasin?

Jon bilan dunyo-yu uqbo tarkini qilmas ekan,
Muddaiy u, ne zamon diydoru jonon istasin?

Xizr ila zulmatni bilmas ersa kim, hayvon erur,
U zavolli qayga borsin, obi hayvon istasin?

O‘z vujudin shahrini kim anglamas, bilmas esa,
Ul gadohimmat, biliksiz qayda sulton istasin?

Qay bo‘yunga chirmasharkan anbarin zulfi uning,
Boshi to‘p bo‘lsin, nechun u o‘zga chavgon istasin?

Zulfining kufrin agarchi ahli fazl iymon bilar,
Ey Nasimiy, uz umid, kofir na iymon istasin?

* * *

Bahor bo‘ldi, kel, ey dilbar, nazar solgil bu gulzora,
Yuz ochgan g‘unchalar shodlik ulashdi bulbuli zora.

Chechaklar pardasin otdi, bezandi bog‘ ila bo‘ston,
Chaman ming rangda tovlandi — ko‘ngil, jon, ayla nazzora.

Ovungay zikr ila so‘fiy, mani ma’n aylagay zohid,
Pisand qilmay boqar menday g‘arib, mushtoqi diydora.

Nadir ishq-u muhabbat, hech qachon bilmas tuban, nodon,
Tushunmas aqli qosirlar azaldan sirru asrora.

Gul-u rayhon-u mushk-anbar bilan to‘ldi chamanliklar,
Saharda noz-firoq aylar nasimlar mushki totora.

Yoribon g‘unchasin sunbul, giribon chok etar mendek,
Tilindi g‘ussadan bag‘rim, yurakni etma sen yora.

Sochildi har tomon gullar, og‘ochlar rang-barang bo‘ldi,
Ochildi lola-yu nasrin, chaman keldi daraxtzora.

Ochildi nargis-u ra’no, tikibdir yosuman chodir,
So‘g‘ut-la arg‘uvon titrar, qamishlar mindi anhora.

Binafsha, gul tomoshosi, g‘animat bilki, besh kundir,
Sotar ma’shuqqa gul husnin, xaridor bo‘l bu bozora.

Masihoning damidek, boq, Nasimiyning yonar joni,
Visoling dardiga darmon etib kel joni bemora.

* * *

Dunyo turajak yer emas, ey jon, safar ayla!
Aldanma uning ishvasiga hech, hazar ayla!

Bir holga qarab o‘ylama, ayyom, kechar umring,
Ey ahli nazar, o‘z yuragingdan nazar ayla!

Mangulik emas davlati, ey xoja, jahonning
Hoy-huvsiga aldanma, kel, andin guzar ayla!

Gar oshiq esang, sidq ila shul dilbar uchun, kel,
Jon birla jahondin umid uz, tarki sar ayla!

Tushmish sochining zulmatiga ko'nglim, ilohi,
Shul holi parishonga bu shamni sahar ayla!

Chun husnunga xatm o'ldi bu kun davri malohat,
Ey jumla rasul xotami, shaqqul qamar ayla![1]

Ey Musoyi Imron, kezibon nurga yetishding,
Ko'rsat o'sha nurni, yana sharhi shajar ayla!

Dunyo uyining saltanati besh kun emish, bil,
Bunyodini yiq, sen uni zer-u zabar ayla!

Ul pista dahanning xabarin oldi Nasimiy,
Gul yuzli shirinlarga shakardan xabar ayla!

* * *

Bu qanday qadd-u qomatdir, u o'xshar sarvi bologa,
Bu qanday husn-u suvratdir, berur nur oy, Surayyoga?

Jamolingdan munavvar oy bilan xurshid, ayo dilbar,
Malaklar vola-yu hayron bu kun bu husni zeboga.

Qoshingdir qof ila qovsayn, aql yetmas, na sir bunda?
Vale bu sirni u bildi va qurbon bo'ldi u "yo"ga.

Dudog'ing la'li axmardir, tishing bir durri gavhardir,
U la'lni ko'mdi tuproqqa, u durni otdi daryoga.

[1] **Shaqqul qamar** — oyning ikkiga bo'linishi; Muhammad payg'ambar mo'jizalaridan biri.

Yuzingdek ko‘p bezangandir gul-u lola, na shavqdir bu,
Yanog‘ing aksi tushganmi ochilgan guli humroga.

Jahon tuproqlari bul kun atir, anbarga burkanmish,
Sabo mushkin soching bo‘yin taratmish bog‘-u sahroga.

Visoling istagan oshiq ajib savdoga tushmishdir,
Jahonu jonni tark aylab, tushar har kim bu savdoga.

Bugun, ey yaxshilar shohi, go‘zallarga amirdirsan,
Xayoling lashkari bermish ko‘ngil shahrini yag‘moga.

Ko‘zimdan garchi pinhondir nigorning suvrati, ammo
Uning ko‘rki ko‘ringaydir boqarkan barcha ma’voga.

Ne g‘am, hijron aro Sayyid gar o‘lsa ishtiyoqingdan,
Yuzingni ko‘rsa, bas, kirgay bu kun firdavsi a’loga.

* * *

Tushgach muanbar sunbuling xurshidi tobon ustiga,
Mushkin xoling tushmish tag‘in gulbargi xandon ustiga.

Ko‘ngilni vayron ayladim, mehring joyin jon ayladim,
Ishqing sharaf-shon ayladim, tushdi g‘aming jon ustiga.

Oshiq uchun ishq dardi bir darmon o‘zi, bil, ey tabib,
Har dam qo‘shib dardimga dard, orttirma darmon ustiga.

Soching to‘sib turgan yuzing kim ko‘rsa gar, shunday degay:
“Go‘yo qaro kufrini ul tarqatmish iymon ustiga”.

Yoqut-u rayhondir xating, la’li labing, ey jon quti,
Bir shu’lakim, tushmish Xizrdek obi hayvon ustiga.

Ishqingdan, ey oromijon, garchand Nasimiy xok bo‘lur,
Sen-la sochilgay to abad shul ahd-u paymon ustiga.

* * *

Chora yo‘qdir yorga yetsam, ey ko‘ngil, yor istama!
Dardga darmon yo‘qmi — qo‘l chek,
bo‘lma hech xor, istama!

Bu jahon yoringdan istarsan vafo, aqling qani?
Bo‘lmagan, bo‘lmaydigan har neni zinhor istama!

Munkir iqror aylamas hech haqqa, ey sohibnazar.
Haqqa iqror bo‘l o‘zing, munkirdan iqror istama!

Zahmati ko‘pdir zamonning, zulmatindan qoch, ko‘zim,
Saqlagin oydinligin, zulmatdan anvor istama!

Ko‘zguni artmas esang, ey jamoldan bexabar,
Suvratin ko‘rmoq tamanno etma, diydor istama!

Yo‘q jahonda qadr-u miqdor, qadrini bilsang agar,
Hech inonma unga, undan qadr-u miqdor istama!

So‘rma, nomahram na bilsin oshiq ahlin sirrini,
Mahram o‘l, asrorga kir, lek mendan asror istama!

Zahm-u zahmat chekmaguncha har tikandan bul zamon,
Bo‘zlagan bulbul misoli vasli gulzor istama!

Quzg‘un ahli yer o‘laksa, murdor istar bari, sen
Bo‘lgil Alloh burguti, umringda murdor istama!

Borlig‘-u dunyo baqosiz, o‘tga-yu ketgay, tushun,
Shu baqosizdan baqo mumkin emas, bor, istama!

Garchi haqdan birga kelmish nur bilan “anastu nor”,
Ey Nasimiy, sen yetishding nuriga, nor istama![1]

[1] **“Anastu nor”** — o‘tni topdim, Musoning Tur tog‘ida nurni ko‘rganiga ishora; baytning ikkinchi satridagi nor — o‘t, tomug‘ anglamida.

* * *

Bir shanba edi, uchradim ul sarvi ravonga,
Shaydo qilibon, yoydi sirim jumla jahonga.

Yakshanba kuni qoshida majnun bo‘la qoldim,
Ko‘rdim yuzini, o‘xshar edi mohi tobonga.

Dushanba kuni rozi dilimni dedim oxir,
Ul ko‘zlari nargis, yuzi gul, qoshi kamonga.

Seshanba kuni ovchi bo‘lib cho‘lga chiqarkan,
Ovlandim o‘zim, bandi bo‘lib pista dahonga.

Chorshanbada yor sayr eta keldi chaman ichra,
Bulbul uni ko‘rgach, jo‘shibon tushdi fig‘onga.

Payshanba kuni yorga dedim, pandim eshitgil,
Fosh etma hecham rozi dilim yaxshi-yomonga.

Ul jum’a kuni ko‘rdi jamolini Nasimiy,
Vasliga qonib, sundi qadah sho‘xi zamonga.

* * *

Sen o‘zingga yor esang, qo‘y, ey ko‘ngil, yor istama!
Yor-u dildor bo‘l o‘zingga, yor-u dildor istama!

Bevafodir ushbu olam, kimdan istarsan vafo?
Bevafo olamda hech yori vafodor istama!

Bul tikanlik bir jahon bog‘i, topilmas unda gul,
Ey ko‘ngil, behuda gulsiz yerda gulzor istama!

Ma’rifat sof oltin-u fazl-u hunardir quymasi,
Soxta, sof oltinni ajrat, kirli dinor istama!

Haqqa munkirdir farix, u tongan olim, shaytanat,
Undayin jinxilqat-u iblisdan iqror istama!

To‘g‘riso‘zlik, ey ko‘ngil, haqq-u haqiqat nutqidir,
Har tili egrida yo‘qdir to‘g‘ri guftor, istama!

Debdilar dunyo xarom, itlar uning shaydosidir,
Bo‘lma it, nafsingni deb sen bunda murdor istama!

Sharbati og‘ulidir foniy jahonning, sen uning
Sharbatindan zidzahar, taryakni zinhor istama!

Bu jahonning ishqi og‘ir yuk emish aytsam sanga,
Etma yuk nafsingni unga, qishda ham qor istama!

Bir amin mahram topilmas, ey Nasimiy, ushbu kun
Haqqa fosh etma rumuzni, kashfi asror istama!

* * *

Menga sensiz jahon-u jon kerakmas,
Visoling bor ekan, hijron kerakmas.

Labi la’ling zilol obindan ayruq
Sharobi chashmayi hayvon kerakmas.

G‘amingdir bu ko‘ngil taxtinda sulton,
Bir iqlimga iki sulton kerakmas.

Sening darding davo mushtoqlaringga,
Biror bemoringa darmon kerakmas.

Gulistonning guli sensiz tikandir,
Menga sensiz gul-u rayhon kerakmas.

Erur rizvon har oshiqqa jamoling,
Seningsiz hech kima rizvon kerakmas.

Iki olamda diydoringdan o‘zga
Menga, ey suvrati rahmon, kerakmas.

Visoling sharbatin ichgan muhibga
Firoqing og‘usi chandon kerakmas.

Biroq sabr aylamoq sensiz, nigoro,
Agar mushkul, agar oson, kerakmas.

Azal qilgan edim ishqing-la paymon,
Butun paymon, siniq paymon kerakmas.

Umid uzmas visolingdan Nasimiy,
Ko‘zimdan bo‘lma hech pinhon, kerakmas.

* * *

Sevganim sensan, bu ko‘nglim boshqa bir yor istamas,
Bu dilim dildori sensan, o‘zga dildor istamas.

Jannat ul ma’volar aksi gul yuzing gulzoridir,
Kimki shul gulzorni topsa, boshqa gulzor istamas.

Barchaning haqdan nasibi to abad xirmon emish,
Sendan, ey dilbar, iki olamda diydor istamas.

Bu ko‘ngil maqsudi sensan, hojatim haqdan budir,
Hojatingdan ayri ko‘nglim hech ne zinhor istamas.

Kelki, ey jon-u jahonning hosili, sensiz qolib,
“Kunfakan”ning hosilindan bo‘ldi bezor, istamas.

Hojating mendan nadir deb so‘rma, ey dilbar, axir
Ma’shuqindan boshqa hech ne oshig‘i zor istamas.

Kimniki zulfing xayoli bog‘lasa bu dayr aro,
Rohib o‘lg‘aykim, u bunda o‘zga zunnor istamas.

Istaram, olamda yorning sirrini fosh aylasam,
Istamas ammo raqib, aldoqchi ag‘yor istamas.

Pardasiz ko‘rsam jamoling doimo, derman, biroq
Ko‘rmagay munkir ko‘zi, ul kashfi asror istamas.

Istabon haqdan Nasimiy vaslini, topdi murod,
Moliki diydor bo‘libdir, ganji dinor istamas.

* * *

Anbarin zulfing, nigoro, bog‘lamish devonani,
Sham’i vahdatdir jamoling, yondirar parvonani.

Ey, yuzing qadr-u, jamoling ikki olam rahmati,
Men bugun masjidga bormam, istamam mayxonani.

Obi Kavsardir dudog‘ing, jonfizo Ruhulquds[1],
Soqiyo, sun oshig‘ingga orifiy paymonani.

Ikki yuzli bo‘lsa zohid, o‘tda yondirmoq kerak,
So‘zlarin tinglab, tanib ol shayx ila mavlonani.

Ey Nasimiy, sotma johillarga hech durri Adan,
Johil-u nodon na bilsin dur so‘z-u durdonani.

* * *

Ayriliq dardi, nigorim, borlig‘im qon ayladi,
Bu muxolif, kaj zamon vaslingni hijron ayladi.

Bu g‘arib jonimni vaslingdan falak etgach judo,
Kel, o‘zing ko‘r, oshig‘ingni xor-u bejon ayladi.

O‘rtadi bag‘rimni qayg‘ung, qonli yosh to‘kdi ko‘zim,
Ey sanam, shavqing meni sharmanda, giryon ayladi.

[1] **Ruhulquds** — hazrati Iso va hazrati Jabroilning laqablaridan biri.

Endi Allohdan so‘rarman dardlarim darmonini,
Har davosiz dardga zotan Tangri darmon ayladi.

Sirri ishqing ganj emish, turgan yeri vayronadir,
Yiqdi ishqing bu ko‘ngil ganjini, vayron ayladi.

Sendan ayri tushganim aslinda bir taqdir emish,
Haqdir, ey jon, harna kim taqdiri Yazdon ayladi.

Sochining zanjiriga jonin Nasimiy bog‘lamish,
Yor uning ma’vosini zanjir-u zindon ayladi.

* * *

Jamoling ravzayi rizvon emasmi?
Dudog‘ing chashmayi hayvon emasmi?

“Sanoxum rabbixum” mayi labingdan
Bayon-u oyati “Qur’on” emasmi?

Yuz-u zulfing oq-u qora bo‘libdir,
Biri kufru biri iymon emasmi?

Ko‘zing mastonadir, maylar sunar u,
Jahon shundan butun maston emasmi?

Shaho, ishqing yo‘linda barcha qurbon,
Buyursang, harki ish oson emasmi?

Bu yurgan ellar, ey sultoni olam,
O‘zingga to abad hayron emasmi?

Nasimiy kashfi asroringni bildi,
Uni fahm etmagan nodon emasmi?

* * *

Assalom, xush kelding, ey dildor, xush ko‘rdik seni!
Yaxshimi holing, yana ming bor xush ko‘rdik seni!

To‘g‘risi, mushtoq edik jonon sening diydoringga,
Ey ko‘zi nargis, yuzi gulnor, xush ko‘rdik seni!

Kelmasin u ofitob, hech ketmasin shul mohitob,
Ayni chog‘, ey kavkabi sayyor, xush ko‘rdik seni!

Shum raqiblar ta’na aylar furqatingda holima,
Mayli, sen ham kelgil, ey ag‘yor, xush ko‘rdik seni!

Bo‘ldi dardmand bu Nasimiy vasling istab, kelgil ey,
Dardima darmon o‘zing tayyor, xush ko‘rdik seni!

* * *

Xayolim sendadir doim, kel ey jannat qizi, huri!
Ko‘tar parda jamolingdan, o‘zingdirsan ko‘zim nuri!

Bugun yavmul hisob o‘lmish yuzing davrinda, ey mohro‘,
Magar qo‘pmish qiyomatlar, ko‘rinmas holi manzuri.

Munojot aylaram tun-kun sening davlatli ko‘yingda,
Yuzing nuri tajallidir, na hojatdir manga Turi.

Sochingni sidq ila bo‘ynimga bog‘la, hech g‘amim qolmas,
Ayon me’roji zulfingda osig‘liq dori, Mansuri.

Firoq-u mehnat-u hajring yiqibdir bu ko‘ngil shahrin,
Visolingsiz hamon vayron, ko‘rinmas bayti ma’muri[1].

Shaho, la’ling sharobindan Nasimiy totmoq istaydir,
O‘zingga vola-yu hayron, kerakmas obi anguri.

[1] **Bayti ma’mur** — Ka’ba.

* * *

Yorni sotding-ku bahosiz pulga, bilmay borini,
Hech kim ersa gar kishi, u hechga sotgay yorini.

Durni har nodon qo‘lindan mushtariy arzon olur,
Bilmagan javharni bilmas dur, guhar miqdorini.

Kimki yordan gar baqosiz jonini ko‘rsa aziz,
Yor yo‘qotgan nodon uldir, topmagay dildorini.

Oshiq inson sirrini anglar faqat oshiq kishi,
Bilmas oshiq bo‘lmagan oshiq ham ishq asrorini.

Kimki qurbon bo‘lmasa yo‘linda shul ma’shuqaning,
Chin emas da’vosi, puch so‘z, men netay guftorini.

Kimniki fe’li riyodir yo so‘zi yolg‘on esa,
So‘zlarin hech rost dema, iqror dema iqrorini.

Naylasin, yorning jafosin cheksa gar oshiq mudom,
Yor hamisha ortiq aylar jabr ila ozorini.

Ey “analhaq”ni degan Mansur, shu on sen dorga chiq,
Oxirat dorin[1] unutmay, tanla bu kun dorini!

Kimki yuz ming jon bilan tutmas ekan yor zulfini,
Anglamay tuproqqa otmish nofayi totorini.

Ey Nasimiy, injularni dur bilan sarrofga sot,
Sotma nodonlarga javhar, gavhari shahvorini.

* * *

Kishikim xojasi birlan g‘animat tutsa xilvatni,
Qilur xodim eshikinda saodatmand davlatni.

[1] **Oxirat dori** — oxirat uyi.

Qutul hoyu havaslardan, o‘zingni bog‘lagil haqqa,
Tilar ersang qiyomatda ulug‘ hazratdan izzatni.

Bu yil bunday qilurman deb, u yil unday qilurman deb,
Xayol surmoqni tark ayla, g‘animat bil bu fursatni.

Tama’ odam vujudinda bag‘oyat chirkin illatdir,
Qanoatdir davosi, bil, u daf aylar bu illatni.

Agar manmanliging bo‘lsa, u bo‘rkni sen boshingdan ot,
Olibdir boshga manmanlik sabab shayton u la’natni.

G‘amingdan sholga burkanmish, ko‘r oshiq holini sen ham,
Faqat diydor degan oshiq netardi hur-u jannatni.

Yomon, yaxshi bilan yaxshi murosa qil, bo‘lur yaxshi,
Yetar maqsadga har inson agar ko‘rsatsa himmatni.

Shu minbardan tushib tezroq, so‘zingni cho‘zma, mavlono,
Gar aqling bo‘lsa, may ichgil, qo‘y endi eski hujjatni.

Nasimiy qayg‘usiz oshiq, senam ayb etma, ey so‘fi,
Nechun o‘zgartiray dersan azal kunlik u qismatni?..

* * *

Assalom, insoni komil, ey bu jon jononasi!
Bir sadaf jismi jahonning, senmisan durdonasi?

Yuzdagi “sab’ulmasan”ni[1] kim o‘qibdir, ko‘r uni,
Tushdi qay devonga oshiq ahlining devonasi.

Tangri bergan sharbatindan ichdi to bu xastadil,
Mast, parishon bo‘ldi obdan, qaynadi xumxonasi.

Bizga ham ma’lum bo‘libdir ma’niyi ummul-kitob,[2]
Orifingman, ichga sig‘mas zohiding afsonasi.

[1] **“Sab’ulmasan”** — “Qur’on”dagi “Fotiha” surasi.

[2] **Ummul-kitob** — kitobning onasi, “Qur’on”dagi “Fotiha” surasi. Nasimiy insondagi yetti xatni (ikki qosh, to‘rt kiprik, bir zulf) ko‘zda tutmoqda.

Shu Xizir bechora ichmish obi hayvondan, ko'ring,
Har zamon u yo'ldadir, yo'qdir qolarga xonasi.

Eng go'zal bir kundir u, nechun "analhaq" demasin,
Bas, nedan dorga osilmish Mansuri farzonasi?

Kofirin butxonasi, mo'minda bor bayt ul-haram,
Men uchun yor eshikidir Ka'ba-yu butxonasi.

Sham'i vahdatdir jamoling, suhbati ko'ngil ochar,
Charx urib, xush-xush yonar, ko'r, Sayyiding parvonasi.

* * *

Kecha ko'rklik bir malak-la ayshimiz ma'mur edi,
Lekin ul xunxora ko'zlar uyquda maxmur edi.

Ko'zlarin suzmish va uzmish jonini oshiqlarin,
Zulfining dorinda yuz ming Shibli-yu Mansur edi.

So'zlarindan zohir o'ldi bir Masihiy mo'jizot,
Bir ishorat bermadi lek, balki u mag'rur edi.

Husni lavhinda yozilmish yaxshilar shohi deya,
"Summa ansha'nahu xalqan oxarin"[1] mashhur edi.

Zulfi "subhon allazi asro biabdi"[2] oyati
Yuz, yanog'iga bitilmish xatt bilan mastur edi.

---

[1] **"Summa ansha'nahu xalqan oxarin"** — "so'ngra esa uni boshqa bir xalq qilib yaratdik" ("Qur'on"da ta'kidlanishicha, ba'zi qishloqlar va shaharlarning aholisi zulmkor bo'lganlari uchun ularni mahv etib, o'rnida boshqa xalq yaratilgan).

[2] **"Subhon allazi asro biabdi"** — "o'z bandasini kezdirgan zot muqaddasdir" (Nasimiy inson sochidagi "ch" harfi abjadga ko'ra 17 raqamini anglatishini ko'zda tutib, sochni "Qur'on"dagi 17 suraning boshlang'ichiga o'xshatgan, o'sha oyatda 17 harf bor).

Bo‘yi tubo, yuzi jannat, qoshlari rizvon oyi,
Ko‘zlari “van-najm”u oning ko‘ksi bir “vat-Tur”[1] edi.

Suhbat etmishdi Nasimiy tun kecha ul yor bilan,
Ko‘ngli shodu vaqti xurram, majlisi purnur edi.

* * *

Jamoling fitnasi tutdi jahonni,
Chiqardi pardadan sirri nihonni.

Netar oshiq jahon-u jonni sensiz,
Jahonni topdi sendan hamda jonni.

Labing bir chashmayi hayvondir, ey gul,
Ki, har hayvontabiat bilmas oni.

Bilur ichgan labing la’lin sharobin,
Icholmas barcha obi zindagonni.

Eshitdim, tashnamish qonimga la’ling,
G‘aribing, oh, netar bu baxt-u shonni!

Na sho‘x, uyqusidan uyg‘otdi, hayhot,
Ko‘ringki fitnayi oxirzamonni!

Agarchi benishonsan, tur sukutda,
Nishonsiz ko‘rmamishlar benishonni.

Nasimiyning makoni bemakonlik,
Makonsiz ishq elin haqdir makoni.

* * *

Husnunga hayron erur hur-u malak,
Oshig‘-u sargashtadir sen deb falak.

[1] **“Van-najm”** — “yulduzga ont bo‘lsin” (“Qur’on”dagi bir sura shu ifoda bilan boshlanadi); “vat-Tur” — “Tur tog‘iga ont bo‘lsin”.

Men qulingga, ey shaho, rahm et, dedim,
Yetmadi ammo senga hech bir tilak.

Hasratingdan g‘am yesam men, kimga g‘am,
Zotan oshiqning ishidir g‘am yemak.

Shul shirin tildan ravomi, ey shaho,
Mendayin muxlisga achchiq so‘ylamak.

Boq, cho‘kib ketdim ko‘zim ummoniga,
Bir baliqday o‘tgay umrim jonsarak.

Ey Nasimiy, oqibat yelga uchar
Bevafo birla yegan nọn-u namak.

* * *

Kel, bu damlar yaxshi o‘tsin, o‘tgan ul dam dam emas!
Kim bu dam qadrini bilmas ersa, u odam emas!

Bo‘lma g‘ofil, och ko‘zingni, har daming oltin erur,
Charchasang oltin yig‘ay deb, olganing dam dam emas.

Odam ersang, dam bu damdir, bil, yashat har lahzani!
Yoshligin kim o‘tga otsa, baxt unga hamdam emas.

Yor bilan hamdam bo‘lib yor, hech dam urmas o‘zgaga,
Tolibi yor bo‘lmaganlar dunyoga mahram emas.

Hech suyanma bu jahonga, davlat-u mol-mulkka sen,
Bunda boqiy narsa yo‘qdir, hech nima mahkam emas.

Dam o‘tarmi, ey Nasimiy, yondirar erkan firoq,
Nolishing chiqmas falakka, ko‘z yoshing Zamzam emas.

* * *

Furqating dardindan, ey jon, bu yurak qon bo‘ldi, kel!
Ko‘zlarim yoshi jahonni tutdi, to‘fon bo‘ldi, kel!

Vasl aro jonim nasibi bor ekan haqdan, yana
Davlati vaslingdan ayru tushdi, hijron bo‘ldi, kel!

Ixtiyorim ketdi qo‘ldan, zulfini yoydi zamon,
Shul sababdan bu ko‘ngil holi parishon bo‘ldi, kel!

Garchi mendan suvratan g‘oyibsan, ey huriy jamol,
Dildasan, ko‘zdan xayoling naqshi pinhon bo‘ldi, kel!

Furqating bir dard erur jonimdakim, har kim agar
Kelsa duch bu dardga, shaksiz, aqli hayron bo‘ldi, kel!

Sendan ayru tushganim kun og‘u ichirmishdir menga,
Qayda vasling taryaki, ayt, vaqti ehson bo‘ldi, kel!

Xizr agar zulmatda izlar chashmayi hayvonini,
Chanqagan mushtoqqa la’ling obi hayvon bo‘ldi, kel!

Garchi xandondir sevinchdan og‘zini ochgan chechak,
Unga bulbul boqti-yu dardli, giryon bo‘ldi, kel!

Ayriliq jabrin Nasimiy chekdi, ko‘ndi holiga,
Unga yorsiz bu jahon zanjir-u zindon bo‘ldi, kel!

* * *

Ey nigoro, garchi ko‘zdan suvrating pinhon emas,
Ayriliq, ammo visol-la teng emas, hamson emas.

Ey ko‘ngil, nodonga aslo sirlaring fosh aylama,
Ahli irfondir bu sirning mahrami, nodon emas.

Quv jaholatni muhitdan, zohido, Allohni bil,
Jahl-u johil bir marazkim, qobili darmon emas.

Nafsini o‘ldirmagan Suhrob-u Bejon ersa-da,
Pahlavon bo‘lmas, chunonchi Rustami doston emas.

Ey ko‘ngil, dorussalom — jannatni olam zavqiga
Sotmakim, bu besubutning davri jovidon emas.

Xizr ila Iso, nigoro, topdi vaslingdan hayot,
La’lini kim ham axir der, chashmayi hayvon emas.

Kimgaki gar ta’sir etmas suvrat-u ishqing sening,
Kezgan ul jismindagi ma’nida jindir, jon emas.

Garchi osondir der, ey jon, ishqini har bexabar,
Kimki bu savdoga tushsa, bilgay u, oson emas.

Bo‘ldi ko‘nglim orzumand yorning visoliga valek
Aytgani oshmas amalga, bu hali farmon emas.

Senki sulton bo‘lmoq istarsan, faqir bo‘l avvalo,
Chunki sulton bo‘lmasa darvish agar, sulton emas.

Har jafoying gar vafongdan yaxshiroq, dilbar, menga,
Bo‘lsa ham shunday, vafo qil, chun jafo chandon emas.

Menga har dam boqma der gulchehraga ul shum raqib,
Bor axir oshiqda ham ko‘z, unchalar lodon emas.

Borma shaytoni rajimning qavmiga, Rahmonga bor,
Borgan ul shaytonga jindir, tobeyi Rahmon emas.

Ishq ila ruh yo‘qdir ul bema’rifat hayvonda ki,
Suvratin naqshiga doim vola-yu hayron emas.

Ey Nasimiy, eng yaqin iymon emish, iymon yaqin,
Har shahodatkim yaqindan tashqari, iymon emas.

* * *

Furqatingda, dilrabo, ko‘nglim parishon bo‘ldi, kel!
Ozdi-to‘zdi qil vujudim, dardi hijron bo‘ldi, kel!

Ketding-u sen, men bo‘lib qoldim g‘arib-u dardimand,
Dardima ko‘rklik jamoling dori-darmon bo‘ldi, kel!

Ko‘zlarimda bitdi nam ham, yig‘lagayman men biroq,
Bu firoq mavsumi ko‘z yosh bahr-u ummon bo‘ldi, kel!

Qo‘ygan erdim bosh yo‘linda xor-u zor-u xastadil,
Ey tabibim, endi jismimdan judo jon bo‘ldi, kel

Ayriliqlardan Nasimiy dam-badam qilgay fig‘on,
O‘ldim-u hijron g‘amindan jon, jigar qon bo‘ldi, kel!

* * *

Oy yuzing mendan nihon etmoq tilarsan, etmagil!
Ko‘zlarim yoshin ravon etmoq tilarsan, etmagil!

Bargi nasrin uzra mushkin sochlaringni tarqatib,
Oshig‘ing bexonumon etmoq tilarsan, etmagil!

Qoshlaring yoyinda kiprik o‘qlaringni yoshurib,
Ey ko‘zi mastona, qon etmoq tilarsan, etmagil!

Jonni vaslingning sharobindan ayirding, ey ko‘zim,
Ko‘zlarim gavharfishon etmoq tilarsan, etmagil!

Tashladim ishqingda men borliq makonning borini,
Jon nedirki, qasdi jon etmoq tilarsan, etmagil!

Yuz ocharsan gohi nomahramga chachvoning olib,
Gizli asrorni ayon etmoq tilarsan, etmagil!

To‘g‘riman ishqingda o‘qdek, kiprigin tonuq erur,
Qomatim nevchun kamon etmoq tilarsan, etmagil!

Zavqi ishqing maskanidur bu ko‘ngil vayronasi,
Sen yana oni makon etmoq tilarsan, etmagil!

Ha, aniq bildi Nasimiy og‘zining bor erkanin,
Ul aniqni sen gumon etmoq tilarsan, etmagil!

* * *

Dilrabo, men sendan ayru umru jonni naylayin?
Toj-u taxt-u mulk-u molu xonumonni naylayin?

Istagim vasling, jamoling dardlarim darmonidir,
Senga bemor bo‘ldim, o‘zga bir davoni naylayin?

Ey musulmonlar, bilingkim, yor ila xushdir jahon,
Menki yordan ayru tushdim, bu jahonni naylayin?

Ko‘p duolar aylasam ham xoliqim dargohiga,
Bo‘lmasa hosil murodim, men duoni naylayin?

Dilbar aytur, Ey Nasimiy, sabr etu qilma fig‘on,
Men bu kun sabr aylasam, tongla fig‘onni naylayin?

* * *

Habibim, izzatim, jonim, jahonim!
Rafiqim, munisim, oromijonim!

Sanobar qadli dildorim, tabibim,
Yetur diydoriga ruhi ravonim!

Firoqing dardi ko‘p, bitmas deyolmam,
Desam, bundan qolur hayron zamonim.

Mudom yondik firoqing otashinda,
Bu o‘tdan bizni qutqar, mehribonim!

Xumoring tutdiyu kuydirdi jonni,
Ketur sharbat visolingdan, nihonim!

Nasimiy yondi ko‘p g‘am gulxaninda,
Qayon bosh ursin endi notavonim?!.

* * *

To yuzing ko‘rgach, nigoro, g‘amdan ozod bo‘lmisham,
Qullug‘ingda, podishohim, husnungga shod bo‘lmisham.

Jonni diydoringga qurbon etgali keldim bugun,
Ey dudog‘i, joni Shirin, ko‘r, na Farhod bo‘lmisham.

To jamoling mus’hafinda o‘qubon “sab’ulmasan”,
Men-da bir hofiz bo‘lib, tafsirda ustod bo‘lmisham.

Bemakon yo‘qlik aro bor bo‘lding, ey sen ham, habib,
Lomakonning ustida, ko‘rkim, na bunyod bo‘lmisham.

Qomatingdan to yiroq etdi meni davri falak,
Hasratingdan bir g‘ulomi sarvi ozod bo‘lmisham.

Toshdi Nil daryosi, bosdi Misr elin tuproqlarin,
Men Halab, Bag‘dodga bordim, boq,
na dilshod bo‘lmisham.

Aylanib kezdim Iroqni, bir musulmon topmadim,
Oshig‘i Misru yana mushtoqi Bag‘dod bo‘lmisham.

Chun seni ko‘rgach Nasimiy shavqidan shunday dedi:
“Ishq ila men oshinoman, aql ila yot bo‘lmisham”.

* * *

Manam ul tilsimi pinhon, bu jahonga yona keldim,
Azaliy sir o‘sha menman, abadiy nishona keldim.

Ha, bu tilsimni men ochdim,
zulumotga nurim sochdim,
O‘tibon turli maqomdanki, bu jism-u jona keldim.

O‘qigach ismi A’zamni[1] vujuda keldi bu olam,
Qo‘ying otimni siz Odam, ki bu kun jahona keldim.

Ko‘raturgan u ko‘zimdir, kalom aytgan u o‘zimdir,
Butun olamni ko‘rib men, yana ositona keldim.

Nasimiy kim o‘zi, dersan, bayon aylar u bu rozni,
Tuzubon bu so‘z-u sozni, zabona to‘lg‘ona keldim.

* * *

U pari lablarini chashmayi hayvon demisham,
Yuzining chashmasini men ne uchun jon demisham?

Hijil o‘ldim bu sababdanki, nigorim yuzini
Bu Eram gulshani-yu ravzayi rizvon demisham.

Sen o‘zing surati Alloh, yana masjidi majid,
Sujud etmas senga kim, dev ila shayton demisham.

O‘zi taqvim go‘zali ham yuzi qibla biz uchun,
Bu so‘zim tinglamaganni xar-u hayvon demisham.

Surating inkor etar kim, kofir-u mal’un udir,
Ya’ni haq aytgan u so‘zni yana chandon demisham.

Ne sabab men guli xandon demadim g‘uncha uchun,
Ki yanog‘ing guli xandoniga xandon demisham.

Etibon rashk sadaf ichra eridi dur, ne ajab,
Ki labing javharini la’li Badaxshon demisham.

Bu zamon har tikaning sen-da guliston demagin,
Men o‘sha orazi gulgunga guliston demisham.

[1] **Ismi A’zam** — Allohning “Asmoyi husna”dagi go‘zal ismlaridan biri. Bu ismlarning 300 tasi “Tavrot”da, 300 tasi “Zabur”da, 300 tasi “Injil”da, 99 tasi “Qur’on”da bildirilgan.

Sochini mushki totorga qiyos etgan adashur,
Bahosi har tolasin mulki Sulaymon demisham.

Bu Nasimiyga madad, fazl-u karam qilgan o‘zing,
Meni ayb aylamakim, madh eta sulton demisham.

* * *

Soqiyo, kel, ro‘za ham bo‘lmish tamom,
To‘ldirib sun mayni endi, vassalom.

Oshig‘ingga bayram oyidir yuzing,
Ey soching mahshar, ruxing baytulharam.

Tavbadan kech, so‘fi, sen rindona kel,
Boda ham sof bo‘ldi, keldi davri jom.

Donayi xoling jahonni oldi-ku,
Ne kerak sochdan tuzog‘-u buncha dom?

Orifing ko‘yi tag‘in mayxonadir,
Ofarin, joyi tag‘in oliymaqom!

Sen Nasimiyga quloq tutgin bu kun,
So‘ylagan har bir so‘zi xayrulkalom.

* * *

Tokim yuzingni ko‘rmisham, husnunga hayron bo‘lmisham,
Tushdim soching savdosiga, lol-u parishon bo‘lmisham.

Kel, ko‘r meni botindakim, na gizli bir ganjinaman,
Bul suvratim zohirda ko‘r,
olamda vayron bo‘lmisham.

La’ling Iso mo‘jizasin dunyoda bot takrorladi,
Boq, men visolindan uning boshdan oyoq jon bo‘lmisham.

Haqning kalomi mendadir, haqdan yiroq deb o'ylama,
Bilki, ko'ngildir arshi haq, bas, arshi rahmon bo'lmisham.

"Anastu nor"ning sirriga Muso kabi yetsam degan,
Kelsin, meni ko'rsinki, men olamda doston bo'lmisham.

Ganji nihonning sirriman, ham ganj-u, ham ganj koniman,
Javhar o'zim, javharchi ham, javharga men jon bo'lmisham.

Esgan nasimingman bu kun, shul o'z vujudim shahrini
Fath aylagan Alloh deya, xoqon-u sulton bo'lmisham.

Otim Nasimiydir, bu chog' bo'ldim kalomning notig'i,
Ham ko'zgu-yu ham nuri haq, ham fazli Yazdon bo'lmisham.

* * *

Menga sig'ar ikki jahon, men bu jahona sig'magum,
Gavhari bemakon o'zim, barcha makona sig'magum.

Yer ila ko'k, bu kof-u nun menda yig'ildi jumla chun,
Sen-da, raqib, ayla sukun, sharhi bayona sig'magum.

Bori makon alomatim, zoti erur bosh oyatim,
Bil meni bu nishon ila, men bu nishona sig'magum.

Kimsa xayol, gumon ila haqni tanib, bilolmadi;
Haqni bilolgan biladir, o'y-u gumona sig'magum.

Suvrat ichinda ma'ni bor, ko'z-la boqib, ma'nini ko'r,
Jism ila jon men-ku, valek jism ila jona sig'magum.

Ham sadaf-u inj-u o'zim, hashr-u sirot yo'lchisiman,
Buncha libos, narsa bilan men bu do'kona sig'magum.

Ganji nihon ham o‘sha men, ayni ayon ham o‘sha men,
Gavhari kon ham o‘sha men, dengiz-u kona sig‘magum.

Gar muhiti a’zam o‘zim, otim Odam, ya’ni adam[1],
Borlig‘-u shu dorulomon, dorulomona sig‘magum.

Jon ila ham jahon o‘zim, dahr ila ham zamon o‘zim,
Ko‘r, na ajib latifa, men dahr-u zamona sig‘magum.

Yulduz ila falak o‘zim, vahy ila ham malak o‘zim,
Endi tiling tiy, e raqib, men bu lisona sig‘magum.

Zarra o‘zim, quyosh o‘zim, to‘rt, besh-u olti men o‘zim,[2]
Suvratini ko‘r, ayon et, men u ayona sig‘magum.

Zot ila men, sifot ila, qadr ila men barot ila,[3]
Gul shakar-u nabot ila pista dahona sig‘magum.

Turdagi nur, shajar o‘zim, arshiy o‘sha hajar o‘zim[4]
Boq o‘sha nur zaboniga, men u zabona sig‘magum.

Oy-u quyosh va bol o‘zim, hol o‘zim-u xayol o‘zim,
Ruhi ravon berguvchi men, ruhi ravona sig‘magum.

Garchi bu kun Nasimi-yu hoshimi-yu qurayshi men,
Bundan ulug‘dir oyatim, oyat-u shona sig‘magum.

---

[1] **Adam** — yo‘qlik; shoir bu o‘rinda “adim adamdir, adamam” deya fikrni nozik san’at bilan ifodalagan, afsuski, tarjimada buni chiqara olmadik (*tarj.*).

[2] **To‘rt** — to‘rt unsur: tuproq, suv, havo, o‘t; besh — besh tuyg‘u; olti — olti taraf.

[3] **Barot** — sha’bon oyining 15-kechasi, gunohdan poklanish vaqti; qadr — ramazon oyining 27-kechasi, “Qur’on” ko‘kdan indirilgan kecha.

[4] Turi Sino tog‘ida hazrat Musoga ko‘ringan nur; hazrati Maryam tayangan daraxt; ko‘kdan tushgan afsonaviy tosh.

* * *

Bu jonni tark etib, kechdim jahondan,
Jahon bo‘ldim, jahon bo‘ldim bu jondan.

Agar mahbubga yetmoq istagaysan,
Kelib, kechmoq kerakdir “kunfakan”dan[1].

Osondir ziyon-u naf’i jahonning,
Uning har foydasin qutqar ziyondan.

Agar jin bo‘lmasang, odam taraf bo‘l,
Nedan asling — Odamdan, so‘yla undan.

Gumondan topmadi hech kimsa haqni,
Yaqin avlo; yaqin kelmas gumondan.

Bu dunyoning guli o‘smas tikansiz,
Gulin deb kechma hech sarvi ravondan.

Dudog‘i jondir ul shirin dahanning,
Vale g‘ofilsan ul shirin dahandan.

Ayon bo‘ldi yuzi, yo rab, qo‘riqla
Jamolin fitnayi oxirzamondan.

Barindan kechdim-u haq deb valekin
Kecholmam ul sochi anbarfishondan.

Nasimiyning murodi sen o‘zingsan,
Shu bois burdi yuz borliq makondan.

* * *

Jon hamisha ul quyosh ruxsora burmishdir yuzin,
Olti yoqdan shul buti ayyora burmishdir yuzin.

[1] “Bo‘l” buyrug‘i bilan yaralgan olam.

Ka'badan qaytardi yuzin kimki ko'rmish yuzini,
Boq, na ko'rkam qiblayi diydora burmishdir yuzin.

To vujud erkan, to'kar qonimni chashmi masti-la,
Kecha-kunduz nargisi xunxora burmishdir yuzin.

Oshiq insonning yuzi har dam nigor sori qarar,
Ko'rki, obid har qachon devora burmishdir yuzin.

Inja zulfin bandiga ko'nglim ilinmishdir vale
Gohi-goh shul durrayi tarrora burmishdir yuzin.

Jon qushin parvozga yo'llab, topdi iymon har kishi,
Jon-u dildan ul pari ruxsora burmishdir yuzin.

Ey Nasimiy, koinotning holiga sen boqma hech,
Bilki, jonon doimo dildora burmishdir yuzin.

* * *

Dami Iso kelar dudog'indan,
Oy misol nur oqar yanog'indan.

Zulfidir qoplagan kechalarni,
Ul quyosh nur olar chirog'indan.

Yondirar dog'i hasrati birlan,
Kimki yonmas bu sevgi dog'indan.

Qomati bir daraxtmiki, yonsa
Har ko'ngilning chirog'i yog'indan.

Tutsa yorim ichay bir ayoq[1] may,
Bor umidim uning ayog'indan.

[1] **Ayoq** — qadah.

Haqparast chapni tashladi o‘ng deb,
So‘lni ko‘p rasvo dedi sog‘indan[1].

Turda Muso yuzing ko‘rayin der,
“Lantaran” yangramish u tog‘indan[2].

Jon na qushdirki, qutqara bilsang
Anbarin zulfining tuzog‘indan.

Ko‘zlarining qorasi, oqi bor,
Farq etilmas qorasi oqindan.

Zulfining xushnafas nasimikim,
Kelmadi bir g‘ubor ayog‘indan.

* * *

Shaho, ko‘ngling hamisha beg‘am o‘lsun!
Qo‘lingda doimo jomi Jam o‘lsun!

Gul-u lola jamolingdan hijildir,
Yuzing yozi hamisha xurram o‘lsun!

Senga ayshu safo kelsun, hasadgo‘y —
Yomonning dardi ko‘p, umri kam o‘lsun!

Daf-u chang-u chag‘ona, nay-u tanbur
Chalinsin, davralar sho‘x, tamtam o‘lsun!

Seni sevganlarga aysh-u tomosho,
Raqiblarga sitam, g‘am hamdam o‘lsun!

Mening umrim tugab, o‘lsam g‘amingdan,
Sening umring tanobi mahkam o‘lsun!

---

[1] Chap yomonlik, o‘ng yaxshilik belgisi; “Qur’on”da so‘lchilar jahannamlik, sog‘chilar jannatlik hisoblanadi.

[2] Tur tog‘ida Muso “Ey Alloh, menga jamolingni ko‘rsat” deya yolvorganida, “Meni sen bu ko‘zlar bilan ko‘ra olmaysan” degan sado keladi.

Raqib so‘rgay, kiming yor, deb, degayman
Azizim ham umidim, kim ham o‘lsun!

Quy, ey soqiy, mayingni, hamdamingman,
Ichaylik, toki tun subhidam o‘lsun.

Nasimiy xastadil, ezmish firoqing,
Qo‘y ul bechorani, to mahram o‘lsun!

* * *

Qayda u kunlarki, kechmish dilbari ayyor bilan,
Dilbari kofirtabiat, ko‘zlari xunxor bilan.

Ofarin, ayni zamon yo‘qdir raqib, yorim kelur,
Dam-badam ko‘nglim olar u shakkarin guftor bilan.

To meni taqdiri Yazdon ayladi sendan judo,
Diyda giryon, siyna buryon, dil bu oh-u zor bilan.

Ey Xudoyo, bir tag‘in ko‘rsat menga diydorini,
Yo‘qsa, men kofir bo‘lib, bel bog‘lagum zunnor bilan.

Haq bilar, o‘lsam-da aslo yor yo‘lindan qaytmagum,
Qo‘rqaman, mendan burib yuz, yor ketar ag‘yor bilan.

Ey pari paykar, sening ishqing menga bo‘lsin harom,
Gar seningsiz suhbat etsam olam-u dayyor bilan.

Ey Nasimiy, sen falakning gardishindan g‘am yema,
Har quvonch anduh bilan ham har qizil gul xor bilan.

* * *

Bu jahon murdordir, jirkan, ko‘ngil, murdordan!
Gul emas, dunyo tikandir, ne kutarsan xordan?

Bir vafolik yorni hech kim ko‘rmadi dunyoda, bil,
O‘zni chetga tort, ne hosil shul vafosiz yordan?

Har ne maqsudingni ista oxirat vodiysidan,
Dunyaning miqdori yo‘qdir, kech bu bemiqdordan!

Muddaiy-vaysaq jafosin haddan o‘tkazdi, biroq
Yor agar yor bo‘lsa unga, ne xatar ag‘yordan?

Kim erur zohid, Nasimiy bildi ahvolin uning,
May bilan birga u ham, hech chetdamas xummordan.

* * *

Ey ko‘ngil, yayrab quvon, mahbubi zebo kelsalar,
Mehring-u joningni bergil ul diloro kelsalar.

Bo‘ldi ko‘nglim kechasi nuri safo birlan yorug‘,
Husni Yusuf, xulqi Ahmad, nutqi Iso kelsalar.

Ketmasun nevchun boshimdan aql-u ko‘nglimdan qaror,
Ko‘zlari nargis, labi la’li musaffo kelsalar.

Kechalar xalq uxlar-u men tonggacha oh aylaram,
Hamdulilloh, ki bu kun ul mohisiymo kelsalar.

Gul yanog‘ingga boqib, “sab’ulmasan” lavhin o‘qib,
Baxtiyorman, boshga bu dam turli savdo kelsalar.

Der Nasimiyni ko‘rib har kim, bo‘libdir poyimol,
Asli oshiq holi shu sarmast-u shaydo kelsalar.

* * *

Barcha makonni gavhari, gavhari konmisan, nasan?
Ushbu sifoti husn ila jon-u jahonmisan, nasan?

Yer bila ko‘k, kof ila nun sendadir, ey malak, bu kun,
Kimsa bu sirni bilmadi, sharh-u bayonmisan, nasan?

Barcha makonga boqmagum, chun seni topdim, ey sanam,
Ikki jahon ichinda sen barcha makonmisan, nasan?

Dahri zamon ichinda hech topmadi kimsa bir yana
Sendayini, bu lutf ila dahri zamonmisan, nasan?

Senda topildi, ey sanam, gavhari kon-da sen o‘zing,
Ushbu jahon ichinda sen ganji nihonmisan, nasan?

Qoshlaring-u shu kipriging qasd etadir bu jonima,
Bag‘rimi tildi novaking, o‘q-u kamonmisan, nasan?

Qadd-u bo‘yingni jannatiy tubo daraxti deyishar,
Bu holating bilan, ajab, sarvi jinonmisan, nasan?

Ishqing o‘tinda yoqilib, qoldi Nasimiy chaqilib,
Hol-u hayoti jilvagar, jismi ravonmisan, nasan?

* * *

Kel, ey ko‘nglimda jon, jonda badansan!
Na jondasan, ajabkim, jon-u tansan!

Seni til qandayin sharh etsin, ey jon,
Ne bilsinlar seni, ey jon, nadansan?

Yuzing chun “Qul huvallohu ahad”dir,[1]
Haqiqat mo‘jizi, haqdan chamansan.

Vujuding zoti mutloqdir, shu bois
Qayonga, nega boqsam, anda sansan.

Na yerdansan, seni hech kimsa bilmas,
Magar jannat tani “hubbul vatan”san.

[1] **“Qul huvallohu ahad”** — “Qur’on”ning “Ixlos” surasidagi oyat.

Azaldan, arsh-u taxtdan dam urarsan,
Shu ma'noda o'zing-da sanda sansan.

Nasiming shod, topibdir xush malohat,
Shirindir har so'zing, shirindahansan.

* * *

Kel, ey dilbar, bo'libdir qon ko'ngil ishqing balosindan,
Karam qil, vasl ila qutqar meni hijron havosindan.

Toalalloh, na dilbarsan bu husning-la, bu lutfing-la,
Qachon ko'rsam, ko'zim to'ymas bu dunyo mahliqosindan.

Meni ishq o'tiga otgan, nigoro, telba ko'nglimdir,
Yonar bag'rim, oqar yoshim ko'zimning mojarosindan.

Bu ko'nglim dardiga, yo rab, na darmon aylayin, bilmam,
Tabib hayron turar, ul ham xabarsizdir davosindan.

Labi la'ling firoqindan nadir holim, sen undan so'r,
Nazar solsang yuzimga, hol ayondir kahrabosindan.

Oyog'ing changlarin sursam ko'zimga surmadek, yaxshi,
Ki yekrakdir ayoq tuzing hakimning to'tiyosindan.

Sochin chininda Chin mushki o'rabdi pardaday yuzni,
Qalam balki uyalmishdir qilib qo'ygan xatosindan.

Jafodan har zamon ko'nglim rizodir, bot jafo ayla,
Bo'lar mamnun axir oshiq diloromning jafosindan.

Nasimiyning tanin, albatta, tuproq aylagay ishqing,
O'zing rahm et, xabardorsan duo-yu marhabosindan.

* * *

Ey yanog'ingdan hijil gul lolai humro bilan,
To'kdi qonimni ko'zing har lahza bir savdo bilan.

Aldabon ko‘nglimni oldi, endi jon istar ko‘zi,
Buncha qiynog‘i nedandir oshig‘i shaydo bilan?

Tishlarining aksi tushdi ko‘zlarimning oqiga,
La’l to‘kilmishdir ko‘zimdan qonli bir jolo bilan.

To abad savdo qilarmish jon bilan dunyo-yu din,
Jon-da bozor ayladi shul nargisi shahlo bilan.

Anbari zulfing nasimi etdi bu olamga fosh —
O‘tga tushmish nofayi Chin anbari soro bilan.

Chashmayi hayvon suyindan jon tiriklik topmadi,
Chunki vuslat topmadi ul la’li ruhafzo bilan.

Sarv ila shamshod-u tubo aylay olmas monelik,
Chun Nasimiy qone’ bo‘ldi shul qadi bolo bilan.

* * *

O‘zni tiy, ey nafsi zolim, dunyaga aldonasan!
Aldanib qolsang agarda, do‘zaxinda yonasan!

Qari, makkor er-xotindir bu jahon, aldar seni,
Unga aldansang, ayon — aldanding ul shaytona san!

Nafsing otiga minib, har tog‘-u toshga chopmagil,
Moddiy olamdan chiqib, kel ma’naviy maydona san!

Bilki, yo‘ldoshing gunohkor, mingani shayton oti,
Senga, zolim, bo‘ldi ne, shayton bilan hamxonasan?

Haq erur, botil emasdir ko‘kdan ingan to‘rt kitob,
Bo‘ldi mansuh uchtasi, lek haq degin “Furqon”a san.

Qon to‘kib, zulm aylamakdir ishlaring, ey nafsi shum,
Tangridan bir qo‘rq, axir nevchun bu qona qonasan?

Bir kelin dunyo, kiyar goho qizil, goho yashil,
Ol kiyib aldar sani ham, bormagil ul yona san.

Bu ajal maydoniga har kim tushar, san ham tushib,
Toshga boshingni urib, qabr ichra ko'p to'lg'onasan.

Har ne ko'rsang — ko'rmagil, har ne eshitsang — tuymagil,
O'zni oshno tutmagil hech g'iybat-u bo'htona san.

Tanda jon, bilkim, qo'noqdir, ranjitib qo'ysang — gunoh,
Ikrom aylang, der rasul ham, ehsonli bo'l mehmona san.

Sandan, ey dunyoyi foniy, ko'rmadi hech kim baqo,
Ha, baqo ko'rsatmading izzatli ul sultona san.

G'aflat ichra har zamon qilding bu dunyo ishlarin,
Ne bo'lar ul kun — ilohiy yo'lga ham chulg'onasan?!.

Jabr etib Yoqubga ul Yusufni san ko'rsatmading,
Mangulik ham bermading-ku Yusufi Kan'ona san.

Ul fir'avn va juhud dasti bilan ezding rosa,
Zulm etib Iso-yu Maryam ham Muso Imrona san.

San bu dunyo mulkini deb hiyla ishlatding mudom,
El tonuq bo'lgay, gunohdan ne etib ham tonasan?

Bu jahon ganjin qo'riqlar bir ilon, ismi ajal,
Qo'rq ilonindan uning, qo'y, borma ganj-u kona san.

Boli dunyoning balodir, qandi ham zahri ilon,
Urma barmog'ingni unga, zahri-la bulg'onasan.

Zikr-u toat birla joning kemasin qirg'oqqa bur,
Yo'qsa cho'kkaysan gunohlar qaynagan ummona san.

Zulmati nafs ichra iymoning charog'in mash'al et,
So'ngra yetgaysan Xizrdek chashmayi hayvona san.

Osmagil shayton bo‘lib bo‘yningga la’nat tavqini,
Kel, bo‘yin sun jon bilan haq aylagan farmona san.

Qo‘rq u kundankim, savol so‘rgay kelib munkar-nakir,
Haq javobin bergali til yo‘q bo‘lib, bog‘lonasan.

Sanga shayton ul zamon yolg‘on javobni o‘rgatur,
Kirma shaytonning so‘ziga, vosil o‘l yazdona san.

Yo‘qsa qabringda yonar o‘t, jon azob chekkay mudom,
Qurt, ilonga yem bo‘larsan, to qiyomat yonasan.

Haq tarozusin ko‘zinda zarra nuqson bo‘lmagay,
Har yomon-yaxshi ishing-la duchsan ul mezona san.

O‘tsang uch ming yil yo‘lin bosib u qilko‘prik uza,
Yonadirsang gar yiqilsang unda do‘zax yona san.

Ketdi karvon, tindi odimlar sasi, san uyquda,
Eh, bu g‘aflat uyqusindan san qachon uyg‘onasan?

Bu qorong‘u tunda qolding bir o‘zing, yo‘q hamdaming,
Yo‘ldan ozsang, bil, tusharsan nola-yu afg‘ona san.

Shu jaholatni qo‘yib, qilg‘il namoz birlan niyoz,
Et duo, burgin yuzingni rahmati rahmona san.

Uzma rahmatdan umiding gar gunohing Qof erur,
Yorlaqar ul, tavba qilgil, ey g‘arib parvona, san!

Ey Nasimiy, qutqar o‘zni ikki olam dardidan,
Sidq ila bel bog‘la, yolbor hazrati subhona san!

* * *

Alloh-Alloh, na jon, na dilbarsan!
Alloh-Alloh, na bahru gavharsan!

Yer-u ko‘k ravshan o‘ldi yuzingdan,
Nurli oy, sen na shamsi xovarsan!

Mushki anbar sochingdan uyaldi,
Jonfizo mushk-u yangi anbarsan!

Suvrating husn ichinda vohiddir,
Sen bu tavhid uchun muqarrarsan.

Sajda aylar quyosh-da yuzingga,
Shul sababdanki undan anvarsan!

Qomatingda ko'rindi qiyomat,
Ey hisob kuni, sen na mahsharsan?

Mangulik topdi kim seni bilsa,
Chunki borliqda sen-da javharsan.

Ey yuzing ro'za ahliga bayram,
Arshi rahmon-u iydi akbarsan.

Mus'haf oyati o'ttiz ikkidur,
"Jovidonnoma"[1], sen na daftarsan?

Shakkariy tot kelur dudog'ingdan,
Alloh-Alloh, na totli shakkarsan!

Ey Nasimiy, so'zing jahon tutmish,
Hamdililloh, na shohi kishvarsan!

* * *

Agarchi jondasan, jondan nihonsan,
Emassan jondan ayru, balki jonsan.

Xabar bermas esa ham kimsa sendan,
Yer-u ko'k to'p-to'lug' Sendan nishonsan.

O'zingdan berkitay men seni qanday?
Qayon boqsam, u yonda sen ayonsan!

[1] **"Jovidonnoma"** — hurufiylik asoschisi Fazlulloh Naimiy asari.

Hijil aylar yuzing husni u oyni,
Magar sen fitnayi oxirzamonsan.

Arabcha so‘ylasang, tiling tutilmish,
Sani kimdir deganmish “turkmonsan”.

Bu jonni tark etib, bezdim jahondan,
Bilindi menga, sen — jon-u jahonsan.

O‘zing ko‘rding, ko‘ringan sen ko‘zimga,
Na so‘ylarman, o‘zing so‘z-u lisonsan.

Haqiqatdan, so‘z ilhomdir ilohiy!
Bu so‘zni bilki, unga tarjimonsan.

Yaralgandan etak silta, qo‘ling tort,
Agar sen olam-u borliq makonsan.

Nasimiy, bil, bu kun davron seningdir,
Jahon xoqoni ham sohibzamonsan!

* * *

Yondirar jonimni shavqing, ey nigorim, qaydasan?
Ko‘zlarim nuri, iki olamda borim, qaydasan?

Kel, axir qon ayladi bag‘rimni bu achchiq firoq,
Ey labi vuslat sharobim, ey anorim, qaydasan?

Ayriliqdir bir tikanzor, majruh etdi, ko‘r, meni,
Ey ko‘zi nargis, habibim, guluzorim, qaydasan?

Sabr-u bardosh bitdi oxir, hech qarorim qolmadi,
Ey mening oromim, ey sabr-u qarorim, qaydasan?

Ayladi ishqing mani qalqon malomat o‘qiga,
Qoshi yoy, boshi yelakli,[1] shahsuvorim, qaydasan?

[1] **Yelak** — qush pati.

Voh, yiroq tushdim yuzingning sham'idan parvonadek,
Yonadurman erta-kech, ey nuri norim, qaydasan?

Sendan ayru ko'ngluma yo'qdur vafo-yu yor-u do'st,
Ey vafosiz, husni komil, yori g'orim,[1] qaydasan?

Tildi hijronning o'qi ishqingda yongan ko'kragim,
Surat-u ma'nida, ey chobuk suvorim, qaydasan?

Zulfinga bermish omonat haq azaldan sirrini,
Ey omonatdor, amini kirdikorim, qaydasan?

Bo'ldi mushtoq jon yuzing-u sochlaringning bo'yiga,
Ey yuzi gulshan, sochi mushkin totorim, qaydasan?

Yetkaz ul zulfing hidin har subhidam epkin bilan,
O't, tutunda qoldim, ey kel, intizorim, qaydasan?

Shul jamoling vasli, bil, oshiq uchun jannat erur,
Ey sharobi kavsarim, ketmas xumorim, qaydasan?

Yor uchun har go'shada ming dev bo'lur dushman manga,
Ey savodi a'zamu mahkam hisorim, qaydasan?

Sevgi davrin shohi bo'ldi, bil, Nasimiy ushbu kun,
Ey shakarlab, yori shirin, ro'zigorim, qaydasan?

* * *

Shul pari vaslin tilarsan, ey ko'ngil, devonasan!
Shamga o'zni urma ortiq, na g'arib parvonasan!

Bul xazina gavharindan xarj etarsan, orifo,
Ey bu ganjning naqdi, hay-hay, ne ajib vayronasan!

[1] **Yori g'or** — g'or do'sti; hazrat Muhammad payg'ambar va Abu Bakrning do'stligiga ishora.

Zulfi chavgon yor bilan ishq o‘ynamoq osonmidir?
To‘p qilib boshingni shul maydonga tush mardona san!

Gar Xalilday yorga do‘st bo‘lmoq tilarsan, sharti shu:
Yor yo‘linda o‘zni o‘tga tashlabon, jim yonasan.

Ey biliksiz, asli do‘stni bilmagan nodon o‘zing,
Ma’rifatdan lof urarsan, naylayin, begonasan.

Barcha jon jononi sensan, ey jahonning sarvari,
To‘g‘risi, pokiza gavhar, nozanin jononasan.

G‘amzasindan fitnalar qo‘zg‘oldi, turdi uyqudan,
Ayt, qachon uyqungdan, ey sen bexabar, uyg‘onasan?

Ey Sulaymon mantig‘indan qush tilin o‘rganmagan,
Devga mutesan, uning-chun tobeyi afsonasan.

Kel, “analhaq” sirrini mayxonada maydan eshit,
Nega, ey inkorchi, sen ayt, munkiri mayxonasan?

Ey Nasimiy, ul xumor ham fitnali ko‘zlar kabi
Doim esriksan, magarkim nargisi mastonasan?

* * *

Ayrildim, ey sendan habib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?
Boshimga kel-da, bo‘l tabib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?

Sendan uzoqda xastaman, qayg‘ung bilan payvastaman,
G‘urbatga tushdim men g‘arib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?

La’li labingga, ey sanam, tashnang bo‘lib, chanqoq manam,
Voh, bir qadah bo‘lmas nasib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?

G‘uncha labing aylab bayon, gulshanda goh tortib fig‘on,
Sayrab turar bir andalib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?

Yor birla suhbat aylamak, shuldir Nasimiyda tilak,
Ammoki yo'l bermas raqib, oh, ne qilay, oh, ne qilay?

* * *

Vaslini kimki ko'rmadi, dard-u azob ichindadir,
La'lini kimki so'rmadi, tashna, sarob ichindadir.

Ko'nglim ichinda suvratin jon kabi joylagan o'zim,
Ganj-u nihon-u gavharin, ko'r, na xarob ichindadir.

Sham'i yuzin harorati qonni tag'in-da qaynatur,
Qandayin o't emish o'zi, ul bu kabob ichindadir.

Qandu nabotu shakkarin lazzatini unutmisham,
Toki menim-la lablaring noz-u itob ichindadir.

Kimki qoshing-la bo'lmamish subhi azalda oshino,
Baxti qarodir ul abad, dod-u xitob ichindadir.

"Sirri sarohum"[1]oyatin so'rma zohiddanki, uni
Orifi rabbihum bilar, u bu sharob ichindadir.

Istagim endi zuhd erur, ishq deya yonadir ko'ngil,
Men ne hisobga tushdim-u ul ne hisob ichindadir.

Soldi jahonga g'ulg'ula fitnali nargising tag'in,
Fitnalarin ko'zi ochiq, demam u xob ichindadir.

Kuymadi hech quyosh va oy senga qarab-da har zamon,
Kimki asiri ishq erur, otash-u tob ichindadir.

Suratining sifotiga vola-yu lol o'zim mudom,
Ko'zdan agarchi surati zarf-u niqob ichindadir.

Zulf-u qoshing Nasimiga baxshi xudodir, ey sanam,
Jim ila nun bu husn ila qaysi kitob ichindadir?[2]

[1] "Allohlari ularning suvsizliklarini o'rtadan ko'tardi" oyatiga ishora.

[2] Mumtoz adabiyotda soch jim va qosh nun harfiga o'xshatiladi.

* * *

Qani bir ahdi paymoni butun yor?
Qani bir so‘zlari rost, to‘g‘ri dildor?

Qani haqni tanigan bir chin erkak,
Haqiqatlarni aytsa bizga bir bor?

Qani bir hiylasiz inson zamonda?
Qani sof oltin-u top-toza diynor?

Qani til birla iqror aylagan ul
Ko‘ngil ko‘zgusida yo‘q zarra inkor?

Qani bir injulik toza sadafkim,
Topilsa unda bir injuyi shahvor?

Qani Mansur kabi dor ahli, oshiq,
Muhabbat deb o‘limga borsa takror?

Qani ul chin oshiq, haqning habibi,
Qani bir haqni ko‘rgan ahli diydor?

Qani g‘aflat mayin xo‘plab, ko‘z ochgan?
Qani esriklar ichra bitta hushyor?

Qani ahdinda sobit bir odamkim,
Atay otin uning to‘g‘ri, vafodor?

Qani sodiqlar ichra sirga mahram?
Qani ishq ahliga bir dardli sardor?

Qani olamda eng sodiq aminkim,
Yoshurun qolsa ul ming turli asror?

Nasimiy yor bilan, ko‘r, birga doim,
Ne g‘am, gar jumla olam bo‘lsa ag‘yor!

* * *

Kim aytarki, yuzing gulnorga o‘xshar,
Yuzing lek nurga-yu gul norga o‘xshar.

Yanog‘ing jannatiy bir gulki xandon,
Biroq oning firog‘i xorga o‘xshar.

Suzilmish ko‘zlaring sog‘-u salomat
Valekin boqishi bemorga o‘xshar.

Na kundir, yo rab, e dilbar, jamoling
Uning oqshomi ham anvorga o‘xshar.

Jahonda senga o‘xshar kimsa yo‘qdir,
Desang gar hur, u ham makkorga o‘xshar.

Soching asrorini zohid na bilsin,
Uning tasbehi ham zunnorga o‘xshar.

Agarchi qoshlaringdir fitnaboshi,
Qaroqchi ko‘zlaring ayyorga o‘xshar.

Avomdan qochgan olim, sajda qilmas,
U devning xilqati ammorga o‘xshar.

Quyosh o‘xshar dedim shul oyga, hayhot,
Qachon oy ko‘kda har sayyorga o‘xshar?

Muhabbat jiddiy ishdir, bo‘lma g‘ofil,
U har ne ishgamas, xos korga o‘xshar.

Nasimiy sirli ganjning gavharidir,
So‘zi ul ganjdagi shahvorga o‘xshar.

* * *

Ey o‘zindan bexabar, kel, bil Xudoni, sendadir.
Kel, bu vijdon shahrini kez, ko‘rki oni, sendadir.

Qayda deb, har yerda sargardon kezarsan o‘ylanib,
Kezma har manzilni, chunki jon makoni sendadir.

Men qayu yuz birla aytay haqni sendan ayri deb,
O‘z ko‘zim-la ko‘rdim, Allohning nishoni sendadir.

Bulbuli qutlug‘ o‘zing, o‘zga guliston istama,
Sayrin et, Ruhulaminning[1] gulsitoni sendadir.

Yetti mus’hafdir yuzing[2], yetti qiroat-la o‘qi,
Anglab ol, soch, qosh-u kiprik — sab’akoni sendadir.

Surat-u nutqing, kaloming bezavoldir to abad,
Xalqqa tafsir ayla, chun sharh-u bayoni sendadir.

Ey Nasimiy, qush tilin — ko‘ngil tilin etgil bayon,
Qofdagi Semurg‘ qushin ham oshiyoni sendadir.

* * *

Mening yori vafodorim, kel endi!
Malak suvratli dildorim, kel endi!

Firoqing yoqdi jonimni bag‘oyat,
Habibim, munisim, yorim, kel endi!

Menam bulbul misol nolon-u giryon,
Dudog‘i g‘uncha, gulzorim, kel endi!

Qoshingda yo bo‘lib ta’zimda jonim,
O‘qim, yoyim, kamondorim, kel endi!

Firoqingda dali devona bo‘ldim,
Karam qil, zulfi zunnorim, kel endi!

---

[1] **Ruhulamin** — hazrati Jabrail, aqli avval ko‘zda tutilgan.

[2] **Yetti mus’haf** deyilganda yuzdagi yetti xatt (1 soch, 2 qosh, 4 kiprik) ko‘zda tutilmoqda.

Seningdek ko‘rmadim bir gul jahonda,
Binafsham, lola, gulnorim, kel endi!

Qarorim qolmadi, sabrim tugandi,
Labi lola, shakarborim, kel endi!

Nasimiy notavon dard-u g‘amingdan,
Kel, ey jonim, jafokorim, kel endi!

* * *

Har sahar vaqti g‘arib bulbul fig‘onin boshlar,
Ohim ortar dambadam, oqqay ko‘zimdan yoshlar.

Shuncha faryod urdiki bechora bulbul dard chekib,
Tinglab oning dardini, dodlab yubordi toshlar.

Qayda bo‘lsa bir pari, yoninda yuz ming dev bo‘lur,
Qayda avbosh bo‘lsa bosh, bisyor bo‘lur beboshlar.

Borakalloh, dasti qudrat tuhfa yozmish naqshini,
Ofarin der unga ojiz qolgan ul naqqoshlar.

Bilmadim, zulfingmidir har tolasin dom aylagan,
Yo‘qsa jonga qasd o‘sha ko‘zlarmidir yo qoshlar?

Shishayi ko‘nglimga pashsha tegsa ham chil-chil sinar,
Otma tosh, qilmas bu ishni hech axir sirdoshlar.

Qayda Layli bo‘lsa, unda bitta Majnun ham bo‘lar,
Qaydaki ganj chiqsa, unda yo‘q bo‘lar ko‘p boshlar.

Tarki jon qildi Nasimiy, kechdi voz boshdan tag‘in,
Qayda qoldi ota-ona, qavm ila qardoshlar?..

* * *

Sen ayirding yorni mendan, charxi g‘addor, ko‘r, mana!
Yorildi g‘amdan yurak ham, kel, ichim yor, ko‘r, mana!

Yoqdi, yondirdi firoqing borlig‘imni, naylayin,
Toqatim, sabrim tugandi o‘rtanib zor, ko‘r, mana!

“O‘tni ko‘rdim” shavqi birlan jonni ko‘p yondirdi, qo‘y,
Bo‘lmisham Muso kabi mushtoqi diydor, ko‘r, mana!

Chora kimdan istayin, dardimga darmon sen o‘zing,
Chora senda, men bo‘libman chor-u nochor, ko‘r, mana!

Oy yuzing oshiqqa iymon, sochlaring hablul matin,
Bog‘lanibman men bu dinga, belda zunnor, ko‘r, mana!

Orazing jannat gulidir, bulbuli ruhulquds,
Ey bu gulning oshig‘i, ochildi gulzor, ko‘r, mana!

To‘g‘ramishdir g‘amli bag‘rimni firoqing, yoradan,
Bu yurak qoni ko‘zimdan oqdi, ey yor, ko‘r, mana!

Ey guli xandonim, endi pardadan chiq g‘unchadek,
Ishtiyoqing birla majruh ayladi xor, ko‘r, mana!

To meni taqdiri Yazdon otdi sendan ko‘p yiroq,
Yondirar shavqi firoq, ey yuzi gulnor, ko‘r, mana!

Gar “analhaq” deb bu dorga men ham osilsam, ne g‘am,
Qancha Mansurlar osilgan eski bu dor, ko‘r, mana!

Ko‘r, Nasimiyning vujudin yotda yondirmishdi yor,
Lek hasaddan o‘tga tushdi necha ag‘yor, ko‘r, mana!

* * *

Bu kun ul shoh chiroyi fikr-u dardim, ixtiyorimdir,
Umidim ham umidgohim, vafoli, to‘g‘ri yorimdir.

Habibimdir, tabibimdir, gulimdir, andalibimdir,
Rafiqimdir, shafiqimdir, g‘amimdir, g‘amgusorimdir.

Vujudimda ravonimdir, tomirlardagi qonimdir,
Bu kun shohi jahonimdir, latofatli nigorimdir.

Azizim, nuri diydamdir, iki olamda nolamdir,
Gul-u rayhon-u lolamdir, bezangan navbahorimdir.

Talab, ko‘nglim oluvchimdir, g‘am-u dardga soluvchimdir,
Tag‘in darmon qiluvchimdir, o‘zimning turk-totorimdir.

Yuzi nuri ilohimdir, munavvar shams-u mohimdir,
Ko‘ngil taxtimda shohimdir, na ziyrak shahriyorimdir.

Ajab shirin nigorimdir, sochi mushki totorimdir,
Gulistoni bahorimdir, bo‘yi sarv-u chinorimdir.

Sharobimdir, saroyimdir, u navro‘z, bayram oyimdir,
U baxtim, baxtli joyimdir, u jannat, guluzorimdir.

Xayolimdagi fikrimdir, mudom ko‘nglimda zikrimdir,
Dudog‘i qandi Misrimdir, so‘zi bol, shahdi borimdir.

Nasimiyni bu kun, yo rab, nigorim yod etib, aytmish:
“Haqirimdir, faqirimdir, g‘arib-u dilfigorimdir”.

* * *

Ey musulmonlar, madad, yor endi pinhon ayrilur!
Yig‘lamasdan ne qilaykim, gavdadan jon ayrilur.

Ey sanam, hajring aro men nolayi zor aylaram,
Ko‘zlarimdan bu zamon daryo-yu ummon ayrilur,

Shu sababdanki, biling, men xomush-u ranjidaman,
Xasta ko‘nglim malhami shul dardga darmon ayrilur.

So‘ldi chehram sarg‘ayib ham qomatim yo bo‘ldi chun
Ul quyosh yuzli seviklim, la’li xandon ayrilur.

Toqat-u sabrim tugandi, endi yorsiz ne qilay?
So‘zlari aqlimni olgan, ko‘zi fatton ayrilur.

Mahshariy yavmul hisob, keldi qiyomat boshima,
Ey Yusuf suratli, mendan piri Kan’on ayrilur.

Bu jigarni yoqqan o‘tga, ey Nasimiy, chora ne?
Har kima “nahnu qasamno”[1] chun azaldan ayrilur.

* * *

Subhidam ko‘rdim, nigor chodir yotog‘indan kelur,
O‘yladim, bir hurdir u, firdavs bog‘indan kelur.

Yo magar nuri tajallidur, ayon bo‘ldi yana,
Oy bilan kun tal’ati gulgun yanog‘indan kelur.

Chashmayi hayvon hijildur lablarindan doimo,
Obi Kavsar sharbati shirin dudog‘indan kelur.

Zulfining har tolasindan dam urar mushki totor,
Har xatar jon ofati, nozik tomog‘indan kelur.

Tik sarvlar ko‘rsa u shoh qaddini bo‘ston aro,
Sajda aylar bosh egib, titrab butog‘indan kelur.

Ey sevikli, oshig‘ingga etma ma’n husningni sen,
Qayda bir gul bitsa, bulbul barcha yog‘indan kelur.

Ey Nasimiy, yor tarafdan esdi ruhparvar nasim,
Ul Masih anfosidur, yorning dimog‘indan kelur.

[1] **“Nahnu qasamno”** — “biz bo‘ldik; ayriliqni qismat qildik”.

* * *

Yo darig‘okim, jahonda yori hamdam kam erur,
Yaxshilar jabrindan o‘zga ne menga hamdam erur?

Ey quyosh yuzlik seviklim, aylagil shod sen meni,
Bil, firoqingdan bu jon-u dil g‘ariqi g‘am erur.

Sen ishonmassanki, g‘amzang yiqdi ko‘nglim shahrini,
Ko‘r, bu faryodim nedandir, diyda qondan nam erur.

Va’dani qo‘y, ey ko‘ngil, kel, soz-u xush kechsin shu dam,
Tun-ku o‘tdi, tong-da g‘oyib, boq, shu dam xush dam erur.

Gar desam ko‘nglimni olgan bor jahonda, sensan u,
Dil seningdir, jon seningdir, menda men ne ham erur?

Ko‘rki, zohidning ishi mehrob aro zikr-u duo,
Oshiq ahlin ham ishi yor madhi-yu tamtam erur.

Bir nazar solgil Nasimiy holiga, rahm et axir,
So‘zlari hasrat va nolish, ko‘zlari Zamzam[1] erur.

* * *

Naylaram men bunda, do‘stlar, nozli dildor andadir,
O‘ylamang anda degan yer Bursa yo Lorandadir[2].

Naylaram men sayri gulzor, sarvizor sayrini ham,
Ul bo‘yi sarvi xiromon, yuzi gulzor andadir.

Furqatin dardi meni tuproq etar bir kun, sabo,
Yordam aylab tuprog‘imni unga elt, yor andadir.

---

[1] **Zamzam** — Ka’badagi suvi tugamaydigan buloq; oshiqning ko‘zyoshlari ham tugamasligiga ishora.

[2] **Bursa** — Usmonli saltanatining eski boshkentlaridan biri; Loranda — Qaraman viloyatining eski nomi.

Jon yanog‘ing davrasindan bir nafas ayrilmagay,
Qayda yangi gul ochilsa, bulbuli zor andadir.

Etdi ko‘nglimni asir ul qora, mo‘g‘ulchin ko‘zing,
Senga ham ma’lum, na gizli turli asror andadir.

Sharbating-la, ey tabib, orttirma dardimni bugun,
Chunki u sho‘x, nozanin yor, chashmi bemor andadir.

Tishlarin aksi Nasimiyning ko‘ziga tushdi, boq,
Bahri Bahrayn[1] bo‘ldi ko‘zlar, durri shahvor andadir.

* * *

Har kishining so‘rma aslin, izzatindan anglab ol,
Suhbati irfonli zotni xizmatindan anglab ol.

Haq taolo ilm aro insonni siymo aylamish,
Har kishining boq yuziga, suvratindan anglab ol.

So‘rma darvish pirini, bu odat ermas, debdilar,
Orifona bir nazar sol, kisvatindan[2] anglab ol.

Ul mahaktosh ajratar oltinni sof-u soxtaga,
Xastahol oshiqni dard-u illatindan anglab ol.

So‘rma mendan yov, raqibning belgisi nelar deya,
Egriso‘z har hiylakorni suhbatindan anglab ol.

Ey Nasimiy, naqdni hech nodon qo‘liga bermagil,
Durni donolar bilar, sen qiymatindan anglab ol.

---

[1] **Bahrayn** — Fors ko‘rfazidagi orollardan; eng yaxshi injular o‘sha yerdan olinadi

[2] **Kisvat** — ust-bosh.

* * *

Katta bayramdir yuzing, bayramda jon qurbon bo‘lur,
Obi hayvondir dudog‘ing, kimki ichsa, jon bo‘lur.

Garchi ishqing maskanidur bu ko‘ngil vayronasi,
Bepoyon bu ganjga loyiq qayda ham vayron bo‘lur?

Bir ilohiy san’at ehsoni erur husning sening,
Qudrati komil u zotning odati ehson bo‘lur.

Yo rab, ul pokiza javharkim, bashardir surati,
Qaysi olamdan kelur, qaydan oti inson bo‘lur?

Sunbuling ichra makon tutgan bu ko‘nglim, inchunun,
Ahli irfonning maqomi ravzayi rizvon bo‘lur.

Ey quyosh, jilvang, nishoning ko‘rinur har narsada,
Lek degaylar, hur ko‘rinmaydur, pari pinhon bo‘lur.

Gul-chechaklar ne axir o‘xshar desam ruxsoringa,
Qaysi gulzorda yuzingdek bir guli xandon bo‘lur?

Ey sabrsiz, yorga yetmoq mushkul ish deb nolima,
Qo‘y o‘zingni, kech o‘zingdan, mushkuling oson bo‘lur.

Nafsini bilgan odamzot o‘z-o‘zin anglar, tanir,
Kim tanir Allohni, ul bir qul ekan, sulton bo‘lur.

Tushdi savdoyi ko‘ngil oshufta zulfing domiga,
Tushmagan shul anbariy zanjirga, sargardon bo‘lur.

Surati Rahmonni inkor etmish ul devi rajim,
Ul go‘zal Odamni inkor aylagan shayton bo‘lur.

Ey Nasimiy, so‘zlaring bir obi Kavsar ma’nida,
Har kim ichsa ul sharobdan, masti jovidon bo‘lur.

* * *

Ahli iymon o‘sha kun, voh, haqni inkor qildilar —
Va Husayniyni Halabda osdilar, xor qildilar!

Qozilar fatvo berib, haq so‘zni botildir debon,
Tark etib kufrin, imonga kelgani or qildilar.

Haqni poymol etdilar jabr-u zulmni orttirib,
Bir Sayidni bo‘xton aylab, mahkumi dor qildilar.

Jahl-u tahdid-la pichoqni necha bor tanga taqab,
Sog‘-salomat bir odamni shuncha bemor qildilar.

Menga haq amr aylabon, so‘yla, degach, men so‘yladim,
So‘zlarim doston etib, olamda takror qildilar.

Ul Husayniyning vujudin kesdilar ham uzdilar,
Ko‘kda aza tutgan ul hurlarni nochor qildilar.

Ey Nasimiy, vosil o‘lding rahamati Allohga sen,
Jannati a’loni topding, yerni gulzor qildilar.

* * *

Sen u zotga qullug‘ ayla, suhbatindan jon bitar,
Ul sadafni qo‘lga olkim, dur ila marjon bitar.

Suhbat etma, suhbat etma hech qachon nodon bilan,
Tarbiya nodonga bersang, bil, tag‘in nodon bitar.

G‘ofil o‘lma ahli dillar suhbatindan har zamon,
Ahli dillar suhbatindan shu’layi iymon bitar.

Kechma miskinlikdan, ul bir gizli ganjina erur,
Shubhasiz miskin muhitdan bek ila sulton bitar.

Xayri yo‘q, lek jabri ko‘p qo‘lni kesib, otmoq kerak,
Sen u qo‘lni tutki, undan xayr ila ehson bitar.

To‘xta, zolim, zulm ekursan o‘z dalangga sen yana,
Bilki, zolim zulmidan har onda bir isyon bitar.

Har ne bog‘-u hovliga sen kirmagil, kirgay tikan,
Kirgil u bo‘lstonga, unda gul ila rayhon bitar.

Hosili yo‘q har daraxtni tez kesarlar yoqqani,
Bolta tegmas ul daraxtki, mevasi larzon bitar.

Ey Nasimiy, turli-turli dardki bor, shul jondadir,
Ixlos aylab qil duokim, dardinga darmon bitar.

* * *

Jamoling aksi, ey dilbar, ko‘zi tushganni lol aylar,
Iki yoydek egik qoshing to‘lin oyni hilol aylar.

Sening jodu ko‘zingdan kim hayiqmas ersa, voy holi,
Axir har boqishing yuz ming fusun, makr-u malol aylar.

Xayoling-la tong otguncha yumolmasman ko‘zim har tun,
Firoqingda ezilgan dil visolingni xayol aylar.

Tegib kipriklaring o‘qi yurak-bag‘rimni qon qildi,
O‘sar soat sayin dardim, u ko‘ksimda kamol aylar.

Qachon jabring bitar yor deb, Nasimiy nolimas aslo,
Na xush, barcha jafolarni seningdek oyjamol aylar!

* * *

Sening ishqingdir, ey dilbar, mening-chun murshid-u ham pir,
Yo‘liqdim nogahon unga, nadir chora, nadir tadbir?

Yotarkan uyquda, ko‘rdim qaro zulfingni bo‘ynimda,
Ko‘z ochgach, so‘rdim, ey dilbar, bu ro‘yomga nadir ta’bir?

Bo‘libman dalli devona, soching zanjiriga bog‘la,
Mening bu telba ko‘nglimga sening zulfing erur zanjir.

Vujudim podishohisan, ko‘ngil berdim, sani sevdim,
Sanga bir ko‘ngil oldirgan qachon jonni ayar oxir?

Nasimiy, nomus-u orni, agar oshiq esang, tark et,
Chun oshiq qaddiga bichmish malomat ko‘ylagin taqdir.

* * *

Yuzing oyi jahon bir donasidur,
Yer-u ko‘k, oy, quyosh parvonasidur.

Jahon-u din-u dil zulfingga, jonim,
Agar loyiq desang, shukronasidur.

Yuzingdir “oyatal kursi”, shu bois
Kalomulloh mahramxonasidur.

Soching zanjirida qoldi bu ko‘nglim,
U zulfing tolasin devonasidur;

Qoshinig-la kipriging, zulfing va xoling
Qaroqchi ko‘zlaring mastonasidur.

Tutashmish ishq o‘ti jon birla tanga,
Mudom kuydirguchi pinhonasidur.

Yuzingga obid o‘lmushdur Nasimiy,
Nasimiyning bu holi, ayt, nasidur.

* * *

Ey nasimi subhidam, billoh, shu yorim yaxshimi?
Shu habibim, dilbarim, olamda borim yaxshimi?

Ul muattar sochlarindan, ey sabo, bergil xabar,
Shul yuzi gul, qomati sarv-u chinorim yaxshimi?

Shul labi la'lu ko'zi ohuyi shahlo, dilfirib,
Zulfi zulmat, xollari mushki totorim yaxshimi?

Ganj ichinda g'unchadek komillashar durri Adan,
Shul chaman sahnida barq urgan bahorim yaxshimi?

Yel qo'limda, suv ko'zimda, o't ichimda xok bo'lur,
Doim unda bir qiyomat, sabzazorim yaxshimi?

Boq, Nasimiy o'zni urdi ishqinga parvonaday,
Guluzorim, senga qilgan oh-u zorim yaxshimi?

* * *

Dudog'ing qand emish, bol anda naylar?
Yanog'ing xatt emish, xol anda naylar?

Varaqda yetti harf bo'ldi namoyon,
Alif, yo, lom alif, dol anda naylar?

So'fiy atlas kiyar, zohid saqarlot,[1]
Faqirning kiygani shol anda naylar?

Kishida yo'qsa bir pinhon xazina,
Xasham-u katta mulk, mol anda naylar?

Nasimiy yor deya bir o'tga tushdi,
Quruq so'z-u quruq hol anda naylar?

* * *

Kel, kelki, sendan ayru mushtoqqa jon kerakmas,
Mushtoqqa sensiz, ey jon, ikki jahon kerakmas.

[1] **Saqarlot** — yungdan to'qilgan qalin, uzun erkaklar kiyimi.

Gulzorga sarvi ko‘ngil mayl aylamas, uning-chun
Qaddingndan ayru, ey jon, sarvi ravon kerakmas.

Shul benishonni topdim, bo‘ldim uning nishoni,
Yuzingni ko‘rsa kimki, boshqa nishon kerakmas.

Ey jon, jahonda vasling bo‘lgach nasib ko‘ngilga,
Dermanki, endi menga borliq makon kerakmaas.

Ko‘rdim seni gumonsiz har bir go‘zal yuzinda,
Haqqal yaqinni ko‘rgan zotga gumon kerakmas.

Mushkin sochingga berdim ikki jahonni, ey yor,
Shul ishni aylaganga qilcha ziyon kerakmas.

Ovlab, jahonni oldi kipriklaring-u qoshing,
Har ovchi kasga endi o‘q-u kamon kerakmas.

Shirin labing mayindan mastonadir Nasimiy,
Fosh bo‘ldi sirri pinhon, sharh-u bayon kerakmas.

* * *

Ey azaldan jon ila jononimiz,
To abaddir ishqi ruhing shonimiz.

Bizga chehrang Ka’badir, ey dilrabo,
Zulfi ruxung qibla-yu imonimiz.

Jon nechun tark aylasin, ey jon seni,
Jonimizning jonisan, ey jonimiz.

Ko‘zlarimga bu jahon sensiz tikan,
Qaydasan gulzor-u bog‘-bo‘stonimiz?

Eng go‘zallardan go‘zal husning sening,
Senda zohir bo‘ldi ul Subhonimiz.

Orazingga yozdi o‘ttiz ikki harf,
Hikmat ila munshiyi arkonimiz.

Yo‘lladi maktubini hudhud[1] bilan
Ul go‘zal Bilqisga Sulaymonimiz.

Ko‘r, Nasimiy kuydi do‘stning jabridan,
Chunki shunday erdi ahd-paymonimiz.

* * *

Bil, meni bazmi azalda ayladi ul yor mast,
Shul sabab dunyo ko‘ringay har zamon bisyor mast.

Shunchalar mastmanki, bu etgay davom mahshargacha,
Chun meni vahdat mayi-la ayladi dildor mast.

Bu ilohiy ishq sharobindan ichibdir koinot,
Bu zamin mast, bu falak mast, gumbazi davvor mast.

Charxi gardun uzra, boq, to‘qqiz falak mast aylanar,
Mast quyosh, mast oyu yulduz, barchasi sayyor mast.

Qo‘lda may jomi-la hushyor bo‘lmagay mastonalar,
Barcha oqil mast-alastu barcha g‘o‘r, g‘addor mast.

Qumri mast, kaptar-da mast ham bulbuli sho‘rida mast,
Bog‘ mastu rog‘ mastu gulshan-u gulzor mast.

Bir yutum jomi ilohiy ayladi oshiqni mast,
Jom mastu boda mastu soqiyi abror mast.

Chang-u daf ham udu nay sarmast bo‘lib, afg‘on etar,
Bu xarobot ichra aytilgan so‘zu har guftor mast.

Mast bo‘lib kir shahri ishqqa, unda ko‘rgaysan ayon —
Bor go‘zallar mast-alastu chorsu-yu bozor mast.

[1] Po‘pishak.

Ko‘nglimiz nuri tajalli, ko‘ksimiz Tur tog‘idir,
Jonimiz diydori haqdan bo‘ldi Musovor mast.

Davri mahdiymish, hidoyat ayladi sohibzamon,
Ko‘rsatib ul yuzni, fazlin etdi so‘ng izhor mast.

Pardasin olgach yuzindan zotini qildi ayon,
Ayladi borliq makonni nur ila anvor mast.

Ey Nasimiy, sirri haqning mahrami sensan bu kun,
So‘ylading qudrat tilindan, ma’niyi asror mast.

* * *

Jamoling partavi nuri xudodir,
Yo‘lingda har oshiq joni fidodir.

Dudog‘ing sharbati ol-u, musaffo,
U majruh, xasta ko‘nglimga davodir.

Yiqildim ishqda Majnun bo‘lganim-chun,
Xayoling ko‘zda hur, Laylinamodir.

Menam Farhod kabi oshiq bo‘libman,
O‘zing Shirin, jamoling dilrabodir.

Nasimiy jon fido aylab, nigoro,
Mudom ishqing bilan mast xushsafodir.

* * *

Shaho, ko‘nglimda doim bir havas bor,
Shakar so‘rsam dudog‘ingdan magasvor.[1]

Sening gulgun yanog‘ing hasratinda
Oqar ko‘zim yoshi xuddi Arasvor[2].

[1] **Magas** — pashsha.

[2] **Aras** — Oraz daryosi.

Kel, ey umri azizimdan azizim,
Seningsiz kechadir umrim abasvor.

Guvoh bo‘lgay menga “Furqon”u “Injil”,
Bu ko‘nglimda faqat sen, bitta kas bor.

Tong otquncha qulog‘imga kelodur,
Raqiblarning ovozi mast-alastvor.

Seni tark etmagay aslo Nasimiy,
Chunonchi bu qafasda bir nafas bor.

* * *

Yuzing guldir, labing la’li shakarbor,
Ko‘zing jodu, sochingdir mushki totor.

Men oshiq bo‘lmisham shu xatti xolga,
Agar qonim to‘kar bo‘lsang, qo‘ling bor.

Menam yordan judo, ul yor mendan,
Iloyo, bo‘lmasin hech kimsa beyor.

Ayog‘ing changini bir to‘tiyoday
Turar ko‘zga suray deb ming xaridor.

Nasimiy holini so‘rgach nigoro,
Kamandi ishqingga bo‘lmish giriftor.

* * *

Sham’i falak husnunga parvonadir,
Jon-u jahon vaslingga shukronadir.

Bandi soching zanjiriga bu dilim,
Shul dalini ko‘rki, na devonadir.

Nargisi masting bo‘ladir mayfurush,
Biz g‘aribonning joyi mayxonadir.

La'li labing rohi musaffosiga
Ruhi muqaddas dag'i paymonadir.

Sochlarining domiga tushmish ko'ngil,
Fikri uning, boqki, parishonadir.

Ko'ngli obod bo'lgan oshiqning ichi
Ishq-u ruhin ganjiga vayronadir.

Ey dudog'u tishlari la'l birla dur,
Boisi shul la'l ila durdonadir.

Shamga rozin aytgan ul parvonadir,
Chorasi yonmoq uning, yo'qsa nadir.

Domiga sochingu xoling band etur,
Ko'rki xolingni, na balo donadir.

Kimki jamoling sifatin aytmasa,
Aytgani puch qissa-yu afsonadir.

Ishqinga bergay Nasimiy jonini,
Haq bilir oniki, na jononadir.

* * *

To ko'rdi quyosh oy yuzini, darbadar o'ldi,
Badr oyga zavol yetdi-yu davri qamar o'ldi.

Shamshod qading qildi Eram bog'ida javlon,
Sarv unga asir bo'ldi-da, mendan batar o'ldi.

Ul jolaki tushdi guli ruxsoringiz uzra,
Bir qatrayi yomg'ir bila ming lola tar o'ldi.

Orif kishi ichgan o'sha bir qatrayi maykim,
Olim tiliga tushdi-yu sohibnazar o'ldi.

Bir boqdi Nasimiy, yuziga zulfi o‘ralmish,
Hijron kechasi o‘tdi-yu vaqti sahar o‘ldi.

* * *

Oy ishqi sen kabi barnoga tushmish,
Yuzing ko‘rgach quyosh savdoga tushmish.

Bo‘yi zulfingga qoplandi butun ufq,
Magar anbar soching sahroga tushmish.

Men ul zohid so‘ziga hech ishonmam,
Bugundan voz kechib, da’voga tushmish.

Ko‘zingdan fitna·tarqaldi jahonga,
Boq, ey jonim, jahon g‘avg‘oga tushmish.

Na mavzun nuqtadir shirin dahoning,
Xabar berkim, qayu ma’voga tushmish.

Na yag‘mochi, mo‘g‘ilchindir bu, yo rab,
Qaroqchi ko‘zlaring yag‘moga tushmish.

Nadan tushmish soching hindu sifatga,
Yanog‘ing lolayi humroga tushmish.

Nasimiyning ko‘zi yorning g‘amindan
To‘lib, har qatrasi daryoga tushmish.

* * *

Jodu zulfin anbarafshon aylamish,
Mushki Chinni ham parishon aylamish.

Jon-u dil har dam necha to‘p bo‘ldilar,
Chunki yor zulfini chavgon aylamish.

Oshig‘in qoniga botirmish qo‘lin,
Boq, bu qonli holni doston aylamish.

Qosh-ko‘zinda bir “analhaq” yangragay,
Ayt, bu sirni kimda pinhon aylamish?

Iydi akbardir Nasimiyga bu kun,
Jonini shul oyga qurbon aylamish.

* * *

Haqiqat haqni bilmoqdir berib borini yag‘moga,
Yuzin dunyoga burganlar qo‘shilmaydir bu savdoga.

Safosiz so‘figa bir boq, harom deb tinglamas sozni,
Agar haq ahlidan bo‘lsa, na g‘am, kirsa kalisoga.

Takabbur bo‘lma, ey munkir, vujuding bahriga g‘arq bo‘l,
Bilur ming ma’nini, kimki tushib, cho‘ksa bu daryoga.

Chiqib minbarga, ey voiz, hadeb lofing bilan ezma,
Ki shayton sendan oldin ham edi band zuhdu taqvoga.

Nasimiy, o‘z diling pokla, jahon savdolarindan kech,
Xo‘ja yo qulmisan, farqsiz, ko‘ngilni ber bir Allohga.

* * *

So‘fiyo, yonimga kel, mast bo‘lamiz!
Kechamiz o‘zdanu alast bo‘lamiz.

Shu sharobning qo‘llariga qo‘l berib,
Nafs ayog‘inda yana xas bo‘lamiz.

Nafsimiz butlarini sindiribon,
Sidqimiz-la xudoparast bo‘lamiz.

Bizni yor istar shikasta aylamoq,
Mayli, ishqdan barcha shikast bo‘lamiz.

Boshladik yo‘qlik yo‘linda biz safar,
Boribon yor ko‘yiga, xast[1] bo‘lamiz.

[1] **Xast** — bor.

Qo‘y, baland yerni, Nasimiy, ko‘zlama,
Kel, g‘ariblar birla bir, past bo‘lamiz.

* * *

Jamolingdir bu bemorning shifosi,
Shifoyi qalbidir mohiliqosi.

Vahiy qoshing, ko‘zingdir oyatilloh,
Kun-u tundir ko‘zingning oq-qarosi.

Visoling zavqini shu jon bilarkim,
Uning jonindadir ishqning balosi.

Shu orifdir o‘shal Jam, jomi ham shu,
Yuzing oyinayi gitunamosi.

Kel, ey oshiq, shahid bo‘l ishq yo‘linda,
Ki haqdir har shahidning qon bahosi.

Riyo-la zohid aylar ishqni inkor,
Munofiqlik erur zohid riyosi.

Qiyomat qo‘pdi, to‘xtang ahli tujjor,
Bu kunning yo‘q sotarga bir matosi.

Nasimiyning vujudi bitta mutloq,
Bir Allohdan bu borliqning asosi.

* * *

Bu jonimdan chiqarmasman sening, ey jon, xayolingni,
Vale jon tanda qolmaydir agar ko‘rsam jamolingni.

So‘rarlar mendanam ilmi hadis-u oyati “Furqon”,
Yuzing uzra o‘qibdirman ilohiy xatt-u xolingni.

Majoling bor ekan, oshiq, faqat sen yorga intilgil,
Yetar bir kun, ajal kelgay, bitirgay u majolingni.

Ekansan katta yolg‘onchi, sen ey dunyo, bilib oldim,
Sen endi alday olmassan, bilurman xasbi holingni.

Dami vahdatda darvish ham shoh-u sulton barobardir,
Nasimiy xastadil, sen ham tan olgil o‘z zavolingni.

* * *

Dardchil etding sen meni, ey dardga darmon, armani,
Bo‘lmisham ishqing yo‘linda bandafarmon, armani.

Na pari, na bir odamni bu shaklda ko‘rmadim,
Hurmisan, jannatmi yurting, yo‘qsa rizvon, armani.

Ancha intildim sening nozik jamoling ko‘rgali,
Zarracha yumshalmading, ey ko‘ngli zindon armani.

Oy yuzingni berkitib yur, harki nomahram ko‘rar,
Yoki qaytgay dinidan ko‘p-ko‘p musulmon, armani.

Maryam-u Iso haqi dey, hech qarorim qolmadi,
Ko‘zlarim giryon etarsan, yuragim qon, armani.

Qo‘rqaman, din tarkin et deb qolmasayding menga ham,
Chunki zunnor bog‘lamishdir Shayxi San’on, armani.

Qayda bir xoch ahli bo‘lsa, barchasin ko‘rdim, biroq
Ko‘rmadim men sen kabi bir joni jonon, armani.

Bir so‘rog‘i bor Nasimiyning, eshit, oyparcha but,
Lutf etib men birla so‘ylash, la’li xandon, armani.

* * *

Tinglagil bu so‘zni, bir jondir so‘z[1]
Ham ilohiy, osmon makondir so‘z.

[1] Bu g‘azal shoirning “Iroq devoni”da 11 bayt berilgan (114 b.); o‘zbek tilida bosilgan “Men bu jahonga sig‘masman” to‘plamida ham shunday, chala holda tabdil etilgan (55 b.); g‘azal aslida 17 bayt (*tarj.*).

Olti yondan boq, tushun, "Kun" demish[1],
Bir yoni xoliqi jahondir so‘z.

Ingan-u indirgan U bir erur,
O‘z-o‘ziga bir tarjimondir so‘z.

O‘lchanilmas, unga yo‘qdir o‘lchov,
So‘ngsiz-u hadsiz, benishondir so‘z.

So‘z aniqdir, unda shubha bo‘lmas,
Anglagil, oqil, begumondir so‘z.

Arshi Rahmondir ko‘ngil, der nabiy,
Chunki ko‘ngil içhra bir kondir so‘z.

Qudratin bilgach Ali ham uning,
So‘z panohdir, dedi; xondir so‘z.

G‘ayri maxluq so‘z, u yaralmagan,
Endi o‘yla: nega arzondir so‘z.

Aqli kull, arsh kursi, lavh-u qalam,
To‘rtta unsur, to‘qqiz osmondir so‘z.

Avval-u oxir, zohir-u botin
Barcha oshkor, barcha nihondir so‘z.

Aql-u nafsni idrok etgan inson,
Hammaga so‘z aytki, hamondir so‘z.

Kofu nundan bo‘ldi mavjud dunyo,
Agar anglar esang, ayondir so‘z.

Odam-u Iso, Muhammaddir ul,
Mahdiyi sohibuzzamondir so‘z.

---

[1] **Kun** — (kof-u nun) Alloh "Kun", ya’ni bor bo‘l, deya olamni yaratganiga ishora.

Tinglasang gar bu bayonni, bilgung,
Asli qancha-qancha falondir so‘z.

Qo‘lga olsang “Jovidonnoma”ni,
Anglagaysen, aslida jondir so‘z.

So‘zga shuncha tavsifimiz ozmi,
Deb emishlar, fazli g‘aybondir so‘z.

Ey Nasimiy, qisqa so‘zlar oqil,
Chunki hadsizdir, bekarondir so‘z[1].

* * *

Oy yuzingdan sharm etar olsang jamolingdan hijob,
Marmariy siynangda har tong bosh ko‘targay oftob.

So‘rdim undan, gul yuzingda qatra shabnam ne erur?
Kuldi, aytdi: gulniqobim taqqan erdim ayni tob.

Etsa ma’n, zohid so‘ziga boqma hech, u aldagay,
Hirqasin siqsang agar, undan oqar gulgun sharob.

Gar hikoyat so‘ylasam sendan rubob-u changga men,
Chang qilar oh-u fig‘on ham noladan titrar rubob.

O‘z jigar qonim mudom bo‘lmish g‘izo o‘z qalbima,
Avj olar o‘t tomchilab qon tomsa kuyganda kabob.

Har nafas ko‘rmoq umidinda Nasimiy orazin,
Ko‘zlarindan yosh to‘kodur marvarid, durri xushob.

* * *

Shaho, husning tajallisi bu tanda jon etilgandir,
Bu tan ichindagi jonim senga qurbon etilgandir.

---

[1] **So‘z yaratuvchidir; aqli kull** — Alloh, arsh — ilohiy buyuklik tajallisidir. Tasavvufda arsh — ko‘ngil, farsh — yer yuzi, lavh — ilohiy kalom saqlanadigan makonsiz makon, qalam — kalomning subut vositasidir.

Bu tuprog‘im azaldandir sening ishqing-la yo‘g‘rilmish,
Abad ayrilmagay undan, et ila qon etilgandir.

Qoshing yoyin kerib boqsang, yurak titrar, jon o‘rtangay,
O‘qingga men nishon, umrim g‘arib maydon etilgandir.

Nasimiy bizga furqon der qoshingg-u kipriging, zulfing,
Jamoling mus’hafin har dam o‘qir, irfon etilgandir.

* * *

Jamoling sirri “Qur’on” manzilidir,
Dudog‘ing obi hayvon manzilidir.

Yuzingda olihiy suvratni ko‘rdim,
Shu chehrang arshi Rahmon manzilidir.

Bihaammdulloh, mening ko‘nglimda doim
Xayoli joni jonon manzilidir.

Turar joying shu ko‘nglimdir, nigoro,
Qo‘noq bo‘l, kel, u mehmon manzilidir.

Sening kufring-la har kim bo‘ldi kofir,
Yaqin bildi, u imon manzilidir.

Eshikdan o‘tma, hay, xavf aylamish sel,
Ki bilmish, u Sulaymon manzilidir.

Kel, ey Sayyid Nasimiy, orif o‘l sen,
Bu olam ahli irfon manzilidir

* * *

Ummonga tushib, ishq ila durdonaga uchrar,
Shukriga atab jonini, jononaga uchrar.

Yonmoqdan agar qo‘rqar esang, shamdan uzoq tur,
Shu o‘tga qara: ul necha parvonaga uchrar.

Mansur kabi qaynaga-yu so‘ylaydi “analhaq”,
Ul oshig‘i sodiqki, bu mayxonaga uchrar.

Olmas qo‘lini jomi sharobdan kecha-kunduz,
Har kimsaki shul nargisi mastonaga uchrar.

Ul joynamoz-u tasbehini qatraga sotgay,
Shul so‘fiyi sofiyki, paymonaga uchrar.

Afsona sotar hiyla-la oshiqlara voiz,
Oshiq qachon u qissa-yu afsonaga uchrar?

Zanjirli soching telba etibdir meni ham, yor,
Aqlin yo‘qotar, kimki bu devonaga uchrar.

Kirmish harami Ka’bani tahqiqqa[1] Nasimiy,
Allohni tavof aylar-u giryonaga uchrar.

* * *

Bu ko‘nglim olgan ul sho‘x, ko‘zi maxmur,
Biram nozik, emas husniga mag‘rur.

Sharobi la’lidan bir qatra ichgach,
“Analhaq” demishdir ishqinda Mansur.

Xudoning sirrini men unda ko‘rdim,
Musoga so‘ylaganda shu’layi Tur.

Sening ishqingda, ey Layli sifatli,
Menam Majnundayin olamda mashhur.

Masih-la chiqdim ul to‘qqiz falakka,
Ko‘rindi bor jahon porloq va purnur.

Nasimiyning jahonda yori sensan,
O‘zingsan jannat-u jannatdagi hur.

[1] **Tahqiq** — haqiqatni aniqlash.

* * *

Tag‘in fasli bahor bo‘ldi, ko‘kardi tog‘-u sahrolar,
Chamanlar to‘ldi qushlarga, ochildi gul-u ra’nolar.

Bezandi, noz bilan chiqdi, xiromon sayr etib yurdi,
Go‘zallar, xos ayonlar ham malohat ahli, sultonlar.

Yozilsa daftara sig‘mas kamoli husnining vasfi,
Malaklar bo‘lsa yozg‘uvchi, siyoh bo‘lsa shu daryolar.

Malohatda mening yorim na zebo, zohiri haqdir,
Unga hayron erur har dam jahonda barcha zebolar.

Go‘zallik, noz-nazokatda mening yorimga o‘xshash yo‘q,
Biror sheva bilan yuz ming ko‘ngil shahrini yag‘molar.

Nasimiy, ushbu mavsumda ko‘ngil vaqtini xush o‘tkaz,
O‘tuvchan bu jahon, besh kun, g‘animatdir tomosholar.

* * *

Kel, ey tolib, meni ko‘rki, jahonning podshohiman,
Yuzimga to‘g‘ri boq, men shu falakning shams-u mohiman.

Humoyun ko‘lkasi menman, jahon soyamdadir, bir boq,
Men u davlatga sodiqman, saodatning kulohiman.

Sulaymonman, ey orif, ko‘r, uzuk menda, muhr menda,
Uning hukmiga taslimman, Sulaymon murg‘-u mohiman[1].

Necha qolganga yorman ham necha yurganga ag‘yorman,
Na yerda istasang borsman, bari olam panohiman.

Shariatman, devonman ham goh oshkor-u nihonman goh,
Ham ul shayx-u da’vogarman, da’vogarning guvohiman.

[1] **Murg‘u moh** — barcha parrandayu darrandalar, jonzotlar (tarj.).

Nasimiy, sen dema juzvi, emassan, mim ila nunsan,
Vale uldur degan doim, bori olam ilohiman.

* * *

Butim, rahbonim-u dayrim, salibim, dinim, imonim!
Habibim, rohatim, ruhim, rafiqim, munisim, jonim!

O‘timsan, zulmatim, shu’lam, shabimsan, ravshanim, sha’mim,
Munavvar nurim-u hurim, farovon bog‘u rizvonim!

Tabibim, sharbatim, durdam, nabotim, shakkarim, qandim,
Ilojim, malhamim, choram, Jolinus birla Luqmonim!

Binafsham, sunbulim, alvon gulim, savsan bilan lolam,
Abirim, anbarim, udim, gulim, g‘uncham, gulistonim!

Kitobim, mus’hafim, darsim, hadisim, abjadim, lavhim,
Salotim, toatim, zuhdim, savobim, hajj-u arkonim.

U eski qabrim-u jismim, ko‘zim ham fikrim-u aqlim,
Omonim, ofatim, fitnam, tabiat unsur-u qonim!

Nasimiy senga bog‘langach, uzilmish bor-u yo‘g‘indan,
O‘zingsan sevgilim yolg‘iz, mening sarvi xiromonim!

* * *

Ey gulim, ey sunbulim, ey savsanim, vey anbarim!
Ey mening qandim, no‘g‘ulim[1], ey nabotim, shakkarim!

Ey habibim, ey tabibim, ey butim, ey hamdamim!
Ey rafiiqim, ey shafiqim, ey anisim, dilbarim!

Ey bahorim, ey nigorim, ey shikorim, shohidim,
Ey raqibim, ey zarifim, ey sharifim, sarvarim!

[1] **No‘g‘ul** — shirinlik; gazak:; arabchasi nuql (tarj.).

Ey gulistonim, gulim, sarvi gulandomim mening,
Ulfatim, shamim, shabistonim, maloyik manzarim!

Ey bu yo‘lda rohatim, ruhi ravonim, toatim,
Sarfarozim, sarkashim, nozli saodat axtarim!

Ey quyoshim, ey oyim sen, ey chirog‘im, fonusim,
Ko‘zlari sho‘x, lutfi shohim, ey muborak paykarim!

Oldi ishqing aql-u hushni, dilni xush yag‘moladi,
So‘yla endi, ey Nasimiy, jon-u dildan chokarim!

* * *

Yuzingda surati Rahmonni ko‘rdim,
Qoshingda qofu val “Qur’on”ni ko‘rdim.

O‘qidim darsi husning oyatini,
Yeti mus’haf kabi furqonni ko‘rdim.

Muhammad ummati bo‘lding, tug‘ilding,
Go‘zallarning seni sultoni ko‘rdim.

Xalilulloh bilan ishqing o‘tinda
Yonarkan, gul bilan rayhonni ko‘rdim.

Salomim Nuhga yetkazgil mening ham,
U birlan g‘arq bo‘lib, to‘fonni ko‘rdim.

Xizr birlan qolay men ham bu yo‘lda,
Labinda chashmayi hayvonni ko‘rdim.

Tushib daryoyi ishqqa misli g‘avvos,
Menam la’l, gavhar-u ummonni ko‘rdim.

Bizim maqsudimiz diydoringizdir,
O‘qirkan, daftar-u devonni ko‘rdim.

Zulayxodek bo‘lib dardga giriftor,
U minglab Yusufi Kan’onni ko‘rdim.

Nasimiydek bukun har kim berur jon,
Ishongil, gar desa jononni ko‘rdim.

* * *

Shu turfa shamni ko‘r, doim oqar mushki dudog‘indan,
Ajab, oy hech xijil bo‘lmas uning oyday yanog‘indan.

Binafsha zulfiga monand bo‘lay deb intilar ermish,
Chiqargil bu xayolni, ey sabo, oning dimog‘indan.

Agarchi sarv og‘ochining butog‘i mevasiz bo‘lgay,
Boqing bu sarv daraxtiga, bitar savsan butog‘indan.

Zamon oning yuzi, zulfi sabab boshga balo soldi,
Zamon ajratdi bot oning qarosini ham oqindan.

G‘ariqi bahri g‘am etdi meni bu shevalar birlan,
Biroq aylar tomosho har zamon oning qirog‘indan.

Majol topsam edi oning ayog‘iga bosh urmoqqa,
Hecham olmas edim boshni u dilbarning ayog‘indan.

Zamonning chaqnagan ko‘zi, chirog‘i yor Nasimiyga,
Chirog‘ingni ketur, yondir senam oning chirog‘indan.

* * *

Habibo, furqating soldi malola,
Jigar qon bo‘ldi alvon, xuddi lola.

Nasib o‘lmish menga haqdan, nigoro,
Dilimda kecha-kunduz oh-u nola.

Qoshing mehrobiga sajda qilurman,
Vale munkir qolibdir zo‘r zavola.

Bo‘ying to‘bo, dudog‘ing obi Kavsar,
Yuzing ta’na qilur badru xilola.

Raqibning bo‘lmasin maqsudi hosil,
Alifdek qomatimni soldi dola.

Men ul g‘avvosdayin baxsh ayladim jon
Sening chehrangdagi ul xattu xola.

Yer-u ko‘k bunyoda kelmasdan oldin
Nasimiy erdi oshiq ul jamola.

* * *

Jilvasi aldamchi, kirmasman buning bozoriga,
To‘g‘ri bo‘lmas egridil hech, yo‘q ishonch iqroriga.

Bori mehnat bu jahonning, ne kutarsan, ey ko‘ngil,
La’nat o‘lsun shu jahonga ham jahonning boriga!

Kimki Mansur bo‘lsa, minbar, taxtga chiqmoq istamas,
Harki Mansur chiqdi doim shohi ishqning doriga.

Bu jahonning ne’mati har dam jafo, ya’ni najas,
Sen-ku tohirsan, ko‘ngil, bas, urma qo‘l murdoriga.

Haq bilar, har ishga sabr et, g‘ussa chekma, g‘amni ot,
Vaqti o‘tsin shu jahonning, qo‘y, qo‘shilma koriga.

Gar Nasimiy tortsa g‘am, dard, fazli haq voqifdurur,
G‘am emas hech, zotan u sirdosh erur asroriga.

* * *

Xayoling diydayi giryona tushdi,
Dil-u jon har biri bir yona tushdi.

Meni ma’n aylagan darbon o‘zidur,
Yoniq ohim o‘ti darbona tushdi.

Azaldan u jahonga keldi uryon,
Ketarkan ham tag‘in uryona tushdi.

Qanoat kulbasiga kirdi darvish,
Farog‘at mulki ham sultona tushdi.

So‘fi, ma’n aylama, qismat kuninda,
Senga masjid, menga mayxona tushdi.

Soching savdosidan devona ko‘nglim,
Tovusdek bordi, Hindistona tushdi.

Nasimiy ikki zulfing ko‘rdi — chavgon,
Boshin to‘p aylabon maydona tushdi.

* * *

Lablaring qandini shakar dedilar,
Joni shiringa, ko‘r, nalar dedilar.

Jon demishlar labingni, to‘g‘ri, hay-hay!
Boq, bu so‘zni na muxtasar dedilar.

Juda dilbarsan-u omadli va sho‘x,
Chehrangu husningga qamar dedilar.

Kipriging o‘qiga, qoshing yoyiga
Oshig‘ing jonini sipar dedilar.

Og‘zi yo‘q debdilar seni, voajab,
Bexabarlar ajab xabar dedilar.

Ahli ma’ni u qutli suvratingga
Ma’niyi vahibussuvar dedilar.

Boq, u haqdan yiroqlar anglamayin
Seni, ey nuri haq, bashar dedilar.

Anbarafshon soching-la orazingga
Yosuman uzra mushki tar dedilar.

Ko‘r uning yuzini, ilohiyona,
Ahli ma’ni budir nazar, dedilar.

Shomga o‘xshatdilar qora sochingni,
Orazing nuriga sahar dedilar.

Ey Nasimiy, muhiti a’zam o‘zing,
So‘zlaringni dur-u guhar dedilar.

* * *

Nafasi ahli dilin gavhari kondir, bilasan,
So‘zining qudrati haq, ruhi ravondir, bilasan.

Mayini haqdan ichib, oshig‘i ozoda bo‘lur,
U agar mast esa-da, kufri imondir, bilasan.

Jon atab bordi Xizr obi hayot chashmasiga,
U berur to‘g‘ri xabar, nutqi ayondir, bilasan.

So‘zi yolg‘on kishi-la suhbat etish koni zarar,
Dev ila birga yurish kulli ziyondir, bilasan.

Tani Allohni, Nasimiy, sen o‘zing orifi bo‘l,
Yana so‘z so‘ylama, bas, so‘zki hamondir, bilasan.

MULLA PANOH VOQIF



VOQIFNING HAYOTI VA IJODI

Voqif ozarbayjon adabiyotida o'ziga xos o'rin olgan mashhur so'z san'atkoridir. Ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan ham, adabiy faoliyati bilan ham xalq hayotiga chambarchas bog'liq bo'lgan Voqif XVIII asr muhitining ilg'or namoyandalaridan biri edi. XVIII asrda Fuzuliy yo'lidan borgan shoirlar o'z buyuk o'tmishdoshlarining go'zal an'analarini davom ettirish va rivojlantirishdan ojiz qolib, ijtimoiy-siyosiy asarlar yozishga botina olmay, taqlidchilik va nazirachilik bilan shug'ullangan bir davrda Voqif adabiyotga yangilik olib kirib, uning yanada taraqqiy etishiga katta hissa qo'shdi.

Voqif va uning maktabiga mansub bo'lgan san'atkorlar nisbatan xalq hayotiga, xalq ruhiga yaqin bo'lib, og'zaki xalq ijodining asosiy xususiyatlarini sevganlari va unga amal qilganlari sababli she'riyatda muayyan yangilik yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Ular Fuzuliyning juda ko'p no'noq taqlidchilaridan farqli o'laroq, mavhum ishq-muhabbat haqidagina emas, konkret inson xususida bahs etib, real muhabbatni kuyladilar va mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy xodisalar bilan hamohang bo'lgan asarlar yaratdilar.

Voqif oddiy xalq ommasi ichidan chiqib, ko'zga ko'ringan davlat arbobi darajasiga ko'tarilishga muvaffaq bo'la olgan taraqqiyparvar shaxs bo'lganidan uning san'atkorlik qudratini va siyosatdagi iqtidorini hammadan avval qadrlaydigan xalq "o'qigan har bir kimsa Mulla Panoh bo'lavermaydi" degan maqolni yaratish bilan shoirniig iste'dodini baholagandir.

* * *

Voqifning asli ismi Panohdir. U maktabdorlik qilgani uchun Mulla Panoh nomi bilan tanilgan. Mulla Panoh Voqif taxminan 1717-yilda Qozox yaqinidagi Qiroq Saloqli qishlog'ida, o'rtahol dehqon oilasida tug'ilgan. Shoirning yoshlik yillari XVIII asr-

ning birinchi yarmida yuz bergan jangu jadallardan chekkaroqda bo'lgan, yarim ko'chmanchilik bilan umr kechiriladigan Qozox viloyatida o'tgan. U zamonasining eng peshqadam olimlaridan sanalgan Shafi Afandining qo'lida o'qib, mukammal madrasa ta'limi olgan. Ayni zamonda xalq hayoti, urf-odati va an'analarini yaxshi o'rgangan, xususan oshiq (baxshi)larning dostonlari va qo'shiqlarini zo'r ishtiyoq bilan tinglagan, soz chertishni o'rgangan, dastavval xalq qo'shiqlariga o'xshab qo'shiq-she'rlar aytishga uringan.

*Tarjimalar shoirning 1969-yilda bosilgan "Tanlangan asarlar"i (G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti) asosida tayyorlandi.

Shu asrning taxminan 59-yillarida Gruziya chegaralarida yuz bergan jang-u jadallar natijasida Qozox viloyatidagi bir necha qishloq Ganjava Qorabog' xonliklari tasarrufiga o'tishga majbur bo'ldi. Shu yili Mulla Panoh Voqif ham o'z oilasi bilan birga Tartarbosorga ko'chib borib, u yerda maktabdorlik qiladi.

Nihoyat Voqif u joydan ham Panohobod (Shusha) shahriga ko'chadi. Voqif u yerda avval maktabdorlik bilan shug'ullanadi va bir muddat moddiy jihatdan og'ir hayot kechiradi.

Voqif Shushaga ko'chib kelgan vaqtida bu yosh shahar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda edi. 1790-yilda mashhur Qorabog' xoni Panohxon tomonidan asosi qo'yilgani uchun "Panohobod" deb atalgan bu shahar xususan 60–70-yillarda juda obod bo'lib ketgan edi.

Nihoyatda iqtidorli va bilimdon Mulla Panohning maktabdorlik shuhrati tez orada butun el orasida yoyilib ketdi. Yozgan qo'shiqlari og'izdan og'izga ko'cha boshladi. Nihoyat uning ovozasi Qorabog' hukmdori Ibrohimxonga ham borib yetdi. Xon shoirni saroyga da'vat etib, uni eshik og'asi, ya'ni tashqi ishlar bo'yicha vazir etib tayinlaydi. Voqif tez orada saroyda katta obro'ga ega bo'lib, xonlikning barcha tashqi va ichki ishlariga rahbarlik qila boshlaydi. "Qorabog'noma"ning muallifi Mir Mehdi Xazoniy Voqifning arboblik mavqeyi haqida bahs yuritarkan, quyidagilarni qayd etadi:

"Mulla Panoh sohibkamol va tadbirkor va tajribali shoir va shirin suxan kishi edi. O'zi ham Ibrohimxonning vaziri va e'timodli

kishisi edi. Davlat ishlarini boshqarishda ham Mulla Panohning tadbir va maslahati bilan ish ko'rardi va qattiq ishongani va suyangani uchun unga tamomi inon-ixtiyorini bergan edi".

Voqif ayni zamonda Shusha shahrining obodonligi borasida sa'y harakat ko'rsatadi va xonlikning muhim ishlarini hal etishda ishtirok etadi.

Voqif Qorabog' xonligining gullab-yashnashi yo'lida zo'r g'ayrat bilan harakat qilayotgan bir chog'da Eron shohligining o'lkani qaytadan istilo qilish niyatiga tushib qolishi xonlikning osoyishtaligini buza boshlagandi. Bu vaqtda Eronda hokimiyat Kojor sulolasining boshlig'i Og'a Muhammadshoh Qojor qo'liga o'tgan edi.

Karimxon Zandning o'limidan foydalanib, taxtga chiqib olgan bu shoh o'zini Eron shohi deb e'lon qildi va ayni bir vaqtda Nodirshoh ishg'ol etgan barcha yerlarni zabt etish uchun kurash boshladi. Oradan biroz vaqt o'tgach, u Kavkazni ham bosib olish fikriga tushadi. O'lkaning nihoyatda og'ir tahlika ostida qolganini ko'rgan Voqif vatan mustaqilligini himoya qilmoq, uni qaytadan Eron bo'yinturug'i ostiga tushmasligini ta'minlamoq uchun qo'shni davlatlar bilan ittifoq tuzishni lozim topdi. Bu davrda Gruziya podshohi Irakli II ham yurtini Eron iskanjasidan xalos etish uchun bor quvvati bilan kurashmoqda edi. Ibrohimxon Irakli II ni Iravon hokimi Muhammadxonni, Talish hokimi Mir Mustafo xonni birlashishga da'vat etardi. Shu sababdan Voqif Tiflisga boradi, Iravonda bo'lib, ayrim davlat arboblari bilan xat orqali aloqa bog'laydi. To'rt hukmdor jangda bir-birlariga yordam berishga ahdlashadilar. "Qorabog'noma"ning muallifi shunday deb yozadi: "U vaqtda Tiflis hokimi Iraklixon Iravon hokimi Muhammadxon va Talish hokimi Mustafoxon va marhum Ibrohimxon ila ont ichib, hech mahal Og'a Muhammadshohga itoat etmaslik va bir-birlari bilan ittifoqdosh bo'lib yordamlashish va bir-birlaridan ajralmaslikka so'z beradilar".

Og'a Muhammadxonning qasdidan xabardor bo'lgan Irakli Rossiyadan ko'mak olish maqsadida Yekaterina II ga iltimos bilan murojaat etdi. Bu ittifoqdan keyin Ibrohimxon ham Rossiya himoyasini lozim bilib, imperatritsa bilan siyosiy aloqa bog'lash niyatiga tushib, unga murojaat etdi.

Bu ittifoq va murojaatdan xabar topgan Og'a Muhammadshoh Kojor kuchli bir qo'shin bilan Araks daryosidan kechib o'tdi.

Og'a Muhammadshoh Kojor Shusha qal'asini o'ttiz uch kun qamal qilib yotdi. Lekin xalq irodasini buka olmadi. Qorabog' xonligi faqat o'z shahrinigina emas, balki Iravon va Gruziya kabi ittifoqchilariga ham ko'mak yuboradi.

Kojor qo'shinlari shunchalik qudrati bilan ham Shusha qal'asini taslim eta olmaydi. Bu vaqtda xonning yonida bo'lib, barcha xodisalarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Mirza Jamol qamal voqealarini mufassal tasvir etgan. U shunday deb yozadi: "Mening o'zim Ibrohimxonning huzurida edim va har kuni yuz bergan hodisalarni, janglarni va ahvolotlarni ko'rar edim. Qorabog' ahli musulmon va armani qo'shinlari bilan xon huzurida jangga kirishga hozir bo'lib turardi. Bir kuni Og'a Muhammadshoh xonni qo'rqitmoq va xavotirga solmoq uchun bu fard (she'riy parcha)ni motamga munosib bilib, Ibrohimxonga yozib yubordi.

Zi manjanaqi falak sangi fitna meborad,
Tu ablahona giriftiy miyoni shisha qaror.

(ya'ni falak manjanaqidan fitna toshlari yog'adi, sen bo'lsang esi past ahmoqlarga o'xshab shisha ichiga o'tiribsan).

Bu xat xonga yetishi bilan uni o'zining hazrati, nadimi va mamlakatni idora qilishda tayanchi bo'lgan Voqif taxallusli Mulla Panoh oxundga berdi. Oxund (Voqif) uni o'qigan zahoti bir fard yozib, xonga topshirdi. Xon uni shohga yubordi. U quyidagi fard edi:

Gar nigohdori man on ast, kiman medonam,
Shisharo dar bag'ali sang nigoh medorad.

(Ya'ni himoyachim o'sha men biladigan zot bo'lsa, shishani toshning ostida ham omon saqlaydi).

Og'a Muhammadshoh bu javobni o'qiganida g'azabi nihoyatda jo'shib ketib, qal'ani ayovsiz o'qqa tutishni, toshotar na olovsochar to'plarni ishga solishni buyurdi..."

Shoh o‘z mag‘lubiyati o‘chini Gruziyadan oldi. Bu vaqtlarda mustabid gruzin knyazlari Iraklining Rossiya bilan ittifoq tuzganidan norozi bo‘lganlari uchun unga yordam bermadilar. Shoh qo‘shini Tiflisni yondirib, aholiga aql bovar qilmaydigan darajada zulm o‘tkazganlaridan keyin orqaga qaytdi. Lekin rus qo‘shinining kelishi haqidagi xabarni eshitdi-yu, Eronga qaytib ketdi. Bu davrda Rossiya xalqaro maydonda siyosiy jihatdan zo‘r mavqega ega bo‘lgan davlatga aylangan edi. Rossiya davlati o‘zining kavkazlik ittifoqchilarini himoya qilmoq uchun general Zubov boshchiligida Kavkazga qo‘shin yubordi. Ibrohimxon Rossiyaning himoyasidan fondalanish maqsadida general Zubovga vakillar yubordi. Ular ahdnoma tuzishib, Qorabog‘ xonligini Rossiya himoyasiga qabul etdi.

Xonning hadyalari evaziga munosib sovg‘alar yuborgan general Zubov Voqifga ham Yekaterina tomonidan yuborilgan, dastasiga javohir qadalgan bir hacca tuhfa qiladi. Bu Rossiya bilan Qorabog‘ xonligining yaqinlashuvida Voqifning muyayan xizmati bo‘lganligini oydinlashtiruvchi bir dalildir.

Bu vaqtda Yekaterina II ning vafoti va Pavel I ning podsho ko‘tarilishi natijasida Rossiya qo‘shini Kavkazdan chekindi. Ayni zamonda tabiiy ofat yuz berdi — Qorabog‘da dahshatli qahatchilik boshlandn. Bu qahatchilik haqida Mir Mehdi Xazoniy shunday yozadi. “Uch yil bo‘ldiki, Qorabog‘ viloyatida g‘alla va boshqa hosillar bitmaydigan bo‘ldi. Qattiq ocharchilik va qahatchilik yuz berib, shu qadar og‘ip sharoit vujudga keldiki, hatto xaloyiq xachir, eshak va mushuk go‘shtini yedilar va o‘rmonlardan ildiz yig‘ib quritib tegirmonda torttirib yedilar va ko‘p odamlar ochdan o‘ldi. Qorabog‘dan mahalla va daha jamoati to‘da-to‘da bo‘lib Shirvon, Shaki, Tiflis va Iravon viloyatlariga bosh olib ketdilar.

Og‘a Muhammadshoh shunday qulay fursatni qo‘ldan boy bermay, 1797-yilning yozida katta qo‘shin bilan Araks daryosidan o‘tib, Shusha shahriga yurish qildi. Bu qo‘qqisdan bo‘lgan hujum Qorabog‘ davlat arboblarini mushkul ahvolga solib qo‘ydi. Tabiiy ofatga duchor bo‘lgan o‘lkani yanada dahshatliroq bir falokat kutmoqda edi. Ochlik va kasallikdan aholi har tomonga tarqalib ketgani sababli na qo‘shin to‘plab bo‘lardi va na uni ta’minlab. Shunday ekan, xon arkoni davlati bilan Shushadan chiqib, shaharni jangsiz

topshirishi lozim edi. Ibrohimxon davlat a'yonlari bilan Beylakonga — qaynatasi Ammaxon yoniga yo'l oldi. Lekin Voqif bu ketganlar orasida yo'q edi. Voqifning xon bilan birga qochmaganini xilma-xil sabablar bilan izohlaydilar. Bir rivoyatda: "Bu vaqtda Voqif mug'onlik Jamil og'a bilan Tiflisga borgan ekan, qaytganida qo'lga tushdi" deyiladi.

...Voqifning qo'lga tushishi haqidagi rivoyatlardan yana birida shunday deyiladi "Mulla Panoh bandi ekan zindon noziridan: Shaharda biror yangilik yoki qo'zg'olon bo'lgani yo'qmi?" — deb so'radi. Nozir hech nima bilmasligini aytdi. Mulla Panoh ko'ziga uyqu kelmay kechasi bilan bedor yotdi va ertalab yana zindon noziridan shaharda nima gap bor ekanini so'radi. Zindonbon bu safar ham Mulla Panohning ko'nglini xotirjam qila olmay: "Men hech nima eshitganim yo'q" deb javob berdi. Ammo oradan sal vaqt o'tgandan keyin Og'a Muhammadshohning o'ldirilgan xabari shaharga tarqaldi".

Rivoyatlardan ma'lum bo'ladiki, Voqif Og'a Muhammadshohning o'sha kechadan omon chiqmasligini aniq bilgan. Bu esa uning (Ibrohim)xon bilan birga qochmaganining sababini oydinlashtiradi. Taxmin qilish mumkinki, Qorabog' xonligi o'lkani bu vaziyatda himoya qilish mumkin emasligini anglagandan keyin xonlik mustaqilligini saqlab qolmoq uchun istilochi hukmdorni o'ldirishga qaror qilganlar. Chunki ular bu qatl oralarida ziddiyat bo'lgan-u lekin zo'r bilan bir yerga to'plangan lashkarboshilarning o'zaro nizolariga sabab bo'lishini va natijada dushman qo'shini qochajagini aniq bilardilar. Xuddi shunday bo'ldi ham. Bu ishni amalga oshirish esa Voqifga topshiriladi.

Qojor qo'shinlari hech qanday qarshilikka duch kelmay, Shusha shahrini ishg'ol qildi. Voqif ham ko'pchilik singari hibsga olinib azoblab o'ldirish uchun saqlangani holda Og'a Muhammadshoh kechasi o'z yotog'ida o'ldiriladi. Voqif hibsdan ozod bo'ladi.

Kojorning o'lim xabarini eshitgan sarkardalar aholini talab, shaharni tark etadilar.

Lekin voqealar Voqif orzu qilganiday davom etmaydi. Bu davrda Ibrohimxonning birodarining o'g'li Muhammadbek Jovonshir hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Muhammadbek Jovonshir hokimiyatni o'z qo'lida saqlab qolish uchun amakisining yaqin

kishilarini, hammadan avval Voqifni o'rtadan ko'tarib tashlamoqchi bo'ladi. Shu sababli shoirni o'ldirmoq uchun bahona axtaradi. Buni sezgan Voqif qattiq iztirob chekadi. U o'zining "Ko'rmadim" radifli mashhur muhammasini yozadi. Maktub yozib Ibrohimxondan tezroq qaytib kelishni iltimos qiladi. Maktubni chorig'i ichida olib ketayotgan odam qo'lga tushadi. Muhammadbek Voqifni o'g'li Aliog'a bilan birlikda 1797-yilda Shusha shahrida o'ldirtiradi.

Qoradog'i Voqifning o'ldirilish tafsiloti haqida bunday yozadi: "Muhammad Mehralibek o'g'li viloyatni hukumatdan bo'sh va xoli ko'rib xonlik taxtiga o'tiribdi va Mulla Panohni chaqirib: "Menga vazir bo'lib, Ibrohimxondan tamomila yuz o'girish haqida qur'onga ont ich" deb buyuribdi. Mulla Panoh javob beribdiki, ont ichishga ehtiyoj yo'q, sen shuni bilishing kerakki, men senga tarafdorman. Hozir bu yerda sendan bo'lak xon bo'ladigan kishi yo'q. Ibrohimxon bu yerga qaytib keladimi, yoki yo'qmi, ma'lum emas. Basharti Ibrohimxon bu yerga keladigan bo'lsa, men seni xotirjam qilamanki, sen xon bo'lib qolaverasan. Chunki sen og'ir kunlarda xon taxtiga o'tirib, xalq orasida shuhrat topding. Qorabog' ikki xon va hokimning yeridir. O'lkaning yarmiga sen, yarmiga amaking Ibrohimxon ega bo'lib, hukmronlik qilasiz. Mulla Panoh bu so'zlari bilan bir necha kun jon saqlaydi. Ammo bir guruh badniyat odamlar Muhammadbekni tinchiga qo'ymay deydilarki, Qorabog' xalqi Mulla Panoh Ibrohimxon bilan qanday do'st ekanini juda yaxshi biladi. Ibrohimxon Qopaboqqa keladigan bo'lsa, Mulla Panoh seni tuttirib o'ldiradi, yoki xonning qo'liga topshiradi. Yaxshisi, paysalga solmay, Mulla Panohni o'ldirib, mol-mulkiga ega bo'lishing kerak".

Bu qaydlardan ham aniq ko'rinib turibdiki, Muhammadbek Jovonshir o'zining chirkin orzusiga yetmoq uchun xalqning aziz so'z san'atkorini o'ldiradi. Voqifning jasadini Shushaning Jidir yalangligi degan go'zal bir yerga dafn etadilar.

* * *

Voqif yashab ijod etgan davrda Ozarbayjonda iqtisodiy va siyosiy vaziyat nihoyatda keskin edi. Ikki asrdan ortiq Turkiya va Eron istilochilari o'lkani zabt etish yo'lida olib borgan qonli janglar Ozarbayjonning iqtisodiy hayotiga juda yomon ta'sir ko'rsatgandi.

Bir necha marta Turkiya va Eron qo'shinlari tarafidan ishg'ol etilib, talangan Ozarbayjon shaharlarida iqtisodiy hayot izdan chiqqan, savdo-sotiq inqirozga yuz tutgan, madaniy-maorif o'choqlari vayron etilgan edi. O'lkaning obod shaharlarini xarobazorga aylantirgan bu qonli urushlardan so'ng mahalliy xonliklarning hokimiyat talashib kurashishlari uning siyosiy quvvatini qaytadan parchalab yuborgan edi. Mahalliy xonlar o'zaro nizolar bilan mashg'ul edilar. Bir vaqtlarda Turkiya poshsho (general)lari va eron noiblarining, mahalliy feodallarning shafqatsiz zulmi ostida yashab, ular qilgan qonli janglarning barcha og'irliklarini o'z yelkalarida ko'tarar edilar. Shunday bir sharoyitda Ozarbayjon xonliklarini birlashtirish yo'lida olib borilgan kurash progressiv kurash bo'lib xalq ommasi orzusiga mos kelsa-da, bunga sharoit yo'q edi. Xalq ommasi Turkiya va Eron istilochilarining qonli panjalaridan xalos bo'lganlariga qanchalik sepinsalar ham, mahalliy feodallarning zulm-u istibdodlaridan qutulishni ham orzu etardilar va o'lkani birlashtiradigan bir davlat tuzilishini istar edilar. Bu davrlarda Ozarbayjonning ilg'or fikrli davlat arboblari Ozarbayjon xalqining orzu-istaklariga mos o'laroq o'lkaning Turkiya va Eron panjasidan qutulib, Rossiyaga qo'shib olinishiga zamin hozirlagan edi.

Ozarbayjon xalqining mashhur shoiri Mulla Panoh Voqif o'z siyosiy faoliyati bilan Rossiyaga qo'shilish tarafdori bo'lib, Eron istilosiga qarshi kurashda Zakavkaziya xalqlari ittifoqlarini tashkil etish yo'lida sa'y-harakat ko'rsatgani kabi, adabiy faoliyatida ham keng xalq tabaqalarining orzu-tilaklarini ifodalagan, xalq og'zaki adabiyotiga asoslangan she'riyatda realistik mayllar kuchayishida ham muhim ta'sir ko'rsatgandir.

* * *

Voqifning boy adabiy merosi XIX asrdayoq mutafakkir Mirza Fatali Oxundovning nazar-e'tiborini o'ziga tortdi. Oxundov Ozarbayjon shoirlaridan Voqif bilan Zokirning asarlarini nashr etmoqchi bo'ladi va tartibga keltirib tayyorlagan asariga muqaddima ham yozadi.

Bu muqaddimada she'rga, san'atga yangicha munosabatda bo'lib, g'azal va qasidanavis adabiyot namoyandalarini tanqid

etgan Oxundov Voqif she'rlaridagi badiiy yuksaklikni ilk daf'a to'g'ri baholaydi. U shunday deb yozadi:

"Men sayohatda yurgan kezlarimda Qorabog'da Mulla Panoh Voqifning bir talay asarlarini ko'rdimki, zikr etgan shartlarimni unda uchratdim".

Oxundov realistik she'r uslubini targ'ib etarkan. Voqif ijodida buning muayyan nishonalarini ko'radi va Zokir bilan Voqifni birbiriga taqqoslandi:

"Bu ikki shaxsning ham bir-biridan farzi budirki, agarchi Mulla Panoh avvalroq yashab, bu fanda Qosimbekka nisbatan peshqadam bo'lsa-da, lekin lazzat va ta'sir Qosimbekning she'rlarida ko'proqdir".

Bu satrlarda Oxundovning Voqifni realistnk she'riyatning ilk namoyandalaridan biri sifatida baholashi maroqlidir! Haqiqatan ham Voqif o'zidan avval g'azal, qasida yozgan shoirlardan farq qilgani singari, XIX asrda yetishgan realist Zokir darajasiga ko'tarila olmadi. Voqifda realizmga tomon kuchli intilish bor edi. Lekin u tom ma'noda realist san'atkor bo'lib, davrning muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalarini qamrab ola bilmadi.

Voqifning asarlari orasida "Bayram bo'ldi", "Ko'rmadim", "Boq", "Kura qirg'og'i" singari she'rlarni mustasno qilinsa, uning ijodida asosan muhabbat mavzusi yetakchi o'rinda turadi.

Voqif siyosat borasida ilg'or davlat arbobi bo'lganiday, o'z adabiy faoliyatida ham ilg'or jabhaning namoyandasi bo'lgandir. Uning sof ozarbayjon tilida she'r yozishi, xalq tili boyliklarini adabiy tilga ko'chirishi, hijo vazmidan foydalanishi va realizmga kuchli mayl ko'rsatishi Voqif adabiy merosining ilg'or jihatlaridandir. Maktabdor ekanlik chog'laridayoq:

Bayram keldi, naylashimni bilmayman,
Bizning uyda to'liq juvol ham yo'qdir.
Don ham, yog' ham allaqachon tugovdi,
Etni-ku aytmayman, mo'tol ham yo'qdir, —

deb o'z tirikchiligidan achchiq shikoyat etgan, qishloq hayotini qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlashni eplagan san'atkor saroyga borganidan so'ng mavzu jihatidan mahdud bir doirada harakat etib,

davrida yuz bergan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalardan bahs etmaydi.

Voqif Tiflis shahrida bo'lgan vaqtida yozgan she'rlarida Zakavkaziya xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi birgalikda olib borgan kurashi ham, yuqorida aytganimizdek, mahdud bir kayfiyatda beriladi. Voqif o'z davrining saroy poeziyasiga amal qilib, do'stlikning real shart-sharoitlaridan, yuksak maqsadlaridan bahs etish o'rniga, Tiflis go'zallari hamda voli (qoyilmaqom)ning o'g'lini ta'riflash bilan kifoyalanadi. Uning "Kura qirg'og'i" she'ri ham maroqli asarlaridandir. Voqif bu she'rni xonni Shushaga qaytishga targ'ib qilish maqsadida yozgan bo'lishiga qaramay, she'rda feodal janglari natijasida yo'qsil ahvolga tushgan Kura daryosi qirg'og'idagi qishloqlarning hayoti jonli tasvir etilgandir.

Qish kuni qishlog'i Qiroqbosonning,
Ko'zidir Oronning, jumla jahonning,
Shunday go'zal yerning, go'zal makonning
Bir go'zal o'basi[1]*, hayfki, yo'qdir.*

Yoki:

Shunday go'zal yer bor ular ichinda,
Bundayi topilmas Chin-u Mochinda,
Quvnasa, o'ynasa, durust bichimda
Bezagi, libosi, hayfki, yo'qdir, —

degan shoir o'z vatanidagi qashshoq holga tushgan ovullar o'rnida go'zal, obod qishloqlar barpo bo'lishini orzu qiladi. U xalqning qashshoqligidan qayg'uradi. Ayni zamonda Voqif Kura qirg'og'idagi qishloqlarning madaniy jihatdan orqada qolganlarini ham qayd etadi.

Og'a Muhammadshohning g'azabidan qutulib zindondan chiqqani hamon Voqif o'z do'sti Vidodiyga yozgan "Ey Vidodiy, gardishi davroni kajraftorga boq" misrasi bilan boshlanadigan she'rda davrning Kojor kabi zolim va g'addorlariga qarshi nafrat uyg'otadi: bunday"dimog'i serg'urur"ni tepkilar ostida "poymol" bo'lganidan ruhlanadi:

[1] **O'ba** — ovul.

Toji zardin toki ayrildi dimog'i cepg'ypyp,
Tepkilarda poymol o'ldi, sari sardorga boq!
Ibrat ol Og'a Muhammadxondan, ey kamtar gado,
To hayoting bor ekan na shohga, na xudkorga boq!

Qopabog'xonligining dushman qo'liga o'tishi, Ibrohimxonning qochib ketishi, xalqning mol mulki talanib og'ir ahvolda qolishi Voqifga juda qattiq ta'sir qiladi. Shu choqqacha nekbin (optimist) shoir bo'lgan Voqif bu hodisalardan so'ng qayg'uga cho'madi, hayot uning ko'ziga qorong'i zulmat bo'lib ko'rinadi.

Uning kayfiyatidagi bunday badbinlik uzoq cho'zilmadi, bu davrda Voqif o'zining g'amgin ahvoli-ruhiyasini ifodalaydigan bir necha she'rlar yozgan. Uning Vidodiyga yozgan "Boq" radifli g'azali va "Ko'rmadim" muxammasi bu davrdagi ijodining eng salmoqli namunalaridandir.

Voqifning bu ikki asari avvalgi yozganlaridan katta farq qiladi. Shoirning bu she'rlarida na sho'x, nashali ruhning ifodasi, na go'zallarning tasviri va na hayot sevgisi bordir. Bu she'rlarning asos ruhini chuqur qayg'u va malol, zamonadan shikoyat tashkil etadi.

Bu asarlarida Voqif o'z muhitining qorong'i tomonlarini oshkor etib, dunyoda hech bir yorug' narsa topa olmaydi, hech kimda insof, to'g'rilik, adolat ko'rmaydi:

Muxtasarkim, bo'yla dunyodan kerak etmak hazar,
Chunki o'z o'rnida ermas bu zamonda xayr-u shar,
Yaxshilar hokim azallatda, yomonlar mo'tabar,
Sohibizarda karam yo'qdur, karam ahlidazar,
Ishda-yu tadbirda ahkomi layoqat ko'rmadim.

Bu yerda Voqif o'z zamonasidagi jamiyatning boshdan oyoq haqsizlik asosiga qurilganini, pastkash odamlarning ishboshida, layoqatli kishilarning esa mushkulotlar ichida ekanini ochiqchasiga so'zlaydi.

Bu yerda shoir xususan Muhammadbek Jovonshirning hokimiyatiga qarshi chiqadi, uning siymosida feodal usuli idoralarida ishlarning to'g'ri olib borilmasligini tanqid qilib umumlashtiradi.

Bu she'r xonlarning shuhrat, hokimiyat, mulk, davlat uchun olib borgan qonli urushlariga qarshi, ularning vaxshiyona talonchiliklariga qarshi xalq e'tirozining kuchli badiiy ifodasi deb sanalishi mumkin.

Voqifning bu yerda dinga murojaat etishi esa kurashda duch kelgan qiyinchilik va ojizlikdan, najot yo'lini topa bilmaslikdan yuzaga kelgan. Bu hol Voqif ijodiyotidagi ziddiyatlardan biridir. U hech mahal dindor bo'lmagani holda endi unga sig'inadi.

Voqif ijodiyotining asosini xalq she'riyatidan o'tgan buyuk bir ruhiy ko'tarinkilik, optimizm tashkil etadi. Hayotni, hayot go'zalligini sevgan shoir uni mavhum diniy va'dalarga qarama-qarshi qo'yadi.

Ana shu jihati bilan Voqif o'zining zamondoshi bo'lgan barcha shoirlardan farq qiladi.

Vidodiy bilan aytishuvida Voqif o'quvchini hayotdan zavq, nash'a olishga chaqiradi.

Tun, bayramdir bu dunyoning azobi,
Aqllilar unga bo'ladi tobe',
Sendek o'g'lonlarning yo'qdir hisobi,
Har narsadan topib g'ubop, yig'larsan.

Voqif ijodida ruhiy yuksaklik va hayotga muhabbat shu qadar kuchliki, hatto u duch kelgan azob-u uqubatlarni ham to'y, bayram kabi kutib oladi. U xalqdan kuch-quvvat olib, uning porloq orzu-istaklaridan oziqlanadi.

Voqifning she'rlarida go'zallikning konkret tasviri beriladi. Voqif xotin-qizlarni tarbiyali bo'lishga, pokizalikka, vafodor va sadoqatli bo'lishga chaqiradi. Ayni zamonda u ilm-ma'rifatga intilib, uni qadrlovchi xotin-qizlarni ehtiros bilan madh etadi. U ko'pincha she'rda pardalab bo'lsa-da, chodra (paranji) yopinishga, qarshi chiqadi. Lekin shular bilan birga, shoir xotin-qizlar masalasiga o'z zamondoshlari singari mahdud nazar bilan yondoshadi, ularni mute bir maxluq yanglig' "boshi kesilsa-da, nutqi lol" bo'lishga, ya'ni g'ing deb ovoz chiqarmaslikka chaqiradi.

Qavlisodiq bo'lur, har ishi halol,
Bilmasinki, fitna nedir, makruol[1]*,*
Sham kabi oldingda tursa nutqi lol,
Kesilsa-da boshi, dam urmas kerak.

Voqif buva bunga o'xshash ba'zi she'rlarida zamondosh shoirlari darajasiga tushib qoladi, xotin-qizlarga noto'g'ri munosabatda bo'ladi. U ayni zamonda xotin-qizlarni vazmin, bilimdon, xayoli bo'lishga chaqirganidek, ularni ish-yumushdan chetda, husniga zeb beruvchi "ishi o'ynab-kulish" bo'lgan saroy xonimlari singari holatda ko'rishni istaydi. Bu cheklanganlik, shubhasizki, Voqif ijodida saroy ta'sirida vujudga kelgandir va bu jihat shoir ijodining salbiy tomoni, nuqsonidir.

Voqif go'zallikni juda nozik tushunadi, uni mohir rassom kabi tasvirlaydi. Uning ishlatgan buyoqlari tabiiy va jonlidir.

Voqifning g'azal va muxammaslari asosiy mazmuni va ruhi e'tibori bilan xalq qo'shiqlaridan juda kam farq qiladi. Asosiy farq g'azal va muxammaslarning aruz vaznida yozilgani-yu, qo'shiqlarga nisbatan tilining bir qadar og'irligidir. Shu bilan birga, Voqif g'azallariga diqqat bilan qaralsa, klassik g'azallarning, yanada to'g'rirog'i, Fuzuliy g'azallarining tiliga nisbatan bularni ancha sodda, qo'shiq uslubiga yaqin bir tilda yozilgani seziladi. Hatto uning ayrim g'azallari qo'shiqlaridan juda oz farq qiladi.

Voqifning adabiy merosi shoir hayot davridayoq zamondoshlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan. Lekin Voqif o'ldirilgan mahalda uyi talon-toroj qilinganidan, uning asarlari ham yo'qolgan, devoni, o'z qo'lyozmasi bizga kelib yetmagandir. Voqifning asarlarida she'riyat ishqibozlarining yodida qolgan yoki o'z daftarlariga ko'chirgan ayrim-ayrim qo'shiqlar saqlanganki, bularni ilk daf'a Mirza Yusuf Nersesov to'plashga tashabbus ko'rsatdi va topgan asarlarini 1828-yilda bir kitob shakliga keltirib, 1856-yilda Taymurxonshuroda "Voqif va boshqa asrdoshi" nomi ostida nashr ettirdi. Voqif asarlarini keyin Mirza Fatali Oxundov nashr ettirmoqchi bo'ladi. Oxundov to'plagan materiallardan foydalangan Adolf Berje shu asarlarni 1867-yilda Leypsigda nashr ettirgan. Voqif asar-

[1] Makr-u hiyla.

larini M.F. Oxundov topshirig'i asosida Husayn Afandi G'oibov to'plashga kirishgan. Lekin u to'plagan asarlar nashr etilmay qolib ketgan. Voqif asarlari 1908-yilda "Tozahayot" (Yangi hayot) gazetasining mudiri Xoshimbek Vazirov tomonidan nashr etilgan. Lekin Oktabr inqilobigacha bo'lgan nashrlarning hech qaysisi ham Voqif asarlarini butunicha qamrab ololmagandir.

Voqifning adabiy merosi faqat sovet olimlari tarafidan diqqat bilan o'rganilganidek, uning asarlari ham faqat sovet sharoitida qadrlanib nashr etildi. 1925-yildan boshlab Voqif asarlari bir necha qayta chop etildi. Voqif asarlarining akademik nashri 1945-yilda Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining Nizomiy nomidagi Til va Adabiyot instituti tomonidan bosib chiqarildi.

Hamid ARASLI
Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining akademigi,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor.

QO‘SHIQLAR

Bayram keldi, naylashimni bilmayman,
Bizning uyda to‘liq juvol[1] ham yo‘qdir.
Don ham, yog‘ ham allaqachon tugovdi,
Etni-ku ko‘rmaymiz, mo‘tol[2] ham yo‘qdir.

Tangriga biz midik nòshukur banda.
Bir so‘z desam, tag‘in qo‘yishmas kandga[3],
O‘zgalar botibdi shakar-u qandga,
Bizning uyda qoqi zo‘g‘ol[4] ham yo‘qdir.

Bizning bu dunyoda na molimiz bor,
Va na uyda sohibjamolimiz bor,
Voqif, chiranmaki, kamolimiz bor,
Xudoga shukurki, kamol ham yo‘qdir.

* * *

Bir lahza havoda qoqmangiz qanot,
So‘zim bordir mening sizga, turnalar!
Qatorlashib ne diyordan kelursiz,
Bir xabar bersangiz bizga, turnalar!

Xiyla vaqtdir yorning firoqindamen,
Parvonadek husni chirog‘indamen,

[1] **Juvol** — qop.
[2] **Mo‘tol** — qo‘y terisidan yasalgan suzmadon.
[3] **Qandga** — kentga, qishloqqa degani.
[4] **Zo‘g‘ol** — qizil buta mevasi.

Bir shahlo ko‘zlikning so‘rog‘indamen,
Ko‘rinurmi, qarang ko‘zga, turnalar.

Men sevganman shahlo ko‘zning surmasin,
Bir badnazar kelib ziyon bermasin,
Hushyor uching, lochin bexos ko‘rmasin,
Qo‘rqaman, safingiz buzar, turnalar.

Nozlanib-nozlanib yoyasiz ovoz,
Ruhlar tozalanur, bo‘lur sarafroz,
Voqifning ham ko‘ngli ko‘p etar parvoz,
Har vaqt sizlar bilan kezar, turnalar!

* * *

Ol kiyinib chiqsang gulshan sayriga,
Yig‘ilur boshingga gullar, aylanur.
To‘lin oy husningga farmonbardordir,
Buyrug‘ingda oylar, yillar aylanur.

Ko‘rmaganman sendek bir malakzoda,
Dardingni chekaman haddan ziyoda,
Kipriklaring uchi tushganda yoda.
Bag‘rimning boshida millar[1] aylanur.

Men bir Farhod, sen bir Shirinda honsan,
Darding ochiq, ammo uzing nihonsan,
Go‘zallik bobida shohi jahonsan,
Eshigingda yuz ming qullar aylanur.

Netay, etding meni ishqqa giriftor,
Kunduzim beqaror, kechalar bedor,
Ravzai ko‘yingdak ezganda ag‘yon,
Ko‘zim girdobida sellar aylanur.

[1] **Mil** — urchuq, surmacho‘p.

Lablaring bag‘rimni purxun aylamish,
Ko‘z yoshim oqizib, Jayxun aylamish,
Hasrating Voqif nima jnun aylamish,
Shuning uchun kezar cho‘llar, aylanur.

* * *

Sevdigim, lablaring yoqutga o‘xshar,
Sarosar tishlaring durdonadandir,
G‘uncha dahoningdan chiqqan so‘zlaring
Har biri bir o‘zga xazonadandir.

Nedandir so‘zimga javob bermasa,
Ham jamol yashirib yuz ko‘rsatmasa,
Kechalar ko‘zlarim uyqu ko‘rmasa,
U siyoh nargisimast onadandir.

Men-ku seni ilohiy nursanaman,
Husning shu’lasida xo‘p aylanaman,
Otashingda men mardona yonaman,
Bu xosiyat menga parvonadandir.

Bir noma bitganman jon uza-uza,
Bodi sabo, olib bor u gul yuzga,
So‘rasa yor: “Bu xat kimdandir bizga?”
Javob bering: “Sizning devonadandir!”

Xumor-xumor boqmoq ko‘z qoidasi,
Loladek qizarmoq yuz qoidasi,
Parishonlik zulfning o‘z qoidasi,
Na bodi sabodan, na shonadandir.

Mushtoqdir yuzingga ko‘zi Voqifning,
Yo‘lingda poyandoz yuzi Voqifning,
Sensan fikri-zikri, so‘zi Voqifning,
O‘zga so‘z-nazdida afsonadandir.

* * *

Dimog‘imga to‘ldi zulfing anbari,
Vola bo‘ldi ko‘ngil havodan senga,
Qo‘lim yetmas, noma bitib dardimdan,
Yuboraman bodi sabodan senga.

O‘tirishing go‘zal, turishing go‘zal,
Sollanishing go‘zal, yurishing go‘zal,
Fe’li xulqing go‘zal, har ishing go‘zal,
Baxsh bo‘lmish bu xo‘blik xudodan senga.

Dudoqlaring o‘xshar la’li Yamanga,
Esga tushdi, dilxun oshiqmay yana,
Siyoh zulfing tushar oppoq gardanga.
Bu qoida yuqmish so‘nadan senga.

Fikr-u xayolingdir ko‘nglim ziynati,
Shirin so‘zlaringdir og‘zim lazzati,
Sensan mening umrim- kunim vahdati,
To yetmagay yo rab, balodan senga.

G‘am uyida solding kunjga Voqifni,
Aylading tukingdan inja Voqifni,
Nechun ranjitasan muncha Voqifni,
Ne foyda bu jabr-u jafodan senga?

* * *

Sahar chog‘i shavq qo‘ynida kezardim,
Juft-qo‘sha nor ko‘rdim ikki siynada
Birisi qiz edi, birisi kelin,
Jonim qurbon bo‘lsin ikkisina-da.

Yuz-qo‘lini yuvar kelin bulog‘da,
Qiz, yur ketaylik deb turar bu chog‘da,

Shunday hurni sevgan qolurmi dog‘da,
Jonim qurbon bo‘lsin ikkisina-da.

Kelinning yoqasi po‘lat ignali,
Qizning yoqasidir sadaf tugmali,
Ikkisi ham go‘zal, g‘oyat iboli,
Jonim qurbon bo‘lsin ikkisina-da.

Ikkisin jamoli ko‘zimni oldi,
Tandanjon, tilimdan so‘zimni oldi,
Voqifman, borligim — o‘zimni oldi,
Jonim qurbon bo‘lsin ikkisina-da.

* * *

Yig‘la, ko‘zim, ayrilursan jonondan,
Har odamni ko‘rsang shikoyat ayla.
O‘larsan-u balki yorni ko‘rmassan,
Ka’bai ko‘yini ziyorat ayla.

Sen mening jononim, ruhi ravonim,
Lablari shirinim, g‘uncha dahonim.
Bir soat ko‘rmasam, to‘ti zabonim,
Qo‘pajak boshimga qiyomat, o‘yla.

Voqif bir shaydodir, dog‘lanur bag‘ri,
Xastadir, darmoni dilbar dudog‘i.
U olma yonog‘i, billur saqog‘i,
Alloh, bad nazardan salom atayla.

* * *

Ey savsan, sunbulim, momiq saqog‘im,
Lola qurbon bo‘lsin gul bilan sanga.
Mana nechuk udir sendan yiroqda,
Bukunlar teng erur yil bilan manga.

Aytgali ko‘p pinhon dardi dilim bor,
Qo‘rqaman gar aytsam eshitar ag‘yor.
Maktubga bitsam-u, yuborsam, ey yor,
Sahar maxfiy esgan yel bilan senga.

Labing mast qilguvchi, ey sarviqomat,
Nozik qo‘llaringda xinang alomat,
Boqqanlar deyishar, vah, ne latofat,
Uchi halqa qora tel bilan senga.

Ko‘plar jamolingga boqar, qalamqosh,
Mumdek erir bag‘ri agar bo‘lsa tosh,
Sarv ko‘rsa hurmat bila egar bosh,
Go‘zal qadd-u xipcha bel bilan senga.

Yodimga tushganda zulfingan bari,
Parron o‘tar dildan ishqing o‘qlari
Men shohman, ey go‘zallarning sarvari,
Qurbonman Voqifdek qul bilan senga.

* * *

Sarv bo‘ylim, birchiq, ko‘ray bo‘yingni,
Keyin qurbon etay jonni senga men,
Qoshlaring mehrobi qiblagohimdir,
Fido qilay din-imonni senga men.

Odam ko‘ra bilsin Haqni orada,
Qani sen singari bir parizoda.
Farishtadan seni ko‘rdim ziyoda,
Teng ko‘rmayman hech insonni senga men.

Boqmoq ila to‘yib bo‘lmas o‘zingga,
So‘zlashganda shirin-shakar so‘zingga,
Shuning-chun termilib boqdim ko‘zingga,
Mushtoqman, ey shakar koni, senga men.

Shahlo ko‘zga surma tortibsan, go‘zal,
Jilvalanib, zulfga beribsan sayqal,
Nega mendan ko‘ngling qoldi bemahal,
Hech qilmasdim bu gumonni senga men.

Go‘zallar sen kabi sho‘x-u shan bo‘lsin,
Hamda ming o‘zingga o‘xshagan bo‘lsin,
Senga Voqif kabi dard bilgan bo‘lsin,
Loyiq ko‘rmam har nodonni senga men.

* * *

Sensan, ey nozanin, go‘zallar shohi,
Hech kim bo‘la olmas barobar senga.
Mastona vor nazar solsang har yona,
Maftun bo‘lar sarv-u sanobar senga.

Boqishing jon olgich shirin, ko‘zing sho‘x,
Ajab yosh niholsan, nazokat to‘luq,
Kamol-u jamolda aslo nuqson yo‘q,
Parvardigor bermish ko‘p hunar senga.

Iyaging-u zulfing, guldek yonog‘ing,
Qomating-u bo‘yning, qosh-u qabog‘ing,
So‘z yo‘q tavsifet sam boshdan oyog‘ing,
Na novvot teng kelar, na shakar senga.

Ayt, dilbar, to‘lishgan mohi tobonsan?
Bu jannat bog‘ida guli xandonsan,
Yo malak san yoki hur-u g‘ulmonsan,
Inson nomin jonim, kim berar senga?

Ko‘p yolvordim, quloq osib kelmading,
Yuzim uzra qadam bosib kelmading,
Voqif o‘ldi, aza ochib, kelmading,
Yo yetib bormadi bu xabar senga?!

* * *

Soching zanjiriga ko‘ngil bog‘ladim,
Majnun kabi tushdim cho‘lga, Fotima!
Nechun meni ko‘rgach, sarxush o‘tarsan,
Bir boqmayin sog‘-u so‘lga, Fotima!

Xulqing farishtadir, o‘zingsan pari,
Behisht bo‘lar oyoq qo‘ysang qay sari,
Sayrga chiq, men kutaman kun sari,
Gul atrin tarqatib yo‘lga, Fotima!

Qachongacha jonim o‘tlarga yoqay,
Har tarafga toshqin sel kabi oqay,
Yuzing och, mushtoqman, bir to‘yib boqay,
Anbarsoch, yonog‘i gulga, Fotima!

Loyiq emas senga nokas-u beg‘am,
Faqat odam bo‘lur odamga hamdam,
Jon halqumda, seni ko‘rmasam bir dam,
Ketma mendan pari yo‘lga, Fotima!

Voqif seni sevdi bisyor ichinda,
Bir toza g‘uncha san gulzor ichinda,
So‘z aytib bo‘lmaydi ag‘yop ichinda,
Kelchi qaylik chetga sohilga, Fotima!

* * *

Lablaring g‘uncha-yu tishlaring inju,
Og‘zing esa misli pistadir, ey qiz.
Xumor ko‘zlaringni sevgandan beri
Dardga tushib, jonim xastadir, ey qiz!

Vujuding misoli tog‘da qor kabi,
Gardaningda zulfing ajdahor kabi.
Rangi oq-u, o‘zi kichik nor kabi,
Qo‘yningdagi qanday narsadir, ey qiz?

Niqob ichra yuzing yashirma, zolim,
Parishon bo‘lubdir mening ahvolim,
Aql-u hushim butun fikr-u xayolim
Sho‘x ko‘zga, nozlara bastadir, ey qiz!

Jamoling quyoshdir, qamardir yuzing,
Shakardir lablaring, shirindir so‘zing,
Beomon mujgoning, jodugar ko‘zing,
Jallod kabi g‘amzang qasddadir, ey qiz!

Voqifman, Majnunman, sen mening Laylim,
Qarasam ko‘zimdan yog‘ilur selim,
Men seni sevaman, sengadir maylim,
Dema sendan o‘zga kasdadir[1], ey qiz!

* * *

Badaningni guldan yaratgan Alloh,
Isin boshdan oyoq anbar ayladi.
Go‘zallikda senga kim teng kelardi,
Husn malaklarin chokar[2] ayladi.

Suratingni chizgan kunida naqqosh,
Go‘zallikda qildi husn ahliga bosh,
Peshonangga qo‘ydi qo‘sh payvasta qosh,
Qopa kipriklaring xanjar ayladi.

Sochingni qilgandi mushkin bir kamand,
Iyagingni gajak xalqang ila band,
Lablaring totidan sharmandadir qand,
Daxaningni shaxd-u shakar ayladi.

Yaratibdi seni bir dasta guldak,
Husningga yetolmas pari-yu malak,

[1] **Kas** — kishi.

[2] **Chokar** — xizmatkor.

Jisming ko‘p nuroniy oq-u nozikrak,
Sumandek siynangni marmar ayladi.

Ey go‘zallar shohi, menga qil karam.
Ag‘yor tarafiga boqmagil hecham,
Shukr ayla xudoga, bu Voqifni ham
Eshigingda quli kamtarayladi.

* * *

Nega arazlading, ta’bi nozik yor,
Bilolmadim bunga na chora kerak?
Yaxshimasdir do‘stlararo ayriliq,
Yarashmoq kerakdir, ming bora kerak.

Ko‘rding nelar deydir aqiblar oxir,
Yorim mendan xafa, yo bo‘lding dilgir?
Jonimni bermoqqa turibman hozir,
Ammo o‘zingdan bir ishora kerak.

Etaklari oltin, ustki to‘ni zar,
Yuz niqobi mavzun bo‘yga barobar.
Boshinda quyoshdek yaltirar zevar,
Ko‘rgan o‘tga tushsa, na chora kerak?

Harir mato libos egnida go‘zal,
Yoqasi yaltirar misoli mash’al,
Yuzi oppoq, yonoq lolaga badal,
Ko‘z shahlo bo‘lsa-yu qosh qora kerak.

O‘qib Voqif she’rin ham avvalidan,
Shirin qofiyasi, sho‘x g‘azalidan,
O‘pib qo‘l-oyog‘i lab asalidan,
Yarashmoq yalvora-yalvora kerak.

* * *

Bevafosan, sendan yuzim o‘girdim,
Yolg‘onchiga, beqarorga boqmasman.
O‘q kiprikli, seni qo‘yib hasratga,
Bag‘ring bo‘lsa pora-pora boqmasman.

Qayda ko‘rsa bir sevikli kimsani,
Istar doim xayol qilsa o‘shani,
Menga nigor kerak, bilsin bir mani,
Raqiblarga boqqan yorga boqmasman.

Burqa tutib, yuzda xolin bekitgum,
Qora zulfi, yonoq olin bekitgum.
Oy singari gul jamolin bekitgum,
Seni solib oh-u zorga, boqmasman.

Yonimda e’tibor sota bilmassan,
Gardandan gunohing ota bilmassan,
Menga qarab bir so‘z qota bilmassan,
Gapirmagil, ul guftorga boqmasman.

Deydilarki: “Voqif ko‘p go‘zal sevgan”,
Endi bildim, sen ham o‘sha kabisan,
Sening xulqing, valloh, endi bildim man,
Bevafosan, beqarorga boqmasman.

* * *

Husning ko‘z o‘ngimdan ketgandan beri,
Qorong‘idir menga dunyo, ey Pari!
Xayolimga tushsa u sarvi qadding,
Qonli yoshim bo‘lar daryo, ey Pari!

Bo‘lsalar yuz malak, yuz hur-u g‘ulmon,
Yuz qaddi shamshod u zulfi parishon,
Yuz lola yonoqli, lablari xandon,
Dil boshqani demas aslo, ey Pari!

Sen ketgandan beri ziyod yig‘larman,
Aziz umrim etib barbod yig‘larman,
Har gal qadding etib men yod yig‘larman,
Ohdan titrar arshi a’lo, ey Pari!

Sendan ayru bag‘rim kabob bo‘ladi,
Ko‘ngil shahri qulab xarob bo‘ladi,
Qayda firqatingde kazob bo‘ladi?
Diydoring jannat ul-ma’vo, ey Pari!

Bir ko‘rsamdi sening gul jamolingni,
Jodu ko‘zlaringni, yoy hilolingni
Muattar sochingni, hind-u holingni,
Bo‘lardi dardimga davo, ey Pari!

Payvasta egilsin qoshing kamoni,
O‘qlari siynamni teshsin nihoniy,
Yomonlik ko‘rmasin gul badan joni,
Lutf istar Voqifi shaydo, ey Pari!

* * *

Bir badani gul-u, dudog‘i g‘uncha,
Bir qomati gulbun yorni sevibman.
Bo‘lsa yuz yuzi gul qilmayman parvo,
Men shunday bir guluzorni sevibman.

Kechalar tonggacha aylarman nola,
Hargiz bormas ko‘nglim o‘zga xayola,
Bir qomati mavzun, yonog‘i lola,
Bir lahjasi shirinkorni sevibman.

Bir saqog‘i oq-u, siynasi larzon,
Bir so‘zi javohir, marvarid dandon,
Bir kiyik boqishli, kiprigi paykon,
Bir qoshlari zulfiqorni sevibman.

Kulgan chog‘da lablaridan bol oqqan,
Tovusdek bezanib bog‘larga chiqqan,
Niqobi ortidan pinhona boqqan,
Bir ajoyib xush guftorni sevibman.

Voqifman, tanimda jonim to‘zmoqda,
Majnun kabi xonumonim to‘zmoqda,
Ko‘rmaganda din-imonim to‘zmoqda,
Kecha-kunduz gul diydorni sevibman.

* * *

Ey go‘zal qiz, mendan olis yurmagin.
Men sening yuzingda xolni sevibman.
Band bo‘libman shirin-shakar so‘zingga,
Shakar dudog‘ingda bolni sevibman.

Yuzing oppoq, deyman, ko‘zing mastona,
Boqishing bag‘rimni to‘ldirdi qona,
Og‘zing o‘ymoq bo‘lsa, tishing durdona,
Ajoyib javohir la’lni sevibman.

Qoshlaring imosi yoylarga o‘xshar.
Yig‘larman, ko‘z yoshim soylarga o‘xshar,
Ba’zida lahzalar oylarga o‘xshar,
Jonni olgan sho‘x marolni[1] sevibman.

Xalqala nur zulfing saqoq yonida,
Yoy qoshlaring uchi quloq yonida,
Xoling yarashibdir yonoq yonida,
Men sendek chehrasi olni sevibman.

Ko‘p go‘zalsan, ammo fe’lingdir yomon,
Boqmassan mehr ila aslo men tomon,

[1] **Marol** — kiyik.

Voqif deydi: sening qo‘lingda omon
— Yuribman, zulmi ko‘p zolni sevibman.

* * *

Ey yuzi gul, qaddi shamshod Safiya,
Hasratingdan men shaydoga aylandim.
Qoshlaring kamonin yod aylaganda
Qomatim egilib yoga aylandim.

So‘zing hech ayrilmas mening so‘zimdan,
O‘tlarga yonmishman o‘zim o‘zimdan.
Shunchalar yosh to‘kdim ikki ko‘zimdan,
Yolg‘iz jismim qo‘sh daryoga aylandim.

Sen go‘zalsan, gasht qilursan bog‘ bilan,
Oqgulga o‘xshar sanola yog‘ bilan,
Quyosh jamollisan gul yonog‘ bilan,
Qilar ishi vov ayloga aylandim.

Ko‘zing sho‘xdir sening, o‘xshar jalloda,
Meni tark aylama, ol goho yoda,
Sen gar manim o‘lsang foniy dunyoda,
Sening bilan podshoga aylandim.

Lahjang, so‘zing bir ajoyib lahjadir,
Ishing tamom ishva, noz-u g‘amzadir,
Men Voqifman, ko‘ying menga ka’badir,
Yuzim burdim musalloga, aylandim.

* * *

Ko‘p zamondir ayrilganmiz yor bilan,
Ko‘rishdig-u tanishmadik, ayrildik.
Qoldi jonda achchiq-achchiq dardimiz,
Suhbat qilib qonishmadik, ayrildik.

G‘arib bo‘lib turdik begonalardek,
Ko‘zda sevgi, boqdik begonalardek.
Lek bo‘lmadik boshda parvonalardek,
Ishq o‘tida yonishmadik, ayrildik.

Yarim soat ikkov yolg‘iz qolmadik,
Ishq otashin jonimizga solmadik,
Bir-birovning ko‘nglin bila olmadik,
Xushlashdik, so‘ng borishmadik, ayrildik.

Ul zamonkim, oshnolikni o‘chirdik,
Hijron dardin ikkov ayr-u kechirdik,
Oraliqdan ko‘ngil qushin uchirdik,
Ammo qayta ko‘rishmadik, ayrildik.

Voqif sevgan bir iqrorsiz bevafo,
Hasratida uning tortgani jafo.
Ko‘rishib on aylamadik xushsafo,
Quchoqlashib yurishmadik, ayrildik.

* * *

Noma, yetkur, bo‘lsang yorning ko‘yida,
Dardi dilim ul jonona to‘kilur.
Bul bo‘ldirman g‘uncha gulimdan ayru,
Bag‘rim to‘lib qizil qona, to‘kilur.

Qurbon bo‘ldim kiprigiga, qoshiga,
Parvonadir jonim yorning boshiga,
Bir qarasin oshiqning ko‘z yoshiga,
Dilshamidan yona-yona to‘kilur.

Din-imonim u dildora bog‘lidir,
Shavqi jonim bir juftnora bog‘lidir,
Murg‘i ruhim zulfi yora bog‘lidir,
Kun chekmasin zulfgashona, to‘kilur.

Qilmish husni shavq-u dardimni afzun,
Ayriliq g‘amida ko‘z yoshim Jayxun,
Aqlim boshdan ketmish, bo‘lmishman Majnun
Voqif dardi bu devona to‘kilur.

* * *

Endi bo‘lak o‘lsam orzu chekmasman,
Shukr, tilak va armonga yetishdim.
Do‘stning jamoliga nazar ayladim,
O‘ylakim, yangidan jonga yetishdim.

Siyoh o‘sma zevar chekibdir qoshga,
Uni ko‘rgan ko‘zlar yonur qamosha,
Bir lahza xusnini qildim tamosha,
Bihamdulloh, din, imonga yetishdim.

Husnda kim tenglashur Zulayhoga,
Yonoqlari o‘xshar guli humroga,
Ko‘ngil parvoz etdi qalqib havoga,
Yer ustidan osmonga yetishdim.

Jam bo‘lsalar barcha gulruh, dilorom
Bo‘la olmas bo‘yla go‘zal, xushandom,
Voqif yig‘lab hasrat chekib subh-u shom,
Bulbul kabi gulsitonga yetishdim.

* * *

Ey malakruxsorim, to‘bo bo‘yli yor,
Ko‘yingdir jannatir izvonim mening.
Hur-u g‘ulmonlarni ilmayman ko‘zga,
Sensan jondan aziz jononim mening.

Parimsan, sanobar, gulbarg – tarimsan,
Gavharim, yoqutim, la’l ahmarimsan,
Hikoyatim, fikrim, zikrim-borimsan,
Xayolimda shirin nihonim mening.

Yuzlari oftobim, qoshlari yoyim,
Bahorim, gulzorim, kulgan chiroyim,
Yorim, g‘amgusorim, xushdil raboyim,
Go‘zalim, gulim, navjuvonim mening.

Yolg‘izim, xushkunim, suhbatim, manim.
Fag‘furim, qaysarim, Jamshidim, Jamim.
Xisravim, Xoqonim, shohi a’zamim,
Podshohim ham a’lo sultonim mening.

Zavq-u safom, sayrim, bog‘im, chamanim,
Savsanim, sunbulim, lolam, sumanim.
Xitoy-u, Xo‘tanim, Chinim, Yamanim,
Hindistonim, Rum-u Eronim mening.

So‘zim, e’tiborim, gulshanim, saylim,
Matlabim, murodim, xotirim, maylim,
Shakkarim, Shirinim, Gulshoxim, Laylim,
Zulayhom, Yusufi Kan’onim mening.

Zulfing-la bog‘lading, Ka’bam o‘zingdir,
Mehrobim, minbarim qoshing, ko‘zingdir,
Voqifda, ey sanam, doim so‘zingdir,
Kecha-kunduz fikr-u xayolim mening.

* * *

Keltirib safolar, buyurding tashrif,
Lutf aylading bizga, qurboning bo‘lay!
Sal bo‘lmasa hijron solayozdi-ku
Qayg‘u dilimizga, qurboning bo‘lay!

Sen kelding nur to‘ldi uyga-o‘toqqa,
Kelgan yo‘llaringga jonim sadag‘a,
Turib, fido bo‘lmak senday qo‘noqqa,
Rohat jonimizga, qurboning bo‘lay!

Ey nozanin, shaydoyiman, asirman
Qaro zulf-u, oy yuz-u qalamkoshga!
Qo‘y, to‘yguncha boqsin, qilsin tomosha,
Hayrondi ko‘z ko‘zga, qurboning bo‘lay!

Sen egningga yashil libos kiy bu dam,
Voqif g‘azal bitsin senga dam-badam,
Shukur Allohga, ey aziz odam,
Naylar kelsang bizga, qurboning bo‘lay!

* * *

Bir fitna fe’llining, yuzi xollining,
Bir shirin tillining qurboniman men,
Bir qand maqollining, lab zilollining.
Bir og‘zi bollining qurboniman men.

Bir siyoh mo‘ylining, atr bo‘ylining,
Bir nozik o‘ylining, oftob ro‘ylining,
Bir jannat ko‘ylining, sarv bo‘ylining,
Bir shamshod gullining qurboniman men.

Bir ko‘zi sharlining, o‘t nazarlining,
Zulfi anbarlining, mushki tarlining,
Bir gulzor barlining, zarkamarlining,
Ingichka bellining qurboniman men.

Bir ko‘p ulfatlining, muhabbatlining,
Bir marhamatlining, shafoatlining.
Pari suratlining, kun tal’atlining,
Bir oy jamollining qurboniman men.

* * *

Qadam bosding, sen safolar keltirding,
Ko‘zim usti, ey mastona, xush kelding!
Bosh-u jonim sening poyandozingdir,
Peshkashingdir bu dam xona, xush kelding!

Tashrifki buyurding, yetkurding qadam,
Arziydi poyingga yuzimni surtsam,
Boshingda aylansam arzir dam-badam,
Borimni soringdir yana, xush kelding!

Men qurbonman zulfingdagi gulobga,
Tashnadurman labdagi mushki nobga,
Darding aylantirmi shedi kabobga,
Kul bo'lgandim yona-yona, xush kelding!

O'qlar otding menga ko'z-u qosh bilan,
Nomalar yozardim qonli yosh bilan,
Buyur, bajarayin amring bosh bilan,
Kelishing oromdir jona, xush kelding!

Men Voqifman, shukr, yetdim muroda,
Boshqa arzim yo'qdir foniy dunyoda,
Buncha karam etding, ey malakzoda,
Kirdim endi men darmona, xush kelding!

* * *

Darding meni sarg'aytirdi behidek,
Ey sochlari qora, yuzi oq kelin!
Toki ko'rdim jamolingning shu'lasin,
Erigandek yurak-bag'rim, boq, kelin!

Sening hasratingni viloyat chekar,
G'amzang o'qi tegib, malolat chekar,
Jamolingdan malak xijolat chekar,
Husningdan oy-u kun yuzi dog', kelin!

Qachon yuzlaringdan niqob olasan,
Bir lahza holimga nazar solasan,
Saharlab ochilgan toza lolasan,
Sening sayrgohing bo'lmish tog', kelin!

Qaddingdek na ar-ar, na shamsho do‘lur,
Uni ko‘rgach, g‘amdan jon ozod o‘lur,
Mening ko‘nglim sening bilan shod o‘lur,
Sen aylarsan dimog‘imni chog‘, kelin!

Balolardan seni saqlasin xudo,
Sendek go‘zal eldan bo‘lmasin judo,
Xasta Voqif joni sen uchun fido.
Doim bo‘lsin sening joning sog‘, kelin!

* * *

Meni g‘ar qaylading g‘am daryosiga,
Ey ko‘zi xumorim, nechun yig‘lading?
Ne ko‘z bilan boqay g‘am dunyosiga,
Ey shirin guftorim, nechun yig‘lading?

Sochlaring ko‘ksingdami soli sunbul,
Nechun majnuntoldek sen ma’yus ko‘ngul,
Shodlik sening haqqing, qizil gulday kul,
Ey lolaruxsorim, nechun yig‘lading?

Sen meni betob deb o‘ylading nahot,
Kuyding, ayrildim deb mendan umrbod,
Xastaman, deganim rozimdir faqat,
Tishlari gavharim, nechun yig‘lading?

Ko‘ksim tilka-tilka etding sen oxir,
Bu majruh, dil dardi o‘limdan og‘ir,
Qayda quvonch to‘la yuraging hozir,
Mening sehrgarim, nechun yig‘lading?

Kishi ko‘rganida sirdoshin yonda,
Nahot shodlik kezmas tomirda, qonda,
Bu dog‘ ham o‘t yoqdi jigarda, jonda,
Voqif der dildorim, nechun yig‘lading?

* * *

Ey oppoq gardanli, dur siynaligim,
Ko‘ksingga shaffoflik hadyalar bo‘lsin.
Ey qora sochlari fatilaligim,
Siyohbosh oqqushlar sadqalar bo‘lsin.

Ne aybim bor ekan, maftun nigohim,
Ranjdasan, arazsan, ey qiblagohim,
Mahv et, o‘ldir meni, bo‘lsa gunohim,
Qonlarim qo‘llarga xinalar bo‘lsin.

Sen mendan tondig‘ing orttirdi dardim,
Yolvorib ko‘nglingni olmoq istagim,
Qulligim izhori — noma yubordim,
Bizdan senga duo, sajdalar bo‘lsin.

Ey Voqif, jonon-la uzildi ora,
U tanho hamdaming, dardingga chora,
G‘ussa, armoningni yana bir bora
Ayt yorga, yor o‘zi choralar bo‘lsin.

* * *

To‘ychilar, sizlarga fido jonginam,
Siz ham ayting to‘yga, kelgan o‘ynasin!
Nomini el ichra atamayman ham,
Falonchining qizi, falon o‘ynasin!

Qani biz u bilan quvongan chog‘lar,
Hasratin chekmakdan yurakda dog‘lar,
U baxtda, uzukli nozik barmoqlar,
Ziynat yana chiroy bergan o‘ynasin!

Bo‘ylari nihol-u qoshlar payvasta,
Husni sog‘inchidan oshiqi xasta,
Anglaganga imo qilaman asta,
Do‘stlikning qadriga yetgan o‘ynasin!

Voqif, shikastaman-hamrohim fig‘on,
Ko‘zlarim yosh emas, to‘kar qaynoq qon,
U sumbat bo‘yligim hali navjuvon,
Jonimga dard bo‘lib kirgan o‘ynasin!

* * *

Ko‘z qoldi yo‘llarda, jon intizorda,
Jonondan kelsa deb zora bir xabar.
Qalam ololmayman dil yonar zorda,
Men yozmak istasam yorga bir xabar.

Holi nechuk kechdi, deya u hamdam,
Yig‘layman, bo‘zlayman, izlayman har dam.
El butunyovmenga, yo‘qkibir odam,
Holimdanaytsadildorgabir xabar.

Ey bodi sabo, ko‘r, chekkanim zorni,
Bu dod-u faryodni, dard-u ozorni,
Agar yo‘ling tushsa, uchratsang yorni,
Xilvatda so‘ylamak korga bir xabar.

Bulbulni g‘unchayi xandon o‘ldirdi,
Parvonani sham’i so‘zon o‘ldirdi.
Voqifni otashi hijron o‘ldirdi,
Yetkazing lochinday zorga bir xabar.

Quyosh yuz, xush qiliq ajab jononsan,
Qoshlaring hilolga naqshmasmi, yetar!
Niqobing tark etib, erkin sollansang,
Sho‘xliging daryoday jo‘shmasmi, yetar!

Sen mening eng nihol sarvim, shamshodim,
G‘amzasi lazzatli, ko‘zi jallodim,
Tunlari falakka yetar faryodim,
Sening qulog‘ingga yetmasmi, yetar!

Go‘zallik yarashiq ol yonog‘ing gul,
Tegmasin bu nafis gulga biron qo‘l,
Oq bo‘yning chulg‘asa soching naq sunbul,
Binafsha, lolarash ketmasmi, yetar?

Men quling, jonimni o‘tga solibman,
Seni kuylab, yig‘lab yo‘lda qolibman,
Voqif kabi mulladan dars olibman,
Kamolbaxsh etmakni bitmasmi, yetar!

Jononim, sen kelsang yasan-tusanda,
Oy-u kun qoshingga chiqadi peshvoz.
Ka’ba bilib seni, ming yo‘la kunda
Malaklar yig‘ilib o‘qiydi namoz.

Oq quyoshga o‘xshar sendagi jamol,
Ishqingdan jar solsam jahon tinglar lol,
Seni sevgan kishi yashar bezavol,
Qarimas, g‘am bilmas, umri sarfaroz.

Sanobar qomatli, sehrgar sanam,
G‘amingdan sirqirab og‘riydi yaram,
Sendan ayri yashash borligi alam,
Hajringda o‘laman cheka-cheka roz.

Sen gulsan, bulbul sev, xarobadan qoch,
Hayot, kamol ista, havas qilma toj,
Kalxatga chap berib, Voqifga diloch,
Lochin sari qilar lochinlar parvoz.

* * *

Men sening husningga maftun bo‘libman,
Sen yuz o‘girmog‘ing, bilmam, nadandir?
Shirin so‘zlaringga intiq yuribman,
Sening jim, lolliging, bilmam, nadandir?

Qo‘lni parda qilding boshing yonida,
Ko‘rmayman sochlaring qoshing yonida,
Aylanib menday sirdoshing yonida,
Hushim band qilmog‘ing, bilmam, nadandir?

Yarashur sevgisi go‘zal har yurak,
Noz-u istig‘noni etsa bulur tark,
Yor, bo‘lmasang hayo to‘zi ne kerak,
Dunyoga kelmog‘ing, bilmam, nadandir?

Anbar zulfing bellaringga yoyibsan,
Bir nigohla dilim, jonim olibsan!
So‘nmas otash vujudimga solibsan,
Nari yo‘l olmog‘ing, bilmam, nadandir?

Voqif, men soflikda bir gavhar edim,
Bardoshda po‘latga barobar edim,
Toki seni ko‘rdim, mumdek eridim,
So‘ra: erimog‘ing, bilmam, nadandir?

* * *

Yorim bo‘lsang kel, qo‘lingni qo‘lga ber,
Uzoqdan termilib boqmog‘ing nechun?
Yor bo‘lmasang, oyog‘ing tiy, nari bor,
Jonimni o‘tlarga yoqmog‘ing nechun?

Ishq dardidan hech bir kimsa bez demas,
Muhabbat yo‘lidan oyoq uz demas,
Ko‘z ko‘rmasa, telba ko‘ngil istamas,
Yasanib qarshimga chiqmog‘ing nechun?

Voqifning bag‘rini qonga to‘ldirding,
Raqiblar qoshida ming bor o‘ldirding,
Mana menga maxfiy sovg‘a keltirding,
Endi uni yuzga otmog‘ing nechun?

* * *

Ey jonim jallodi, umrim ofati,
Ayt-chi, senda, zolim, din-imon bormi?
Kecha-kunduz hasratingda o‘rtanib,
Jon uzildi, menda yana jon bormi!

Tosh yog‘ilsin raqiblarning boshiga,
Borsam qo‘ymas sevgilimning qoshiga,
Yongandir ko‘p deydilar ishq otashida,
Lekin mendek fidoyi qahramon bormi?

Ey qoshlari hilol, yonoqlari gul,
Xoli ko‘z mardùmi, sochlari sunbul,
Oshig‘in o‘ldirgan berahm-u bedil,
Olamda seningdek berahmon bormi?

Seni sevgan doim bo‘lar dili shod,
Vujuding odamiy, jinsing parizod,
Tillaring shirindir, qomating shamshod,
Sendayin kelishgan hech jonon bormi?

Voqif, holing sitam korga demoqqa,
Ming yolvorib, bir so‘z zo‘rga demoqqa,
Bu xastaning arzin yorga demoqqa,
Ayting, bu orada musulmon bormi?

* * *

Har yetuk go‘zalni go‘zal demasman,
Go‘zalda bir g‘ayri alomat bo‘lar.
Zulfi bir yonda-yu kokil bir yonda,
O‘zi bilmas, o‘zida bir odat bo‘lar.

Raqsga tushsa parvoz etar nimtana,
Sochlarini tarqatib uchar haryona,

Peshonabog‘ manglay qisib hayrona,
Dirkillagan to‘shi qiyomat bo‘lar.

Mujgon o‘qin otar, labi dur to‘kar,
Yuragim chokini birma-bir so‘kar,
So‘zi tuzli bo‘lar, dudog‘i shakar,
Har suhbati ajib hikoyat bo‘lar.

Bo‘yni uzra sadaf marjon tizilar,
Qiyo boqsa jon tanimdan uzilar,
Surma tortgan qora ko‘zlar suzilar,
O‘tirib turmog‘i qiyomat bo‘lar.

Asli go‘zal shunday xiromon kezar,
Niqob tutib, zulfi parishon kezar,
Sahar sayrga chiqsa guliston kezar,
Sevgisida o‘tli harorat bo‘lar.

Voqif qurbon bo‘lsin qo‘sh atoriga,
Taqimga chirmashgan soch so‘rog‘iga,
Qoshlari o‘xshaydi oy o‘rog‘iga,
Tomosha aylagan betoqat bo‘lar.

* * *

Gul-atir na fasli yordan ayrilgan,
Tunda g‘amga botar, kuni zor bo‘lar.
O‘zida ixtiyor qolmas zarracha,
Kecha bedor, kunduz beqaror bo‘lar.

Ayriliq bir yonar o‘tdir, lovullar,
Manglayi sho‘r yoziq ko‘ngil huvullar,
U kumush bilaklar, u nozik bellar,
Yodga tushib, ishim oh-u zor bo‘lar.

Bahodir demaslar hargiz qochganga,
La’nat bo‘lsin yor ishqidan kechganga.

Bir so‘zim bor ishq sharobin ichganga:
Do‘st yo‘lida bo‘ron bo‘lar, qor bo‘lar.

Boqishi mast qilar ko‘zi xumorning,
Jannatdan ortiqdir zavqi diydorning,
Oq siynali, shakar mammali yorning —
Jafosini tortmoq shirin kor bo‘lar.

Voqif, yor jamoli yomon ofatdir,
Ayriliq zulmdir, zo‘r qiyomatdir,
Go‘zallarda bunday xislat odatdir.
Biri iqror, biri beiqror bo‘lar.

* * *

Do‘stim, tezda menga yordan xabar ber,
U guli xandonim nechun yig‘laydi?
Zolimning to‘ridan bo‘lgan-ku ozod,
Qo‘shqanot tarlonim nechun yig‘laydi?

Chechaklar muattar zulf-u mo‘yidan,
Boqqan ko‘z uzolmas uning bo‘yidan,
Ko‘pdan beri jonim fido ko‘yida,
Unga qurbon jonim, nechun yig‘laydi?

Voqif, ko‘pdir darding, yaxshi bilaman,
Bir kuni ko‘rmasam noxush bo‘laman,
Yig‘lasang yig‘layman, kulsang kulaman,
Bemorman, darmonim nechun yig‘laydi?

* * *

Ey bodom qabog‘li, oq siynali yor,
Ko‘pdan mushtoq sizning jamolga Voqif.
Hasrating chekmoqda o‘tlarda yonib,
Ko‘rsang-chi, tushibdi na holgaVoqif.

Hasratingda alif qaddi dol bo‘ldi,
Mot ham qolldi, shirin tili lol bo‘ldi,
Dardingda o‘rtanib, xasta dil bo‘ldi.
Ne balo kunlarga mubtalo Voqif.

Jamolingga mushtoq oh-u zor chekar,
Dardingmi bir emas, ming-ming bor chekar.
Yuzingni ko‘rmoqqa intizor chekar
Na gul termak istar, na lola Voqif.

Yuz minglab gulbadan yo‘lni to‘ssa gap,
Bil, sendan o‘zgaga tashlamas nazar,
Yo‘lingga jon tikkan, shu yo‘lda kezar,
Bormas hech o‘zga bir xayolga Voqif.

Kimningki bo‘lmasa aql-u kamoli,
U bilan topishgan sohibjamoli,
Shu ekan bevafo dunyoning holi,
Ey, attang, yetishding kamolga Voqif.

* * *

Nima qildim, mendan yuzing o‘girding,
Xudo haqqi, yor, bir nafas beri kel!
Yuzingdan ol nozik zarrin pardani,
Chilvir sochlaringni ko‘rgaz, beri kel!

Ey, ko‘zlarni jallod, kiprigi olmos,
Senga aytar so‘zlarim bor, quloq os!
Axir sendan shuni qildim iltimos,
Dilim o‘zga nozistamas, beri kel!

Ayt-chi, senga nima dedim, axir man,
Bekorlarga xafa bo‘lib yurursan.
Bu qadar ranjitmas sevganni sevgan,
Do‘stlik yo‘li bunday bo‘lmas, beri kel!

Men sening vasfingni, ey, mohi karam,
Hofizdan, Jomiydan ortiq kuylarman,
Haq biladi, seni qanday sevarman,
Ey, bevafo, qadrbilmas, beri kel!

Bu qanday odatdir, qanday arkondir,
Demaysan, faloniy bizning mehmondir,
Voqif o‘z qulingdir, senga qurbondir,
O‘ldirsang ham, valloh, tonmas, beri kel!

* * *

Ajdarga o‘xshatdim soching uchini,
To‘lqinlanib bel-yoningga to‘kilmish.
Qand-u novvot, shakar, shahdi-musaffo
Tillaringga, lab-xolingga to‘kilmish.

Ko‘yingning bo‘stoni jannatga o‘xshar,
Ochilmish to‘rt yonda gullar sarosar,
Hovlingdan bemisl xush yellar esar,
Mushk-u anbar ayvoningga to‘kilmish.

Sen chiqsang mastona davlatxonadan,
Qoshlaring jon olar men devonadan,
Har o‘rim nam soching necha donadan,
Bu yoningga, u yoningga to‘kilmish.

Na qadar go‘zalsang, ey guli xandon,
Senga qurbon bo‘lsin hur bilan g‘ulmon,
Yuz Zulayho, yuz ming Yusufi Kan’on,
Kul bo‘lay deb maydoningga to‘kilmish.

Qadding raso, sunbul sochingga qoyil,
Bu ko‘z ko‘rsa bo‘lur husningga moyil,
Voqif kabi qancha oshiqi komil,
Ishqing o‘ti so‘z oningga to‘kilmish.

* * *

U go‘zal jononlar haydar kokili,
Yana menda din-u imon kuymadi.
Mastona ko‘zlari, xumor boqishi,
Aqlimni oldi-yu omon qo‘ymadi.

Mubtalo bo‘lmasam yonoqda xolga,
Albatta, etardim aql-u kamolga,
Qaddimni bukmasdi o‘xshatib dolga,
Naylayin, bir qoshi kamon qo‘ymadi.

Yo‘lim tushdi, evoh, bir ag‘yor bilan,
Kecha-kunduz yondim oh-u zor bilan,
Kunlarim o‘tardi sevgan yor bilan,
Tushdi oramizga yomon, qo‘ymadi.

Voqif unga boshdan yorimsan, dedi,
Yorim san dedi-yu, oxir pand yedi,
Bugun jonon bizga kelmoqchi edi,
Uni yana raqib, gumon qo‘ymadi.

* * *

Egibdi qaddimni, tilib bag‘rimni,
Bir kiprigi o‘qli, qoshi kamonli.
Ko‘zlari jonolar jallodi sarmast,
Boqishi shiddatli, g‘amzasi qonli.

Bir nozik jamolli, bir nozik ishli,
Gap-so‘zlari shirin, shakar kulishli,
Bir xumor boqishli, durdona tishli.
Bir javohir so‘zli, sadaf dandonli.

Xiromom yurishli, nozli, imoli,
Bir ka’baziyorat, qiblanamoli,
Bir pari suratli, malak siymoli,
Bir janna teshikli, a’lo makonli.

Bir turna ovozli, bulbul navoli,
Bir Iso nafasli, Luqmon davoli,
Bir chechak timsoli, anbar havoli,
Bir ajib chamanli, xush gulistonli.

Voqifman, sevganman bir sho‘x dilbari,
Go‘zallar sardori, xublar sarvari,
Tillarda ta’rifi, dillar xumori,
Viloyat ichra u nomli-nishonli!

* * *

Ko‘zlaring jalloddir, boqishing xanjar,
Qonli g‘amzang kabi bo‘lmas balo, qiz!
Nozli-nozli so‘zlar qotib kulganda,
O‘xsharsan shakarga, qandga, halvo qiz!

Lablaring g‘unchadan, guldan a’lodir,
Sayr ayla bog‘chada, guldan a’lodir.
Oq taning kechada guldan a’lodir,
Ey, qomati shamshod kabi raso qiz!

Umringga ko‘p duo-sano deganman,
G‘urbat-u dardimni sana deganman.
Shirin jonim qurbon senga deganman
El aro boshlangan dam ojaro, qiz!

Qomating, bo‘yning-u bo‘ying go‘zaldir,
Mushkin-u rayhoning bo‘ying go‘zaldir,
Shaydoying deydiki, kuying guzaldir,
By dunyoda bo‘lmas bunday shahlo qiz!

Voqifman, yaqin kel, ayilma mendan,
Aqlimni, hushimni ayirma mendan,
Yig‘layapman, emiz menga mammangdan,
Meni siynang beshigiga bela, qiz.

G‘AZALLAR

Har kishin jononikim, bir ahli urfon o‘lmagay,
Shohi odam bo‘lsa, unda rohati jon o‘lmagay.

Rasmi ulfat bilmagan qiz oshiqni kufr etgusi,
Ey musulmonlar, xysh ulkim, yori nodon o‘lmagay.

Lablari la’l-u, latif andom-u gul ruxsor uchun
Ko‘z yoshi daryosidirkam, ul agar qon o‘lmagay.

Ofati bodi fanodan emrilur, barbod bo‘lur
Ul binokim, unda bir zulfi parishon o‘lmagay.

Ne safo ul gul yonoqdanki, ko‘rinmas ko‘zga.
Bormi lazzat g‘uncha labdan kim, u xandon o‘lmagay.

Voqifo, bir maxliqoyi mehribonga mayl qil.
To kamoli ishqda unda zarra nuqson o‘lmagay.

* * *

Riyo-yu kibr-u kizbu buxl o‘lur noyob yigitlarda[1] ,
Tavoze’dir safo-yu sidq ila odob yigitlarda.

O‘zin erman degan kimsa mudom sohib sadoqatdir,
Nechunkim, bo‘lmagandir hech kishi kazzob yigitlarda.

Hujumi lashkari taklifi yoroni vafodorga,
Misoli saddi Iskandar kerakdir tob yigitlarda.

Yigitlik nomiga loyiq kishi yolg‘onlamas aslo,
Vafosizlik nisolarda, emasdir bob yigitlarda.

[1] Yigitlarda munofiqlik, manmanlik, yolg‘onchilik va baxillik bo‘lmaydi.

Aliyi murtazodin ista, Voqif, har ne istarsan.
Uni qilmish karamli hazrati vahhob yigitlarda.

* * *

Vidodiydan kelib maktub meni farxun dahol etdi,
Bu holni ko'rdi g'am, darhol mendan intiqol[1] etdi.

Uchib ko'nglim qushi parvoz etsa avji a'loga,
Ajabmaskim, bu maktubni o'ziga pappy bol etdi.

Quyoshning nuridek etdi, to'lun oy ayladi, hozir,
Agarchi qaddimi bu bevafo davron hilol etdi.

Bu maktubning siyohi, ey ko'ngul, misli zulumotdir,
Ki, ruhim Xizrdek undan talay kasbi kamol etdi.

Xayol etmishdi Voqif kim ravon bir xush g'azal yozgay,
Jo'nab ketmishdiq osid kim buni anjoq[2] xayol etdi.

* * *

Zulfidek tarqoq xayolim misli anbar bu kabi,
Shul sababozmish tanim, qaddim bo'libdir mo'kabi.

Koshki timsolima bir bor boqsa shahlo ko'zlilar,
Ey musavvir[3], chek mening tasvirimi abru kabi.

Qayda kim bir gardani siminu, gul andom esa,
Bilmadim kim, naylayin, mendan qocharlar go'[4] kabi.

O'z hushim-la men asiri g'amza bo'lmasdim, vale
Sehr qildi ul xumor ko'zlar meni jodu kabi.

---

[1] **Intiqol etmak** — kechmak.
[2] **Anjoq** — faqat.
[3] **Musavvir** — rassom.
[4] **Go'-go'y** — koptok, to'p.

Voqifam, yo‘qdir menga chohi zanax dondan najot,
Ko‘rsatur ahvolimi oy o‘zida kuzgu kabi.

* * *

Ey guli xandon, firoqingda sening qon yig‘laram,
Aylaram shom-u saxar choki giribon, yig‘laram.

Chikdi-yu zulfing qo‘limdan pech-u tobga tushmisham,
Aylanib bir mo‘yga men xoli parishon yig‘laram.

Sevgilim, lola zanaxdanim, kabob etding meni,
O‘t tushibdir jismima,
har dam yonar jon, yig‘laram.

Yodima tushgan mahalda ul qaro kipriklaring,
Go‘yo sanchilg‘usi bag‘rimga paykon, yig‘laram.

Yaxshi hamdam bo‘lmasa, shodlik qayonda Voqifo,
Yig‘laram, to umr bo‘lguncha farovon, yig‘laram.

* * *

Seviklim, bu nazokatda guli ranodan ortiqsan,
Sanobar, sarv-u shamshod, to‘biyi zebodan ortiqsan.

Jahon mahvashlari hoki daringda chokari kamtar,
Sariri husnda Iskandar-u Dorodan ortiqsan.

Sening bir tola mo‘ying berma gum olam xirojiga,
Menim yonimda, billoh, sen ikki dunyodan ortiqsan.

Qoshing toqin qo‘yib, mehrobga men qilmadim sajda.
Ki sen yuz martaba ul ka’bayi ul yodan ortiqsan.

Menam Voqifman-u — Farhod ila Majnundan a’loman.
Agar sensan-o‘shal Shirin ila Laylodan ortiqsan.

* * *

Ey Vidodiy, gardishi davroni kaj daftorga boq!
Ro‘zg‘orni qil tomosho, korga boq, kirdorga boq!

Ahli zul mo‘lganni bar bod ayladi bir lahzada
Hukmi odil podshohi qodir u qahhorga boq!..

Tojizardin toki ayrildidim og‘icep g‘ypyp,
Tepkilarda poy mol o‘ldi, sari sardorga boq!

Men faqirga amr qilmishdisi yosat qilgali,
Saqlagan mazlum nizolimdan u dam g‘afforga boq!

Ibrat ol Og‘a Muhammadxondan, ey kamtar gado.
To hayoting bor ekan na shohga, na xunxorga boq!

Silk etak bu ahli dunyodan, oyoq yetgancha qoch.
Na qiz-u na ug‘il-u, na do‘st-u na bir yorga boq!

Voqifo, ko‘z yum, jahonning boqma xubu zishtiga[1].
Yuz o‘gir oliy aboga[2], Ahmadi Muxtorga boq!

* * *

Barcha ketgan keldi-yu ul g‘amgusorim kelmadi.
Ey ko‘zim, qon yig‘lakim, chashmi xumorim kelmadi.

Ketmish erdi ixtiyorim dilbarimni axtarib,
Kelmagan-chun ul parivash, ixtiyorim kelmadi.

Men bu dard birla o‘lar bo‘lsam mazora qo‘ymangiz,
Boshima to‘ti zabon ul sho‘x nigorim kelmadi.

---

[1] **Xubu zishti** — chiroyli va xunugi.

[2] **Oliy aboga** — ajdodlar

Hasratidan za'faron bo'lsa yuzim, yo'qdir ajab,
Hajrga tashlab meni ul gul-u zorim kelmadi.

Demasin, Voqif, ajal kelgach menim jonim olur,
Kim unga jonim berar? Farmoni yorim kelmadi.

* * *

Ey ko'zim, qutlug'-u tabrik, keldi yorning maktubi,
Ko'nglimi shod ayladi dilbarnigorning maktubi.

O'qidim, o'pdim, ko'zimga surtib aydim, marhabo!
Ko'zim uzra bor yering, en guluzorning maktubi.

Sendan ayru ul qadar qon yig'ladim kim,
dam-badam
Yoshga botib, bo'lur sabr-u qarorning maktubi.

Ko'p chekardi intizoring, ko'zlarim yo'lda edi,
Shukrililloh, keldi ul ko'zi xumorning maktubi.

O'zga yorni, ey go'zal, Voqifga almashtirmagil,
Yodgor saqlab bo'lsun e'tiborning maktubi.

* * *

Siymi zaqaning zulfi parishon orasinda,
Go'yoki bitur gul-u rayhon orasinda.

Tongning yorug'idirmi va yo shu'layi siyna,
Ul kim oqarur choki giribon orasinda.

Ey mug'bacha, qurboning o'lay, menga karam et,
Etma meni badnom musulmon orasinda.

MUXAMMASLAR

Men jahon mulkida mutlaq to‘g‘ri holat ko‘rmadim,
Har na ko‘rdim-egri ko‘rdim, o‘zga bobat ko‘rmadim.
Oshnolar suhbatida ham sadoqat ko‘rmadim.
Bay’at-u iqror-u imon-u diyonat ko‘rmadim,
Bevafodan lojaram tahsil-u hojat ko‘rmadim.

Xohi sulton, xohi darvesh-u gado bil ittifoq,
O‘zlarin qilmish giriftori g‘am-u dard u firoq,
Buxarom dunyoga battar ehtiyoj-u ishtiyoq,
Buncha kim etdim tamosho, so‘zga ham soldim quloq,
Kizbu bo‘htondan savoyi bir hikoyat ko‘rmadim.

Har sado vu saski dunyoga to‘libdir bu mahal,
Jumla makruxiy lagarlik, fitna ham jang-u jadal.
Dirxam-u zar, deb uzangan qo‘l ko‘rursan galma-gal,
Muqtadilarda itoat, muqta dolarda amal[1],
Bandalarda sim-u beklarda adolat ko‘rmadim.

Xalqi olam bir ajabda sturi tutmish harzamon,
Qaysi g‘amlik ko‘nglini sen ayla ro‘l sang shodmon,
Senga u albatta kibad xulq aylar begumon,
Har kima har kimki etsa yaxshilik, oxir yomon, —
Topmadim bir do‘stki, undan bir adovat ko‘rmadim.

Olim-u johil murid-u murshid-u shogird-u pir,
Nafsining amrida butkul sar basar bo‘lmish asir,
Haqni botil aylamishlar, barida jurmi kabir,[2]
Shayxlari aldoqchi, obidlar-chi — zolim birma-bir,
Hech kishida haqqa loyiq bir ibodat ko‘rmadim.

---

[1] **Muqtadi** — bo‘ysingan, muqtado — bo‘ysindirgan.

[2] **Jurmi kabir** — ulkan gunoh.

Har kishi har neni sevsa oni battar istadi,
Kimi taxt-u kimi toj-u kimi afsar istadi,
Podshoh ham dam-badam tasxiri kishvar istadi,
Ishqqa ham ko‘p kimsa tushdi-vasli dil bar istadi,
Hech birida oqibat bir zavq-u rohat ko‘rmadim.

Men o‘zim ko‘p ko‘z agarni kimyogar ayladim,
Men o‘zim ne-ne g‘ubori tirani zar ayladim,
Qora toshni do‘ndirib, yoquti axmar ayladim,
Donai munchoqni ham durga barobar ayladim,
Qadr-u qimmat istadim, g‘ayr az xasorat[1] ko‘rmadim.

Ulki, vayron aylamish jamshidi-jamanvonini.
Yo‘lga solmish, bilki, bazm-u ishratin chandonini,
Kim qolibdirkim uning g‘am to‘kmagandir qonini?
Qancha-qancha imtihon etdim falak davronini,
Unda men barak silikdan o‘zga odat ko‘rmadim.

Kun kabibir shaxsga kunda xayr bersang sadha zor,
Zarracha etmas adoyi shukri ne’mat oshkor,
Qilmagandir g‘ayrat-u sharm-u hayo, nomus-u or,
Deydilarki, e’tibor-u e’tiqod olamda bor,
Izladim men ham uni, ammo nihoyat ko‘rmadim.

Muxtasar kim bo‘yla dunyodan kera ketmoq hazar,
Chunkio‘z o‘rnida ermas bu zamon hech xayr-u shar,
Yaxshilar hokim azallatda, yomonlar mo‘tabar,
Sohibi zarda karam yo‘qdur, karam ahlida zar,
Ishday u tadbirda ahkom-u layoqat ko‘rmadim.

Davlat-u iqbol-u molning oxirin ko‘rdim xunuk,
Ne hasham, joh-u jalodning oxirin ko‘rdim xunuk,
Zulfi ro‘y-u hatt-u xolning oxirin ko‘rdim xunuk,
Hamdami sohibjamolning oxirin ko‘rdim xunuk,
Hech to‘kis birhusni-surat, qadd-u qomat ko‘rmadim.

[1] **Xasorat** — zarar.

Soch oqardi, ro‘zg‘orim bo‘ldi kun-kundan siyoh.
Solmadim, yuz hayfkim, bir moli ruxsorga nigoh,
Qadr bilmas hamdam ila bo‘ldi umrim ham taboh,
Voqifingga, rabbano, lutfingni ayla to panoh.
Sendan o‘zga kimsada lutf-u inoyat ko‘rmadim.

* * *

Darding o‘ldirdi mani, ey navj-u nonim, ol xabar,
Hasratingdan o‘tda yondi din, imonim, ol xabar,
Yo‘llaringga bo‘ldi sadqa tanda jonim, ol xabar,
Ey gulim, ey nargisim, sarviravonim, ol xabar,
Ey dudog‘i shakkarim, shirin dahonim, ol xabar.

Sendan ayru qolmagay sabr-u qarorim kechalar,
Uyqu kelmas ko‘zga, ortar oh-u zorim kechalar,
Chiqdi to ko‘k toqiga o‘tli sharorim kechalar,
Tonggacha qon yig‘laram, ey guluzorim kechalar,
Darding o‘ldurdi mani, ey navj-u vonim, ol xabar.

Mushtoq o‘ldim qomating hamsiyna-yu qo‘lingga men
Qosh-qovog‘ing birla-u lol chehra gul-gulingga men,
Hamd-u dog‘ing, ham yonog‘ing, zulfi sunbulingga men,
Ey go‘zallar sarvari, jonim beray yo‘lingga men,
Hasratingdan o‘tda yondi din, imonim, ol xabar...

Ko‘nglima tushmish sarosar dard-u mehnatlar mening,
Har ishim Majnun kabi bo‘lmish hikoyatlar mening
Ora yerda boshima kelmish qiyomatlar mening,
Ushbu dil gulzoriga tushmishki ofatlar mening,
Yo‘llaringga bo‘ldi sadqa tanda jonim, ol xabar

Hajr-u zulming Voqifingga buncha bedod ayladi,
Kelmadi hech shafqating gar qancha faryod ayladi,
Bu malomat gar chiqancha g‘ayr elin shod ayladi,
Oqibat ishqing meni, ey sho‘x, Farhod ayladi,
Ey dudog‘i shakkarim, shirin dahonim, ol xabar.

* * *

Kel, marhabo, qoshimga, turfa javon, xush kelding,
Peshka sho‘lurpoyingga bosh ila jon, xush kelding.
Bos qadaming boshimga, sarviravon, xush kelding,
Senga mushtoq edi dil, g‘uncha dahon xush kelding,
Kelaqol qumri sifat, to‘ti zabon, xush kelding.

Istab erdim Allohdan yori vafodor sani,
Xush et ko‘rdi manga qodiri g‘affor sani,
Qo‘ymagum ketmagingga to nafasim bor, sani,
Ko‘rmadi yo‘lda ne yaxshi raqib, ag‘yor sani,
Biz tomon kelding oxir pinhon-pinhon, xush kelding.

Qay zamonkim degansan, ey guli xandon, ketay.
Balki, men ham tushibon yo‘lingda giryon ketay,
Ya’ni zulfing singari holi parishon ketay,
O‘z ayog‘ingla kelibsan, senga men qurbon ketay,
Ey qaro kiprigi o‘q, qoshi kamon, xush kelding.

Bir kelibsan, et karam aslo bizdan ketmagil,
Ketsa ham ko‘zdan nurim, aslo ko‘zdan ketmagil,
Ogoh bo‘lg‘il, dilbarim ushbu so‘zdan, ketmagil,
Ketar bo‘lsang, kel yana qaytib izdan, ketmagil,
Qo‘ymagil Voqifni sen zor-u nolon, xush kelding.

MUSTAZOD

Ey, zulfi siyoq siynasi siymin, ko‘zi shahlo,
Na turfa jononsan,
Og‘zing kabi yo‘q g‘uncha, yonog‘ing kabi lola,
Gulzori jinonsan![1]
Ko‘rganda yuzing oy etar albatta zavola,
Xurshidi jahon san,
Hech banda senga bo‘lmasin, yorabki, havola,
Sen ofatijon san,
So‘z yo‘q bu latif husning ila bu xat-u xola,
Xo‘blikda ayonsan!
Debochayi lavhi qalami kotibi qudrat
Yozmish seni avval,
Duch kelmadi inson elida buncha latofat,
Pur ziynat-u sayqal,
Zulfing so‘zi har lahjadadir, ey pari tal’at,
Bir sharhi mutavval[2],
Oy birla quyosh sha’niga ham soldi xijolat,
Husningdagi mash’al,
Mujgoning urar ta’na o‘qin ko‘kda hilola,
Xo‘b qoshi kamon san!

* * *

Raftori qadding ayladi soya kibi poymol
Shamshodni chamanda,
Qon yig‘latadur g‘unchai xandon nima hu sol
La’lingdagi xanda,
Husn ichra jahon sarvarisan, sohibi iqbol,
Olam sanga banda,
Guftoring etar tutiy-u shakkar shikani lol,

[1] **Jinon** — jannatlar.

[2] **Mutavval** — uzun.

Haq nutq aylaganda,
Sen Xusrovo‘libsan, bali, har shahd maqola,
Shirini zamonsan!
Sensan, sanamo, jumlai xubona shahanshoh,
Yo‘q sen kabi dilbar,
Barqi ufuqingdanki yuzing bir chiqsa nogah,
Xurshidga barobar,
Solur o‘zini tiyra niqoba shafaq-u mah,
Monandiyi axtar,
Inson bo‘la bilmas bu sifat pok, munazzah.
Jam o‘lsa sarosar,
Sen jinsi malaksan, yetishibsan bu kamola,
Yo ruhiravonsan!

* * *

Yorim na go‘zal, kiyinib, alvon bezanibdir,
Ro‘mollari yashil,
Gulshanda bamisli guli xandon bezanibdir,
Oftobga muqobil.
Tongdan turibon jilva berar ikki yonog‘i,
Dunyoga solur nur,
Bir husni bade’tal’agi tobon bezanibdir,
Xushravnaqi komil.
Fitna ko‘ziga surma chekib, qoshiga o‘sma,
Jon olgali tayyor,
Bir g‘amzasi bir ofati davron, bezanibdir,
Bir g‘amzasiqotil.
Anbarmi va yo mushki Xo‘tan, rayhon hididir,
Har dam kelur ondin,
Sandal isi-la zulfi parishon bezanibdir,
G‘oratgari komil.
Voqif, na tomosha, na ajoyib, na qiyomat,
Ar-ar xijil o‘ldi,
To ko‘rdiki ul sarvi xiromon bezanibdir,
Olam anga moil.

O‘NLIKLAR

Ey, go‘zal, to‘tizabon, kelki, maqoling istaram,
Tashnai didor men, obi ziloling istaram.
Nozi garm-u, g‘amzai chashmi g‘izoling istaram,
Yuz-yonog‘ingda sening ul hatt-u xoling istaram,
Matlai vajhinda abro‘yi hiloling istaram,
Soyai sarvi kadi, shamshod misoling istaram,
Dam-badam zavqi tamoshoyi jamoling istaram.
Tori zulfi mushk rang-u ro‘yi oling istaram,
Qolmisham hijronda, gulzori visoling istaram,
Ey, go‘zal, to‘ti zabon, kelki, maqoling istaram!

* * *

Ishqingiz yo‘lida, dilbar, jon-u sardan kechmisham,
Pora-pora qilmisham ko‘nglim, jigardan kechmisham,
Yonmisham parvonalardek, bol-u pardan kechmisham,
Har sumanso bo‘ylidan, har siymbardan kechmisham,
Dilbari g‘unchadaxon, nargis nazardan kechmisham,
Loladan qo‘lni uzib, gul bargi tardan kechmisham,
Tark etib olam safosni, xayr-u shardan kechmisham,
Tishlaring-chun maxzani durri guhardan kechmisham.
Rad etib kavsar suvnin, shahd-u shakardan kechmisham,
Tashnai didormen, obi ziloling istaram!

Men sening bir oshig‘-u beixtiyoring o‘lmisham,
Bedil-u bejon-u besabr-u qaroring o‘lmisham,
Shonadek mushtoqi zulfi tobi doring o‘lmisham,
O‘rtanib soatma-soat, tor-moring o‘lmisham,
Necha yillar poyi bandi, rahg-u zoring o‘lmisham,
Rahguzoringuzra, sarvim, xokisoringo‘lmisham,
Volaixoluzanahdoniu zoring o‘lmisham,
Bir tuzalmas dardmand-u intizoring o‘lmisham,

Sho‘x nigohingdan qolib, sarson shikoring o‘lmisham,
Nozigarmu, g‘amzai chashmi g‘izoling istaram!

Chunki mushtoq o‘lmisham sen sarv-u siymandomaman,
Aylaram mujgonimi xun ila zarrin xomaman,
Yo zaram har kun senga mehr-u vafodan nomaman,
Ko‘p dedim ham rang o‘lay ul orazi gul fomaman,
Qo‘ymasam mocharxmgardunetgaliul koma man,
Yo‘qajab, desam siyahru gardishiayyomaman,
Tushmishamsarhalqayizulfinguchindan doma man,
Tikmisham ko‘z ro‘zivaslingdankelanbayroma man,
Matlaivajhinda abruyihilolingistaram!
To kelurgoh-gohmenga bodi sabodanqog‘ozing,[1]
Jonimi sarzhushetar ambar zavodam qog‘ozing,
Bargiguldektushmasulatrifazodanqog‘ozing,
Senkibirattorsan, kelmishXitodanqog‘ozing,
Jon berur Iso kabi umri baqodan qog‘ozing,
Bir ajabsarmashqdirmehruvafodanqogozing,
Ishlasinqosid, kesilmasinarodanqog‘ozing,
Kamemasdir lavhi tummoriqazodanqog‘ozing,
Olsamingziynat agar mushkinqarodin qog‘ozing
Yuz -yonog‘ingdasenintulhattuxolingistaram!

Ko‘rsatibdir, bilmadim, la’ling ne lazzat ko‘nglima,
Qayta-qayta oni fikretmoqdirodat ko‘nglima,
Undano‘zgakelmadi shirin hikoyat ko‘nglima,
Firqatingdanqolmamishdirsabru toqat ko‘nglima,
Qomatingdanayruzohirdirqiyomatko‘nglima,
Va’dayivasling bag‘ishlar zavqu rohatko‘nglima,
Sen o‘zing to etmagunchabirinoyatko‘nglima,
Ko‘p yetar ag‘yordan jabru malomatko‘nglima,
Soyaisarvi kadi, shamshodmisolingistaram!..

Ey rangi ruhi oligahayron gulu lola,
Jonqurbonulur sen kabibirqoshihilola,

[1] **Qog‘oz** — bu yerda maktub, xat ma’nosida (*red.*).

Oljilvayihusningetilibdir ne kamola,
Tahsino‘qigay ko‘kdamalaklarbujamola,
Ko‘z solgan edim ko‘p sanami hurmisola,
Lekin, go‘zalim, qilmamishamjonimnihavola
Bir sen kabishakkardahanu to‘timaqola,
To oshiqo‘libdir ko‘ngul sen chehrasiola
Hamsilsilayikokila, hamdonayixola,
Doim chekamantonggaqadarhar kecha nola.

Hajringdamudom no‘sh etaman sog‘arigulnor,
Tund bo‘lma, tasaddiqketayin, o‘zgasabab bor,
Arzaylayin, ey kokillarianbar, lolaruxsor,
Qilmish mani birmushkulazobdardgagiriftor,
Naylayyonamanotashdabamisolisham’zor,
Ya’nikisenga bo‘lgali[1] men oshiqi zor-zor,
Hargizemas ahvoldanhechkimsaxabardor,
Nochoretamandardidilim soqiyga izhor,
Tushgan makali yodimala’ling, ko‘zixummor,
Bu zavq ila goho ichamannechapiyola.

Zangorigun may shishasida bor bulatofat,
Garqilmasaerdi bo‘yinuqaddinsenga nisbat,
Hechvaqt bo‘lar erdimmi u-la birnafasulfat,
Hajringdaetarjonima ko‘p mehnatukulfat,
Istarsamangakunda chekib tig‘i siyosat,
O‘ldirmakuchunshaylanadiqotilkabifirqat
Shirin dahaning bo‘lgusideb men qulakismat,
Sabretaman tandagijon bo‘lsasalomat,
Sensiz ne ravodir men uchunayshufarog‘at?
Shavqing menga bas, yetkururuljomivisola.

O‘xshaydidebonlablaringga bodayigulgun,
Kundan-kungaungabo‘ladirrag‘batimafzun,
Ma’zur tut, bo‘ldimnetayinafgor, jigarxun,
Bo‘ldimjudaoshufta, parishondilumahzun

[1] **Bo‘lgali** — bo‘lgandan beri.

Zerokiseningdonayixolingdagiafsun
Ko‘ngilqushinetdi girihi sochinggamaftun,
Jam bo‘lsa agar birjoya LuqmonuFalotun,
Yo‘qchoranetay, bodadano‘zgamangabu kun,
Hijronkunidilxasta bo‘lan damdabuma’jun.
Bir vositadirdaf’i g‘amudardumalola.

Voqifkabi men dam uramanzulfisiyodan
Jismimgatusharlarzasarosarbunavodan,
Tanbursifat jo‘sh etamanzarbihavodan,
Emdimenihar kim ko‘raro‘lsa rifaqodan[1]
Bir torga barobartutarulchangidutodan[2],
Qonun shu eruroshiqeligailk-binodan,
Sen johilasan, shu hali ilmingbuadodan,
Yo‘qdirxabaringhechdemassanfuqarodan,
Kelganmahali bir bor xabar bodi sabodan,
Zulfinghavasi ko‘rki, menisoldi ne hola?

[1] **Rifaqo** — o‘rtoqlar.

[2] **Changi duto** — egilgan chang (musiqa asbobi)

AYTISHUV

Voqif — Ey Vidodiy, sening bu puch dunyoda
Qanday darding borki zor-zor yig‘larsan?
Yig‘laydigan kuning oxiratdadir,
Hozir senda ne qayg‘u bor, yig‘larsan?
Vidodiy — Voqif, buncha ta’na toshi otarsan,
Dersan, “nechun sen bu qadar yig‘larsan?”
Sening ham qalbingda muhabbat o‘ti
Agar bo‘lsa, aylar asar yig‘larsan.
Voqif — To jasadingjudo bo‘lmayinjondan,
Bil o‘zingni ortiq sultondan, xondan
G‘ariblik, ayriliq nedurki, undan
Bu qadar chekibon ozor yig‘larsan?
Vidodiy — Yig‘lamoq sababi muhabbatdandir,
Shikasta xotirlik, marhamatdandir,
Asli bular bari muruvvatdandir,
Bo‘lsayuragingdabattaryig‘larsan!
Voqif — G‘animat bil tirikliging damini,
O‘tmish hamdamlaring chekma g‘amini,
Aqling bo‘lsa, art ko‘zingning namini,
Ular qaytishmaydi zinhor, yig‘larsan!
Vidodiy — Yig‘lamoq mo‘minlik alomatidir,
Payg‘ambar dinining xush odatidir,
Agar bilsang, haqning karomatidir,
Ko‘zda borkan nurdan asar yig‘larsan!
Voqif — Qo‘ldan ixtiyoring oldirgan falak,
Sigirdan buzoq nasl qoldirgan falak.
Yoru yo‘ldoshingni o‘ldirgan falak
Magar seni omonqo‘yar, yig‘larsan?
Vidodiy — Nechun sigir-buzoq haqda so‘zlarsen,
Sening bila hazil-mazax qilmam men,
Hazratquli degan boyning tasbehin
Olibsan qo‘lingga magar, yig‘larsan?

Voqif — Kimdirendibudavrondaul odam,
Sevganiyonidansiljimasbir dam,
Qorayasanbulutkabidamo-dam,
Oqchaqmoqdekyashin chaqnar, yig‘larsan.
Vidodiy — Bildim ko‘p go‘daksan, yuraging to‘qdir,
Lahvu laab bila havasing cho‘qdir,
Keksalik asari ko‘nglingda yo‘qdir,
Keyinchalik aqling kirar, yig‘larsan!
Voqif — To‘y bayramdir bu dunyoning azobi.
Oqil kishi unga bo‘ladi tobe’,
Sendek o‘g‘lonlarning yo‘qdir hisobi,
Har narsadan topib g‘ybop, yig‘larsan!
Vidodiy — O‘g‘lon, sen bolasanhali navjuvon,
Yaqinda tushgandirjisminggasuzon,
Tasbehni olibsanqo‘linggabu on,
To‘g‘ritutki, nogohtushar, yig‘larsan.
Voqif — Ox, unadomatdan ne tushar qo‘la,
Shukr ayla ollohga, kezkul-kula!
Bola emassan-ku, boqmayul-bula,
Ko‘nglingningshishasisinar, yig‘larsan!
Vidodiy — Uzoqdan boq, yaxshi fahm et, ey jo‘ra,
Buishboqmas’ hech ko‘ngila, xotira,
Yuz yil bu yo‘llardan ot sura-sura
Bir kun yonarjonu jigar, yig‘larsan!
Voqif — O‘tgan ishga mard yigitlar qayg‘urmas,
Otalar so‘zidir: “To‘kilgan to‘lmas”,
Qattiq uchunqishdayig‘lamoq bo‘lmas,
Inshoollohkelar bahor, yig‘larsan!
Vidodiy — Davlatingdanetdik nonu namakka,
Tushdikendiqatiq, qaymoqyemakka.
Gapjuda ko‘p, joyiemasdemakka.
Agar bilsang, ey bexabar, yig‘larsan!..
Voqif — Hozircha tiriksan, o‘lik degilsan[1]
Qartayibon yoydekendiegilsang,
Podshohsan agar o‘zingnibilsang,

[1] **Degil** — emas.

Nechun bo‘libjondanbezor, yig‘larsan?

Vidodiy — Vaqteki taqildi ko‘zga ko‘zoynak,
Keksaliketishgach ne uchun shishmak,
Bolalarholinggakulgandabeshak,
Seninghamachchig‘ingchiqar, yig‘larsan...

Voqif — Muxammasyozmog‘ingsiyraklashibdir,
Oqil bo‘lib, zehningziyraklashibdi.
Keksayibsanqalbingkuvraklashibdir,
Ishukuchdan bo‘libbekor, yig‘larsan.

Vidodiy — Qo‘y, gapirma, muxammasdan, g‘azaldan,
She’riyhaqiqatdan, madhi go‘zaldan
Sening ahvolingnibildikazaldan,
Yana debonjonon, dilbar, yig‘larsan.

Voqif — Yetmishdakibundanyoshkelar ko‘zga,
Har narsagaloqayd, boqmaysan so‘zga,
Bir vaqtiki yoshingetadiyuzga,
Ko‘rginunda sen beshumoryig‘larsan.

Vidodiy — Sari Cho‘pon o‘g‘li kelsin yoningga,
Oxunddeyajoninqotsinjoningga,
Xonning shavkatiga, seningshoningga,
U yaxshimuxammastuzar, yig‘larsan.

Voqif — Axirseningqandayerurbuholing.
Qandaytalabdadirfikruxayoling,
Muddatidaoting, ko‘yingvamoling
Agar tug‘mas agar tug‘ap, yig‘larsan.

Vidodiy — Sevmasesangotni, qo‘y ila molni,
Eshitmasaslobuqolumaqolni,
Bas nechunyig‘ibsan shunchaayolni,
Tug‘masashodlanib, tug‘ar, yig‘larsan?

Voqif — Boshingga jamlanib aqling yig‘ilmas,
Shul sababdan dardu g‘aming dog‘ilmas[1],
Sening moling buzoq emib sog‘ilmas,
Harkim sigiringni sog‘ar, yig‘larsan.

Vidodiy — Shaytongaraldasaqaysiodamni,
Xushkeluro‘shangadunyoningg‘ami,

[1] **Dog‘ilmoq** — tarqalmoq.

Ko‘p yig‘maboshinggahurusanamni,
G‘ofil, o‘zgalargaqolar, yig‘larsan.

Voqif — Jahannamgatushsnno‘tganhamdamlar,
Ular uchunchekma sen bunchag‘amlar,
O‘tmishkunlarinihozir- budamlar
Telba ko‘ngilabasqo‘msar, yig‘larsan.

Vidodiy — Ko‘z nechunyig‘labon to‘kmasin namni,
Hayvonemasmiz-ku chekmasakg‘amni,
Aqling bo‘lsaqo‘msab yorni, hamdamni,
Laylu nahor shomusahar yig‘larsan.

Voqif — Qanday yara yuragingning yarasi,
Shu vaqtgacha topilmabdi chorasi.
Ko‘p yillardir uzilmasdan orasi,
Shomu sahar laylu nahor yig‘larsan.

Vidodiy — Qay ko‘zki yig‘lamas, to‘kilmas yoshi,
Albatta xolidir miyadan boshi,
O‘lmasa yod etar yoru yo‘ldoshni,
Har damki yodingga tushar, yig‘larsan.

Voqif — Juda ko‘p bahs etding sog‘dan va so‘ldan,
Davlatli xonni ham chiqarding yo‘ldan,
Qo‘ymading bermasga matoyu puldan,
Seni xil’at ahli tutar, yig‘larsan.

Vidodiy — Ko‘p belanma bu dunyoning qoniga
Begonadir vafo sulton, xoniga,
Donishmandinbir kun qo‘ymasyoniga,
Bizningsigirkabitepar, yig‘larsan.

Voqif — Dunyoning ishida mardsan fidokor,
O‘likdan epchilsan, tirikdan kapor,
Bir kupi sog‘ esang, yetti kun bemor,
To‘shaging bag‘ringni teshar, yig‘larsan!

Vidodiy — Seni to‘qayzorda yashirgan falak,
Aqlingni boshingdan choshirgan1 falak,
Mayxonaga tez-tez tushirgan falak,
Bunday qo‘ymas bir kun surar, yig‘larsan.

---

[1] **Choshirmoq** — chalg‘itmoq.


Voqif — Minarsan xachirni, sura olmassan,
Yo‘lning sog‘u so‘lin ko‘ra olmassan,
Xon kelar, o‘rningdan tura olmassan,
Eshikbonqo‘lingdantutar, yig‘larsan.

Vidodiy — Oqqiz o‘g‘li Piriy dunyo qardoshing,
Hotamxon og‘adir tengqur yo‘ldoshing,
Sari Cho‘pon o‘g‘li go‘zal dindoshing,
Nega chekib sen dardisar, yig‘larsan?

Voqif — Voqif garchi azobi bor dunyoning
Sen nechun vahmini chekasan oning,
Tutubon etagin Shohimardoning
U kular-kularsan, yig‘lar-yig‘larsan.

Vidodiy — Ahli sunnatvaljamoat payvasta,
Borarlarjannatgadastama-dasta
U kundashod bo‘lurVidodiyxasta,
Seni yanglish ko‘ribkular, yig‘larsan.

HAYRON XONIM



HAYRON XONIM

XIX asrda Ozarbayjon she'riyatida mumtoz an'analarni davom ettirgan shoiralardan biri Hayron xonim Dunbulidir. U Ozarbayjon shoiralari orasida eng sermahsulidir. Hayron xonimning tavalludi va vafoti tarixi aniq emas. Lekin u XVIII asrning 80-yillari va XIX asr 50-yillari orasida yashagani ma'lumdir. Hayron xonim Ozarbayjonning xushhavo manzillaridan biri Naxichivan shahrida Kang'arli Dunbuli avlodiga mansub xonadonda tug'ilgan. U Karimxon Kang'arlining singlisi edi.

Shoiraning hayoti haqida ma'lumot beruvchi manbalardan biri Muhammadali Tabiatning "Donishmadoni Ozarbayjon" tazkirasi shoiraning 80 yilga yaqin hayot kechirganini zikr etadi. Ayrim manbalarda Tabrizda (Ali Akramiy, "Zanoni suxanvor"), boshqalarida esa Naxichivonda tug'ilgani aytiladi. Naxichivon hukmdorlaridan Karimxon Qang'arli oilasiga mansub, bolaligi shu shaharda kechgan. Rusiya-Eron urushi davrida Ozarbayjon chegara tumanlaridan Eronga ko'chirilgan oilalar ichida Hayron xonimning ham xonadoni bo'lib, unga Urmiya yaqinidagi bir qishloqdan hovli-joy berilgan.

Ijodiy merosi 4,5 ming baytlik "Devon"ga jamlangan, unda qasida, g'azal, qit'a, tarjiband kabi janrlarda fors va ozar tillaridagi she'rlari jamlangan. Ilk ijodida Nasimiy va Fuzuliy asarlariga bog'langan naziralar bor bo'lsa-da, ular shoiraning mustaqil ijodining shakllanishiga yordam bergan.

Shoira asarlari tasvir aniqligi, jonli va sodda tili hamda uslubining yengilligi bilan o'z zamondoshlari asarlaridan farqlanadi.

Hayron xonim yoshligida saroyda maxsus tahsil ko'rdi, mumtoz she'riyat an'analarini o'rgandi. Bu tabiiy va zaruriy hodisa edi. U o'zi yashagan muhit ijtimoiy hayot tarzini, ob-u havosini, muayyan fikr va tushunchalarini lirik she'rga xos obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar vositasida aks ettirdi. Hayron xonim Rudakiy, Sa'diy,

Hofiz, Vahshiy, Urfiy, Nasimiy, Navoiy, Fuzuliy, Soib, Qavsiy va boshqa so‘z daholarining she’rlaridan yaxshi xabardor bo‘lib, ularga naziralar bog‘lagani bejiz emas.

Inson go‘zalligi va muhabbatini tarannum etgan Hayron xonimning maftunkor lirikasida hayot va go‘zallikka shaydo qalbning shavq-u zavqi, hayajon va iztiroblari kuylanadi. Shoiraning shaxsiy hayoti uning asarlariga alohida ta’sir quvvati bag‘ishlagan. Hayron xonim ona vatanidan, sevgilisidan judo etilgan, butun umri Mirzo Abbos saroyi bilan yaqin aloqada kechgan. U moddiy jihatdan bekam-u ko‘st bo‘lsa-da, ruhan ezilgan; o‘z nochor xalqining g‘am-u hasratiga, azobiga qayg‘udosh bo‘lgan.

Yuz shukr, subhu shom rizqim muhayyo,
Va lekin hush o‘tmas kunlarim aslo.
Zaharga aylanar og‘zimda shinni
Faqirlar yodimga tushgan hamono.

Hayron xonim g‘azallarida ijtimoiy ohanglar ham bor, lekin sevgi savdolari, inson go‘zalligi ta’rifi jozibali va ta’sirli bo‘yoqlarda chiziladi. Uning she’rlari Navoiy, Fuzuliy ilhomi chashmalaridan bahramandlik, ikki ulug‘ ustoz an’analariga sodiqlik timsolidir. Uning “Ko‘rgach” radifli g‘azali bu borada juda maroqli misoldir.

Uchar rangim yuzumdan, vaslingga yetganda ey, dilbar,
Tizim titrar, tilim loldir sening diydoringni ko‘rgach.

Hayron xonim asarlarining juda kam qismi chop etilgan. Uning Bokuda, Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan, u hayotligida, o‘z nazoratida ko‘chirilgan mukammal va nafis devoniga oid asarlar, xususan, g‘azal va tarjibandlari mavjud. Bu asarlari Hayron xonimning insonparvar kuychi ekanligidan, ozar mumtoz adabiyotida yuksak mavqe egallaganidan guvohlik beradi. Hayron xonim real hayotni, inson go‘zalligi va muhabbatini jo‘shib kuyladi. Hayron xonim Tabrizda vafot etgandir.

Jannat Nag‘iyeva,
filologiya fanlari doktori

G‘AZALLAR

Bir nazar la’li labi jonona ayla, ey hakim,
Chora bu dardni bedarmona ayla, ey hakim.

Gar behishti jovidon istarsa ko‘nglung shavq ila
Bir guzar sen mohfe’l jonona ayla, ey hakim.

Hajri dilbar o‘ldurur oxir mani, sen rahm ila
Xanjaring chek, qatlimi mardona ayla, ey hakim.

Qil tarahhum holima, topgil iloj dardima,
Bir davo ber, aqldin begona ayla, ey hakim.

Rohi haq istarsa ko‘nglung masjida kirma, chekin,
Shavq ila azmi rahi mayxona ayla, ey hakim.

Chekma zahmat xor-u xasdin, azmi ka’ba aylama,
Qasdi bazmi vasli sohibxona ayla, ey hakim.

Bir quloq os nolai Hayrona, hifz et nolasin,
Bazmi hikmada uni afsona ayla, ey hakim.

* * *

Ko‘nglum qushi ul zulfi parishon orasinda,
Bechora qolub jannati vayron orasinda.

Ko‘rkim, necha sargashta qolub vola-u tanho,
Ul xol Xito birla Badaxshon orasinda.

Tug‘yona kelib dard-g‘amim, bu dili zorim,
Bir kemaga o‘xshar qolon to‘fon orasinda.

Dil zulf ila ruxsorini chun qildi tamosho,
Ovora qolub kufr ila iymon orasinda.

Ey, ko‘r, ne ajab mo‘jizadurkim, necha bitmish
Bir sunbuli tar otashi so‘zon orasinda.

Ey, dil, yemagil g‘amki, uning yo‘qdi tafovut,
Ko‘yinda chu darvish ila sulton orasinda.

Chun yor qilub lutfinikim xona-u hamdam
To sulh qilan yor ila Hayron orasinda.

* * *

Labingni moyai jon yaratmish
Va ushshoq dardiga darmon yaratmish.

Mening jonim uchun rizq-u nasiba
O‘shul soat yana hijron yaratmish.

Firoqingda ko‘zim giryon qilgay:
Labi la’lingni na xandon yaratmish.

Agar yulduz erur jumla go‘zallar,
Seni tanho mohitobon yaratmish.

Yuzingni nuridan olmish-da zarra,
O‘shandan xurshidi raxshon yaratmish.

Gadoyi husningga meni darbadar,
Senikim, sarvari xo‘bon yaratmish.

Meni bulbul, seni bir gul atablar,
Meni cheksin, deya, afg‘on, yaratmish.

Yetishdi ma’shuqin vasliga oshiq,
Meni bir sen uchun Hayron yaratmish.

* * *

Zulfini chun oraza ul moh parishon ayladi,
Ravzai firdavs go‘yo sunbuliston ayladi.

Noz ila otdi agar novaklarini mahliqo,
O‘ldirib oshiqlarini qoni alvon ayladi.

Chun boqib ahvolima etdi tabassum noz ila,
G‘unchayi bog‘i behishtni ko‘r, na xandon ayladi.

Chun tabibim ul ikki yoqutni etdi durfishon,
Ruh berdi qalbima, dardima darmon ayladi.

Yor chun ag‘yor ila etdi takallum lutf ila,
Ko‘nglimi dard-u g‘ami mavj etdi, to‘fon ayladi.

Ko‘rdi chun ag‘yor ila dildorini sargarmu noz,
Diydai xunborimi ko‘rkim, na tug‘yon ayladi?

Qosh-u ko‘z, ham la’li maygun, xoli hindu, zulfi kaj,
Sarv qaddin ko‘rsatib, Hayronni hayron ayladi.

* * *

Dardimga chora yo‘qdir la’li dutodin o‘zga,
Tutmas qo‘limni hargiz zulfi rasodan o‘zga.

Holimni dildorimga arz aylaguvchi yo‘qdir,
Borsam guzar boshida bodi sabodan o‘zga.

Kaj baxtimiz bohayrat, boiski, yor bizga,
Ko‘rmas ravo hech ne javr-u jafodan o‘zga.

Zulm-u sitam bo‘libdir dildorga kasb-u korlik,
Men etmadim sanamga mehr-u vafodan o‘zga.

Dilbarga xizmat etmak azmin tutar bo‘landa,
Yo‘qdir alimda tuhfa xayr-u duodan o‘zga.

Dard-u alam-g‘aminda giriftor o‘ldi kim ham,
Yor ko‘chasinda mendek baxti qarodan o‘zga.

Ag‘yor ta’na urgay, hijron olov ufurgay,
Yo‘q bizga mehribone g‘amxo‘r xudodan o‘zga.

Qismat ishi bu, Hayron, tushding yordan ayru,
Taqdirga chora yo‘qdir rozi-rizodan o‘zga.

* * *

Ochildi subh ro‘ying, shom zulfing ayon o‘ldi,
Xijolat otashina mehr yondi, moh nihon o‘ldi.

Chekib qavsi kuzah xush toqi rangin osmon uzra
Ko‘rib qoshing kabi ul moh qaddi kamon o‘ldi.

Du chashmi masti maxmuring olib jonlar, to‘kib qonlar,
Xadangi kirpiging, tig‘i nigohing komron o‘ldi.

Giriftori kamand o‘ldi dilim, aqlim uchib boshdin,
Ko‘nglum murg‘iga xoling dona, zulfing oshiyon o‘ldi.

Ko‘rib la’li labing, ey hurvash, la’li Badaxshonnin,
Kuyib bag‘ri hasaddan, diydasinda xun ravon o‘ldi.

Ko‘zing oldi manim jonim, labing to‘kdi uning qonin,
Bihamdillah, saning ko‘yingda oxir qonga qon o‘ldi.

Etib zavq birla jon qurbon anga har oshiq ey, Hayron,
Na tanho ojiz-u nolon o‘larda jonfishon o‘ldi.

* * *

Bir bulbul edim, etdi zamona,
G‘am o‘qlariga dilim nishona.

Ey, dilrabo, qoshi yoying o‘xo‘ar,
Abro‘yi muqavvasi kamona.

Ey, va’dasi yo‘q, shirin kaloming,
Qildi meni dahr aro fasona.

Xud men kabi lak-lak oshiqingni,
Majnundek aylading devona.

Qahr etma, rahm ayla, shafiq bo‘l,
Bu bekas-u zor-u notavona.

Bir noma bitib jigar xunidan,
Sen tarafga ayladim ravona.

Hayron asiri ishqing o‘lmish,
Dil nolalari qalqdi zabona.

* * *

Yorim, manga ayla bir nazzora,
O‘ldi jigarim hazor pora.

Hajringda mening xazin ko‘nglum,
Har lahza yonib sochar sharora.

Men oh dedim, o‘tli fig‘ondin,
O‘t ketdi bu dasht-u ko‘hsora.

Sen Layli eding, oshiqi zorlar,
Majnun kibi tushdi ro‘zigora.

Ko‘pdir seni deb yig‘lagan ushshoq,
Yo‘q, men kibi kas toleyi qora.

Hayron ko‘zi yo‘lingda nigoron,
Qil chora bu dardi intizora!

* * *

G‘ami yo‘qdir kishining yori mehribon bo‘lsa,
Yuz taassufdir agar men kibi nolon bo‘lsa.

Hijron o‘tida yondi, o‘t ichra qoldi ko‘ngil,
Uf tortmadim, ko‘z yoshim laxta-laxta qon bo‘lsa.

Meni yozg‘irmadi kim, qarg‘ishi ursin toshga,
Naylaram men, umidim boqchasi vayron bo‘lsa?

Visoldan gumonim yo‘q, sabrdan ishonchim yo‘q,
Ag‘yor kasbi ne tong oh birla fig‘on bo‘lsa!

G‘ami hajrida to‘zgan dahrda yo‘q maningdek,
Ummedim chechak ochgay yor menga mehmon bo‘lsa,

Tole irodasi shul: ranjima yordan Hayron,
Ishqingga kim inongay, vaslating oson bo‘lsa?

* * *

Bu — men sargashta-yu ovora sensiz,
G‘arib-u bekas-u bechora sensiz.

Necha gulshan sari qo‘ydim qadamni
Qilib sarv-u gula nazzora, sensiz.

Yurak hijron tig‘i, darding o‘qi-la,
Bo‘libdir tilka-yu yuz pora sensiz.

Bu keng dunyo ko‘zimga tiyra-yu tor,
Oy-u oftob kuyuk sayyora sensiz.

Tunin hijron ishim, afg‘ondan o‘zga,
Chu yo‘q kasbim mening, mohpora, sensiz.

Senga kor etmadi Hayronning ohi,
Faqat kor ayladi toshlora, sensiz!

* * *

Ey bodi sabo, sayri guzar qil,
Faryod e’tibon jahonni kar qil.

Gar oh-u nolang tinglamas hech kim,
Top o‘zga ohang, sozi digar qil.

Ey, ko‘z beparvo, to‘k qonli yoshlar,
Ey nolayi beasar, asar qil.

Ey buti sangdil tangrim, o‘zing, de,
Bu oshiqingga zarra nazar qil.

Ko‘rdingki, senga yo‘qdir javobi,
Hasratlaringni sen muxtasar qil:

“Yo kes boshimni, yo sot bozorda,
Yo bu ko‘ngulni ishqdan badar qil!”

Qaytgil saharlab so‘ng o‘z izingga,
Hayron hazinga biror xabar qil...

* * *

Ajab ko‘zdan yiroq bir jonam, ey, dil,
Sanam zulm ila man nolonam, ey, dil.

Xiromon sarvdek vaslin ko‘yida,
Bodi sabodek sargardonam, ey dil.

Uning gul yuziga, qomatlariga,
Yana parvonadek so‘zonam, ey, dil.

Bu hijron o‘tini so‘ndirmak bo‘lib,
Ko‘zimda qonli yosh afg‘onam, ey, dil.

Netar, dardimga bir darmon topsa,
Ki men bemori bedarmonam, ey, dil.

Nechun bilmaski, yor g‘amza tig‘idan,
O‘zimning qonima g‘altonam, ey, dil.

Ko‘ngulni oldi, ham oldi bu jonni,
Qolmadi imon-da, beimonam, ey, dil.

Bu sharhi holimi aytdim borini,
Husniga, zulmiga Hayronam, ey, dil.

* * *

Bo‘libdir g‘am saroyi shod ko‘rganing, ko‘nglum,
To‘zibdur g‘ussadin obod ko‘rganing, ko‘nglum.

Diyori g‘amga bandi tushdi, giriftor o‘ldi,
Kamandi furqata, ozod ko‘rganing, ko‘nglum.

Firoq dardiga izlabon topmadim malham,
Jami hikmatga ustod ko‘rganing, ko‘nglum.

Vasl taxtida Xusravdek o‘ltirmishdi,
Bo‘libdir ko‘hda Farhod ko‘rganing, ko‘nglum.

Balo domiga tushdi, qayrildi qanoti,
Visol saydiga sayyod ko‘rganing, ko‘nglum.

Bu qayg‘u dard xurjidan girdibod o‘lub
Yetibdur ko‘kka faryod, ko‘rganing, ko‘nglum.

Sochib cho‘g‘, sharora vujudimni, Hayron,
Etmish ko‘rayi haddod, ko‘rganing, ko‘nglum.

* * *

Bir noma yozay, bodi sabo yora yetursin,
Sharhi g‘amimi ul buti xunxora yetursin.

Hijron mani etdi yana behol-u halovat,
Doru-yu visoli menga bir chora yetursin.

Sabrim tugadi, yor endi jonim ola qolsin,
Yo shod aylasin vasl ila, diydora yetursin.

Men ikki dunyoda ko‘ray: orzuga yetsin,
Har kimki, meni yori vafodora yetursin.

To‘sma yo‘lini, ey g‘ami hijron, payomim,
To bodi sabo, ul guli gulzora yetursin.

Yuz hasrat ila bu dili hijronga giriftor,
Azm etdi, o‘zin ul guli bexora yetursin.

Yuz nish ila yo‘l bermadi ul xori sitamkor,
Qo‘ymadi o‘zin ul gula bechora, yetursin.

Yorab, manga sen buncha zulm aylama izhor,
Qo‘y, yorga o‘zin bu dili ovora yetursin.

Bekasligima rahm aylasin xoliki yakto,
Hayronni u shahboza digarbora yetursin!

* * *

Bo‘ying sarvi sihi, zulfing muanbar,
Jamoling Yusufi Kan’ona o‘xshar.

Qoshing oshiqlarning qasdiga misli,
Egilgan tiyig‘i sarafshona o‘xshar.

Qiyo boqsa, ko‘zing olgay bu jonim,
Yo‘xuda fitnayi davrona o‘xshar.

Omon yo‘q, noz ila tiri nigohing,
Yurakda xanjari burrona o‘xshar.

Tili bulbul, sochi sunbul, yuzi gul,
Tun magar kiprigi paykona o‘xshar.

Seni oy jamoling, ey huri jannat,
Gulistonda guli xandona o‘xshar.

Esib bodi sabo, zulfing to‘zitmish, —
Gul uzra dastayi rayhona o‘xshar.

Labing kunjida xoling hinduvash bir,
O‘tirgan taxt aro sultona o‘xshar.

Saning ko‘yingda oshiqlar fig‘oni,
Chamanda bulbuli xushxona o‘xshar.

Sharorai sho‘rangizingdan ey, oy,
Boshim ham otashi so‘zona o‘xshar.

Ko‘zim yoshi firoqingdan yuzimda,
Shashqator lo‘lu-yu g‘altona o‘xshar.

Agarchi oshiqing ko‘pdir va lekin,
Ishonma, qay biri Hayrona o‘xshar?

* * *

Firoqing qalbimizda kor etibdir,
Bu zulmni charxi badkirdor etibdir.

U majlisda hushim uchmish boshimdan,
Havoyi vaslating bedor etibdir.

Bu qismatga ming ehson, ming tashakkur:
Gadoni podishohga yor etibdir.

Ki gul hajrida bulbul nola etmas,
Uni har ne etibdir, xor etibdir.

Qazo Majnunni quvdi tog‘-u dashtga,
Qadar Mansurni dorda zor etibdir.

Chekib shamshirini dildor, misli,
Raqibim qatlima shior etibdir.

Hajrdan nolima zinhor, Hayron,
Bu jabr-u jafoni ag‘yor etibdir.

* * *

Bilursen, yoringni bir yori bordir,
Ag‘yor ila ahd-u qarori bordir.

Netay men faqirmen, yor sulton,
Menga yor o‘lmog‘idan ori bordir.

Na darkordur menga sunbul va rayhon,
Aningki turrai tarrori bordir.

Ko‘ngil, qayg‘urmagil, dahri chamanda,
Ochilgan g‘unchaning ming xori bordir.

Kel, injitma, sanga sho‘rlik bu Hayron,
Bir oshiqdir, mehr iqrori bordir.

* * *

Xurshidi tobon bo‘lmish namoyon,
Bo‘lmish namoyon xurshidi tobon.

Zulfi parishon yuzlarda pechon,
Yuzlarda pechon zulfi parishon.

Ul chashmi fatton aqlimni oldi,
Aqlimni oldi ul chashmi fatton.

Ul tiri mujgon sanchildi qalbga,
Sanchildi qalbga ul tiri mujgon.

Ul la’li xandon obi hayotdir,
Obi hayotdir ul la’li xandon.

Ul ko‘yi jonon ming qurbon istar,
Ming qurbon istar ul ko‘yi jonon.

Shaydo bu Hayron ul oy jamolga,
Ul oy jamolga shaydo bu Hayron!

* * *

U moh oraza chun zulfi mushkining hijob o‘ldi,
Dedim: abru siyosi ro‘yi xurshida niqob o‘ldi.

Tajalli aylayub nuri jamoling olami tutdi,
Uning bir zarrasi ketdi, samoda oftob o‘ldi.

Esib bodi sabo, ul zulfi anbarso o‘lib darham,
Parishon o‘ldi ko‘nglim zulfingdek tob-tob o‘ldi.

Chu murg‘i dil ko‘rub xolisiyohing, dona fikrinda,
Vale ruxsori otashnok uni ko‘rgach kabob o‘ldi.

Zi bas, qon yig‘ladim ruhingda ey, malak manzar,
Ruhi zardim sirishki ol ila rangi xizob o‘ldi.

Yonib hijron o‘tina ro‘zi shab parvonatek Hayron,
Raqibi fitnagar la’li labingdan komyob o‘ldi.

* * *

Sabo zulfin to‘zitdi, jumla olam mushkbor o‘ldi,
Jamoli mehrtek go‘yo bulutdin oshkor o‘ldi.

Tulu’ etdi yuzi zulfin arosinda quyoshoso,
Har on kasakim, unga nazzora etdi, beqaror o‘ldi.

Ko‘ngil o‘ldi giriftori nigohi chashmi mahmuri,
Na mo‘jiza budur, yorab, sher ohuya shikor o‘ldi.

Boqib chun mahfil ahboba, sanamni ko‘rmagach anda,
Yonib bag‘rim, ko‘zimga jumla dunyo tang‘-u tor o‘ldi.

Tushib yodimga dildorning ajab ohunigoh chashmi,
Sirishki ol to‘kmakka ko‘zim beixtiyor o‘ldi.

Chun ul dildori oy yuzdin judo tushdim, mani muztar,
Na dey: gulzorda ochildi gul-u yoki bahor o‘ldi?

O‘shal yor ishqi yo‘lida shikasta hol Hayronning
Boshi pomoli mehnat, jismi zori ham g‘ubor o‘ldi.

* * *

Yorning labi, ko‘r, la’li badaxshonidan afzal,
Darraj dahani g‘unchayi xandonidan afzal.

Har kim ko‘ra: dandonlarina goho tabassum,
Har gavhari, har lo‘lo‘-yu g‘altonidan afzal.

Yorning moh ro‘yini ko‘ring ro‘yi zaminda,
Ko‘kda aylanur mehri duraxshonidan afzal.

Ul zulfi sumansoya boqing davri ruhinda,
Gulzoraro sunbul-u rayhonidan afzal.

Mahbub qadini ko‘rsa agar qumrin bedil,
Gulshanda bitan sarvi xirmonidan afzal.

Har kaski tutib ko‘yi visolingga tamkin,
Billoh degay ul taxti Sulaymonidan afzal.

Ey shohi zamon, mohi jahon, ko‘rki, Zulayho
Ko‘rsa yuzini, Yusufi Kan’onidan afzal.

Hayron agar tutsa vatan yor eshiginda,
Bo‘lgay ko‘zina ravzayi rizvonidan afzal.

* * *

Ey sitamgar mani rasvoyi jahon aylamasin,
Ko‘zimni yoshini chun Dajla ravon aylamasin.

Hamnishin aylamasin dushman, ey moyayi noz,
Rashkdin jonim olib, bag‘rimi qon aylamasin.

Kun kibi oraziga zulfi chaliponi solub,
Kunni ko‘r, abri siyoh oldda nihon aylamasin.

Noz ila, ishva bila sehr etibon gulzorni,
Ko‘rsatib mo‘jizasin, sarvi ravon aylamasin.

Bir jonim bor edi, ey sho‘xki, olding u zamon,
Yuzki jon dog‘i bu bekasda gumon aylamasin.

Qoshlaring tig‘i sitam o‘lmish, illo kipriging o‘q,
O‘ldurarsan mani, nohaq yera qon aylamasin.

Nechun, ey sho‘x, niqobing ko‘tarursen yuzdin,
Ro‘yi xurshidvashi haqqa ayon aylamasin.

Olmasin aqlimi boshdin mani ul ofati jon,
Qaddimi dardi-yu hajrinda kamon aylamasin.

Hasrati vasli ila ey, oy, mani Hayronini
Boshi yerda, ko‘zi yo‘lda nigoron aylamasin!

* * *

Qil tamosho ko‘zum, ul sarvi xiromona bugun,
Noz ila azm ayladi sayri gulistona bugun.

Bo‘ylakim man ko‘rganim dilbarimning g‘amzasi,
O‘ldurur oshiqi sargashtani mardona bugun.

Vasling ey sho‘x, biza iydir, iydi akbar,
Aylama zulmi sitam, botmasin qona bugun.

Ro‘zi xushdur go‘zalim, xush et imoningni axir,
Ayla qaro zulfingni qirq shona bugun.

Bazm-u ishrat tuzub, oroyishi komil ila sen,
To shikast bersun yuzing mehri duraxshona bugun.

Ko‘rsa ul ro‘yi mahing garchi Zulayhoi hazin,
Qilmagay aslo nazar Yusufi kan’ona bugun.

Chu niqobi ul ruhi xandon o‘lub bodi sabo,
Rashk yuz berdi yana ravzayi rizvona bugun.

Chun tajalli ayladi fikri ruhing ko‘nglumdin,
Ko‘ziming yoshi urib ta’nalar imona bugun.

Qani bir muolajai g‘amxo‘r na g‘ayr az karaming,
Joniman, ayla tarahhum mani Hayrona bugun.

* * *

Mujda keturdi biza bir qosidi cholok bugun,
Ham dil-u jon tozarib o‘ldi faraxnok bugun.

Ruxsori nur ko‘ngulda chu tajalli ayladi,
Gard-u qudurat ketib, qalbimiz ham pok bugun.

Ketdi ul ko‘hna g‘uboreki ko‘zimda bor edi.
Nuryob ayladi ul diydayi namnok bugun.

Alloha hamdlarkim, ag‘yor g‘amgin-u xor,
Rashkdin muddaining ko‘ksida sad chok bugun.

G‘ussadin dushmani dun o‘ldi parishon bu tun,
Karami do‘st etmish dushmanni g‘amnok bugun.

Yor bu bazmi vadu may-la muzayyan ayladi,
Shavq ila na falakka faxr etar xok bugun.

Bu ne’mata shukr ayla, Hayron, har subhi Muso,
Na ajabdir ayladi gardishi aflok bugun.

* * *

Jon zora kelur, toki u jonona qayitsin,
Rahmi kelibon holi parishona qayitsin.

Ko‘rdi yuzini, ayladi tark jismimi ko‘nglum,
Yuz burma unga, to dili devona qayitsin.

Yo Rab, na o‘lur holi uning ayriliq ichra,
Bechora agar birda vayrona qayitsin.

Parvoz qilib to‘tii ta’bim bu chamandin
Xoli labi ko‘rsat, unga bir dona qayitsin.

Yo Rab, na o‘lur daf’i xummorina firoqning,
Soqiy karam birlaki paymona qayitsin?

Gulzori visolingda uchib murg‘i hayotim
Ul gah tuni oy shu’la gulistona qayitsin!

Majnun bo‘libon hajrida cho‘llarga adashdim,
Ey, bor xudo, rahm ayla, farzona qayitsin!

Chun butkadadan ka’baga azm ayladi Hayron,
Bir lutf unga aylaki, mardona qayitsin!

* * *

Go‘zal yorim, ruxingdan ol niqobing,
Ayon bo‘lsin yuzi ko‘k oftobin.

Tamanno ayladim, dilbar, xudodan,
Ikki dunyoda bo‘lsin komyobing.

Firoqingdan kunim kecha bo‘libdur,
Yo‘qotmishdir vujudim chunki tobin.

Farmoyish yo‘llaganding qosiding-la,
Sevinchimdan tilim topmas javobin.

Kuning vaslingga yo‘l yo‘q, o‘g‘rilardek,
Tunin tush ichra ko‘rdim vasli xobing.

Yurak qonim sening gulgun mayingdir,
Bo‘lib ey yor, ko‘ngil murg‘im kabobing.

Hazin qalbin senga baxsh etmish Hayron,
Shu bois bitmagay darding, azobing.

* * *

Ey, falak dard-u g‘amim sharhini jonona yetur,
Zabt qil mulki xirojini u sultona yetur.

Dame yo‘q tob-u tovon jismi zaifimda manim,
Yoki ol jonimi, yo dardimi darmon yetur.

Ruhparvardi labi vaqti tabassumda sabo,
Ruhi bu tandin olub, ul labi xandona yetur.

Ko‘rdi ul zulfi ko‘ngul o‘ldi parishon holkim,
Bu parishonligimi zulfi parishona yetur.

Zulfi ro‘ying ayladi mazhabimi shiyt manim,
Yo mani kofir ayla, yo tag‘i iymona yetur.

Ketdi ul Yusufi mahro‘y, ko‘zum yig‘lamaz,
Hunob chekarin jaxd ayla, amona yetur.

Buncha Hayron hazin yor ko‘yinda yonmasin,
Gulshani jonda bitan sarvi xiromona yetur.

* * *

Bu na ruxsori zebodir, bu na zulfi parishondir,
Magar xurshidi raxshon abri nayson ichra pinhondir.

Taolilloh, bu na abru, na chashmu, bu na mujgondir,
Bu na labdir, na dandondir, va yo lo‘lo‘yu g‘altondir.

Biri xanjar, biri ohu, biri shamshiri burrondir,
Ki billur huqqa ichinda misli la’li Badaxshondir.

Kamandgardi jon donayi murg‘i dil shaydo,
Va yoki xoli hindudir, yo zulfi anbarafshondir.

Tushub ruxsora zulfi mushkbori pech-u tob ila
Va ganj uzra qo‘yib boshin yotar bir mor pechondir.

Araqdin qatralardir sahifayi ruxsorida, yokim
Sahobi zulf aro xurshid ro‘yi zarraafshondir.

Bo‘yingdek bir qadi zebo ko‘rinmas dahrda aslo,
Zi sunni qodiri yakto niholi gulshani jondir.

Sening lafzi guharboring hamma jonsizni tiriltgay,
Dami Isoyi ruhilloh va yoki obi Hayrondir?

* * *

Zulfing pechi ochilsa ajoyib kamand o'lur,
Yuz saydi dil u silsilada poyiband o'lur.

Havoni tutar tuman, tog'lari tutar to'zon,
Samoga dudi dilim chirmashib baland bo'lur.

Ko'z yoshim etdi yakson xok ila Shahandni,
Sayl yo'li xor-u xas-la necha band o'lur?

Nola-fig'onda bulbul hushdin judo bo'lg'ay,
Har vaqtkim ul la'li labing nimxand o'lur.

La'l labingda bormu va yo y hayot,
Bordirki, bu nav shakkar ham na qand o'lur.

Boshdin oyoq-la jumla taning dil pisandadir,
Har dilrabodan biri magar dilpisand o'lur!

Hayroni notavonni lutf ila aziz ayla,
Qadrin bilki, har oshiq ishqda dardmand o'lur.

* * *

Xunxor chashming ohuyi dashti totordir,
Saydi dilim ul ohu uchun beqarordir.

O'lmish ko'ngul muqayyadu sarxush nigoh vah,
Mo'jiza budurki, ohuga ohu shikordir.

Moh ruxingdan ayrilali ro'z-u shab ishim,
Gohi fig'on-u nola, gahe oh-u zordir.

G‘amzang o‘qi Rustami doston xadangidir,
Agarcha dil uch didai Isfandiyordir.

Ko‘nglum qushi ko‘randa chu zulfing kamandini
Oh-u fig‘on-u nolada beixtiyordir.

Tushmish niqobi yuzdin ul mohning sahobvash,
Ayla nazzora, ko‘r, na ajab navbahordir.

Maxmur chashm-u la’l labi, sarvqad javon
Ro‘yi zaminda gar bunday kas bor, u yordir.

Hayron sana asirdi ro‘zi alasdin,
Pinhon degil bir ishdi buki oshkordir.

* * *

Ishqi ruhi jononki, na tug‘yon aylamishdir,
Qalbim o‘tini otashi so‘zon aylamishdir.

Xurshidki sufida va yo tiyra shabrang,
Ruxsorina dildor parishon aylamishdir.

Yoqut labi yor duraxshon o‘lubdir,
Yo bodi sabo g‘unchani xandon aylamishdir?

Ul chehrayi gulrang edi, yo lutf ila xoliq,
Mashriqdan ikki subhi namoyon aylamishdir?

Ba’zilara bu charx qilub masnadi qismat,
Manzil biz uchun ko‘hi biyobon aylamishdir.

Furqat sitamidan qadimiz dol-u dunundir,
Hijron alami bag‘rimiz qon aylamishdir.

Ul moh magar ta’ziya Hayrona tutubdur,
Tiyra sen uchun zulfi parishon aylamishdir.

* * *

Ishqing, ey sho‘x, bu dili puog‘amdamidur?
Bilmiram manzilini: jondami yo tandamidur?

Iytirib murg‘i dili topmiram, ey moyayi noz,
Justujo‘ ila ko‘r, ul sunbul purxandamidur?

Qomating bukdi belim, orazing so‘ldirdi mani,
Sarv-u gul-u qadd-u ul oraza monandamidur?

Jonu mol-u mulkimni sanga ehson dedim,
Joni noqobilimiz bu bayga arzandamidur?

Bulbuling, qumrilaring sho‘ri tushib ofoqa,
Qil rahm, sarvi qadim bu kecha gulshandamidur?

Vasliga shod, vale furqatida noshodam,
Bilmiram: sansiz ishim nolamidur, xandamidur?

Aqlimi boshdin olib, ulusga rasvo aylading,
Bu gunoh, dilbariman, sandamidur, mandamidur?

Oshiqi o‘ldiradursan, vaslila shod etmayasan,
Sandin, ey sho‘x, buncha zulm xush oyandamidur?

Istadi sidq ila qurbon o‘la ul shoma bugun,
Ko‘r, fido o‘lmog‘a Hayron barozandamidur?

* * *

Yetib mujdayi xonbaxshki, jonon kelur,
Jonibi gulshana ul sarvi xiromon kelur.

Ayriliq dardi mani behol, yuexob ayladi,
Bu dili purdardima etgali darmon kelur.

Qop-qaro zulfin to‘zitmish o‘ynashib bodi sabo,
Mehrtek moh yuzi o‘ldi daraxshon, kelur.

Qomati sarvi sihi, zulfi kamandi jon-u dil,
Yuzi gul, qoshi kamon, kirpiki naykon kelur.

La’l labi durlar sochib, kulgusi husnin ochib,
Sahni gulzor o‘lub gullari xandon, kelur.

Ko‘rsatib orazini, yorutib yer yuzuni,
Kun tulu’ etdi, aflokdan yera tobon kelur.

Xanjari noz ila g‘amza o‘qin otmish ollina,
Oshiqin qasdida bir ofatî davron kelur.

U na qutdir deyalar yoritur shavkat ilan,
U na kundir deyalar ul shohi xo‘bon kelur.

Gar yetishsang ul shah xizmatina, boshing nadir,
Ayla Hayron jonki sen unga qurbon, kelur.

* * *

Dilim bir bulbuli beoshiyondur,
Unga har gul butog‘i bir makondur.

Chu dilbar ketdi, imon-din ketdi,
Dil-u jon izma-iz yo‘lga ravondur.

Sevar yorim pariro‘lar ichinda,
Shahanshohi zamin-u osmondur.

Ko‘zi sarboz jangchi, g‘amza xunrez,
Sitamkor, sangidil, nomehribondur.

Nigohi fitna-yu xoli fusunkor,
Va lekin g‘unchalab, shirin zabondur.

O‘lar bo‘lsam agar, bilsinki do‘stlar,
Meni qatl aylagan qoshi kamondur.

Necha arz ayladim dardi dilimni,
Ki holim yorima butkul ayondur.

Na bir gulshan tomoshasin tilar dil,
Na maylim so‘yi sarvi bo‘stondur,

Na zebu dunyoviy, na huri jannat,
Na mol-u mulki na ganji jahondur,

Tamannoi dilim ikki jahonda,
Visoli ro‘yi yori mehribondur.

Sira Hayronda yo‘q bir o‘zga orzu,
Seni jonon degay to borki jondur!

* * *

Ey, charx, mani oh-u shararborima rahm et,
Hijrona yonan siynai afgorima rahm et.

Tasbeh kibi yulduz sanaram fikri ruxinda,
Hijron kechasi diydayi bedorima rahm et.

G‘urbat alami, yor firoqi ila kuydim,
G‘urbatda qolon joni giriftorima rahm et.

Tanho qolibon, bekas o‘lub yordin ayru,
Bekasligima, hasrati bisyorima rahm et.

Ashk birla har tarafa sayli ravona,
Chun abrsifat chashmi guharborima rahm et.

Hijron-u ruxi yodi mani ayladi behol,
Yetkur mani ul munisi g‘amxorima rahm et.

Yuz zahmat ila xomush o‘lub bu dili vayron,
Hayron! Fig‘on ayla, dili zorima rahm et!

* * *

Marhabo, etmish tulu’ go‘yo zaminda, moha boq,
Yuz ming istig‘no ila o‘lmish ravon ul shoha boq.

Turdi yerdin, shavq ila peshvoz uchun o‘ldi ravon,
Bildiki, jonon kelur, san bu dili ogoha boq.

Bazm aro hamsuhbat o‘lmish mandin ul dildorima,
Har zamon badgo‘lik aylar, ul saki baxoha boq.

Dilbarim, bori sen ag‘yor so‘zina tutma quloq,
Bu qadar zulm aylama, xayr ayla, bir Alloha boq.

Dushmani dun hamnishin, hamroh-u hamdam muddai,
Hamnishina sayr qil, bil hamdam-u hamroha boq.

Qo‘rqmas Allohdin u zolim, sharm qilmas xalqdin,
O‘ldi saddi rah biza ul kofiri gumroha boq.

Aqlimi oldi, sirimdan o‘lmadi qoneki na,
Istadi qonim to‘kay, matlubi ko‘r, dilxoha boq.

Ro‘zi shab Hayron duogo‘ydur anga, lekinki na
Istamas otin eshitsin, nafrat-u ikroha boq!

* * *

Ketar aqlim boshimdan orazi ruxsorini ko‘rgach,
O‘lur holim parishon zulfi anbarborini ko‘rgach.

O‘chur rangim yuzimdan vasla yetdikcha ey, dilbar,
Tizim titrar, tilim loldir, sening diydoringi ko‘rgach.

Qolar nutqi malohatdin, azizim, to‘tii xushgo‘y,
Chamanda lol o‘lur bul bu sening guftoringni ko‘rgach.

Chu ko‘rsa rang-u ruxsoring, so‘lar rangi guli xamro,
O‘lur pajmurda sunbul turrai taroringni ko‘rgach.

Jilvagar xushai parvin banot ul na’sh o‘lur barham,
U mohi orazingda jobajo xolloringi ko‘rgach.

Gulistonda sanobarlar hasaddan kaj bo‘lur, yig‘lar,
Bo‘lur sarvin qadi ham jilvai raftoringi ko‘rgach.

Bu xalqi xoliqi subhon sana chun aylagay ehson,
Etur jonin fido Hayron saning avtoringi ko‘rgach.

FORSCHA G‘AZALLARDAN TARJIMALAR

Urdi bu dahr aro bu falak pushti ham menga,
Jolam bila u kalisoya zahr-u alam menga.

Firoqi yor bir yona, ag‘yor shodligi bir so‘y,
Bas o‘lmadi bu qadar jafo-yu sitam menga.

Tutashdi furqata tanim; goh boz mehnata,
Qildi zamona zahr-u sitam damodam menga.

Firoq yoqdi bu jismim, zabun o‘ldi toleyim,
Bir lahza forig‘ o‘lmas qismatdagi g‘am menga.

Vasling lazzati komai shirin qilmamish,
Hajring ichirdi sharobi g‘am-u lojaram menga.

Majnun kabi dashti alam sarvari o‘lub,
Vahshu tayr o‘ldilar xayl-u xasham menga.

Hayron, firoqi yor chekib, tarki jon ayla,
Ki bu umri darozimdan xushdir adam menga.

* * *

Arzi holimni ayting o‘shul jononamizga,
Ogohi hol bo‘lsin dili devonamizga.

Yuzin vasliga yetsak, hamxona sharob ichsak,
Charxi falak to‘lsa oh-u mastonamizga.

Bazmi visoli birla shod o‘lmadi bu ko‘ngul,
G‘am bodasi labo-lab toshdi paymonamizga.

Goh siynaga urib tig‘, bag‘rimni chok-choklab,
O‘lub taqdir azal g‘am panjasi shona bizga.

Quygaydir olam ahli bu hasrat-u g‘amimdan,
Rahm etmasa agar ul buti farzona bizga.

Mashhuri olam o‘ldi holi dilim, na chora?
Parvosi yo‘q sanamning ishq-u afsonamizga.

Ul moh karam qilsa mehridan zarra-zarra,
Mehmon bo‘lsa lahza ul oy xonamizga.

Men zoriga muyassar o‘lganda lutfi yorning,
Yetmasmi naq falakka kamtar koshonamiz-da!

Lol o‘ldi-yu sitamdan bulbul ta’bli Hayron,
Shavq otashinda ko‘ydi pari parvonamiz-da.

* * *

Ey, murg‘i Sulaymoni, uchgil-da parafshon bo‘l,
Bor xizmati jononim, hushvaqt-u g‘azalxon bo‘l.

Ey, jon-u dili g‘amgin, darmon o‘zingga topgin,
Hamsuhbati mug‘bacha, hamxonai rindon bo‘l.

Odamga sochib otash, poklan-da, dili beg‘ash,
Davronga na bir dardkash, na xodimi sulton bo‘l.

Ey, xotiri g‘amparvar, o‘zdan kechibon bir sar,
Na vasli tamonno qil, na-da g‘ami hijron bo‘l.

Dunyodan etak qoqqil, mayxonaga yuz yuurgil,
Na tolib-u mazhab bo‘l, na doyayi iymon bo‘l.

Istarsan agar iymon, dunyoga diling ehson,
So‘ng tavba-tazarru qil, ham qayta pushaymon bo‘l.

Olamga kelib qayta, na g‘ussa chekib, na g‘am,
Vasli ruxidan har dam oshuftai hayron bo‘l.

Na bahri muhabbatda g‘arq bo‘l, yo najot topgil,
Tark ayla hama koring, bor xizmati jonon bo‘l.

Istarsan ayon bo‘lmoq, yo nom-u nishon bo‘lmoq,
Ham ahdu va hammaslak ham dar sari paymon bo‘l.

Xoli ruxiga hayron naqdin sochib bearmon
Ulki shohi mohro‘yon, Hayron, unga qurbon bo‘l!

* * *

Ja’mi mohro‘ qatorinda o‘zing sardaftari xo‘bon,
Yuzingni hur sifat desam, gajag zulfing erur chavgon.

Jamoling misli gulshandir,
ne gulshan — qonli gulshandir,
Ne kondir — xuni Yusuf,
ne Yusuf — Yusufi Kan’on.

Ko‘zingda ikki zolimdir, ne zolim — zolimi kofir,
Ne kofir — kofiri rahzan, ne rahzan —rahzani imon.

Labi la’ling bir g‘uncha, ne g‘uncha — g‘unchayi ravza,
Ne ravza — ravzai jannat, ne jannat — jannati rizvon.

Labing xoli erur hindu — hindu-yu sohir,
Ne sohir — sohiri fitna, ne fitna — fitnayi davron.

Zaboning misli bulbuldir, dahoning chashma monanddur,
Ne bulbul — bulbuli xushgo‘, ne chashma — chashmayi hayvon.

Senga oshiq erur Hayron, ne oshiq — oshiqi bedil,
Ne bedil — bedil-u vola, ne vola — volayi Hayron[1]!

* * *

Bir oy yuzli ilinjida nigohim bor,
Saharlar, kechalarda nola-ohim bor.

Ki bir sarvi qadim deb tunda oh chekdim,
Bu ko‘ksim ichra dog‘, ko‘zda siyohim bor.

G‘azab etdi u sho‘x, tushdi dilim nogoh,
Ki Yusuf mislidirki, bandi chohim bor.

Lutf ayla, bu kulbamga nazar qil,
Ki sen deb ofati jon, goh-begohim bor.

Lab-u xoling va zulfingga asirmen,
Bu bobda necha odil guvohim bor.

O‘kib qon, tig‘i nozing o‘ldururkim,
Ayt, mehrimdan o‘zga ne gunohim bor?

Ko‘rib ag‘yorni xor, ko‘zi yoshlik,
Shukr, baski anga azob-johim bor.

Alam, hijron, balo dashti diyorim,
Ishqda shohman, g‘amdan sipohim bor.

Bu banda Hayron-u oy yuzga oshiq,
Ko‘zim bog‘liq, umedidan panohim bor.

[1] “Hayron” ozar tilida “oshiq”, “shaydo” ma’nosini anglatadi. Ko‘p o‘rinlarda Hayron taxallusi “oshiq”, “shaydo” ma’nosida so‘z o‘ynini bildiradi.

* * *

Nasim essa agar ko‘yingdan, ey sho‘x,
Qilur parvoz ruhim so‘yingga, ey sho‘x.

Gul-u sunbul magar nasrin bo‘lolmas,
Yuz-u sochingni hush bo‘yiday, ey sho‘x.

Topilmas sarvi shamshod bu chamanda,
Qadding monandi, dil jo‘yingday, ey sho‘x.

Xush ul kunki lutf aylab qilibsen,
Kamand bo‘ynimga giso‘yingdan, ey sho‘x.

Ki dushman zahmidan ko‘ksim yarolig‘,
Chekib zahmat, judo ro‘yingdan, ey sho‘x.

Bilur fe’lingni, dil sendan uzolmas,
Fidodir bu xo‘yingga, ey sho‘x!

* * *

Yuzlaring oydir sening nuri daraxshondin xushroq,
Kim saning maygun labing la’li Badaxshondin xushroq.

Hind-u xoling yaxshiroq asli Xo‘tanning mushkidan
Tol-tol kokillaring sunbuli rayhondin xushroq.

Jon bag‘ishlar murdaga shirin takallumi bila,
Ul dahoning g‘unchasi chashmayi hayvondin xushroq.

Kim guliston ichraki toza niholdursan o‘zing,
Qaddi bastingkim sening sarvi xiromondin xushroq.

Ostonangdir va yo jon-u jahon Hayron uchun,
Bo‘ldi ul gulshandan, ravzayi rizvondin xushroq.

* * *

Ikki ko‘zim ko‘p xumordir, ko‘p xumor,
Dilda dog‘im, dog‘dorman, dog‘dor.

Ikki zulfing tobidan holim chigal,
Tobdorman, tobdorman, tobdor.

Ey, aziz yorim hajring dardida,
Dilfigorman, dilfigorman, dilfigor.

Men firoq chekdim yuzing deb, bu falak
Ohdorim, ohdorim, ohdor.

Rahm qil holimga, jonon, o‘lturur,
Intizorlik, intizorlik, intizor.

Bo‘ldi hijroning azobidan qaro,
Ro‘zg‘orim, ro‘zg‘orim, ro‘zg‘or.

Ko‘yida Hayroniman, shaydosiman,
Jon nisorman, jon nisorman, jon nisor.

* * *

Ey, sorbon, rahm aylagil kim manga, yorim ketadir,
Sarvi qaddim ortidan sabr-u qarorim ketadir.

Ul navjuvon qayg‘usida tan bo‘ldi zori, notavon,
Zulfi g‘amida dil nihon, jon oshkorim ketadir.

Lashkar tuzub dard-u alam, qaddim o‘lub hajrida ham,
Qon yoshlarim yuz Dajladek toshib har sori ketadir.

Ahdini ul buzgan kuni hajrini bo‘ldim tutquni,
Nastarin gulmi va yo ko‘rgil, nigorim ketadir.

Hayron qolib hijron aro so‘z aydi mundek mubtalo,
Ul sarvi qaddi mohro‘ ul gulzorim ketadir.

* * *

Naylayin bo‘ldim yana yordan judo,
Bulbuli zor tushdi gulzordan judo.

Ey falak, xonamni vayron aylading,
Oh yana etding-ku dildordan judo.

Ko‘zlarimdan to‘kilur hijron yoshi,
Sargashta yel, abri guharbordan judo.

Furqatimdan nola qoldi bog‘ aro
Bulbuli zor, xor sitamkordan judo.

Barchani yig‘latdi dard-u hasratim,
Yor g‘amxor, dushmani xunxordan judo.

Shum raqibimdan xalos bo‘lsamki kosh,
Yor, iloyo, tushsin ag‘yordan judo.

Ne qilay, dard-u alam Hayroniman,
Shum falak etdi mani yordan judo.

SHIR-U SHAKAR
G‘AZALLAR

Ey, do‘st, baman bikun nazora,
O‘ldi jigarim hazor pora.

Az hajri ruxat dili hazinam,
Shu’la sochibon, to‘kar sharora.

Xohamki zi dil fig‘on baroram,
To o‘t tushar dasht-u ko‘hsora.

Az furqati tu baraft jonam,
Ey, do‘st, bu darda bormu chora.

Layli tui, jumla oshiqonat
Majnun kibi tushdi ro‘zigora.

Harchandtarast jumla ushshoq,
Bir men kabi yo‘qdi baxti qora.

Dar rohi tu mond chashmi Hayron
Qil chora bu dardi intizora.

* * *

Ey, bodi sahargohi, ey abri pora-pora,
Ay ro‘yi mehribone bar man baqun nazzora.

Bir holima nazar qil, ul ko‘ya bir guzar qil,
Arz ayla hol-u zorim ul bevafo nigora.

Chashmam chu ro‘di Jayhun gardida ast purxun,
Kashtam zi javri gardun az doston kanora.

Farhodtek bu tog‘ni maskan tutub o‘tirdim,
Majnunmisol tushdim ham dasht-u ko‘hsora.

Nabud dar in zamona monandi man jafokash,
Nabud ba ro‘yi olam chun man siyo sitora.

Chun bulbuli shikasta man bekas-u figoram,
Qildi u guldan ayru, la’nat bu ro‘zigora.

Parvonavor so‘zon dil dar firoqi ro‘yash,
Az ishqi on sitamgar Hayron bikash sharora.

* * *

Ey, jumla faqirlar panohi,
Monandi tu nest podshohi.

Cho‘x hasrat-u orzu chekardim:
Yodam bakuni tu goh-gohi.

Bu marhamata mani shikasta,
Che nav namoyam uzrxohi?

Mani bekasi chu yod qilding,
Qurboni sarat shavam ilohi.

Xush tegdi bu siynamga xadanging,
Kardi chu baro‘yi man nigohi.

Ko‘yingda tushubdur dasta-dasta,
Az zamrai oshiqon sipohi.

G‘ayr az sanga sajda etmayubdur,
Hayron hazin digar gunohi...

* * *

Ishqingda ne zor-u g‘amgin man,
G‘oyatda latif-u nozanin san.

Dar majmui jumla xo‘bro‘yon,
Xurshid jamol, mohjabin san.

Madhu tu digar ba vasf naoyad,
Ta’rifda mohi begarinsan.

Inson nabud ba in nazokat,
Ey, sho‘x, magarki huri iynsan.

Noyob budiki chun tu gavhar,
Lo‘lo‘i taru durri saminsan.

Na husn-u jamoldurur, bu ammo
Ne foyda xo‘yi otashinsan.

Az yor judo shudan ba nakom,
Hayron faqir san g‘amginsan!

* * *

Ey mehtari behtari zamon,
Rahm ayla faqiri notavona.

Har dame turo nabinam ey, do‘st,
Afg‘onni yetiriram osmona.

Bar charx bar in kamand afkand,
Har ohki chekdim oshiqona.

Xanda zi labi shakarfishonat,
Soldi necha ko‘ngluma gumona.

Monandi ruxat mahi du hafta,
Billohki, kelmamish jahona.

Dil xun sozadu xun birezad,
Ul sarvi qada budir nishona.

Hayron chu bidid moh ro'yat,
O'ldu yana ishq aro fasona.

* * *

Chun bulbulamu dar oshiyona,
G'am o'qlarina siynam nishona.

Ey dil, tu bibin, chiguna monand,
Abro'yi muqavvasi kamona.

Jono, suxonat dilfiribat,
Qildi mani dahrda fasona.

Tanho na maro, hazor chun man,
Majnun kabi aylading devona.

In xastai zor notavonro,
Billoh, keturmisan omona.

Az xuni jigar navishta noma,
Ul joniba ayladim ravona.

Hayronki asiri ishq kushta,
Otash ichida kelar zabona.

MUXAMMAS

Sahar sayri chaman qildim, guli miynoya mengzatdim,
Fizoyi bo'stonni bilmadim sahroya mengzatdim,
Jamolin ko'rgach ul yori malak siymoya mengzatdim,
Nazar qildim: qoshin toqin chizilgan oya mengzatdim,
Xumorlanmish ko'zin bir nargisi shahloya mengzatdim.

Ko'ngul chun tang o'lub ul damda sayri guliston etdi,
Havasim poymol o'ldi, boshimdan aql-u hush uchdi,
Dilim yuz iltijo birla visolini so'roq etdi,
Esib bodi sabo gul chehrada zulfini to'zg'itdi,
Sahobi tiyradan etmish tulu' bir oya mengzatdim.

Yetishdi arshi a'loya mani bedil chu oh etdim,
Yorug' dunyoni bu baxti zabunimdek siyoh etdim,
Boqib ruxsorina yorning naziri mehru moh etdim,
U zulfi mushkbori davri ro'yinda nigoh etdim,
Xayoli mushki Chin etdim, shabi yaldoya mengzatdim.

Yoqib sham' visola jonimi parvona etdim men,
Jamoli vasfini dilda ajab afsona etdim men,
Ko'ngil murg'ina ul zulfi siyoni dona etdim men,
Labin kunjindagi xolin xayoli xona etdim men,
U dildorning jamolin men guli xamroya mengzatdim.

Taoliloh na xush xulq ayladi bu xoliqi subhon,
Magar ayni malakdir var na o'lmas bir budek inson,
Chiqib sayri gulistona, etib yuz noz ila javlon,
Qadam bosdiqcha gulzora u dilbar chun mohitobon,
Niholi qomatin sarvi sihi boloya mengzatdim.

G‘amim ag‘yordan harchand yashirdim men, nihon etdim,
Ko‘rub poyona yetmas ishqimin sirrin bayon etdim,
Kecha to subh o‘lguncha nola chekdim, al’amon etdim,
Chu Hayron nola etdi, bulbuli shaydoya mengzatdim[1].

[1] Muxammasning bir satri topilmagan (*mas.muh.*).

TARJI'BAND

Afsus, o'tar-ketar bu foniy jahon!
Etdi yuragimni qon to'la ummon.
Ayirdi hushimdan yor ishqi meni,
Majnun kabi bo'ldim el ichra doston.
Chekdim karvonimni biyobonlarga,
Yana aql bo'ldi o'zi sorbon.
Boshladi u meni butxona sori,
Mayxonada kelib dayr piri hayron,
So'radi: Darding ne? Qani sevgiling?
Uningsiz ne kechar holing! Et bayon!
Dedim: — Ahvolimni so'rmagil, ey, do'st,
Qaro qildi shabu ro'zimni hijron.
Na tob-u tovon bor menda, naki jon,
Bor esa chorasi, aylagil darmon!
Dedi: — Mushtoq esang gar xush visola,
Iltijo qil, yana chek oh-u nola!

Devona ayladi meni dardi yor,
Umidla bog' tomon ayladim guzar.
Tomosha qilganim nastarin, lola,
Ko'zimga ko'rindi bamisoli xor.
Chaqmoqlar chaqildi tanda, ko'zimdan,
Bahor jalasiday yosh oqdi zor-zor.
Dodimdan uyg'ondi bir shaydo bulbul:
— Ey, yorin izlagan oshiqi bemor!
Ochgil yuragingni, holingni aytgil,
Yorsiz ne baloga bo'lding giriftor!
So'yla, tomog'ingdan hatto suv o'tmay,
Tark etdimi tamom orom, ixtiyor?
Dedimki, hijrondan so'z ochma, ey do'st,

Dardimga chora top, bo‘lgil madadkor!
Dedi: —Mushtoq esang gar xush visola,
Iltijo qil yana, qil yana nola!

Mag‘ribga yo‘naldi oftob ham ravon,
Shafaqni qizartdi shu’lai alvon.
Nola chekib oxir ketdim majlisga,
Ko‘nglim yozilar deb, bo‘lay deb shodmon.
Majlisda do‘stlarni jamuljam ko‘rdim,
Faqat ko‘rinmasdi ul sarvi ravon.
G‘ussadan o‘t olib, tutashdi ko‘nglim,
Yurak-bag‘rim o‘ldi xun to‘la ummon.
Unda parvonaga ayladim xitob:
— Ey, ishq otashida yongan har zamon!
Bor esa sevgiga biror darmoning,
So‘ylaki, bu jonim bo‘ldi-ku so‘zon!
Parvona ko‘rdiki, men ham oshiqman,
Nogoh tilga kirdi o‘sha bezabon:
Dedi: — Mushtoq esang gar xush visola,
Yolvorib chekmog‘ing kerak oh-nola!

Undan ham bo‘lmadi tilak komyob,
Bosh olib sahroga ketdim men shitob.
Cheksiz falaklarga mubtalo boqdim,
Dog‘li yuragimda yuz ming iztirob.
Jam bo‘lib nur sochar edi yulduzlar,
Faqat ko‘rinmasdi o‘shal mohitob.
Hijron o‘ti dilda yondi badtarroq,
Yulduzlarga boqib, ayladim xitob:
— Sizning ham oyingiz mening mohimdek,
Berkindimi tutib yuzlarga niqob?
Yulduzlar charaqlab tug‘yonga keldi,
Mushtariy ayladi so‘zimga javob:
— Ey, ovora oshiq, eshitmadingmi,
Xabaring yo‘qmidir, ey xonaxarob!
Bizni-da kuydirmish ul oy jamolli,

Dardida qalbimiz bo‘lmishdir kabob.
So‘rdimki, bu dardning nedur chorasi?
Bilsang ayt, oshiqqa rahm etmak — savob!
Dedi: — Mushtoq esan gar xush visola,
Yalin, iltijo qil, chek yana nola!

Bedavodir, dedim, dardim, kadarim,
— Ey, sahar nasimi, sen bo‘l rahbarim!
Sening gul nafasing anbar ufurgay,
Poyi garding bo‘lsin bu toji sarim!
Ishonganim yo‘qdir o‘zingdan boshqa,
Sensan sevar yorim, vafoparvarim.
Meni dargohidan quvdi darg‘azab,
Oh u toshbag‘ir yor, zolim dilbarim.
Himmatin bas qildi, ahdini buzdi,
Jafodan suv bo‘lib oqdi jigarim.
Sen obor o‘zing-la, poyida esay,
Zora tinglasaydi ul jafokorim.
Degil, bu dardima bir chora qilsin,
Na boshda hushim bor, na dilda sabrim.
Ma’yus, dilgir boqib men ovoraga,
Shunday shivirladi subhi sarvarim:
— Agar mushtoq esang sen xush visola,
Yolvorib chek yana dard, oh-u nola.

Nasim ham dardimga topmadi chora,
Amr etdim yurakka: — chek qo‘y bu zora!
Yurak tilga kirdi ko‘z yoshi to‘kib:
— Ajib bechoradirsan, ey bechora!
Kim toqat topolgay bu ayriliqqa?
Mehr ko‘rguzmishdir kimga mohpora?
Tamom bexabar o‘z g‘avg‘olaridan,
Sevgining dardidan ul zulfi qora.
Bir sitamkor ohu, bir g‘addor malak,
Hajridan bu yurak aylandi nora.
— So‘rdim yuragimdan, ne qilay, axir,

Bas men kuni qora, bas men ovora!
Sabr-u qarorimni oldi, ne aylay
Xasratda jonimni olgan xunxora?
Dedi: — Mushtoq esang gar xush visola,
Yalingin, yolborgil, chek yana nola!

* * *

Niyozu arz-u hol kor qilmadi hech,
Umrimni puch qildi bu jang-u jidol.
Na qoldi tanimda tob-u tovonim
Va na bir tarafli ayladi xayol.
Ko‘rdingki, sarg‘ayib so‘ldim shunchalar,
Furqating ayladi oyimni hilol.
Topshirding umrimni hijron qo‘liga,
Bo‘ldi hijroningga bu jonim halol.
Tunlari tasbehday tizildi yoshim,
Oh-nola bir nafas bermadi majol.
Ko‘ngil uzdim axir qora baxtimdan,
Nasib etmas, dedim, endi hech visol.
Men ishq otashida qovrilgan choqda,
Qulog‘imga keldi g‘oyibdan bir fol:
Dedi: — Mushtoq bo‘lsang gar xush visola,
Yolvor, yalin yana, chek yana nola!

XURSHIDBONU NOTAVON



XURSHIDBONU NOTAVON

(1832–1897)

Qorabog‘ xoni Ibrohimxalil Javonshir oilasiga mansub shoira Shusha shahrida tug‘ilgan. Otasi Mahdiqulxon vafoti (1845)dan keyin unga doxil mulklarni boshqarish huquqiga ega bo‘lgan. Biroq Rusiyaning mustamlakachilik siyosati tufayli uni boshqarish nasib qilmagan, 1848-yildan Kafkazorti yurtlarining ma’muriy markazi Tiflisda yashagan shoira Hasayxon Uşmyevaga turmushga chiqqan. Markazda ikki yilcha yashagach, sog‘ligini yaxshilash maqsadida yana Shushaga qaytgan. 1855-yili shoira Bokuda mashhur fransuz adibi Aleksandr Dyuma bilan uchrashgkan. Dyuma xotiralarida “onasi 40, qizi 20 yoshlar atrofida bo‘lgani, ular qo‘lidagi farzandini xuddi qo‘g‘irchoq kabi o‘ynatib turishi”ni yozadi.

Avval onasi (1861), so‘ngra turmush o‘rtog‘i (1866)dan ajralgan shoira Sayyid Husayn ismli kosibga turmushga chiqqan va Shusha shahridagi “Majlisi uns” (“Do‘stlar majlisi”) adabiy to‘garagida faol ishtirok etgan. Xurshidbonu shoirlikdan tashqari musiqa, rassomlik, badiiy kashtado‘zlik, ko‘ylakka bezak berishda mohir bo‘lgan. 1885-yili o‘g‘li Mirabbos vafot etgani shoira asarlaridagi dilxun baytlarning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan. Shoiraning marsiyalariga ozarbayjon shoirlaridan Mirza Rahim Fano, Mirza Sodiq Piran, Behud, Vahdatiy, Dilxun, Muniriy, Xayoliy va boshqalar naziralar yozib, unga tasalli berganlar.

“Xon qizi” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan shoira “Majlisi faromushon” to‘garagini moddiy jihatdan ta’minlab turgan, Shushaga suv chiqargan, “Xon qizi bulog‘i” nomi bilan tanilgan suv ta’minotini ishga tushirgan.

Xurshidbonu Notavon o‘zgarayotgan davr she’riyatida mumtoz g‘azallarga yangicha ruh bag‘ishlagan, xalq hayoti jonli manzaralarini she’riyatda aniq va go‘zal aks ettira olgan shoira sifatida qadrlidir.

G‘AZALLAR

O‘zini ishq oloviga urib dilshod parvona,
Ajab bir bora yonmoqdan o‘lur ozod, parvona.

Har oqshom ko‘rdi majlisdaki, sham’ ag‘yorga yordur,
Shu vaqtdan kasbi so‘zonlik qilur bunyod parvona.

Senga ey sham’, malomat qildilar ma’shuq oldinda,
Agarchi xirmani umring bo‘lur barbod, parvona!

Dema, ma’shuqa beparvo, u sham’ga yuz malomatdan,
Uzib jon tasbeh yanglig‘, vafodan shod parvona.

Bilib sham’ning vafosin, jism-u jonin o‘t aro otdi,
G‘ami hijron dami vaslatda etdi yod parvona.

Jafoi hajridan jong‘a yetib, shavqi visol birla,
Erib sham’ gulxanida, etmadi faryod parvona.

Yonar chun Notavon xasta mudom ishqning olovida,
Sabur o‘l, ayla odat shevai ustod parvona!

* * *

Bu dardim bilguvchi yo‘qdir bu holatda, bu holatda,
Dilimda hasratim ko‘pdir bu furqatda, bu furqatda.

Nechun ahvolimi bilmas, u mohi mehribon kelmas,
Nechun dodimga evrilmas bu muddatda, bu muddatda.

Ketubdir toqatim tizdan, tamom so‘ndi ziyo ko‘zda,
Nechun ko‘ngil uzur bizdan bu g‘urbatda, bu g‘urbatda!

Degil yori vafodora, lutf etmasin u ag‘yora,
Karam qilsin mani zora bu xiffatda, bu xiffatda!

Yiqarman charxi osmonni, buzarman yer-u vayronni,
Yo‘liga tikmisham jonni, bu mehnatda, bu mehnatda.

Ko‘zimda intizorim bor, dilimda iztirobim bor,
Raqiblar yor, men ag‘yor bu g‘aflatda, bu g‘aflatda.

Vatandin mosuvo bo‘ldim, so‘rog‘ingda ado bo‘ldim,
Shirin jonim uvol bo‘ldi bu hasratda, bu hasratda.

Meni tashlab firog‘ingda, hamisha ishtiyoqingda,
Umrning shomi chog‘inda bu usratda, bu usratda.

Adashdim hajr tog‘inda, bukildim g‘am yotog‘inda,
Xayol xusning so‘rog‘inda, bu soatda, bu soatda.

Hushim ul yor ila ketmish, yuragim ishq o‘ti olmish,
Vujud ham Notavon qolmish, bu zallatda, bu zillatda.

* * *

Ko‘ngil qonin ko‘zumdan novaki g‘amzang ravon aylar,
Masaldur mardum ichra: “Mast o‘lan albatta qon aylar!”

Ko‘ngil, bilkim, u chashmi mast o‘lub aslo xato etmas,
Sira yo‘q shubha gar qon etmak o‘lsa, qonga-qon aylar.

Agar qosh-u ko‘zing qahr aylasa, ey, mohi nav, bir dam,
Ko‘ngulda fitnalar paydo bo‘lur, har dam fig‘on aylar.

Nihoniy boqmog‘ingdan iztirobi ko‘nglum afzundur,
Na jodudirki, har on kashfi asrori nihon aylar?

Uchib murg‘i dilim qo‘nmish sari zulfi parishona,
Balo sarmanzilinda, ko‘r, na g‘ofil oshyon aylar?

Yuzing girdida zulfing kufra mengzar, tutdi imonni,
Haram ahlini kim bundek ganjga posbon aylar?

Sabo zulfing nasmin gar taratsa vodiy Chinga,
Xo'tan sahrosini mushkin etib, anbarfishon aylar.

Raqibim ko'rmasin bir qatra, yo rab, jomi ishratdan,
Ki, mandin besabab ul mastu sho'xi sagaron aylar.

Degaylar: dardi ishqing odam o'ldirmas, bu ko'p sozdur
Va lekin amr aylar, men kabi zor Notavon aylar!

* * *

Sho'ri ishqing boshima oxiyri savdo keltirar,
Bu mushaxxasdiki, ishq oshiqqa g'avg'o keltirar.

Tori zulfingdur meni bo'yla giriftor aylagan,
Neki kelsa boshima, zulfi mutarro keltirar.

Qosh-u ko'z, novaklaring chun fitnakashlar bir bo'lib,
O'q otib, tig'lar chekib, har biri da'vo keltirar.

Gul yuzing ko'rmak agar mumkin o'lurdi bir nafas,
Har safar ko'rmak uni nuri mujallo keltirar.

Ko'nglimi g'orat etur onchaki zulfing torlari,
Rumog'a misli habash lashkari yag'mo keltirar.

Vaslidan o'zga murod yo'q borsa oshiq ko'yiga,
Bilki, Majnunni biyobon mehri Laylo keltirar.

O'ylama, Yusufni Yoqub yuzini takror ko'rar,
Ko'z bog'lab kirsa bozorga, Zulayho keltirar.

Misr bozorida Yusufni Zulayho oldi naqd,
Naqdi jon oshiq uchun qo'lda muhayyo keltirar.

Sidqi qalb birlan nisor etmish eding jon naqdini,
Notavon bul kun xabar: qatlingga farmo keltirar.

* * *

Sahargoh nogahon ko'rdim dili zorim nihon yig'lar,
Sirishki ol ila har dam chekar oh-u fig'on, yig'lar.

Savol berdim: ne boisdur falakka yetdi afg'oning?
To'kar huni jigar chashming, oqar har yon ravon, yig'lar?

Ko'ngil ogoh o'lub mendan, dedi: — Bodi sabodan so'r!
Sarosima qolib oshiq, chekar oh, al'amon yig'lar.

Sabodin so'rdim ahvolniki, ey har nedan ogoh,
Ne voqedur, kuni qora bo'lib dil notavon yig'lar?

Mudom bodi sabo, ko'rdim, base dilgir-u nolondur,
Takallum yo'q bayon etsa, qolibdir bezabon, yig'lar!

Tutilmish nutqi guftori, dedi: — ey, Notavon xasta,
Nechuk sharh aylayin holimki, jumla ins-u jon yig'lar!

* * *

Kezardim bog'-u gulshanni, parishon hol ila, ko'rdim:
Urib bodi xazon, sarvin quritmish, bog'bon yig'lar.

Tilim tanglayda qotdi-yu tarahhum etdim ahvoli,
Ko'zimga tor o'lib dunyo, damodam jism-u jon yig'lar.

Falak to'foni sindursa agarda gul butog'ini,
Ki, payhon o'lsa gul bargi, etar bulbul fig'on, yig'lar!

Sorg'ardi ravnaqi gulshan, o'chibdur ziynati bog'ing,
Ketib tobu tarovatdan, gul yig'lar, guliston yig'lar.

Yiqilsa charx toqidan, bo'lursa dahri dun vayron,
Bashar toqat topur qaydan, zamin-u osmon yig'lar!

Ilohi ko'rmasin ko'zlar, yomon kundir balo kunlar,
G'am-u kulfat jafosidin jame pir-u juvon yoig'lar.

Adadsizdir g'amim, sharhin bayon etmoq emas mumkin,
Yoz ey, mustavfai a'lam, mudom ahli jahon yig'lar!

* * *

Davot o'lsa agar daryo, daraxtlar gar qalam o'lsa,
Ki, yozgan birla bitmas g'am, qalam har lahza qon yig'lar.

Tanim betob, dil xasta, biror bir g'amguzorim yo'q,
Kima dardimni aytsam men, ketib tob-u tovon yig'lar.

Agarda kavkabi tole' zavol topsa samo ichra,
Falokatga kelib duch, ko'k uza kun ham yomon yig'lar.

Bu devoni g'azovotdir, bu qismat ro'zi avvaldan,
Ki, har dam g'am uza g'amlar yetib, bu Notavon yig'lar.

Tanimdan jon tark etdi, boshimdan aql-u hush uchdi,
Ko'zim ashki ravon zohir, ko'ngil doim nihon yig'lar.

Davosiz dard-u bedarmon, qolib mahzun-u sargardon,
Arastu birla ham Luqmon, Falotuni zamon yig'lar.

Jahonda jame g'amlardan firoqning dardi afzundir,
Shu bosi notavon har dam o'lub nolon, qon yig'lar!

* * *

Ey, guli savsan, seni bir notavon uzmish magar,
Bir mahi oliy maqoma bandivon uzmish magar?

Subhi sodiqda kirib kim bu qasrga beizn,
Tarsaki solmish yuziga bog‘bon, kezmish magar!

Chunki bu gulshanda sargardon kezgan behisob,
Shul sababkim posbonlar hush nishon tizmish magar?

Rang-u bo‘yingdan muzayyandir bisoti bazmi gul,
Xomayi naqqoshi qudrat guliston chizmish magar?

Bu qadar lutf-u nazokatkim saning husningdadir,
Shavq-u ilhom birla vasfing Notavon yozmish magar!

* * *

Hijron bilakim domani g‘am dastrasimdir,
Shodmanki, xayoling, go‘zalim, hamnafasimdir.

Gul ko‘yida bir bulbuli bemoru hazin men,
Afg‘on ila bu go‘shai mehnat qafasimdir.

Jismimdagi nolon yurak nola qilar, chun —
Bir g‘amzada mahmilga osilgan jarasimdir.

Ko‘rmak yuzini fikr-u xayolim kun-u kecha,
O‘pmak oyog‘in moyai shavq-u havasimdir.

Hurshidga yetar boshim, agar chokaring o‘lsam,
Bu martabadan olam aro faxr basimdir!

* * *

O‘tibdur mavsumi gul, ketdi navbahor, afsus,
Qolibdur bulbuli bechora xor-u zor, afsus!

Ne bir orzu, mashaqatda guli ummed ochildi,
Ani bevaqt uzdi gulchini ro‘zigor, afsus.

Behisht bog‘i havasmandi edi zebo gulning,
Ne kundir, gul qaro yerdan topdi qaror, afsus.

Ipak ko‘ylak aning guldek vujudin injitardi,
Ne bedodlikki, gul tuproqqa xokisor, afsus!

Sen Alloh, ey qaro tuproq, aziz saqla quchog‘ingda,
Ko‘zimning ravshani ul, ey qaro mozor, afsus!

Hilol erdi hali to‘lin oy bo‘lmagan erdi,
Botirdi umri to‘lmay charxi ro‘zigor, afsus.

Aning pok ruhi ko‘klarda burji Xurshiddan
Yulduzdek so‘ndi, keng dunyo bo‘ldi tor, afsus!

* * *

Kajravishdir bu davron, afsus.
Bevafodur jahon-u jon, afsus!

Ne yomon dog‘ ekan farzand dog‘i,
Boshima tushdi imtihon, afsus.

Ko‘zim qoldi yo‘lida qon yig‘lab,
Bo‘ldi ul marduming nihon, afsus.

Nomehribon o‘ldi ul menga,
Bo‘ldi xok ila mehribon, afsus.

Ko‘zim nuri, ey hosili jonim.
Chekarman sensiz al’amon, afsus.

Seni lab tashna yod qilganimda,
Ko‘zim yoshi jo‘ydek ravon, afsus.

Yiqildi sarv qadding yer parchin,
Senga tol bo‘ldi soyabon, afsus!

Izzat-u joh-u davlat ichra seni,
Ko‘rmadim aslo komron, afsus.

Xijil sendin umid, orzu, havaslar,
Bo‘lmading hech shodumon, afsus.

Seni og‘ushladi muzday qaro yer,
Mening kuydi dilimda qon, afsus.

Ajal yuldi aning tar g‘unchasini,
Qoldi sargashta Notavon afsus.

* * *

Menga do‘zaxdan yomondir azizim, guliston sensiz,
Bo‘lur har sunbul savsan ko‘zimda bir tikon, sensiz!

Vafosiz dahri dun ichra nasibim gar shakar o‘lsa,
Zahar-zaqqumga do‘ngay, to‘tiyi shirinzabon, sensiz!

Sabab nedur, abas qilding mehrni, mehribon bulbul,
Bo‘lib qumri kabi “huv-huv” yana virdizabon, sensiz.

Ne hushbaxt kunlar erdi yor, visolingg‘a muyassarlik,
Bu hajra mubtalolikdin chiqsaydi kosh jon sensiz!

Aliftek sarv qadding oh qaro yerga nasib etdi,
Nechun orom topar evohki, jism ichra jon sensiz!

Qarordi dudi ohimdin saharlar, nola qilg‘och men,
Zabun ahvolima giryon bo‘lar qarrubiyon sensiz!

Nazar sol, g‘unchayi lola misoli bir-biri uzra
Tizilmish bag‘rima alvon necha dog‘i nihon sensiz!

* * *

Agar hushdur manga atri bila safosi gulning,
Jafosi bisyor-u lekin yo‘q vafosi gulning.

Tikanning zahr zug‘midan tark etdi bog‘ni bulbul,
Qachon kim ko‘rdi bog‘ ichra bir oshnosi gulning?

Xazonga mayl qildi, vafoni ilmadi ko‘zga,
Yetibdur bulbula nechog‘ g‘am-u jafosi gulning.

Ko‘zimdan qon sochildi yuzlarimga ufq yanglig‘,
Qachonki bo‘ldi ko‘nglim zor-mubtalosi gulning.

Yozilsa nuqtama-nuqta, bitilsa harfma-harf, ne tong
Ikki dunyo bitmas sharhi mojarosi gulning.

Uzori olina bir boqsa lol qolur har kim,
Darig‘o, haddan oshdi kulfat-u balosi gulning.

Xato yo‘lg‘a kirib, bulbulni zor qildi,
Pushaymonlik keturdi o‘ziga xatosi gulning.

Ko‘ngil bezovtalikda: bir kuni oxir
Ki, huni bulbul o‘lg‘ay qismat g‘izosi gulning.

Jigar xuni tusin olsa, bo‘yar yerni,
Sochib shu’la quyoshdek, Notavon, ziyosi gulning!

* * *

Yana yo Rab, ne g‘amgindur manim bu shod o‘lan ko‘nglum,
Ramuzi ishqdan ogoh o‘lub, ustod o‘lan ko‘nglum.

Ko‘ribdur: yori ag‘yora bo‘lubdur mahvu nazzora,
Qilibdur ko‘ksini pora manim obod o‘lan ko‘nglim.

Nechunki va'dani buzding, nechun zanjirni uzding,
Ne vajdan dasht aro kezding, manim barbod o'lan ko'nglum!

Firoqing ro'zi mahshardur, sarosar mehnat-u g'amdur,
Qaro zulfingdek darhamdur manim ozod o'lan ko'nglum.

Boqing bu Notavon zora, kuni baxti kabi qora,
Kezar Majnundek ovora manim noshod o'lan ko'nglum!

* * *

Bo'lmisham dahri balo ichra bu kun devonaman man,
Bormadim mayxonaga, sindirmadim paymona man.

Va'dalardan kechmadim, ahd-u qasamni buzmadim,
Shul sabab, nomehribonim, bo'lmisham afsona man.

Tarki gulzor etmisham, bulbul kabi men, ey raqib,
Oqibat bir go'sha ichra kelmisham afg'ona man.

Ishq ruxsorinda bir dam vaslila shod bo'lmadim,
To'rt taraf qiblam bo'lib, tushdim ajab hijrona man.

G'am yukin chekmakdin, ey dil, bir dam ozod bo'lmadim,
Garchi jahd etdim, na hosil, yetmadim jonona man.

Tushlarimda sen kelibsan kulbai ehzonima,
Ul zamon nazr ayladim jon-u dilim qurbona man.

Ko'rmagim dushvordir, billoh senikim, ey raqib,
Zulfiga bog'liq dilim, qo'ygil, tushay zindona man.

Davr-u davron teskari aylandi, koma yetmadim,
Dushmanimdir bilmasam kim, netmisham davrona man?

Bor-u yo'g'imdan qolon yolg'izgina jonim edi,
Notavon, oxir dedim: sarf aylayin mehmona man!

* * *

Murod nedur, falak etmas imtihon tarkin?
Ayyomi gul qildi javri guliston tarkin.

Necha qahrina oldi, jafoni boshiga soldi,
Ajab istarki, qilsa sarv bo'ston tarkin!

Firoqi ichra qoldim, darsim fig'on bo'ldi,
Gul bo'lmaganda bulbul etarmi fig'on tarkin?

Dunyoni tark etarman, bor-yo'g'imdan kecharman,
Mushkuldir ammo qilmoq u nvjuvon tarkin.

Dard-u balolariga giriftor o'lmagim xush,
Toqat qani etarga sirishki ravon tarkin?

Nedurki ganji ruxin ko'zdan nihon qildi,
Xazinador qilg'aymi hech posbon tarkin?

Qadim masaldurur bu: ko'ngul bo'lur xarobot,
Gar qilsa mamlakatni shohi Xisravon tarkin!

Bois nadurki, buzding do'stlik rusumlarini,
Sabr-u qaror-u tovon qildi Notavon tarkin!

* * *

Kel, rahm qil endi, podshohim,
Tutdi osmonni dudi ohim.

Sen yor ila zavq-u safoda,
Men bunda javr ila jafoda.

Avvalda qilib sen oshnoliq,
Endi qilasenmi bevafoliq!

Kimdan xato o'tdi, podshohim,
Aytg'il, nadur ayb-u gunohim?

Naylasin emdi ayt, bu dili zor?
Kimlar ila, boq, chekarmen ozor!

Sen noz ila bo‘l emdi xurram,
Ag‘yor-la dard chekay damodam!

Sen aysh aro komu xushdil,
Men hajr aro ma’lul-u mushkul.

O‘ldur mani o‘z aling bila, yor,
Dard ko‘rmasin allaring zinhor!

Qahr ila kechardim ushbu jondan,
Oh tortmadi qo‘l bu Notavondan!

* * *

Seni sevdim degan bejo, chinnigul!
Senga men oshiqi shaydo chinnigul!

Seni gulshan aro oshufta ko‘rdim,
Boshingga tushdi ne savdo, chinnigul?

Nega pajmurda hol birla turibsan?
Tushar gullar aro g‘avg‘o, chinnigul.

Darig‘okim, vafosizdur bu gulshan,
O‘char bu tal’ati zebo, chinnigul!

Yuzingdan pardai nozingni irg‘it,
Unutma yoringni aslo, chinnigul!

* * *

Falak rangina o‘xshar bu binafsha,
Tutub sahrolari har so‘ binafsha.

Nechun sen bu chaman tarkin qilursan,
Bo‘libsen cho‘llara diljo‘, binafsha.

Nechun qadding bukilmish pirlardek,
Ishingdir subh-u shom ohu, binafsha.

Seni shavq-u bahor oshufta qilmish,
Chekar oshiq eli qayg‘u, binafsha.

Tilar atring ko‘ngul bodi sabodin,
Ki zulfi yordek xushbo‘ binafsha.

BO‘LDIM

Ayo, Navvob, volai suxandon,
Yetishdi nomangiz, dilshod bo‘ldim,
G‘am-u dardim ziyoda erdi, ammo
Bihamdulloh, akun ozod bo‘ldim.

Sarosar she’ringiz az ro‘yi hikmat,
Sharhi mazmunlari mehr-u muhabbat,
Muhibga rahmat-u advonga zillat,
Bu shirin lahjaga mo‘tod bo‘ldim.

Sizga lutfi xudo bo‘lsin muroqib,
Ato qilsin mudom a’lo marotib.
Yetar badxoha gar alhobi soqib,
Xor o‘lsam-da gar, obod bo‘ldim.

Firoq ayyomidan cho‘x notavonam,
Alilam, noxusham, afsurda jonam.
Bu isyondan o‘zim ham badgumonam,
Magar g‘am tog‘ida Farhod bo‘ldim.

Darig‘ tutma duoda Notavonni,
Alilu, noxush-u afsurda jonni,
Janobidan sira yo‘qdir gumoni,
Agar yod etmasang, barbod bo‘ldim!

* * *

Na men o‘laydim, darig‘o, na’da bu olam o‘laydi,
Va na bu olam ichra dil muqayyadi g‘am o‘laydi.

Na hajr otashina qovrulib yonaydi dilim,
Na ishqing aro ko‘ngil buncha shod-xurram o‘laydi.

Na sarv qadding bo‘laydi, na sog‘inch ila ko‘zim ko‘r,
Na ro‘zgori firoqingda qomatim xam bo‘laydi.

Na bahr o‘laydi, na ummon, na buncha ko‘zlarim giryon,
Na gul ruxinda subhidam bu turfa shabnam o‘laydi.

Na gul o‘laydi, na gulzor-u gulshaning sori yo‘l,
Na tikan jabri, bulbul, saning-la mahkam o‘laydi.

Na chox o‘laydi, na zindon, na karvon safari,
Na Yusufni mubtalo ko‘rgan bir odam o‘laydi.

Na bazm-u suhbat, na bozori Yusuf savdosi,
Na rohguzarda Zulayho g‘am bila hamdam o‘laydi.

Na oh o‘laydi, na afsus, na pora-pora ko‘ngil,
Na bu Notavon sevgisi, yo rab darham o‘laydi.

MUNDARIJA

Mahsatiy Ganjaviy

Fors tilidan ***Oydin Xojiyeva,***
Ozarbayjon tilidan ***Shahlo Qosimova*** *tarjimalari*

Mahsatiy Ganjaviy. *(Jannat Nag'iyeva)* 4
Ruboiylar 6

Xoqoniy

Fors tilidan ***Alisher Sabriy, Ergash Ochilov*** *tarjimalari*

San'atda benazir, hikmatda beqiyos *(Ergash Ochilov)* 28
G'azallar 38
Masnaviy 43
Qit'alar 44
Ruboiylar 53
Parokanda she'rlardan 74

Imodiddin Nasimiy

Ozarbayjon tilidan ***Tohir Qahhor*** *tarjimalari*

Nasimiyning hayoti va ijodi 76
Foydalanilgan ayrim manbalar 87
G'azallar 88
"Jononni sevarman, buni bir..." 88
"Yiqdi ko'nglim shahrini, zabt ..." 88
"To'p qilib boshingni kir vahdat, ..." 89
"Tut safo jomini bizga, ..." 90
"Ayladim jonim fido shul dilbarim ..." 91
"Yo'qdir vafosi dunyaning, aldanma, ..." 91
"Ey yuzing "nasrun minallah", ..." 92
"Bu ne holatdir, ey turki ..." 93
"Nogahon ko'nglimga tushdi ..." 94
"Keldi navro'z, yangi ko'klam ..." 94
"Dardga duchor bo'lmaganlar ..." 95
"Bahor bo'ldi, kel, ey dilbar, ..." 96
"Dunyo turajak yer emas, ey jon, ..." 96
"Bu qanday qadd-u qomatdir, ..." 97
"Tushgach muanbar sunbuling ..." 98
"Chora yo'qdir yorga yetsam, ..." 99

"Bir shanba edi, uchradim ul ..." 100
"Sen o'zingga yor esang, qo'y, ..." 100
"Menga sensiz jahon-u jon ..." 101
"Sevganim sensan, bu ko'nglim ..." 102
"Anbarin zulfing, nigoro, bog'lamish ..." 103
"Ayriliq dardi, nigorim, borlig'im ..." 103
"Jamoling ravzayi rizvon ..." 104
"Assalom, xush kelding, ey dildor, ..." 105
"Xayolim sendadir doim, kel ey ..." 105
"Yorni sotding-ku bahosiz pulga, ..." 106
"Kishikim xojasi birlan g'animat tutsa ..." 106
"Assalom, insoni komil, ey bu jon ..." 107
"Kecha ko'rklik bir malak-la ..." 108
"Jamoling fitnasi tutdi jahonni, ..." 109
"Husnunga hayron erur hur-u malak, ..." 109
"Kel, bu damlar yaxshi o'tsin, o'tgan ..." 110
"Furqating dardindan, ey jon, bu yurak ..." 110
"Ey nigoro, garchi ko'zdan suvrating ..." 111
"Furqatingda, dilrabo, ko'nglim parishon ..." 112
"Oy yuzing mendan nihon etmoq tilarsan, ..." 113
"Dilrabo, men sendan ayru umru ..." 114
"Habibim, izzatim, jonim, jahonim! ..." 114
"To yuzing ko'rgach, nigoro, g'amdan ..." 115
"Manam ul tilsimi pinhon, bu jahonga ..." 115
"U pari lablarini chashmayi hayvon ..." 116
"Soqiyo, kel, ro'za ham bo'lmish ..." 117
"Tokim yuzingni ko'rmisham, husnunga ..." 117
"Menga sig'ar ikki jahon, men bu ..." 118
"Bu jonni tark etib, kechdim ..." 120
"Jon hamisha ul quyosh ruxsora ..." 120
"Dami Iso kelar dudog'indan, ..." 121
"Shaho, ko'ngling hamisha ..." 122
"Qayda u kunlarki, kechmish dilbari ..." 123
"Bu jahon murdordir, jirkan, ko'ngil, ..." 123
"Ey ko'ngil, yayrab quvon, mahbubi ..." 124
"Barcha makonni gavhari, gavhari ..." 124
"Kel, ey ko'nglimda jon, jonda ..." 125
"Kel, ey dilbar, bo'libdir qon ..." 126
"Ey yanog'ingdan hijil gul lolai humro ..." 126
"O'zni tiy, ey nafsi zolim, ..." 127
"Alloh-Alloh, na jon, na ..." 129
"Agarchi jondasan, jondan ..." 130
"Yondirar jonimni shavqing, ..." 131

"Shul pari vaslin tilarsan, ey ko'ngil, ..." 132
"Ayrildim, ey sendan habib, oh, ne qilay, ..." 133
"Vaslini kimki ko'rmadi, dard-u azob ..." 134
"Qani bir ahdi paymoni butun ..." 135
"Kim aytarki, yuzing gulnorga ..." 136
"Ey o'zindan bexabar, kel, bil Xudoni, ..." 136
"Mening yori vafodorim, ..." 137
"Har sahar vaqti g'arib bulbul ..." 138
"Sen ayirding yorni mendan, ..." 139
"Bu kun ul shoh chiroyi fikru dardim, ..." 140
"Ey musulmonlar, madad, yor endi pinhon ..." 140
"Subhidam ko'rdim, nigor ..." 141
"Yo darig'okim, jahonda yori ..." 142
"Naylaram men bunda, do'stlar, nozli ..." 142
"Har kishining so'rma aslin, izzatindan ..." 143
"Katta bayramdir yuzing, bayramda jon ..." 144
"Ahli iymon o'sha kun, voh, ..." 145
"Sen u zotga qullug' ayla, suhbatindan ..." 145
"Jamoling aksi, ey dilbar, ko'zi tushganni ..." 146
"Sening ishqingdir, ey dilbar, mening-chun ..." 146
"Yuzing oyi jahon bir donasidur, ..." 147
"Ey nasimi subhidam, billoh, shu ..." 147
"Dudog'ing qand emish, bol anda ..." 148
"Kel, kelki, sendan ayru mushtoqqa ..." 148
"Ey azaldan jon ila jononimiz, ..." 149
"Bil, meni bazmi azalda ayladi ..." 150
"Jamoling partavi nuri xudodir, ..." 151
"Shaho, ko'nglimda doim bir ..." 151
"Yuzing guldir, labing la'li ..." 152
"Sham'i falak husnunga parvonadir, ..." 152
"To ko'rdi quyosh oy yuzini, darbadar ..." 153
"Oy ishqi sen kabi barnoga ..." 154
"Jodu zulfin anbarafshon aylamish, ..." 154
"Haqiqat haqni bilmoqdir berib ..." 155
"So'fiyo, yonimga kel, mast ..." 155
"Jamolingdir bu bemorning shifosi, ..." 156
"Bu jonimdan chiqarmasman sening, ..." 156
"Dardchil etding sen meni, ey dardga ..." 157
"Tinglagil bu so'zni, bir jondir ..." 157
"Oy yuzingdan sharm etar olsang ..." 159
"Shaho, husning tajallisi bu tanda ..." 159
"Jamoling sirri "Qur'on" ..." 160
"Ummonga tushib, ishq ila durdonaga ..." 160

"Bu ko'nglim olgan ul sho'x, ko'zi ..." 161
"Tag'in fasli bahor bo'ldi, ko'kardi ..." 162
"Kel, ey tolib, meni ko'rki, jahonning ..." 162
"Butim, rahbonim-u dayrim, salibim, ..." 163
"Ey gulim, ey sunbulim, ey savsanim, ..." 163
"Yuzingda surati Rahmonni ko'rdim, ..." 164
"Shu turfa shamni ko'r, doim oqar ..." 165
"Habibo, furqating soldi ..." 165
"Jilvasi aldamchi, kirmasman buning ..." 166
"Xayoling diydayi giryona tushdi, ..." 166
"Lablaring qandini shakar dedilar, ..." 167
"Nafasi ahli dilin gavhari kondir, ..." 168

Mulla Panoh Voqif

Ozarbayjonchadan Mirtemir, Zulfiya, Shuhrat, Mirmuhsin, Jumaniyoz Jabborov, Shoislom Shomuhamedov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va Rustam Komilov tarjimalari

Voqifning hayoti va ijodi *(Hamid Arasli)* 170
Qo'shiqlar 184
"Bayram keldi, naylashimni ..." 184
"Ol kiyinib chiqsang gulshan ..." 185
"Sevdigim, lablaring yoqutga ..." 186
"Dimog'imga to'ldi zulfing ..." 187
"Sahar chog'i shavq qo'ynida ..." 187
"Yig'la, ko'zim, ayrilursan ..." 188
"Ey savsan, sunbulim, momiq ..." 188
"Sarv bo'ylim, birchiq, ko'ray ..." 189
"Sensan, ey nozanin, go'zallar ..." 190
"Soching zanjiriga ko'ngil ..." 191
"Lablaring g'uncha-yu tishlaring ..." 191
"Badaningni guldan yaratgan ..." 192
"Nega arazlading, ta'bi nozik ..." 193
"Bevafosan, sendan yuzim ..." 194
"Husning ko'z o'ngimdan ketgandan ..." 194
"Bir badani gul-u, dudog'i g'uncha, ..." 195
"Ey go'zal qiz, mendan olis ..." 196
"Ey yuzi gul, qaddi shamshod ..." 197
"Ko'p zamondir ayrilganmiz yor ..." 197
"Noma, yetkur, bo'lsang yorning ..." 198
"Endi bo'lak o'lsam orzu chekmasman, ..." 199
"Ey malakruxsorim, to'bo bo'yli yor, ..." 199

"Keltirib safolar, buyurding ..." 200
"Bir fitna fe'llining, yuzi ..." 201
"Qadam bosding, sen safolar ..." 201
"Darding meni sarg'aytirdi ..." 202
"Meni g'arq aylading g'am ..." 203
"Ey oppoq gardanli, dur ..." 204
"To'ychilar, sizlarga fido jonginam, ..." 204
"Ko'z qoldi yo'llarda, jon intizorda, ..." 205
"Men sening husningga maftun ..." 206
"Yorim bo'lsang kel, qo'lingni ..." 207
"Ey jonim jallodi, umrim ..." 208
"Har yetuk go'zalni go'zal ..." 208
"Gul-atir na fasli yordan ..." 209
"Do'stim, tezda menga yordan ..." 210
"Nima qildim, mendan yuzing ..." 211
"Ajdarga o'xshatdim soching ..." 212
"U go'zal jononlar haydar ..." 213
"Egib diqaddimni, tilib ..." 213
"Ko'zlaring jalloddir, boqishing ..." 214
G'azallar 215
"Har kishin jononikim, bir ahli... " 215
"Riyo-yu kibr-u kizbu buxl o'lur noyob ..." 215
"Vidodiydan kelib maktub meni farxun ..." 216
"Zulfidek tarqoq xayolim misli anbar ..." 216
"Ey guli xandon, firoqingda sening ..." 217
"Seviklim, bu nazokatda guli ranodan ..." 217
"Ey Vidodiy, gardishi davroni kaj ..." 218
"Barcha ketgan keldi-yu ul g'am ..." 218
"Ey ko'zim, qutlug'-u tabrik, keldi ..." 219
"Siymi zaqaning zulfi parishon ..." 219
Muxammaslar 220
Mustazod 224
O'nliklar 226
Aytishuv 230

Hayron Xonim

"Devon"dan parchalar

Ozarbayjon va fors tillaridan ***Oydin Hojiyeva*** *tarjimalari*

Hayron xonimning hayoti va ijodi. *(Jannat Nag'iyeva)* 6
G'azallar 238
"Bir nazar la'li labi jonona ayla, ..." 238
"Ko'nglum qushi ul zulfi parishon ..." 239

"Labingni moyai jon yaratmish ..." 238
"Zulfini chun oraza ul moh parishon ..." 240
"Dardimga chora yo'qdir la'li dutodin ..." 240
"Ochildi subh ro'ying, shom ..." 241
"Bir bulbul edim, etdi ..." 242
"Yorim, manga ayla bir ..." 242
"G'ami yo'qdir kishining yori ..." 243
"Bu — men sargashtayu ovora ..." 243
"Ey bodi sabo, sayri guzar ..." 244
"Ajab ko'zdan yiroq bir jonam, ..." 244
"Bo'libdir g'am saroyi shod ko'rganing, ..." 245
"Bir noma yozay, bodi sabo yora ..." 246
"Bo'ying sarvi sihi, zulfing ..." 247
"Firoqing qalbimizda kor ..." 248
"Bilursen, yoringni bir yori ..." 248
"Xurshidi tobon bo'lmish namoyon, ..." 249
"U moh oraza chun zulfi mushkining ..." 249
"Sabo zulfin to'zitdi, jumla olam ..." 250
"Yorning labi, ko'r, la'li badaxshonidan ..." 250
"Ey sitamgar mani rasvoyi jahon ..." 251
"Qil tamosho ko'zum, ul sarvi ..." 253
"Jon zora kelur, toki u jonona ..." 254
"Go'zal yorim, ruxingdan ol ..." 255
"Ey, falak dardu g'amim sharhini ..." 255
"Bu na ruxsori zebodir, bu na zulfi ..." 256
"Zulfing pechi ochilsa ajoyib kamand ..." 257
"Xunxor chashming ohui dashti ..." 257
"Ishqi ruhi jononki, na tug'yon ..." 258
"Ishqing, ey sho'x, bu dili ..." 259
"Yetib mujdayi xonbaxshki, jonon ..." 259
"Dilim bir bulbuli beoshiyondur, ..." 260
"Ey, charx, mani ohu shararborima ..." 261
"Marhabo, etmish tulu' go'yo zaminda, ..." 262
"Ketar aqlim boshimdan orazi ruxsorini ..." 262
Forscha g'azallardan tarjimalar 264
"Urdi bu dahr aro bu falak pushti ..." 264
"Arzi holimni ayting o'shul jononamizga, ..." 264
"Ey, murg'i Sulaymoni, uchgil-da ..." 265
"Ja'mi mohro' qatorinda o'zing ..." 266
"Bir oy yuzli ilinjida nigohim bor, ..." 267
"Nasim essa agar ko'yingdan, ..." 268
"Yuzlaring oydir sening nuri daraxshondin ..." 268
"Ikki ko'zim ko'p xumordir, ..." 269

"Ey, sorbon, rahm aylagil kim manga, ..." 269
"Naylayin bo'ldim yana yordan ..." 270
Shir-u shakar g'azallar 271
"Ey, do'st, baman bikun ..." 271
"Ey, bodi sahargohi, ey abri ..." 271
"Ey, jumla faqirlar panohi ..." 272
"Ishqingda ne zor-u g'amgin ..." 273
"Ey mehtari behtari zamon, ..." 273
"Chun bulbulamu dar oshiyona ..." 274
Muxammas 275
Tarji'band 277

Xurshidbonu Notavon

Ozarbayjon tilidan ***Oydin Hojiyeva*** *tarjimalari*

Xurshidbonu Notavonning hayoti va ijodi. 282
G'azallar 283
"O'zini ishq oloviga urib dilshod ..." 283
"Bu dardim bilguvchi yo'qdir bu holatda, ..." 283
"Ko'ngil qonin ko'zumdan novaki ..." 284
"Sho'ri ishqing boshima oxiyri savdo ..." 285
"Sahargoh nogahon ko'rdim dili zorim ..." 286
"Kezardim bog'-u gulshanni, parishon ..." 286
"Davot o'lsa agar daryo, daraxtlar gar ..." 287
"Ey, guli savsan, seni bir notavon ..." 287
"Hijron bilakim domani g'am ..." 288
"O'tibdur mavsumi gul, ketdi navbahor, ..." 288
"Kajravishdir bu davron, afsus. ..." 289
"Menga do'zaxdan yomondir azizim, ..." 290
"Agar hushdur manga atri bila ..." 291
"Yana yo Rab, ne g'amgindur manim ..." 291
"Bo'lmisham dahri balo ichra bu kun ..." 292
"Murod nedur, falak etmas imtihon ..." 293
"Kel, rahm qil endi, ..." 293
"Seni sevdim degan bejo, ..." 294
"Falak rangina o'xshar bu ..." 294
Bo'ldim 295
"Na men o'laydim, darig'o, na'da ..." 296

Z 30 Zamonidan o‘zganlar [Matn]: nazm/to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Tohir Qahhor. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 304 b.
ISBN 978-9943-8725-4-7

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84(5Ozar)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

ZAMONIDAN O‘ZGANLAR

57-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo‘jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 14,84.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 124-1/22. Buyurtma raqami № 22-340

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ZAMONIDAN O‘ZGANLAR